



*Nilufar ABDURAXMONOVA,*

*O'zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasini mudiri, f.f.d., professor*

*E-mail: n.abduraxmonova@nuu.uz*

*Karomat RAJABOVA,*

*O'zMU Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti*

*Zilola RO'ZIYEVA,*

*O'zMU magistratura bo'limi uslubchisi*

*O'zMU professori Z.Taxirov taqrizi asosida*

### KORPUS QIDIRUV MENEJERI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola konkordans terminining tarixiy rivojlanishi va lingvistik korpus tahlili uchun yaratilgan dasturiy instrumentariylar haqida ma'lumot beradi. Konkordansning dastlabki qo'l mehnatidan avtomatlashtirilgan versiyalarga o'tish jarayoni, Roberto Busa va Birmingham universiteti tomonidan ishlab chiqilgan dastlabki instrumentlardan boshlab, hozirgi zamonaviy konkordans instrumentlarigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari muhokama qilinadi. Korpus lingvistikasida keng qo'llaniladigan dasturlar va ularning funksiyalari haqida batafsil tahlil keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Konkordans, korpus menejeri, korpus, lingvistik instrumentariy.

### AS CORPS SEARCH MANAGER

Annotation

This article describes the historical development of the term concordance and the software tools developed for linguistic corpus analysis. The progression of the concordance from the original handwork to automated versions is discussed, from the early instruments developed by Roberto Busa and the University of Birmingham to the modern concordance instruments of today. A detailed analysis of commonly used programs in corpus linguistics and their functions is provided.

**Key words:** Concordance, corpus manager, corpus, linguistic instrument.

### МЕНЕДЖЕР ПО КОРПУСНОМУ ПОИСКУ

Аннотация

В данной статье описывается историческое развитие термина конкорданс и программные средства, разработанные для анализа лингвистического корпуса. Обсуждается развитие симфонии от оригинальной ручной работы к автоматизированным версиям, от ранних инструментов, разработанных Роберто Бузой и Бирмингемским университетом, до современных инструментов конкорданса. Приведен подробный анализ часто используемых программ в корпусной лингвистике и их функций.

**Ключевые слова:** Конкорданс, корпус-менеджер, корпус, лингвистический инструмент.

**Kirish.** Ilmiy manbalarda konkordans termini bilan bog'liq qiziq asoslar uchraydi. Chunonchi, 1230-yilda lotin vulgat Bibliyasi uchun ilk bor qo'l mehnati orqali konkordans yaratilganligi qayd etiladi. Korpus tahlili uchun dasturiy instrumentariysini yaratish Roberto Busa tomonidan taklif etilgan bo'lib, dastlabki konkordanser (1951) instrumenti shu olim nomi bilan tilga olinadi. Biroq bu texnologiya ham to'liq kompyuterlashtirilmagan edi. Dastlabki avtomatik ravishda ishlovchi konkordanser Birmingham universitetida CLOC korpusi uchun yaratilgan (1978, Reed).

Konkordansning 2-avlodi dunyo bo'ylab bir turdagi IBMning shaxsiy kompyuterlar ommaviylashgandan keyin foydalanish imkoniyati yaratildi [Tony McErery, Andrew Hardie, 2010]. Bu kabi kompyuterlarga konkordanser yozish imkoniyati kengaydi.

Korpus lingvistikasi 1980-yillarning oxirida juda tezlik bilan rivojlana boshladi. Natijada konkordans instrumentlari sifatida Kaye konkordanser (Kaye 1990), the Longman Mini-Konkordanser (Chandler 1989) va Micro-OCF (Hockey 1988) kabilar yaratildi. 1-avlodga nisbatan 2-avlod konkordans turlari avvalgi turlarning kamchiliklarini bartaraf etib, qidirilayotgan so'zni o'z va chap tomondan alifbo tarzda

tartiblash hamda olingna natijani statistic ma'lumot sifatida hisoblash imkoniyati yaratildi.

3-avlod konkordansi WordSmith (Scott 1996), MonoConc (Barlow 2000), AntConc (Anthony 2005) va Xaira kabilar. XML format kabi standart formatlarni konkordansga moslashtirilganligi va UNICODE kodlash tizimi joriy etilgani ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu avlod konkordanslar turli jihatlari bilan bir-biriga o'xshash bo'lib, har birida konkordans, chastotali lug'at, kollokatsiya hamda kalit so'zlar tahlili asosi instrumentariy hisoblanadi. Ushbu instrumentariylar korpusdagi matnlarni muayyan so'rovga ko'ra hisoblaydi (so'zlar chastotasi ro'yxati) hamda qidirilayotgan terminning barcha namunalarini (konkordans) ko'rsatadi. Yuqorida nomlari qayd etilgan instrumentariylar bir-biridan muayyan funksional imkoniyatlariga ko'ra farqlanadi. Masalan, Xaira konkordans WordSmith va AntConcga nisbatan solishtirganda kalit so'zlarni hisoblash uchun instrumentariy mavjud emas, lekin XML elementlari (annotatsiya, metama'lumot) bo'yicha qidiruvni amalga oshira oladi. Korpusdagi so'zlarni (n-gram) ketma-ketlikda berishda bir-biridan farq qiladi [Tony McErery, Andrew Hardie, 2010].

N	Concordance	File	Date	%
1	bosom of the air. O Romeo, Romeo! wherefore art thou Romeo? Deny thy	Romeo And Juli	1594	27%
2	it not a sin. Why, how now, kinsman! wherefore storm you so? Uncle, this	Romeo And Juli	1594	21%
3	How cam'st thou hither, tell me, and wherefore? The orchard walls are high	Romeo And Juli	1594	28%
4	three-hours wife, have mangled it? But, wherefore, villain, didst thou kill my	Romeo And Juli	1594	56%
5	slain my husband: All this is comfort, wherefore weep I then? Some word	Romeo And Juli	1594	56%

1-rasm

“Romeo va Juliyetta” asaridagi wherefore so‘zining konkordans bo‘yicha statistik ma‘lumoti [https://lexically.net/wordsmith/step\_by\_step8/English/overviewofconcord.html] Endilikda konkordans funksiyasiga ega bo‘lgan lingvistik korpus instrumentlarni soni miqdor jihatdan oshgan [https://corpus-analysis.com/tag/concordancer]: aConCorde (ingliz va arab tillari uchun konkordans), AntConc, AntPConc (parallel korpuslar uchun konkordans), BFSUParaConc (parallel konkordans), BFSUPowerConc, BNCWeb (Britaniya milliy korpusidan olingan grammatik va tekstual, leksik ma‘lumotlarni qayta ishlash va qidirish uchun webga asoslangan kliyent dasturi), buzz (pitonga asoslangan lingvistik tahlil instrumentariysi), CasualConc (MacOS uchun), CliC, Collocate, Concordance Randomizer, Concordancer, CorpKit, Corpus presenter, gwic, HeidelGram Web-based tools, IMS Corpus Workbench, KAT tool, KWords, Lestutor web concordancers, MLCT (korpus yaratish

va uni qayta ishlash uchun instrumentariyi), MonoConcEsy, OpenConc, ParaConc (bilingual/multilingual konkordanser), PhraseContext, Praaline, PyXMLConc, Shinycon, Simple Concordance program, Sketch engine, Text Analysis Computing Tools (TACT), Textanz, TextSTAT, The Prime Machine, The simple Corpus tool, The SPAADIA concordance, The text feature analyzer, WordWander, WordCruncher.

Korpusga asoslangan tadqiqotlarning asosiy lingvistik instrumentariysi bu konkordans hisoblanadi. Konkordans foydalanuvchiga korpusdagi kerakli ma‘lumotni muayyan uzunlikda so‘z, so‘z qismi (morfem bo‘lak) yoki fraza shaklida qidirish imkonini beradi. Olingan natija bir qator trazida berilib, keyin topilgan natija uning tagidan, ya‘ni vertikal shaklda ekranda namoyon bo‘ladi <http://uzbekcorpus.uz/> elektron korpusida konkordans bo‘yicha qidirish:

USLUB DAVR TOMON GRAMM English Русский O'z

bola

IZLASH TOZALASH

46 ta hujjatda 936 ta so‘z uchradi.

Gafur Gulom «Shum bola» 1966	boyvachchalar“, degani hali ham qulog‘imdan Biz yalangoyoq, bo‘z ko‘ylak- ishtonli, kir-chir	bolalar	to‘tiqa – To‘ti, – To‘ti, to‘ti... – deb qichqirar edik. Asra kal...ko‘proq...
Gafur Gulom «Shum bola» 1966	To‘ti bo‘lsa –Buvingni... – deb Bozorda sang‘ib yurgan biz daydi	bolalar	uchun quvunch li ermaklardan biri bozor, mahalla, ko‘cha-ko‘y jinnilari edi. ...ko‘proq...
Gafur Gulom «Shum bola» 1966	ko‘payib ketganidan keyin bo‘z o‘tmay qolib, bozori kasodga uchrab,	bola-chaqasini	boqolmay, jinni bo‘lib qolibdi, deb Eshon oyi degan xotin ham ...ko‘proq...
Gafur Gulom «Shum bola» 1966	ko‘chaning o‘ng, chap tomonidagi pastqam, tor ko‘chalarda o‘g‘il va qiz	bolalar	to‘planib, har xil o‘yinlar o‘ynaymiz. Kurash, “botmon-botmon”, “oq terakmi-ko‘k terak”, ...ko‘proq...

2-rasm

Korpus menejeri bo‘yicha tatar tilida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma‘lumotlar tahlil qilsak. Tatar tili korpus [http://tugantel.tatar] menejeri uchun MVC (Model-View-Controller) konsepsiyasi qo‘llangan. Tizim faoliyati asosiy boshqaruvchi (MainControl) orqali so‘rov (Request)dan boshlanadi. Dastlab, asosiy boshqaruvchi ShieldModel komponenti yordamida xavfsizlikni ta‘minlaydi, so‘ng obyekt tartibi (Queue)dan foydalaniladi. Agar Shield Model so‘rov xavfsiz deb hisoblasa, keying navbatni so‘ralayotgan vazifa bilan bog‘liq ravishda maxsus boshqaruvchiga o‘tkazadi. Maxsus tuzilmada 6 turdagi maxsus boshqaruv tizimi mavjud: statistik sahifadagi xulosa uchun SinglePageControl, qidiruv so‘rovini qayta ishlash uchun Search Control, kontekst kengaytmasi uchun Context Control, statistik sahifalarni boshqarish uchun SinglePageEditControl, statistik tizimlarni ko‘rish uchun StatisticsControl, korpus ma‘lumotlarni boshqarish uchun DataManagementControl, xavfsizlik sozlamasini boshqarish uchun SecurityControl. Dastlabki uch boshqaruv tuzilmasi foydalanuvchilar uchun bo‘lganlar AdminControl tomonidan boshqariladi. PageControl va AdminControl birgalikda yordamchi RequestControl boshqaruvchidan foydalanadi.

Manbalarda [Pavel Rychly Manatee/Bonito,2007] korpusning ideal menejeri uchun quyidagilardan iborat bo‘lishi lozimligini qayd etishadi:

Matn tayyorlash – turli formatlardan konvertlash, kodlash;

Metama‘lumot boshqaruvi – berilganlar manbasi, muallifi, mavzusi, janri haqida ma‘lumotlarni integratsiya qilish;

Tokenizatsiya – alohida birlik, so‘zni aniqlash;

Korpus annotatsiyasi – morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik darajada qo‘l mehnati yoki avtomatik usulda teglash;

Yetarli korpus bazasi – barcha ma‘lumotlar bazasini tez qidirishi uchun tuzilmasini loyihalash;

Konkordanslash – foydalanuvchi so‘roviga binoan matndagi tegishli so‘z o‘ramlarni qayta ishlash;

Statistikani hisoblash – topilgan statistik ma‘lumotni turli belgilarga ko‘ra maxsus maza so‘rovi uchun qidirish.

Korpus manajment tizimi Manatee [wide Petr Sojka, Aleš Horák,2007] katta korpus ma‘lumotlaridan leksik statistikani hisoblash uchun yaratilgan platforma hisoblanadi. Ushbu tizim modulyar yondashuv asosida shakllantirilgan.

Indekslarni olish, yaratish va siqish uchun maxsus indekslar kutubxonasi, analizator so'rovi, so'rovlar bilan turli operatsiyalar uchun sinflar bilan baholash so'rovlari, sintaktik analiz uchun sintaktik daraxt kabi modullardan tashkil topgan. Manatee tizimi FinLib - matnli indekslash kutubxonasi so'zlarni qisish, invertlashgan indekslar asosidagi korpus ma'lumotlari uchun qidiruv protsedurasi va strukturlarni taqdim etadi. Tizim tashqi tokenizator yoki oddiy ichki tahlil asosida ishlaydi. Har bir token uchun lingvistik ma'lumotlar (POS yoki so'zning bosh shakli)ni hamda matndagi struktur annotatsiyani (gap chegarasi, satr boshi yoki hujjat, ot yoki fe'l) taqdim qiladi. Funktsiya har bir token uchun dinamik atributlarning ma'nosini qanday hisoblashni aniqlaydi. Dinamik atributlardan foydalanishning uch turi mavjud:

1) teg atributlarini o'tkazish (teglar kodining to'liq tavsifini ifodalash);

2) atributlarning ayrim ma'lumotlarini saralash;

3) tashqi manbalar ma'lumotlarini bog'lash (masalan, tezaurus ma'lumotlar bazasi yoki morfologik analizator).

Tanlab olingan atributlar bir ma'noli bo'lmasa, atribut ko'p ma'noga ega bo'ladi. Foydalanuvchi shu kabi tokenni topish uchun mos keluvchi ma'nodan birini olish mumkin bo'ladi.

Ushbu tizim xalqaro tillarga standartlashtirilgan bo'lib, UNICODE UTF-8 kodiga tegishli turli belgilardan iborat matn ma'lumotlarni o'qiy oladi.

Bonito klient/server arxitekturasidan foydalanadi. Klient internet orqali (TCP/IP) serverga bog'laydi. Agar

internetsiz bo'lmasa, shaxsiy kompyuter lokal diskiga korpus ma'lumotlari yuklanadi. Korpusning so'rov natijalari berilgan so'rovga mos ravishda korpusdagi barcha holatlarni konkordans ro'yxati bo'lib hisoblanadi. Konkordans ro'yxati KWIK (Key Word(s) In Context) formatda ko'rinadi. Qidirilayotgan so'zlar ustma-ust shaklda ekranda namoyon bo'ladi. Konkordans ro'yxati ba'zida konkordans bo'lib qisqartiriladi. Bonitoning markaziy obyekti bu konkordansdir.

S.Y. Toldova quyidagi lingvistik masalalarni hal qilishda konkordanslardan foydalanish mumkinligini qayd etadi :[<http://www.lomonosovfund.ru/>]

u yoki bu so'zning turli foydalanish imkoniyatlari solishtirish;

kalit so'zlarni analiz qilish;

so'z va so'z birikmalarining chastotatsini o'rganish;


iboralarni qidirish va tadqiq qilish;

terminologiyani tarjima qilish;


so'zlar ro'yxatini yaratish

Konkordanslardan foydalanish tilni xorijiy til sifatida o'qitishni avtomatlashtirishda (CALL – Computer Assisted Language Learning) ham faol qo'llanadi. Konkordans orqali u yoki bu so'zning o'zidan oldingi va keyingi so'zlar qurshovi orqali semantik munosabatlarini tahlil qilish imkoni yaratiladi.

CONCORDANCE.dasturiy ilovasi mustaqil ma'no anglatmaydigan so'zlarni (StopList) dastur ta'minotiga kiritish va tahrirlash mumkin.




3-rasm



4-rasm

O'zbek tili elektron korpusi [<http://uzbekcorpus.uz/>] orqali konkordans instrumenti orqali u yoki bu so'zning n-gram bo'yicha so'z qurshovini aniqlash mumkin:



**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, konkordans tahlili korpusdagi matnlarni so'zlar, so'z qismlari yoki frazalar shaklida qidirish imkonini beradi va natijani vertikal shaklda taqdim etadi. Korpus menejerlari, masalan, Tatar tili korpusi uchun MVC konsepsiyasida ishlab chiqilgan. Korpus menejment tizimi, Manatee, lingvistik statistikani hisoblash uchun yaratilgan va xalqaro tillarga moslashtirilgan.

Konkordanslar tilni o'rganishda, kalit so'zlarni analiz qilishda, iboralarni qidirish va tadqiq qilishda keng qo'llaniladi. O'zbek tili elektron korpusida konkordans instrumenti orqali so'z qurshovini aniqlash mumkin. Konkordanslar tilni xorijiy til sifatida o'qitishda ham faol qo'llaniladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Rychlý, P.: Corpus managers and their effective implementation. Ph.D. thesis, Faculty of Informatics, Masaryk University (2000).
2. Yergeau, F.: RFC2279: UTF-8, a transformation format of ISO 10646. Internet RFCs (1998).
3. Schulze, B.M., Christ, O.: The CQP User's Manual. (1996).
3. Kilgarriff, A., Rychlý, P., Smrž, P., Tugwell, D.: The Sketch Engine. Proceedings of Euralex (2004) 105–116.
4. Tony McEnery and Richard Xiao. What Corpora Offer in Language Teaching and Learning. 2010. – 364-373.
5. Eric D. Brill. A Corpus-Based Approach to Language Learning". 1993. – B. 1, 29, 133.
6. Abdurakhmonova N., Urdishev Q. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language// Journal of foreign language teaching and applied linguistics, 2019
7. Abdurakhmonova N., Hayrullayeva G., Urdishev Q. Using A Corpus For Teaching Synonymy // In Uzbek Электронная письменность народов российской федерации: опыт, проблемы и перспективы Материалы II Международной научной конференции (Уфа, 11–12 декабря 2019 г.) Russian, Ufa



UDK: 81.1(2).

*Yo‘ldosh ABDURAHMONOV,*

*PhD student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature*

*Based on the review by M.Y. Bakhtiyorov associate professor of UzDJTU, PhD*

### PROBLEMS OF TRANSLATION OF MEDICAL TERMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

This article offers a general overview of the major issues in medical lexicon and terminology. It also discusses certain characteristic features of medical language: terminology, including eponyms and multi-word terms, affixation, word compounding, the doublet phenomenon, polysemy and synonymy. Translating for lay-readers and professional audiences is the next issue presented in this article. Considerable attention is devoted to problems in translating medical texts, and other issues, such as qualifications of medical translators, verification and review.

**Key words:** Affixes, accuracy, acronyms, translation error, medical terminology, medical translation.

### ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ НА УЗБЕКСКИЙ И АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация

В этой статье представлен общий обзор основных проблем медицинской лексики и терминологии. В ней также обсуждаются некоторые характерные черты медицинского языка: терминология, включая эпонимы и термины из нескольких слов, аффиксация, составление слов, феномен дублета, полисемия и синонимия. Следующим вопросом, представленным в этой статье, является перевод для непрофессионалов и профессиональной аудитории. Значительное внимание уделяется проблемам перевода медицинских текстов и другим вопросам, таким как квалификация медицинских переводчиков, проверка и рецензирование.

**Ключевые слова:** Аффиксы, точность, аббревиатуры, ошибка перевода, медицинская терминология, медицинский перевод.

### TIBBIYOTGA OID SO‘ZLARNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiy lug‘at va terminologiyaning asosiy masalalari haqida umumiy ma‘lumot berilgan. Shuningdek, u tibbiyot tilining ba‘zi muhim jihatlari: atamashunoslik, jumladan, eponim va ko‘p so‘zli atamalar, affiksatsiya, birikma, dublet hodisasi, polisemiya va sinonimiya haqida gapiradi. Ushbu maqolada keltirilgan navbatdagi masala oddiy va professional auditoriya uchun tarjimadir. Tibbiyot matnlarini tarjima qilish muammolari va tibbiy tarjimonlarning malakasi, tekshirish va ko‘rib chiqish kabi boshqa masalalarga katta e‘tibor qaratilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Affikslar, aniqlik, qisqartmalar, tarjima xatosi, tibbiy terminologiya, tibbiy tarjima.

**Introduction.** The term "medical lexicon" refers to a wide range of topics, including pharmacology, internal medicine, surgery, obstetrics, pediatrics, psychiatry, oncology, cardiology, and other specializations, in addition to other fields like law and organization. Interpretation could play a big role in the dissemination of knowledge and contemporary disclosures in the medical community as a whole [1]. Medical interpretation is not limited to a certain class or discourse.

**Literature review.** In today’s world, our surroundings are full with science, so that, translation is an essential, troublesome and undertaking process, and this action requires deep comprehension which translators most commonly come across and do not understand the meaning of text. Dr. Miremadi divided the problem into two main categories: lexical problems and syntactic problems (“Theory and practice of translation” – M.T. Iriskulov – p 31.).

Technical, scientific, legal and medical fields often have complex terminology that requires translators with specialized knowledge. Precision is crucial in these contexts to avoid errors that could have serious consequences. That’s why translator should know the academic and scientific terms and phrases, the meanings of ordinary words while they come with terms in this process.

Not being aware of that kind of words or not understanding the academic text will cause the lexical problem in translation. Besides, a translator of medical texts must be clearly focused on the topic, be able to reliably identify

ambiguous terms and expressions (not forgetting the existence of “false friends of the translator”) and correctly determine their interpretation.

One aspect of using medical terminology is fluency in the topographical symbols, planes and axes used to describe morphology, as well as knowledge of the International Anatomical Nomenclature. Medical translation, particularly in specialized fields like dentistry, requires a deep understanding of both the subject matter and the linguistic nuances involved. I did a research on medical texts and find some examples depend on dentistry. What are the wisdom teeth?

Wisdom teeth are upper and lower third molars, located at the very back of the mouth. They are called wisdom teeth because usually they come in when a person is between age 17 and 21 or older enough to have gained some “wisdom”.

In the text, underlined word come in means to enter somewhere. If we translate that sentence such as:

Ular aql tishi deb atalishlariga sabab, bu tishlar, odatda, inson 17 va 21 yosh oralig‘ida bo‘lganda yoki aql kiradigan darajada yetarlicha ulga‘ygan kiradi.

There is fault in translation, because if it is translated like that, people may come across misunderstanding the text. Instead of translating the word “come in” – kirmoq, it’s better to say “chiqmoq”. There is appropriate translation of this sentence: Ular aql tishi deb atalishlariga sabab, bu tishlar odatda inson 17 va 21 yosh oralig‘ida bo‘lganda yoki aql

kiradigan darajada yetarlicha ulga'yganda chiqadi. We chose the word "chiqmoq" instead of "kirmoq". The reason for this, teeth do not enter somewhere, they are in our mouth, but they come up breaking partway through gums.

Another example which explored for translating terms in the text is that:

Experts say that healthy coping strategies can help reduce the risk of gum problems getting worse. Healthy coping strategy's literal translation is – sog'lom ko'chirish

tamoyillari/strategiyalari. But it is not true translation, because it means behaviors that can set you up for success. Sometimes translation requires to adapt to the target text or find equivalences of phrases in target language. So while we translating this sentence, we use the adaptation method of translation to give better version. Translation of this, be like that:

Ekspertlar sog'lom turmush tarziga rioya qilish milk bilan bog'liq muammolarni yomonlashish xavfini kamaytirishini aytishdi.

Effective translation goes beyond words; it requires understanding cultural nuances, idioms, and context. Failing to

Table 1. Example of syntactic shifts (phrase change)

Source	Target
Urazy oczodołu stanowią trudny problem diagnostyczny i terapeutyczny a ich liczba wciąż rośnie pomimo stosowania wielu, różnorodnych sposobów zabezpieczenia głowy.	Orbital injuries represent a difficult diagnostic and medical problem and their number is still growing despite the use of a great variety of head protection means.

**Analysis and results.** Arnold states more precisely that "attaches can also allude to the meaning of the entire term or the portion of discourse—not as it were terms but too portion of the words." Because each prefix and postfix has a

Table 2. Denotation of prefixes and suffixes

Prefixes	Suffixes
A-/An- not, without, less- teskari, qarshi Ad- to, toward – nisbatan Aer- air – havo orqali Amb- both- har ikkisi Auto- self- oz'-o' zidan Bi- twice- ikkita Cata – down, back- tashqari, ortida Ceptal- the hear, boshgaoid Con- together, birga Cyto- cell, hujayraga oid Derma- skin- teriga oid Di – two, twice, ikkita Dys – bad, abnormal, yomon, teskari	-aceous- resembling, oxshash -aemia – blood, qonga oid -aesthesia – sensation, ta' sir etish -cardial – heart, yurakka oid -cide – causing death, halokatli -dynia – pain, og'riqli -ectomy – surgery excision, jahhorliko' tkazilayotkanqism -genic – the capacity to produce, moyillik

The affixation prepare isn't only common within the lexis of principal medical English (come up short – disappointment, relate – relationship/correlation - irrelevant, characterize – definition – indistinct, make strides – improvement) – it is additionally watched in specialized phrasing [5]. What is particularly characteristic of specialized phrasing is the utilize of Latin and Greek joins (e.g. prefixes: all(o) –another, distinctive, adip(o) – greasy, carni(o) – of the head, onco- relating to cancer, hyper – over the top, hypo –

Table 3. Multi-word terms

Polish term	English term
zakrzepowe zapalenie żył zapalenie miedańków tyreotropina, TSH mięsak prążkowanokomórkowy	Thrombophebitis Tonsillitis thyroid-stimulating hormone (TSH), thyrotopin rhabdomyosarcoma (RMS)

Recognizing multi-word terms as single translation units is therefore one of the crucial skills of medical translators.

Polysemy and synonymy

Wanted as they may be, these highlights are not continuously display in restorative wording, whose terms are, to a certain degree, polysemous, and – in some cases – synonymous. The illustrations of polysemous terms incorporate: Aggravation- a physiological work, a clinical

capture these subtleties can lead to misunderstandings or misinterpretations. Translators must be well-versed in both languages and cultural contexts to ensure accurate communication. Even the best translations can fail when trying to interpret phrases and concepts that have no underlying cultural equivalent.

**Research Methodology.** According to Salager-Meyer, there are three key components of essential medical English (FME): word compounding, affixation, and the doublet marvel. FME frequently uses complex apparent terms, such as "differentiate medium," "quiet security," and "heart disappointment" [3]. Thus, syntactic changes (state -alter) may be included in the planning of a utilitarian medical interpretation that uses reasonably regular dialect. they shifts are predicated on two bolded expressions that the extricate finds below; if they were strictly interpreted, they would create the taking after prepositional expressions within the target units, separately: orbital injuries and head protection mechanisms.

connotative meaning of its own. Clear comprehension of each term may result from familiarity with the fastens' cognition [1].

inadequately, postfixes: - itis – inflammation, - algia – torment, -lepsy – assault, seizure, -logy – the information of something), and the self-evident correspondences between additions, roots etc. and the meaning of the term. Clean medical phrasing is additionally intensely based on Latin and Greek joins, other than borrowings and clear terms [2]. The contrasts in affixation between terms in different dialects lead to the contrasts in semantic conveyance watched in sets of comparing terms, with a multi-word term in one language:

condition, a determination, all of which are communicated with Clean zapalenie ; arm- a structure, a locale (PL: ramię) or a ponder gather in a clinical trial(PL: grupa badana); release-emission (PL: wyciek) or discharge from healing center (PL: wypis); opuszka- fingertip (finger mash) or (aortic) bulb; badanie- a test, a trial or an examination [4].

**Conclusion.** In conclusion, knowing medical terminology is effective communication, accuracy in diagnosis, and teaching and training health care staff. Overall,

lexico-semantic features of medical terminology among translators of both source and target languages requires in-depth knowledge and thorough knowledge of medical concepts and terminology. This is necessary to ensure accurate and culturally sensitive translations in the medical field. Therefore, translators should know the pivotal role of translation in a multilingual society. Thus, using different methods while translating, understanding the main meaning of a context, knowing cultural borders and differences, and being aware of phraseological units in both the source and target language are the main aspects of translation. Having

knowledge and experience prevents misunderstandings that appear during the translation process and promotes opening the language's real capability.

This article could be a brief diagram of restorative translation-specific issues instead of an exhaustive presentation of all the issues in detail. Therapeutic interpretation could be a complex and curiously marvel in which etymological, sociocultural, scientific, financial and other variables are at play. That is probably why multidisciplinary approach is so useful in approaching medical translation in research.

#### REFERENCES

1. Arnold I.V. The English Word. Moscow, 1990.
2. Fischbach H., 1986 "Some Anatomical and Physiological Aspects of Medical Translation". Meta. 31:16-21.
3. Gotti M., Salager-Meyer F. (eds), 2006 Advances in Medical Discourse Analysis: Oral and Written Contexts. Peter Lang.
4. Montalt V.R., González-Davies M., 2007. Medical Translation Step by Step, Manchester, UK & Kinderhook (NY), USA: St. Jerome Publishing.
5. Pöchhancker F., Shlesinger M. (eds.), 2007 Healthcare Interpreting: Discourse and Interaction. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.
6. "Theory and practice of translation" – M.T. Iriskulov, N.M. Kambarov, K.D. Tukhtaeva. Tashkent – 2020.
7. "Translation of Terminology" – I.M. Tuxtasinov, G.P. Kurbanazarova, S.N. Sultanova – "Yangi asr avlodi" – Toshkent – 2020.
8. Lejchik, V.M. terminology: object, structure. Moscow, 2012
9. <https://globaltranslations.com.br>
10. <https://www.linkedin.com>
11. <https://biglanguage.com>
12. <https://www.naargmedia.com>
13. [biglanguage.com](http://biglanguage.com)
14. [www.abbreviations.com](http://www.abbreviations.com)
15. [oceantranslation.com](http://oceantranslation.com)



Nozanin ABDUSAMATOVA,  
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi  
E-mail: nozaninazimovna4@gmail.com

SamDU Urgut filiali dotsenti B.Mardiyev taqrizi asosida

### JADIDCHILIK HARAKATLARI ASOSIDA YARATILGAN DRAMATIK ASARLARDA UMUMIY G'OYA VA MAQSADLARNING MUSHTARAKLIGI (A.AVLONIY IJODI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining umumiy maqsad-g'oyalari, siyosiy-ijtimoiy yo'nalishlari keltirilgan bo'lib, shuningdek jadidlar tomonidan yaratilgan dramatik asarlarning umumiy mazmuni, ularning badiiy-g'oyaviy o'rni va ahamiyati xususida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Jadid, siyosiy-ijtimoiy soha, din, ma'rifat, madaniyat, drama, teatr.

### ОБЩИЕ ИДЕИ И ЦЕЛИ, ИХ ОБЩНОСТЬ В ДРАМАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ, СОЗДАНЫХ НА ОСНОВЕ ДЖАДИДИЗМА (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА А. АВЛОНИ)

Аннотация

В данной статье рассматривается возникновение движения джадидизма в Туркестане, их общие цели и идеи, направления их политического и общественного движения, а также содержание драматических произведений, созданных джадидистами, их художественно-идеологическое место и говорили о его важности.

**Ключевые слова:** Джадид, политическая и социальная сфера, религия, просвещение, культура, драматургия, театр.

### GENERAL IDEAS AND GOALS, THEIR COMMONALITY IN DRAMATIC WORKS CREATED ON THE BASIS OF JADIDISM (USING THE EXAMPLE OF THE WORK OF A. AVLONI)

Annotation

This article examines the emergence of the Jadidism movement in Turkestan, their common goals and ideas, the directions of their political and social movement, as well as the content of the dramatic works created by the Jadidists, their artistic and ideological place and talked about its importance.

**Key words:** Jadid, political and social sphere, religion, education, culture, drama, theater.

**Kirish.** XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy tuzumida bir qator siyosiy, diniy va ma'naviy muammolar yaqqol ko'zga tashlanar edi. Buning asosiy sabablari - diniy mutaassiblikning tobora avj olishi, xalq ommasi asosiy qatlami savodsizligi, zamonaviy ilm-fan sohalar va yangidan shakllanayotgan madaniyatning rad etilishi kabi holatlar turli illatlarning chuqur ildiz otishiga olib keldi. Bu muammolarni bartaraf etish, xalqning savodini chiqarish, ularni ilm-ma'rifat yo'liga chorlash va o'z o'rnida adolatli, yangi konstitutsiyaviy boshqaruvga ega mamlakat barpo etish masalasi – jadidlar zimmasiga "yuklatildi".

Jadidlar o'z harakatlari orqali qoloqlik va savodsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratishdi. Bu o'rinda esa adabiyotning ta'sir kuchidan unumli foydalanib, eng qudratli qurol sifatida badiiy adabiyotning turli janrlari – romanchilik, hikoyanavislik, she'riyat va dramaturgiyada o'z harakatlarini badiiy tarzda namoyish qilishdi. "Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan qolib ketishi, islom va shariatning oyoqosti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchun o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi"[1].

Zero, ilm-u ma'rifatning rivojlantirishda yangi usuldagi maktablar tashkil qilish, bu maktablar uchun maxsus darsliklar yaratish va o'qitishning o'zi o'ylanganidek samara bermasligini anglab yetgan jadidlar o'z davr va zamon muammolarini qamragan turli dramalar yaratishdi. Mazkur davrda aholining aksar qismi savodsizligi va asarlar yaratishning o'zi bilan ularni ma'naviyatli qilishning iloji yo'qligini bilgan – Behbudiy, Avloniy, Hamza, Cho'lpon kabi jadidlar bor kuch va salohiyatini aynan sahna asarlarni

yaratishga qaratdilar. Negaki, teatr - xalq ommasining barcha qatlamlari uchun tushunarli va qiziqarli bo'lib, yaratilgan bu sahna asarlari yurtimizning turli burchaklarida jadidlar tomonidan qayta-qayta namoyish etib borildi.

**Mavzuga oid dabiyotlar tahlili.** Behbudiyning "Padarkush" nomli teatr asari jadidchilik adabiyoti dramaturgiyasiga yo'l ochgan dastlabki asar bo'ldi. Behbudiyning fikricha - "O'qimagan, ilm-u-ma'rifatdan bexabar farzand otasining qotili bo'lishi hech gap emas. Keyingi davr jadidchilik dramaturgiyasining takomilida Behbudiyning katta roli bordir. Uning dramatik asarlarining mavzusini Turkiston tarixidan olgan va "tarixni gapirtirib" yoshlarni Turkiston milliy hayotiga bog'lashga harakat qilgandi[2].

Jadidlar yaratgan dramatik asarlarda oddiy voqaealargina emas, balki bu davrda illat deb qaralovchi salbiy jihatlari, tarbiyaviy xususiyatlar, qolaversa ijtimoiy-siyosiy masalalar ham birdek qamrab olindi. Jadidlar teatrga tarbiya vositasi sifatida qarab, bu sohaga katta umid bildirishdi. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri bilan aytganda "Kishilar qalbinin nuri, ilm va ma'rifatini uyg'otuvchi kuch – teatr hisoblanadi. Teatr – ibratxonadir".

Jadidlar tomonidan yaratilgan dramalarning yuzaga kelishida rivojlangan mamlakatlarning ta'lim, ilm-fan va madaniyat darajasi bilan bizning o'lkamizda bu sohalarining qay darajada rivojlanganligi taqqoslanib yozildi. Mazkur dramalarda o'z davrining tili, uning madaniyati, turmush-tarzi, ish-faoliyati ro'yi-rost tahlil etildi. Bu o'rganishlar natijasi farqli o'laroq jadidlarimiz tomonidan "Padarkush", "Advokatlik osonmi?", "Abulfayzxon", "Baxtsiz kuyov", "Boy ila xizmatchi", "Paranji sirlari", "Maysaraning ishi",



“Pinak” singari o'nlab dramalar dunyoga keldi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, bu dramatik asar personajlari, voqea-jarayonlar qalamga olingan davrlar turlicha bo'lsa-da, ammo ularning umumiy jihati – xalqqa o'z muammolarini ko'rsatish maqsadi ko'zlangan edi. “...Hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas say, bitmas g'ayrat lozimdur” [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu o'rinda esa jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan sahna asarlari salmoqli o'rniga ega. Misol tariqasida Abdulla Avloniy ijodidan o'rin olgan “Pinak”, “Advokatlik osonmi?”, “Biz va Siz”, “Portugaliya inqilobi”, “Ikki sevgi”, “Layli va Majnun” kabi dramalarining qahramonlari, ularning vaziyatlari garcha turlicha bo'lsa ham bu asarlardan ko'zlangan ma'no aslida bitta – xalqning ongini uyg'otish, uning yuziga oyna tutgan holda o'z holidan boxabar qilish maqsadi ko'zlangan edi. Avloniy ta'biri bilan aytganda: “Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... Yohu, bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketduk! Yaxshi qo'shningdan ilguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetushgon va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va oxtarsak, yo'qolganlarini ham toparmiz. Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi, deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgu bo'lmak zo'r ayb va uyotdur” deyiladi. Shu sababdan Avloniy xalqqa o'z milliyatini, otabobolarimizdan qolgan urf-odatlarini namoyish etish maqsadida dastlab o'z tashabbusi bilan 1913-yilda Toshkentda “Turon” teatrida tashkil etib, unda jadidlar tomonidan yozilgan dramalar sahnalashtirdi va keng ommaga namoyish qildi. Ulardan ba'zilarini tahlil qilamiz.

**Tahlil va natijalar.** Avloniy ijodidan o'rin olgan “Advokatlik osonmi?” dramasiining umumiy, badiiy va g'oyaviy jihatdan talqiniga yuzlansak, asarda millatning tobora tanazzul sari yuz tutayotganlik jarayonlari “advokat” prototipi atrofida birlashadi. “Turon” teatri tomonidan sahnalashtirilgan mazkur asarning asosiy mazmun plani Davronboy obrazida birlashtiriladi. Garchi u Yevropaga o'qishga ketib, yetti yildan so'ng qaytganida ham musulmonlarning hayotida hali hanuz o'zgarishlar bo'lmaganligi, ularning ahvoli tobora yomonlashib, jarlik sari yuz tutayotganligi, ahvolning yaxshilanishi o'rniga chigallashib ketayotganligi, obraz tili bilan aytganda “hamon eski tos, eski hammom” ekanligidan kuyunib so'z boshlaydi. Asar dastavvalida Davronbek xalqning ko'zi ochilishiga umid bildirsada, ammo yakunida bu orzu-umidlari puchga aylanayotganidan aziyat chekadi. Boisi asarda Davronbekning huzuriga vasiqa ko'tarib keluvchi kishilarning bari o'z haq-huquqlaridan bexabar, ko'r-ko'rona ish qiluvchi, dardi alanga olib ketgandan so'ng advokatning oldiga kelgan, soddaligi sabab “uddaburon” kishilar domiga ilingan qora xalq kishilari edi. Personaj tilidan so'zlangan - “Men bu dunyodan xabarsiz musulmonlarning ahvolidan juda hayronman. El butun toshdek qotgan, taraqqiyot, madaniyatdan nishon yo'q. Xalq taassub chuquriga qarab yuz tuban ketg'on...” degan gaplari yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

Dramada dastlab Davronboy oldiga najot istab kelgan – Xudoyberdi ismli oddiy dehqon obrazi keltiriladi. U otasidan qolgan ikki tanob yerining bir tanobi evaziga qarz olib, uni vaqtida to'lolmaganidan ham yeridan, ham bergan pulidan ayrilib, Davronbekdan najot so'rab o'tinadi. Keltirilgan bu dehqon obrazi asar voqealarini boyitish uchun emas, balki aniq bir masad natijasida yuzaga kelganligini e'tiborga olish zarur. Boisi Xudoyberdi otaning timsoli orqali o'z davridagi oddiy dehqonlarning vaziyati naqadar og'ir ekanligi, bor bisoti faqatgina bir tanob yer bo'lsa ham ular uchun tirikchilik manbayi sanalgan bu yerdan ham mosuvo bo'lib ahvoli battar taranglashayotganlik holatidan kuyunib yozadi.

Asarda keltirilgan voqealarning birida bu davr dramaturgiyasidagi ma'noviy o'xshashlik holati kuzatiladi. Bunday deyilishining sababi unda keltirilgan Egamberdi obrazi, o'z holiga qaramay boshqalarning gap-so'ziga kirib katta to'y qiladi, qarzga botadi va uysiz-joysiz farzandlari bilan ko'chada qolganligidan arz qiladi. Drama voqealari yana bir jadid namoyandasi Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi voqealari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, Qodiriyning mazkur dramasi ham Solih ismli yigit boshqalarning gap-so'ziga uchadi va hashamatli to'y evaziga qarz botqog'iga botgandan so'nggina xatolarini tushunib yetadi. Bu o'rinda jadidlar behuda sarf-xarajatlar asnosida bo'layotgan dabdabali to'y-hashamlarni qoralaydi. Xalqni bu kabi keraksiz xarjlaridan saqlanib, uning o'rniga pullarni ilm-ma'rifat yo'liga, farzandlarning ilm olishiga sarflashi zarurligi xususida baxs yuritadi. Katta to'y qilish uchun olingan qarz evaziga Solih ham sudxo'rlar ta'sirida “Advokatlik osonmi?” dramasi qahramoni Xudoyberdi singari hech vaqosiz qolishini tasirlaydi. Qodiriy va Avloniy dramalaridagi mazkur o'xshash jarayonlardan shuni anglash mumkinki, ushbu davrda xalq aholisi haqiqatdan ham soddaligi evaziga shu kabi holatlarga tushib qolganligi tasvirlanadi.

Asar voqealari xuddi shu tarzda turli vaziyatlardan imkonsiz qolgan kishilar va ularning bu qiyinchiliklariga davrning o'zi aybdor ekanligi ta'kidlanadi. Asarni o'qir ekansiz, undagi yana bir achinarli vaziyat – Davronbekning holati kishini o'yga toldiradi.

Birinchidan, Turkiston aholisi ilmning qadriga yetmaganidan o'z muammolarini hal qilish masalasini Davronbek singari boshqa davrlarda o'qib, tajriba orttirgan advokatlarga emas, eshon, mingboshi, qozi kabi eski davr illatlari bilan miyyasi zaharlangan kishilarga ishonib, ularga murojaat qiladi. Bu barobarida esa o'zlarining yanada chuqurroq muammolarga duchor bo'layotganligini sezmaydilar.

Ikkinchidan, Davronbek garchi yetti yil boshqa o'lkalarda ilm orttirib kelgan bo'lsada, bu ilm kishisi xor bo'lib, yeyishga non topmaganidan uy-ro'zg'oridagi bor bisotini sotib tirikchilik qilayotganligi achinarli holat albatta. Shu o'rinda personajlar tilidan aytilgan “advokatlik osonmi?” savoliga javob topish shubhasiz.

Bu asarni bugungi davr voqealari bilan ham bevosita bog'lash mumkin. Sababi, hozir ham o'z haq-huquqlarini bilmaydigan, behuda, foydasiz ishlar uchun umri va harakatini ayamayotgan shaxslar uchun asar ibrat vazifasini o'taydi. Jadidchilar ko'zlangan g'oya, maqsad va muddaolari aynan shu jihatga qaratilgan edi.

Mazkur asardan tashqari Avloniyning “Ikki sevgi”, “Portugaliya inqilobi” kabi dramalarida ham xalqning ongini uyg'otish ko'zlangan edi. Adibning “Ikki sevgi” dramasi davr muammolari ilgari surilgan. Mazkur asar 1908-yilda Turkiyadagi inqilobga bag'ishlangan bo'lib, asarning bosh qahramonlari Nozimbek va Xolidaxonim kabi personajlar atrofida bu ijtimoiy harakatlar aks etgan. Asarda Nozimbek hayot tarzidan mamnun emas, boshqalar singari “Bersang yeyman, ursang o'laman” qabilida ish qilmay, aksincha o'z fikridan sobit borib, xalqni birlashtirgan holda qo'zg'olonga boshchilik qiladi. Bu boradagi qat'iy isyonkorligi kitobxonlarga jadidlar harakatining ba'zi yo'nalishlarini esga soladi. Ammo uning sa'y-harakatlari fojeali yakun topadi. Bu esa xalqning o'z maqsadi sari birlasholmay, fidoiy insonlarni yo'qotayotganligidan dalolat berib turar edi.

**Xulosa.** Shu kabi yuqorida nomlari keltirilgan dramalarida Abdulla Avloniy o'zining isyonkor qarashlari, jiddiy va ayni paytda muhim vaziyatlarni ilgari suradi. Qahramonlar xatti-harakati orqali ularni faol ifodalaydi. Avloniy biz uchun “hayot”, “mamot” masalasiga aylangan ehtiyojlarni dramalari orqali xalqqa yetkazib berdi. Shu sababdan ham hali-hanuzgacha Avloniy ijodi keng mushohada

qilinmoqda. Mustaqillik yillarida Avloniy ijodi o'rganilib, uning xotirasi abadiylashtirildi. Zero, adib ijodini o'rganish yangi davr adabiyoti uchun ham muhim dolzarflik kasb etadi. Muhammad Alining "Boqiy dunyo" she'riy romani va O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissalarida Avloniyning badiiy adabiyotdagi obrazlari dunyoga keldi[4].

Poytaxtimiz markazida joylashgan adiblar xiyobonida Avloniyning muhtasham haykali qad rosladi. 2020-yilda esa

"Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangani unga nisbatan hurmatning amaliy ifodasidir. Nafaqat Abdulla Avloniy, balki boshqa jadid namoyandalari ijodida ham bu kabi asarlar o'zining salmoqdorligi hamda ma'no ko'lami kengligi bilan birdek daxldor. Chunki, jadidlar millat ertasi, uning hayoti uchun kurashgan buyuk shaxslar bo'lib tarixda qoldi.

#### ADABIYOTLAR

1. S. Ibragimov "Jadidchilik harakati" T-2021. 121-b.
2. Ikromiddin Ostonoqulov "Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi" T-2023 107-bet.
3. A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" T-1967.
4. "Jadidlar: Abdulla Avloniy" T-2022.
5. "Jadid dramalari poetikasi va sahnalashtirish masalari muammo va yechimlar" to'plam. T-2023.
6. Abdulla Avloniy "Advokatlik osonmi?" T-1914.
7. A. Avloniy "Ikki sevgi" T-1924.
8. Jadidlar. Hamidullo Boltaboyev. Abdurauf Fitrat
9. "Turiston ma'rifatchi jadidlarning axloqiy qarashlari" To'plam. T-2023.
10. H. Komilova "Jadidlar faoliyati ma'rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari" T-2023.



Гулоим АЮПОВА,

Докторант Андижанского государственного института иностранных языков

E-mail: ayurovaguloyim.96@gmail.com

По отзыву доцента Зокировой С.В., к.м.н.

## STRUCTURAL CLASSIFICATION OF OXYMORON

Annotation

The study examines the structural classification of oxymorons at three levels: morphemic, lexical, and syntactic. Three types of English oxymorons are identified according to R. Flayih's classification: oxymorons with affixal morphemes, with root morphemes, and at the phrase level. We have proposed the following structural classification: oxymorons at the morphemic level, oxymoronic phrases, oxymoronic sentences. Frequency analysis showed that morphemic oxymorons are more common in Russian, while oxymoronic phrases are more prevalent in English. In Russian, morphemic oxymorons are less common. The study of structural and semantic classifications of oxymorons provides deeper insights into their role and significance in language.

**Key words:** Oxymoron, frequency analysis, structural classification, oxymoronic phrases, oxymorons at the morphemic level, oxymoronic sentences.

## СТРУКТУРНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОКСЮМОРОНА

Аннотация

Исследование рассматривает структурную классификацию оксюморонов на трех уровнях: морфемном, лексическом и синтаксическом. Выделяются три типа английских оксюморонов по классификации Р. Флайиха: оксюмороны с аффиксальными морфемами, с корневыми морфемами и на уровне фразы. Нами была предложена следующая структурная классификация: оксюмороны морфемного уровня, оксюморонные словосочетания, оксюмороны-предложения. Частотный анализ показал, что морфемные оксюмороны чаще встречаются в русском языке, тогда как оксюморонные словосочетания преобладают в английском. В русском языке морфемные оксюмороны встречаются реже. Исследование структурных и семантических классификаций оксюморонов позволяет глубже понять их роль и значение в языке.

**Ключевые слова:** Оксюморон, частотный анализ, структуральная классификация, оксюморонные словосочетания, оксюмороны морфемного уровня, оксюмороны-предложения.

## OKSYUMORONNING STRUKTURAL KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya

Tadqiqotda oksyumoronlarning struktural klassifikatsiyasi uchta darajada ko'rib chiqiladi: morfemik, leksik va sintaktik. R. Flayix klassifikatsiyasiga ko'ra, ingliz tilida uch turdagi oksyumoronlar aniqlangan: affiksial morfemalar, o'zak morfemalar va ibora darajasida. Biz quyidagi struktural klassifikatsiyani taklif qilamiz: morfema darajasidagi oksyumoronlar, oksyumoron iboralari, oksyumoron gaplar. Chastotali tahlil shuni ko'rsatadiki, morfemik oksyumoronlar rus tilida ko'proq uchraydi, ammo oksyumoron iboralari ingliz tilida ko'proq tarqalgan. Rus tilida morfemik oksyumoronlar kamroq uchraydi. Oksyumoronlarning struktural va semantik klassifikatsiyalarini o'rganish, ularning tildagi roli va ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** Oksyumoron, chastotali tahlil, struktural klassifikatsiya, oksyumoron iboralar, morfema darajasidagi oksyumoronlar, oksyumoron gaplar.

**Введение.** Оксюмороны, как яркое языковое явление, представляют собой сочетание противоположных по значению слов, создавая выразительный контраст и парадоксальный смысл. Они встречаются на разных уровнях языка: морфемном, лексическом и синтаксическом. В английском языке оксюмороны могут проявляться как в виде одиночных слов с аффиксами или корнями, так и в форме фраз и предложений, что отражает их синтаксическую гибкость и разнообразие. В русском языке оксюмороны часто образуются через бинарные словосочетания и дистрибутивно-контекстуальные конструкции, подчеркивая богатство и сложность морфологической структуры. Исследование оксюморонов позволяет глубже понять их роль и значение в языке, открывая новые перспективы для анализа литературного и разговорного дискурса, а также обогащая теоретические основы стилистики и лингвистики.

**Обзор литературы.** Наибольшее количество работ, затрагивающих оксюморон, было найдено в диссертациях и монографиях русских исследователей, таких как Г. Копнин, Ф. Артёмова [1], Н. Павлович [7], Е. Т.Бочина [3], В. Овсянников [6]. Е. Атаева [1] и Г. Курегян [5] посвятили свои работы структурной и семантической классификации оксюморонов. Все работы существенно отличаются друг от друга и носят в себе полезные открытия авторов. Оксюморон также был упомянут в работах зарубежных исследователей, таких как Р. Гибс и Л. Кирни [13], Д. Лич [15], К. Криппендорф [14], Й. Шен [16], М. Флайих [12]. Работы зарубежных писателей больше фокусируются на лингвостилистической интерпретации и структурной классификации оксюморонов.

**Методы исследования.** Методология данного исследования определяется совокупностью методов традиционно-описательного, структурно-семантического,

сравнительно-сопоставительного, статистического анализа. Традиционно-описательный метод используется для выявления и описания оксюморонов в текстах, что позволяет составить общую картину их употребления. Структурно-семантический анализ помогает определить внутреннюю структуру оксюморонов и их семантические особенности, что способствует пониманию механизмов создания парадоксов на разных уровнях языка. Сравнительно-сопоставительный метод помогает выявить различия и сходства в использовании оксюморонов в английском и русском языках, что важно для межкультурных исследований. Статистический анализ применяется для количественной оценки частотности различных типов оксюморонов, что дает возможность делать обобщения и выявлять тенденции в их употреблении.

Использование этих методов в комплексе обеспечивает всесторонний и глубокий анализ оксюморонов, что способствует расширению знаний о данном лингвистическом явлении и его функциях в языке.

**Анализ и результаты.** Изучим структурные классификации оксюморонов. Они встречаются на трех уровнях: морфемном (на уровне слова – односложные оксюмороны), лексическом (на уровне фразы – в виде словосочетания), синтаксическом [10].

М. Флайх определяет три структурных типа английских оксюморонов [12]:

1. Оксюмороны, состоящие из одного слова с аффиксальными морфемами (например, *pianoforte*, *preposterous*).

2. Оксюмороны, состоящие из одного слова с корневыми морфемами (например, *bittersweet*).

3. Оксюмороны, проявляющиеся на уровне фразы в виде словосочетания (например, *I silently scream*).

Первый тип оксюморона требует исследования в русском языке, так как в ходе исследования нам удалось найти один пример, который в конечном итоге признан димунитивным. Например:

Так-то, всегда и во всем чересчуринька,  
Радость моя!

Муринька, милая-милая Муринька,  
Ангел-змея! (И. Северянин. Муринька)

В данном примере, «чересчуринька» представляет собой стилистическое явление аффиксального типа строения морфемного уровня. Согласно толковому словарю С.И. Ожегова, «чересчур, нареч. (разг.). То же, что слишком. Ч. жарко. Ч. строг кто-н. Это уж ч.! (выходит за пределы допустимого; неодобр.)». Чересчур - корень, иньк- уменьшительно-ласкательный суффикс, а - флексия. В исходном значении слова не наблюдается присутствие алогизма, который является обязательным условием строения оксюморона, а лишь чувствуется эмоциональный и ласкательный компонент, что возможно исключает существование такого типа строения оксюморонов в русском языке.

Согласно классификации Р. М. Флайх, оксюморонное словосочетание в английском языке может быть представлено следующими синтаксическими моделями:

- а) Adv + Adj;
- б) Adv + V;
- в) Adj + N;
- г) Adj + Adj;
- д) N + N.

На уровне синтаксической структуры предложения выделяются следующие типы:

а) S + P (в предложении типа *Silence sings all around me*);

б) S + Pr (*This silence is deafening*);

в) S + Obj (*The greatest hate springs from the greatest love*);

г) P + Obj (*I will to the water go, and see him out of sight*).

По утверждениям Чуанью, оксюмороны на уровне фразы и слова, использующиеся вместе внутри фразы, могут быть разного синтаксического класса (как в а, б, с и d), либо одного класса (как в е и f). В частности, синтаксическая рамка по частям речи оксюморона может включать следующие типы [11]:

а. adverb + adjective

1. "And faith unfaithful kept him falsely true"

б. adverb + verb

2. " I silently scream for help

- That never seems to come"

с. verb + adverb

3. He wished that he was ill, then he could stay away from school... He began groaning loudly.

д. adjective + noun

4. It is an open secret that Mary and John are engaged.

е. adjective + adjective

5. The cat lay on the sofa, looking all drowsy and vivacious.

6. hateful good

ф. noun + noun

7. Filling in a tax return calls for absolute honesty and cunning

Чуанью добавляет, что если то, что противопоставляет или противопоставляется в оксюмороне, не является формой, а содержанием, то его синтаксический каркас может быть более гибким, чем указано в вышеприведенных примерах [11]. На самом деле это явление может наблюдаться и за пределами фразы, например:

г. подлежащее против сказуемого

8. Silence sings all round me; my head is bound with a

band

h. подлежащее противопоставляется предикативу

9. A friend to everybody is a friend to nobody

10. This silence is deafening.

и. подлежащее противопоставляется дополнению

11. The greatest hate springs from the greatest love.

ж. предикатив противопоставляется дополнению

12. " And is he gone? And is he gone?" she cried, and wept out outright; "then I will to the water go, and see him out of sight".

Г. Г. Курегян на основе русскоязычного материала выделяет три структурных модели [5]:

модель одной синтаксической формы (надменно-нежный, не-гулянье, футурстарица);

модель бинарного словосочетания с подчинительной связью (она наиболее продуктивна);

дистрибутивно-контекстуальные оксюмороны – оксюморон-предложение, оксюморон-текст («В нем смерть цвела какой-то жизнью черной»).

В модели бинарного словосочетания Г. Г. Курегян отмечает следующие варианты:

1. Именные, субстантивные словосочетания, где N – главное слово:

а) N + Adj;

б) N + N (однокорневая модель с отрицательной частицей не у одного из членов структуры и разнокорневая модель без использования предлога);

в) N + N (с предлогом);

г) N + V;

д) N + Num.

2. Именные, субъективные словосочетания, основная структура – Adj+Adv.

## 3. Глагольные словосочетания:

- a) V + Adv;
- b) V + наречие времени;
- в) V + деепричастие;
- г) V + N в косвенном падеже.

## 4. Наречные оксюмороны.

Среди односложных моделей Г. Г. Курегян выделяет оксюморон-слово, в котором заключается и признак, и его отрицание (например, не встреча), а также оксюмороны с метафорическим переносом в основе. В этой группе находятся сложные слова типа надменно-нежный. Основываясь на классификациях Л. И. Татановой [8] и Е.А. Атаевой [2], можно выделить структурные и семантические оксюмороны. Синтаксическую структуру стоит исследовать до семантических типов оксюморона. Согласно классификации Л. И. Татановой, семантические типы оксюморонов состоят из следующих:

Двухкомпонентные оксюмороны

Многокомпонентные оксюмороны

- a. Атрибутивные синтаксические единства
- b. Атрибутивные лексические единства
- c. Сочетания слов с предлогом 'of'

Мы предложили следующую классификацию:

Оксюмороны морфемного уровня

He had the ordinary young-old subaltern's face. (Aldington R. Short Stories, 55)

Оксюморонные словосочетания (многокомпонентные оксюмороны, оксюморонные конструкции с предлогом "of")

Не наскучить мне шуму деревьев внимать,

В сумрак ночи могу я смотреть до утра

И о чем-то так сладко, безумно рыдать,

Словно ветер мне брат и волна мне сестра,

И сырая земля мне родимая мать... (Д.


Мережковский, З. Гиппус. Стихотворения, 14)

Оксюмороны-предложения


It was the best of times, it was the worst of times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity...(Dickens Ch. A tale of two cities, 4)

**Выводы.** Исследование структурных и семантических классификаций оксюморонов позволяет глубже понять их роль и значение в языке, открывая новые перспективы для анализа литературного и разговорного дискурса. Такое многоаспектное изучение не только обогащает наше понимание языковых фигур, но и способствует развитию теоретических основ стилистики и лингвистики. Мы провели частотный анализ структурных типов оксюморонов, основываясь на 125 и 95 примерах на английском и русском языках, собранных из литературных источников, названий фильмов и текстов песен.

Процентное соотношение структурных типов оксюморонов на английском языке



Процентное соотношение структурных типов оксюморонов на русском языке



Отмечено, что оксюмороны на морфемном уровне встречаются значительно чаще в русском языке (13.7%) по сравнению с английским (2.4%). Это может быть связано с более сложной морфологической структурой русского языка, позволяющей создавать более многообразные и сложные морфемные комбинации. Анализируя словосочетания и предложения, становится видно, что английский язык более склонен к

использованию оксюморонных словосочетаний (93.6%), в то время как в русском языке этот показатель ниже (68.4%). Это может отражать различия в стилях выражения или предпочтениях в конструкции высказываний в двух языках. Такой визуальный анализ помогает лучше понять, как распределяются оксюмороны по разным структурным типам в обоих языках.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Артемова А. Ф. Механизм создания комического в английской фразеологии: дис. ... канд. филол. наук. – М., 1976.
2. Атаева, Е. А. Лингвистическая природа и стилистические функции оксюморона: дис. ... канд. филол. наук. – М., 1975.
3. Бочина, Т. Г. Стилистические приёмы контраста как система с полевой структурой // Вестник ТГПУ. – 2010. – №1.
4. Копнин, Г. А. О классификации риторических приемов (к постановке проблемы) // Филологические науки. – 2004. – №2.
5. Курегян Г. Г. Лингвопрагматический статус оксюморона: дис. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2007.
6. Овсянников, В. В. Языковые средства выражения комического в англоязычной прозе: автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1981.
7. Павлович, Н. В. Семантика оксюморона // Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1979.

8. Татанова, Л. И. Дискурсивные характеристики оксюморона в англоязычной художественной литературе: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – М.: РГБ, 2006.
9. Шестакова, Э. Г. Оксюморон как категория поэтики (на материале русской поэзии XIX – первой трети XX веков): монография. – Донецк: НОРД-ПРЕСС, 2009.
10. Чиршева, Г. Н., Чернига, В. И. Структурно-семантические особенности оксюморона в романе Дж. Оруэлла «1984» и его переводах // Вестник Череповецкого государственного университета. – 2021. – №1 (100). – С. 153-164. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/strukturno-semanticheskie-osobennosti-oksyumorona-v-romane-dzh-oruella-1984-i-ego-perevodah> (дата обращения: 20.02.2024).
11. Chuanyu, F. Linguistic and Rhetorical approach to antonymy in English, 2008 // URL: [modlinguistics.com](http://modlinguistics.com) (дата обращения: 11.01.2022).
12. Flayih, R. A linguistic study of Oxymoron // Journal of Kerbala University: Vol. 7 No.3 Scientific. – 2009.
13. Gibbs, R. W., Jr., Kearney, L. R. When parting is such sweet sorrow: The comprehension and appreciation of oxymora // Journal of Psycholinguistic Research. – 1994.
14. Krippendorf, K. Design research, an oxymoron? // Board of International Research. – 2007. – №1.
15. Leech, G. N. Linguistics and the Figures of Rhetoric // In: Essays on Style and Language. Ed. Roger Fowler. – L.: Routledge and Kegan Paul, 1971.
16. Shen Y. On the structure and understanding of poetic oxymoron // Journal of Poetics today. – 1987.



UDK: 265467

*Moxigul BOZOROVA,*  
*Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: mohigulbozorova44@gmail.com*

*PhD, dotsent G.Niyazova taqrizi asosida*

## TYPES OF PUBLICISTIC TEXT AND THEIR PRAGMATIC CHARACTERISTICS

Annotation

This article is aimed at elucidating the topic "types of journalistic texts and their pragmatic features". Publicistic texts are written for the purpose of communicating broad and socially significant topics to the public, forming public opinion, providing information and analysis. The article analyzes in detail various forms of journalistic texts, their features and functions. Also, information is provided about the pragmatic features of such texts, that is, the methods and methods of influencing the students. The opinions expressed in the article can be reflected for researchers and industry representatives who are conducting research in the fields of journalism, communication and linguistics.

**Key words:** Linguistics, text, journalism, journalistic text, pragmatics, mass media, speech.

## ТИПЫ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО ТЕКСТА И ИХ ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотация

Данная статья направлена на освещение темы «Виды публицистических текстов и их прагматические особенности». Публицистические тексты пишутся с целью донесения до общественности широких и общественно значимых тем, формирования общественного мнения, предоставления информации и анализа. В статье подробно анализируются различные формы публицистических текстов, их особенности и функции. Также дается информация о прагматических особенностях подобных текстов, то есть способах и способах воздействия на учащихся. Мнения, высказанные в статье, могут быть отражены для исследователей и представителей отрасли, которые проводят исследования в области журналистики, коммуникации и лингвистики.

**Ключевые слова:** Языкознание, текст, публицистика, публицистический текст, прагматика, средства массовой информации, речь.

## PUBLITSISTIK MATN TURLARI VA ULARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola "publitsistik matn turlari va ularning pragmatik xususiyatlari" mavzusini yoritishga qaratilgan. Publitsistik matnlar keng qamrovli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularni ommaga yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ma'lumot berish va tahlil qilish maqsadida yoziladi. Maqolada publitsistik matnlarning turli xil shakllari, ularning xususiyatlari va funksiyalari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday matnlarning pragmatik xususiyatlari, ya'ni o'quvchilarga ta'sir qilish usullari va uslublari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada keltirilgan fikr mulohazalar jurnalistika, kommunikatsiya va tilshunoslik sohalarida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar va soha vakllari uchun aks qotishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, matn, publitsistika, publitsistik matn, pragmatika, OAV, nutq.

**Kirish.** Matn konsepti so'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslarning diqqat-e'tiboridagi chuqur o'rganilayotgan aktual mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Matn tilshunoslikda biror bir shaxs tomonidan yaratilgan, ma'nolar majmuasini ifodalovchi axborot yetkazish vositasi sifatida qaraladi. Bir qancha tilshunos olimlar matn kategoriyasi haqida turlicha qarashlarni ilgari surishadi. Yevropalik tilshunos A.J. Greimas matnni bir nechta gaplardan tashkil topadi deb hisoblaydi, ammo bu gaplar bir-biri bilan bog'lanib kelishini natijasidan emasligini ta'kidlaydi [1]. Ya'ni bunda tayyor matn asosida sintaktik, semantik va boshqa tahlillar olib boriladi. Fransuz lingvisti E. Bennevistning aytishicha ushbu konsept-tilning bo'g'inli tabiati va elementlarining diskretligi kabi xususiyatlarini to'g'ri aks ettirishi mumkin, faqat matn shakllarining o'ziga xosligi aniqlashda daraja tushunchasini muhim deb ta'kidlaydi [2]. Rus tilshunoslaridan I.R. Galperin esa bu fikrga qarshi chiqib, o'zining "Matn lingvistik tadqiqotlarning obyekti" asarida "til va nutqning dioxotomiyasining ko'rinishi, ya'ni tilni statik va dinamikada, paradigmatic va sintagmatic jihatdan hisobga olgan holda, matnning til darajasi emas, balki nutq darajasi deb hisoblash mumkin deb qayd etadi. Nutq ham tizimlidir va hatto nutq ishlab chiqarishning o'z-o'zidan paydo bo'lishi ham til tizimi

tomonidan unga bog'langan kishanlardan xoli emas. Matn nutq jarayonining ongli ravishda tashkil etilgan natijasi bo'lib, unga xos tashkiliy qonunlarga bo'ysunadi" [3].

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida esa M.Irisqulov "Nutq faoliyatiga kiruvchi matnlar ma'lum sistema asosida tuzilib, o'z mazmuniga ega tugallangan mahsulot sifatida qaraladi va ularning tarkibi va tuzilishi jamiyatda uchraydiga ma'lum bir model asosida qurilgan bo'ladi" [4]. Matnlar o'zining xususiyatidan kelib chiqib, ma'lum bir guruhlariga bo'linadi. Rus tilshunosi Yu.V.Rojdetsvenskiy matnni 4 guruhga bo'ladi: o'g'zaki, yozma, bosma va ommaviy kommunikatsiya matnlaridir [5]. Biz maqolamiz obyekti – publitsistik matn sifatida yuqoridagi matn turlarini atroflicha o'rganib chiqamiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, matn - bu axborot yetqizishning muhim usulidir. Publitsistik matn axborotni yetqizishning eng samarali turi bo'lib, ushbu matn turida ta'sirchanlik emotsionallik va obrazlilik xususiyatlari mavjud. Lyapun (2011) publitsistik matn – ommaviy axborot vositalari orqali auditoriyaga maksimal ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus matn deb hisoblaydi [6]. Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari tili oson, adresatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. E.S. Shchelkunova esa quyidagicha ta'rif beradi: jurnalistik matn

tegishli ma'lumotlarni almashish uchun muallif va ommaviy auditoriyaning o'zaro ta'siriga qaratilgan bir-biriga bog'liq bo'lgan belgilar majmuasi va bu matn orqali ijtimoiy ma'lumotlar, g'oyalar, fikrlar va matn dinamikasining aktualizatsiyasining potentsiali maksimal darajada oshiriladi [7].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Jurnalistik matnning boshqa matn turlaridan farqli jihati auditoriyaga tez va bevosita ta'sir o'tkazadi va uning faoliyati dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan bog'liqligi tufayli bu turdagi matn doimo tezkor reaksiyani talab qiladi. Publitsistik matnning muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, unda ilmiy va badiiy matn uslublarini ham tahlil qiladi, bu esa bir vaqtning o'zida konseptual va obrazli tafakkur qilishni talab qiladi. Rus tilshunosi Proxorov o'zining "Jurnalistikani tadqiq qilish: nazariy asoslar, metodologiya, OAV tadqiqotchisi ishining metodologiyasi, texnikasi" asarida jurnalistik matnning o'ziga xos jihati sifatida uning sinkretizmligi ya'ni bir vaqtning o'zida ilmiy, ratsional-konseptual va badiiy, hissiy-majoziy vositalarning ajralmas birligida foydalanish ekanligini qayd etadi [8].

- **Tahlil va natijalar.** Publitsistik matn muallifdan haqiqat va aniqlikni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan publitsistik matnning asosiy belgisi uning hujjatlik va faktlilikidir. Lekin publitsistik matnning belgisi bu bilan chegaralanmaydi, u muallifning ijod mahsuli ekanligi uchun ijodkorlik ham o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Publitsistik matnning janrlariga keladigan bo'lsak, tilshunoslar uni quyidagi 3 guruhga ajratadilar:

Axborot yetkazuvchi – bu janrga reportaj, suhbat, eslatma, hisobot kiradi. Bu janrning sosiy funksiyasi ma'lumotni uzatishdir: nima, qayerda, qachon, qanday sharoitlarda sodir bo'lgan axborot yetqiziladi. Quyida keltirilgan hisobot shaklidan ham ko'rish mumkinki, bu hisobot orqali axborot yetqizib berilmoqda ya'ni ushbu sport musobaqasi qachon, qayerda va kimlar ishtirokida o'tkazilishi haqida yurtimiz rahbariga hisobot berilganini xabar qilmoqda.

"Mamlakatimizda sport infratuzilmasi rivojlantirilib, xalqaro talablar darajasidagi shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shunga asoslanib FIFA qarori bilan futzal bo'yicha bu yilgi jahon chempionati yurtimizda o'tkazilishi belgilangan. Musobaqa 14-sentabr — 6-oktabr kunlari Toshkent, Andijon va Buxoro shaharlarida tashkil etiladi. Unda dunyoning eng kuchli 24 jamoasi qatnashadi. Ishtirokchi mamlakatlardan nufuzli mehmonlar, 30 mingdan ziyod muxlislar kelishi kutilmoqda" [9].

Analitik – suhbat, sharh, maqola, yozishmalar bu janrning asosidir. Analitik janrning asosiy vazifasi jamoatchilikka ta'sir qilishdan iborat. Muallifning mulohazalari, dalillari, voqeani tahlil qilish, shaxsiy xulosalar va sodir bo'layotgan voqealarga baho berish bu turning asosini tashkil qiladi.

...Xalqaro valyuta fondining missiyalari bir necha bor o'z xulosalarida O'zbekistonda valyuta almashinuvi bilan bog'liq holatlarni "avra-astarigacha titkilab" tanqid qilishganini inkor etib bo'lmaydi. Xullas, "Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi", deganlaridek, valyuta almashinuidagi muammolar iqtisodiy aloqalardan tashqari, huquqiy munosabatlarda ham o'z aksini topa boshladi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan noqonuniy bitimlar tuzish avj oldi. Bu esa nafaqat "yashirin iqtisodiyot"ning keng yoyilishiga, shuningdek, korrupsiya holatlarining tarqalishi hamda soliqlardan qochishning turli xil noqonuniy yo'llarining "kashf" etilishiga ham turtki bo'ldi. Erkinlashtirilgan pul-kredit siyosati qo'shnilarimizga qay darajada xorijiy investorlarni jalb qilish imkonini bergan bo'lsa, bizdagi valyuta almashinuviga cheklovlar shunchalik darajada chet el investorlarini iqtisodiyotimizdan uzoqlashtirishga olib keldi... [9] Ushbu tahliliy maqoladan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy va

ijtimoiy masalalarda jamoatchilik fikri, ularga e'tibor qaratish zarurligi va masalaga tahliliy yondashgan holda baho berilgan.

Badiiy-publitsistik janrga esa ocherk, felyeton, risola, insho kiradi. Ushbu janrdan voqea yoki fakt haqida majoziy, hissiy g'oyani olish uchun foydalaniladi. So'zimiz isboti o'laraq quyidagi parchani ko'rishimiz mumkin, unda reallikni so'zning ta'sirchan ohangidan foydalanilgan holda, tinglovchida adib haqida ajib bir hislarni uyg'otadigan jumladan foydalanilgan va bu janrning vazifasi to'laqonli ochib berilgan.

[...— Erkin Vohidov o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, — deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Zohidjon Xolov. — U nazmda ham, nasrda ham barakali ijod qildi. Shoirning ijodiy merosida turli adabiy janrlardagi asarlar bisyor. Jumladan, mumtoz adabiyotimiz an'analarini davom ettirib, betakror g'azallar, qasidalar, muxammaslar bitdi. Kuchli satira va yumor bilan sug'orilgan she'rlarida, xususan, "Donish qishloq latifalari" turkumida Matmusa obrazi orqali ijtimoiy muammolarni, kishilar fe'l-atvori, tabiatidagi qusurlarni ochib tashladi. "Oltin devor" spektaklini ham professional so'z san'atkorining ana shunday o'lmas asari, deyish mumkin. "So'z latofati" kitobida ona tilimizning beqiyos so'z boyligini, jozib imkoniyatlarini, ajib zarofatini ko'rsatib berdi...] [9].

Publitsistik matn janr nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, unga qo'yilgan talab bir-biriga yaqin ya'ni ommaviylik, emotsionallik, obrazlilik, baholash va tahlil publitsistik matnga xos jihat hisoblanadi.

Publitsistik matn janrlarini pragmatikasi, albatta, kontekstda aniq bo'ladi. "Pragmatika" atamasini o'zini tahlil qiladigan bo'lsak, u yunoncha "amal", "harakat" degan ma'noni bildiradi va ilmiy atama sifatida ilk bor tilshunoslikning semiotika yo'nalishi asoschilaridan biri Ch. Morris tomonidan tilga olingan. Bu tilshunos semiotikani semantikaga - belgilarning voqelik obyektlariga munosabatini o'rganishga, sintaktika - belgilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga va pragmatika - belgilarning ularning talqin qilganlarga bo'lgan munosabatini o'rganishga ajratdi. Shuning uchun pragmatika real aloqa jarayonlarida belgilarning xatti-harakatlarini o'rganadi [10]. N.Xursanovning fikriga ko'ra pragmatika so'zning nomlanayotgan narsa-hodisaga aloqador bo'lmagan qo'shimcha ma'nosi hisoblanadi. Matn lingvistikasida bo'lgani kabi nutqiy harakatlarda ham, matn mazmunining ma'lum qismi va berilgan ma'lumotlarning mazmuni muallifning maqsadiga qarab ifodalanadi [11]. V. Xolmanova esa pragmatik bilim inson faoliyati davomida to'plangan tajriba natijasidir; bu bilimlar axborot almashish jarayonida lingvistik tarzda amalga oshiriladi va shu bilan ongda saqlanadi, deb hisoblaydi [12]. Publitsistik matn pragmatikasining vazifasi tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lumotni ham haqqoniy, ham konseptual hamda ta'sir ko'rsatgan holda yetqizish ya'ni to'g'ri yetqizib bera olish hisoblanadi. Lingvistik pragmatikaning belgilanish sohasi - bu umuman jamiyatning, xususan, shaxsning nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan til birliklarining jonli faoliyatidir. Insonning o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda etish istagi, boshqa shaxsga ta'sir o'tkazishga urinish, unda ma'lum bir reaksiyani (og'zaki, hissiy, xatti-harakatlar va boshqalar) uyg'otish pragmatika bilan bog'liq.

**Mulohazalar.** Jurnalistik matn pragmatikasining asosiy tushunchalari shunday paydo bo'ladi:

1) muallifning shaxsiyati - uning ijtimoiy, axloqiy va kasbiy darajasi;

2) Ushbu ma'lumot qabul qiladigan auditoriyaning tabiati (albatta, auditoriya ma'lum bir tarzda modellashtirilgan, u muallifning tasavvurida yaratilgan, ammo bu maqsad dialogda majburiy hodisadir;



3) O'ziga xos "davir imperative" ga tayanish - tomoshabinlar bilan muloqot sodir bo'lgan vaqtni hisobga olgan holda. Voqea sodir bo'lgan vaqt va u haqida gapirish vaqti mos kelmasligi mumkin, ammo hikoyaning dolzarbligi muammosi muallif va tomoshabin o'rtasidagi muloqotni tashkil etishda asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Publitsist shunchaki gapirmaydi - u muloqot olib borayotgan auditoriya qanday bo'lishi kerakligi haqidagi o'z g'oyalari ta'yanan holda auditoriyani shakllantiradi. Voqea sodir bo'lgan vaqt va u haqida gapirish vaqti mos kelmasligi mumkin, ammo hikoyaning dolzarbligi muammosi muallif va tomoshabin o'rtasidagi muloqotni tashkil etishda asosiy muammo bo'lib qolmoqda [13].

Til va nutq birliklarining pragmatik shartlilik bilan bog'liq holda jurnalistik nutq va unda ishlaydigan frazeologik o'zgarishlar alohida qiziqish uyg'otadi. Jurnalistik nutq uchun pragmatik yo'nalish eng muhimi bo'lib, u o'zining maxsus axborot va uslubiy o'ziga xosligi va "har qanday uslubning tarkibiy xususiyatlaridan" biri sifatida maqsad qo'yish bilan belgilanadi [14]. Matbuotning pragmatik yo'nalishi bir tomondan universallik, ikkinchi tomondan ixtisoslashuv bilan tavsiflanadi. Uslub, mavzu va mazmundagi farqlarga ko'ra, ingliz tilidagi matbuot "sifatli" (yangilik matbuoti), "o'rtacha" (fikr matbuoti) va "ommaviy" (tabloid, "sariq" matbuot) deb tasniflanadi. [15]. Jurnalistik matnning pragmatikasi adresatning adresantga nisbatan faol pozitsiyasini nazarda tutadi, chunki muayyan voqealar va bu voqealarda ishtirok

etgan asosiy shaxslarni baholash, qoida tariqasida, muallifning maqsadiga kiradi [16]. Tadqiqotda yangilik hisobotini, gazetada bildirilgan pozitsiyani o'qib chiqqandan so'ng, uning atrofidagi zamonaviy dunyoga nisbatan o'z nuqtai nazarini va qarashlarini rivojlantiradigan va shakllantiradigan manzilga mo'ljallangan "sifatli" matbuot tahlil qilinadi. Pragmatik ma'lumot ishlab chiqaruvchi tomonidan "muayyan obyektlarni, hodisalarni, ularning har qanday xususiyatlarini yoki lingvistik aks ettirish obyektlari o'rtasidagi munosabatlarni idrok etishi va baholashi, shuningdek nutqni qabul qiluvchiga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan pragmatik effektga erishish" ifodasi sifatida qaraladi [17]. Qo'shimcha ma'nolarning o'ziga xos mantiqiy-nazariy konstruksiyalarining shartlilik orqali bilish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarining izomorfizmiga asoslanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, matn konseptiga tilshunos olimlar turlicha tavsif beradilar va ulardan shuni bilishimiz mumkinki, matn tugallangan mazmunga ega bo'lgan, axborotni yetkazadigan nutq mahsulidir. Publitsistik matn esa axborotni tinglovchiga qay tarzda ma'lum qilish darajasini belgilaydi ya'ni ta'sir doirasining kengligi bilan boshqa matn turlaridan farq qiladi. U badiiy matnga obrazlilik, emotsionallik xususiyati jihatdan yaqin turadi, ammo publitsistik matnda haqiqat, oshkoralik muhim hisoblanadi. Publitsistik matn pragmatik xususiyati esa janrlariga ko'ra bir-biridan biroz farq qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Greimas, Algirdas Julien De l'imperfection., Pierre Fanlac, Périgueux, Franca, 1987
2. Bennevis, Emil. Obshaya lingvistika. – M.: 1974
3. Galperin I.R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. – M.: Nauka, 1981
4. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Darslik. Yangi asr avlodi, – T. 2009
5. Rojdestvenskiy Yu.V. Vvedeniye v obshuyu filologiyu. – M.: 1974
6. Ляпун С.В. Газетная публицистика в парадигме лингвистических исследований XXI в. // Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. 2. Филология и искусствоведение. 2011. Вып. 1. – С.
7. Щелкунова Е.С. Публицистический текст в системе массовой коммуникации: специфика и функционирование. Воронеж: Родная речь, 2004
8. Прохоров Е.П. Исследуя журналистику: Теоретические основы, методология, методика, техника работы исследователя СМИ. М.: РИП-Холдинг, 2006
9. "Xalq so'zi" gazetasi. 2024-yil 24-may, 101 (8724)
10. Моррис Ч. Основания теории знаков. — В кн.: «Семиотика». М., 1983, с. 63.
11. Khursanov N. Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics. Uzbekistan: Language and Culture. 2023 Oct 4;1(1).
12. Xolmatova V. 2019. "Pragmatika tushunchasining talqini haqida". Xorijiy filologiya 2: 45-49. Samarqand.
13. Прагматика публицистического высказывания | СДА (discourseanalysis.ru)
14. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. – М., 1990. – С. 136-138
15. Кобозева, и. М. Лингво-прагматические аспекты анализа языка сМи // Язык сМи как объект междисциплинарного исследования: Учеб. пособие //и. М. кобозева; Моск. гос. ун-т. — М.: МГУ, 2003 — 460 с.
16. Тимофеев О. А., студ. IV к. БГЭУ, timofeenko\_2011\_sbornik7\_tom2.pdf - Яндекс Документы (yandex.ru)
17. Лебедева Л.А. Коммуникативно-прагматические функции устойчивых сравнений // Коммуникативно-прагматические аспекты фразеологии: тезисы докл. Междунар конф. (20-29 сент. 1999 г.). – Вол-гоград, 1999. – С. 24.



**Kamola VASLIDDINOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: [kvasliddinova12@mail.ru](mailto:kvasliddinova12@mail.ru)

*O'zMU professori, f.f.d N.Abduraxmonova taqrizi asosida*

## FUNCTIONAL CAPABILITIES OF THE PARALLEL CORPUS

Аннотация

In this article, the evolution of the formation of the parallel corpus, its importance as an object in translation and lexicographic research is justified with examples. Functional possibilities of parallel corpora put into practice based on various theories created by linguists were analyzed and synthesized. Based on the functional capabilities of the parallel corpus, its functional category is enriched with new hypotheses.

**Key words:** Corpus, bilingual corpus, parallel corpus, automatic translation, active language, dead language, statistical machine translation, text alignment theory.

## ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА

Аннотация

В данной статье на примерах обосновывается эволюция формирования параллельного корпуса, его значение как объекта переводческих и лексикографических исследований. Проанализированы и синтезированы функциональные возможности параллельных корпусов, реализованные на практике на основе различных теорий, созданных лингвистами. На основе функциональных возможностей параллельного корпуса его функциональная категория обогащается новыми гипотезами.

**Ключевые слова:** Корпус, двуязычный корпус, параллельный корпус, автоматический перевод, активный язык, мертвый язык, статистический машинный перевод, теория выравнивания текста.

## PARALLEL KORPUSNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI

Аннотация

Bu maqolada parallel korpusning shakllanish evolyutsiyasi, uning tarjimada va leksikografik tadqiqotlarda obyekt sifatidagi ahamiyati misollar bilan asoslab berilgan. Tilshunoslar tomonidan yaratilgan turli nazariyalar asosida amaliyotga joriy qilingan parallel korpuslarning funksional imkoniyatlari analiz va sintez qilingan. Parallel korpusning funksional imkoniyatlari asosida uning vazifaviy kategoriyasi yangi gipotezalar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** Korpus, bilingval korpus, parallel korpus, avtomatik tarjima, faol til, o'lik til, statistik mashina tarjimasi, text alignment nazariyasi.

**Kirish.** Korpusning bilingval turi ikki turga bo'linadi: Parallel va Comporable korpus. Parallel korpus bu korpusning funksional turlaridan biri hisoblanib, so'nggi yillarda mashina tarjimasi, avtomatik tarjima, NLP, til texnologiyalari, bir tildagi matnning boshqa tildagi tarjimasi bilan yonma-yon kelishi natijasida lingvistik birliklarni qiyosiy tahlil qilish kabi zamonaviy tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarning obyekti sifatida keng qo'llanilmoqda. Parallel so'zi lotin tilidan "parallelus"- para va grek tilidan "allelois" yonida so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan so'z birikmasi hisoblanadi. Korpusda matnlarning muqobili bilan yonma-yon turishiga aynan parallel korpuslar deya nom berilishi parallel so'zining ma'nosiga bevosita bog'lanadi. Ma'lumki, parallel korpus - bu bir tildagi matnning asl to'plami va uning boshqa tildagi muqobilining yonma-yon kelishidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Parallel korpuslar sohasida izlanishlar olib borgan o'zbek tadqiqotchisi Anorxon Axmedova tadqiqot ishida dastlabki parallel korpus sifatida 1822-yilda Jan-Franyois Shampollion tomonidan topilgan Rozetta bitiktoshida miloddan avvalgi 196-yilda Misr ibodatxonalari tomonidan qiro'l Ptolomey V ni sharafiga ikki tilda ya'ni yunon va misr tillarida bitilgan parallel matnlarni misol tariqasida keltiradi. Keyinchalik bu bitiktosh iyerogliflar ustida olib borilayotgan minglab gipotezalar va miqlarga javob topish uchun kalit vazifasini bajaradi [1].

Yuqorida keltirib o'tilgan parallelizmning tarixi bugungi kundagi yo'qalib borayotgan yoki aynan shu

muammo havfi mavjud bo'lgan barcha tillar uchun parallel korpus ustida chuqur izlanishlar olib borish hamda dunyoning eng rivojlangan tillarida tarjima muqobillari mavjud mahalliy materyallarni parallel korpusini yaratishi keyingi avlodlarga tabiiy tilni yetkazib berish imkonini beradi. Quyidagi 2-rasmda Einar H.Dyvik tomonidan The most spoken languages worldwide 2023 | Statista saytida 2024-yil uchun eng ommabop tillar ro'yhati batafsil keltirib o'tilgan.

Bugungi kunda dunyo tillari, ularning ishlatilish darajasi, lingvistik xilma xillikni barcha imkoniyatlarini keng ochib berish maqsadida UNESCO tomonidan "UNESCO WAL ya'ni THE WORLD ATLAS OF LANGUAGES" platformasi tashkil etilgan bo'lib, bu platforma dunyo miqyosida tillar ustidan keng nazorat olib borish imkonini beradi. Butunjahon tillar atlas metodologiyasiga [14] ko'ra, hukumatlar, jamoat institutlari va akademik hamjamiyatlar tomonidan hujjatlashtirilgan 8324 ta til mavjud bo'lib, ularda gaplashadigan yoki imzolangan; 8324 ta tildan 7000 ga yaqini hali ham ishlatilmoqda.

Galgary universiteti tadqiqotchisi Awil Hashi izlanishlari asosida 6700 ta tillarning 50% bugungi kunda yo'qalib ketish ehtimoli mavjud ekanligini globallashuv va madaniy xilma xillikni yo'qalib borishi bilan ilmiy asoslab berishga harakat qiladi va yo'qalib ketish ehtimoli yuqori bo'lgan tillar uchun Somali tillari asosida korpus modeli yaratish nazariyasini ilgari suradi [2].

Madaniyatlararo bioxilma-xillikning yo'qolib borishi, globallashuv va modernizatsiya tillarning yo'qolib borishining eng asosiy sababi ekanligi "the IUCN Red List criteria" asosida dunyo olimlari tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

Masalan lotin tili o'lik til hisoblanib, jamiyatning biror qatlami tomonidan og'zaki nutq yoki hukumat hujjatlarida foydalanilmaydi. Lekin lotin tilida yozilgan ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar har doim tadqiqotlar markazidan oliy o'rin egallagan. Shu bois jahonning rivojlangan tillari hisoblangan ingliz, fransuz va nemis tillarida lotin tili juftligida parallel korpuslar yaratilgan.

The Persues Digital Library tomonidan 10.5 million lotin tilidagi so'zdan iborat "Perseus Latin Word Study Tool" parallel korpusi yaratilib [16], Cicero, Caesar, Vergil kabi yozuvchilarning lotin tilida yozilgan asarlari ingliz tilidagi tarjimai bilan parallellikda korpusga kiritilgan. Natijada lotin tili klassik til sifatida Gretsiyada o'rta va oliy ta'lim muassalarida o'qitilmoqda va Katolik cherkovi diniy tili sifatida saqlab qolindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotimiz davomida analitik, analiz, sintez, qiyosiy, statistik metodlardan foydalangan holda parallel korpusning funksional imkoniyatlarini yoritib berdik. Yuqorida batafsil keltirib o'tilgan omillar ham parallel korpusning bugungi kundagi NLP til texnologiyalari uchun zaruratini asoslashga xizmat qiladi. Ayniqsa statistik ma'lumotlar asosida keltirib o'tilgan faol tillar bilan tarjima muqobillari mavjud parallel matnlar korpusi yo'qolib borayotgan tillar yoki tilshunos olimlar uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Mashina tarjimasida dastlab parallel korpuslardan foydalanish 1954-yil Amerikaning New York shahrida amalga oshirilgan Georgetown-IBM tajribasi ya'ni 49 ta ruscha gaplarining ingliz tilidagi muqobili bilan yonma-yon berilgan korpusi hisoblanadi [7]. Garchi bu korpus sig'im jihatidan kichik hajmi bo'lsada keyinchalik, boshqa yirik hajmli parallel korpuslar uchun na'muna sifatida asos bo'ldi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma'lumki, parallel korpusning yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatlarini o'zida namayon etgan eng dastlabki korpuslardan biri bu – ikki tilda ya'ni ingliz va fransuz tilida Kanada Parlamenti hujjatlari asosida tuzilgan HANSARD KORPUSI hisoblanadi. Tilshunoslar Church va Gale konkordansing funksiyasi asosida parallel matnlarda "text alignmet" nazariyasiga asos soladi [10]. Lekin tilshunoslar tomonidan bu ilmiy nazariyaga faqatgina nazariy konsept emas, shuningdek operativ konsept deya ta'rif berishni joiz deb topadilar.

"Text alignmet" nazariyasining mohiyati "Corresponding units" tamoyili asosida ish ko'radi [11], ya'ni parallel berilayotgan aslyatdagi matn va uning ikkinchi tilda berilgan tarjima muqobili so'z, gap va leksik birliklar (chunk, kollokatsiya, frazema, formula gaplar, leksik qolipga aylangan gaplar) asosida ikki tildagi segment birliklarini aniqlaydi.

Yuqorida keltirilgan Church va Gale tomonidan yaratilgan Hansard korpusini 2014 va 2016-yillarda SAMUELS loyihasi doirasida bajarilgan <https://www.english-corpora.org/hansard/> korpusi bilan taqqoslash mumkin [15]. Bu korpus ham Hansard nomini olgan va "The UK Arts and Humanities Research Group" tomonidan moliyalashtirilgan. Hansard korpusining ahamiyatli jihati shundaki, 1803-2005 yillar mobaynidagi Britaniya Parlamentida so'zlangan har bir rasmiy nutqlar kiritilib, nafaqat leksik balki, semantik jihatdan ham teglangan hamda nafaqat leksikografik va og'zaki nutq sentiment analizida muhim parallel korpus turlaridan biri hisoblanadi.

Perugia universiteti professori Federico Zanettin tarjima imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bilingval ingliz-italian parallel korpusida konkordansing software dasturining imkoniyatlari xususida izlanishlar olib brogan [5]. Buyuk Britaniyaning Sheffield universiteti professori Elke

St.John nemis tilida so'zlashuvchi talabalarga ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda nemis-ingliz parallel korpusi (INTERSECT) va Multiconcard deb nomlangan nemis-ingliz konkordansidan foydalangan holda 800 ta so'zdan iborat olti turdagi matnlarni tahlil qiladi:

- 1.Hoechst, BASF, Siemens banklarining yillik bank xisobotlari matni,
- 2."German News" internet saytidan olingan publitsistik uslubga xos matnlar,
- 3.Yevrofa ittifoqi matnlari,
- 4.Birlashgan millatlar tashkiloti hujjatlari matni,
- 5.Germaniyaning sobiq prezidenti Herzogning og'zaki uslubdagi nutqi transkripsiyasi,
- 6.Germaniya, Shvetsariya va Avstriya davlatlari konstitutsion matnlari.

Tarjima muqobillari asosida yeg'ilgan yuqoridagi matnlarning tarjima muqobillari asosida lingvistik xususiyatlar tahlilga tortilgan va dars jarayoniga bevosita tadbir qilingan. Elke St.John olingan samarali natijalar asosida tarjimai o'qitishda korpusdan foydalanishning istiqbolli mezonlari xususida tavsiyalar berib o'tadi [6].

Portugaliyaning Surrey universiteti tadqiqotchisi Ana Frankenberg Garcia parallel korpusning strukturaviy jihatdan uchta turgan bo'ladi: unidirectional, bidirectional, combination of both types [4]. Uning nazariyasi asosida parallel korpusning ikki tomonlama konfiguratsiyali ingliz-portugal parallel korpusi yaratildi. COMPORA deb atalgan ingliz - portugal parallel korpusi ishlash quvvat jihatidan 7.04 versiyali bo'lib, Portugaliya, Braziliya, Mozambika, Angola, Birlashgan Qirollik(the UK), AQSH, Janubiy Afrika kabi davlatlarning 33 ta turli yozuvchilari tomonida 1837 va 2000-yillar oralig'ida nashr etilgan asarlarining 69 tasini saralab olib, 3 million so'zdan ziyod so'zlarni parallel korpusga joylaydi [4]

- 1.Bir tomonlama konfiguratsiyali (unidirectional)
- 2.Ikki tomonlama konfiguratsiyali (bidirectional)
- 3.Kombinatsiyali (a combination of unidirectional and bidirectional configuration).

**Xulosa va takliflar.** Parallel korpus ba'zi manbalarda tarjima korpuslari ham deb ham atalib, ikki yoki undan ortiq monolingval korpuslardan iborat bo'ladi. Maryland universiteti tadqiqotchisi Philip Resnik va Jons Hopkins universiteti professori Noah Smith Jons Hopkins nomli maqolasida parallel korpuslarning mashina tarjimai va NLP sohasidagi tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etgani bois ularga "bitexts" deya ta'rif beradi.

Tilshunos olimlar Gale va Church (1991) avtomatik til o'rganish jarayonlarida parallel korpus resurs vazifasini bajaradi deya ta'kidlasa, Brown 1990, Melamed 2000, Och va Ney 2002 parallel korpuslarning statistik tarjima modellari uchun zaruriy ma'lumotlar bazasi deya ta'riflaydi. Davis va Dunning 1995, Landauer va Littman 1990, Oard 1997 parallel korpusning tillararo so'zlarning lingvistik xususiyatlarini solishtirish imkoniyatlari haqida fikr yuritadi [9].

Rus olimi V.Zaxarov parallel korpusning ma'noviy xususiyati jihatidan shartli ravishda ikki turga ajratadi:

muayyan tildagi aslyat matnning ikkinchi tildagi aynan tarjimai;

biror sohaga oid mavzulashtirilgan guruhlar bo'yicha bir tasnifga kiritilgan matnlar [12].

Parallel matnlarning mos juftliklarini tuzish uchun inson tomonidan tahrir qilingan matnlar kiritilib, lug'at orqali matnda uchragan segment birliklarga qarab avtomatik tarzda tarjima birliklari aniqlanadi. Buning uchun ikki tilga mos leksik va grammatik jihatdan ishlab chiqilgan variantlar lug'atga kiritilgan bo'lishi kerak. Parallel korpus quyidagi maqsadlarda qo'llanilishi mumkin [13].

- ikki yoki ko'p tili tarjima lug'atlar tuzishda;
- mashina tarjima tizimlari uchun lug'at yaratish va uni doimiy tarzda to'ldirib borish;

- kontekstda uchraydigan ko'p ma'noli so'zlarning kompyuter tahlili orqali leksik birliklarni polisemiya oidligini aniqlash;

- matndagi terminologik va frazeologik birliklarni tarjima qilish;

- korpusdan foydalangan holda tarjimalarning mos variantlarini kompyuter xotirasiga yuklash va shu orqali mashina tarjimasi tizimi uchun to'liq avtomatik tarjimani amalga oshirish.

Demak, parallel korpusga berilgan turli ta'riflardan kelib chiqib, uning quyidagicha funksional xususiyatlar kategoriyasini shakllantirish mumkin.

Statistik mashina tarjimasi uchun database;

Tillararo leksik-semantik xususiyatlarni chog'ishtirish uchun manba;

Tarjima modellari uchun platforma;

Tarjimani o'qitishda metodik yondashuv;

Yo'qalib ketish havfi mavjud tillar uchun elektron SOS arxiv vazifasini bajaradi.

Tillararo tarixiy va sotsio-madaniy jihatdan tarjimada til normalari aks etgan qo'llanma.

Tarjimada korpusdan foydalanish haqidagi dastlabki nazariya ingliz tilshunosi Mona Baker tomonidan ilgari surilib, olim "Corpus linguistics and translation studies: implications and applications" asarida korpus va tarjimani quyidagicha bog'laydi "Ma'lum bir tildagi asliy matn va uning aynan tarjima variantining yirik hajmli korpusiga yuklanishi natijasida korpus-driven metoddan foydalanib tilning turli xususiyatlarini aniqlash imkoni paydo bo'ladi" [8].

Korpusning funksional xususiyatlari sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar korpusning imkoniyatlarini tobora kengligini isbotlab bermoqda. Masalan dastlab korpusning konkordans funksiyasi til o'rganish yoki o'qitishdagi instrument sifatida baholangan bo'lsa, keyinchalik metodika sohasida korpus materiallarining autentik xususiyatlari borasida olib borilgan izlanishlar natijasida korpusning konkordans funksiyasi tilning leksik, semantik, sintaktik, stilistik xususiyatlarini avtomatik aniqlab berishi isbotlandi.

Korpusda konkordans funksiyasi bu - yuqori tezlikda so'zlarni izlashga mo'ljallangan funksional qurilma hisoblanib, u korpus tarkibidagi so'zlar, frazalar, teglar, hujjatlar va matn turlarini aniqlaydi va korpus oynasida umumiy sanog'ini namoyon qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Anorxon Axmedova. Parallel korpusda o'xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari tadqiqi. Monografiya. Toshkent.2022. B 141.
2. Awil Hashi. Developing a Model Corpus for Endangered Languages. CALGARY, ALBERTA JULY, 2014. P 246.
3. Amano T, Sandel B, Eager H, Bulteau E, Svenning J-C, Dalsgaard B, Rahbek C, Davies RG, Sutherland WJ. 2014 Global distribution and drivers of language extinction risk. P 281: 20141574. <http://dx.doi.org/10.1098/rspb.2014.157>
4. Ana Frankenberg Garcia. Compiling and using a parallel corpus for research in translation. 2009.
5. Claudio Fantinuoli and Federico Zanettin (ed.). 2015. New directions in corpus-based translation studies (Translation and Multilingual Natural Language Processing 1). Berlin: Language Science Press. P 103.
6. Elke St.John. A Case for Using a Parallel Corpus. Language Learning & Technology <http://llt.msu.edu/vol5num3/stjohn> September 2001, Vol. 5, Num. 3 pp. 185-203.
7. Garvin, Paul L.. "The Georgetown-IBM Experiment of 1954: An Evaluation in Retrospect". Papers in linguistics in honor of Léon Dostert, edited by William Mandeville Austin, Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 1967, pp. 46-56. <https://doi.org/10.1515/9783111675886-006>
8. M.Baker "Corpus linguistics and translation studies: implications and applications" 1993 p 243. <https://doi.org/10.1075/z.64.15bak>
9. Philip Resnik, Jons Hopkins. Jons Hopkins. Computational Linguistic. Volume 29, Number 3.349-380.
10. Zhaorong Zong1, Changchun Hong. Research on Alignment in the Construction of Parallel Corpus IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 1213 (2019) 042003 IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1213/4/042003.p 1-5.
11. Zhaorong Zong1, Changchun Hong. Research on Alignment in the Construction of Parallel Corpus IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 1213 (2019) 042003 IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1213/4/042003.p 1-5.
12. Захаров В.П., Богданова С.Ю. КОРПУСНАЯ ЛИНГВИСТИКА. (Учебник) - Санкт-Петербург, 2013, - С.62
13. Захаров В.П., Богданова С.Ю. КОРПУСНАЯ ЛИНГВИСТИКА. (Учебник) - Санкт-Петербург, 2013, - С.64
14. About the World Atlas of Languages | UNESCO WAL.30.05.2024.
15. <https://www.clarin.ac.uk/hansard-corpus.10.06.2024>.
16. <http://www.perseus.tufts.edu/hopper/.2.06.2024>.



*Dilfuza DJALILOVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: dilfuza.jalilova2024@gmail.com*

*O‘zDJTU dotsenti P.Nishonov taqrizi asosida*

## FRAZEOLIGIK BIRLIKLARGA NAZARIY YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli davr jahon tilshunos olimlari tomonidan frazeologiyaga bildirgan nazariy fikrlari va ularning yillar davomida sayqallashib kelinganligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Olim, termin, ronsept, lingvistika, tadqiqot.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ФРАЗЕОЛОГИЗМАМ

Аннотация

Данная статья представляет собой раздел языкознания, посвященный фразеологии, в котором рассматриваются теоретические взгляды разных периодов мировых языковедов на термин и их обогащение с годами.

**Ключевые слова:** Учёный, термин, концепт, лингвистика, исследование.

## THERETICAL APPROACH TO PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article is dedicated to phraseology section of linguistics, which examines the theoretical views of different periods of world linguists on the term and their enrichment over the years.

**Key words:** Scientist, term, concept, linguistics, research.

**Kirish.** Bugungi kunda jahon tilshunoslik fanining taraqqiyoti insoniyat tilning o‘zaro uzviy bog‘liqligini tadqiq qilmoqda. Tilshunoslik rivojlanishining hozirgi davr bosqichi ham ko‘p qirrali bo‘lganligi tufayli til hodisalarini tahlil qilish bo‘yicha barcha yangicha yondashuvlarni o‘z ichiga olgan holda tadqiq qilishni taqozo etadi. Tilshunoslik olamida frazeologizmlarga bo‘lgan ishtiyoq tobora kengayib bormoqda.

Bir necha yillar davomida bahs-munozaralar bilan o‘rganilib kelayotgan olamning lisoniy manzarasini obrazli hamda tasviriy ifodasini o‘zida mujassam etgan frazeologik birliklar dunyo xalqlarining yashash tarzi, urf-odat va an‘analarini, tili, dini, kelib chiqish tarixi hamda madaniyatini o‘zida qamrab oladi. Tildagi barqaror o‘zgarmas birliklar hisoblangan ibora, maqol va idiomalar frazeologiya fanining asosi hisoblanadi. Frazeologik birliklarni o‘rgana turib biz jahon xalqlari hayotiga, dunyosiga eshik ochgan bo‘lamiz.

Frazeologiyani mustaqil lingvistik fan sifatida paydo bo‘lish davrini o‘z navbatida uchga bo‘lib o‘rganamiz. Bular quyidagilar:

Birinchi bosqich. XVIII asr o‘rtalari va XX asrning boshidagi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda frazeologiya leksikografiya bo‘lib xizmat qilgan va M.V.Lomonosov, A.A.Potebnya, F.I.Buslaev, Sh.Balli, A.A.Shaxmatovlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu davrda lugatlarda frazeologik birliklarning etimologiyasini talqin etishga juda katta e‘tibor berilgan.

Ikkinchi bosqich. XX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davr. Bu davrda frazeologiya tilshunoslikning alohida lingvistik yo‘nalishi sifatida paydo bo‘ldi va aynan shu davrda, tilshunoslikning juda tez ildamlab borayotgan bu sohasi ko‘pgina dunyo tadqiqotchi olimlarining e‘tiborini o‘ziga jalb qildi. Shu jumladan, bu sohada V.V.Vinogradov, G.K.Danilov, V.N.Derjavin, G.O.Vinokur, A.Ya.Rojanskiy, S.I.Abakumov kabi ko‘pgina olimlarning ilmiy tadqiqotlarini misol qilishimiz mumkin. Aynan shu davrda, tilshunoslikning

juda tez ildamlab borayotgan bu sohasi ko‘pgina dunyo tadqiqotchi olimlarining e‘tiborini o‘ziga jalb qildi.

Uchinchi bosqich. XX asrning o‘rtalaridan hozirgacha bo‘lgan davr. Bu davrda frazeologiyada katta yutuqlarga erishildi. Yangi metodlar qo‘llanila boshlandi va ko‘pgina mutaxassislar etishib chiqdi” [1].

Frazeologik tushuncha keng va tor ma‘noda qo‘llanilishi mumkin. Bu termin tor ma‘noda idiomalar nazarda tutilgan bo‘lsa, keng ma‘noda ko‘chma ma‘noli birikmalar, maqol, matal va umuman olganda turg‘un so‘z birikmalarining barcha turlari tushuniladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Frazeologiya tor ma‘nodagi tushuncha degan fikr, A.M.Babkin, N.N.Amasova, A.M.Fyodrov, A.I.Molotov, B.P.Jukov kabi olimlar tomonidan ilgari suriladi va ular bunda turg‘un va ko‘chma ma‘nolilarni etiborga olishgan. Tilshunos olimlardan B.G.Kostomarov, A.B.Kunin, E.M.Bereshagen, A.G.Nazaryan, A.A.Reformatskiy, A.I.Smirmitskiylar esa o‘z ilmiy ishlarida frazeologiyani keng ma‘nodagi tushuncha hamda, ularga iboralar, iqtiboslar, hikmatli so‘zlar, maqol hamda matallarni kiritishadi.

Uzoq davom etgan tadqiqotlar natijasida olimlar, ayniqsa, turkiy tillarning frazeologik qatlamini o‘rgangan rus va o‘zbek tilshunoslari, turkshunoslar aniq ilmiy mezonlarga suyangan holda, frazeologik birliklarni emas, balki ulardan bir qismi turg‘un iboralarni tan oladilar [2].

A.A.Yo‘ldoshev frazeologiyani tor tushuncha tarafdorlaridan biri bo‘lib, “Frazeologiya tor ma‘noda tushunilsa o‘rganish doirasi aniqroq namoyon bo‘ladi, undan farqli ravishda bo‘linmas leksik birliklar jumladan, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, aforizmlar chiqib ketadi, chunki ular struktural jihatdan yaxlit holda ifodalanuluvchi sintaktik birliklardir” [3], deb fikr bildirgan.

G.X.Axunzyanov “frazeologiya” terminini ko‘p ma‘noli bo‘lganligi uchun, uni “idiomatika” yoki “idiomatologiya” terminlari bilan almashtirish zarur deb hisoblaydi[4]? G.X.Axunzyanovning “Idiomalar” nomli asari

chuqur mazmunliligi bilan turkiy tillar frazeologiyasining o'rganilishiga salmoqli hissa qo'shdi.

Turkiy tilshunoslikda frazeologiyani tor ma'noda tushunish 60-yillarga borib taqaladi. "Frazeologik birlik" tushunchasini "O'zbek tilida idiomalar" nomli ilmiy ishida M.Ro'ziqulova tor doiradagi tushuncha kabi ifodalaydi[5].

A.E.Mamatovning fikriga ko'ra "Frazeologiyani "keng" va "tor" ma'noda tushunish noto'g'ri, fslida uni bitta ma'noda tushunish lozim. Ular qanday til birliklari deb klassifikatsiya qilinishidan qat'iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg'un so'lashuv formulalarimi, "qanotli so'zlar"mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta'rifiga mos tushmasa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzilishi jihatidan so'z birikmasi va gapga teng bo'lgan, obrazli umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklar doirasiga kiritilishi shart" [6].

Zamonaviy tilshunoslikda, frazeologiyada tor ma'noda idiomalar nazarda tutilgan bo'lsa, keng ma'noda ko'chma ma'noli birikmalar, maqol, matal va umuman olganda turg'un so'z birikmalarining barcha turlari tushuniladi.

"Frazeologiya" atamasi yunoncha "frazza" (phrasia – ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda "frazeologik birliklar", "frazeologik birikmalar", "frazemalar" sifatida yuritiladi. Mazkur atama turk tadqiqotchilari tomonidan turli ma'nolarda qo'llanilgan. Bunga XIX asrning mashhur turk olimi Mirzo Kozimbek rus tilidagi "frazza" so'zini "jumla", "gap" (предложение) ma'nosida qo'llanganini misol qilishimiz mumkin [7]. Etimologik jihatdan o'rganilganda, frazeologiyaning ilmiy asoschisi Shvetsariyalik olim Charlz Balli hisoblanadi. U o'zining "Fransuz stilistikasi" (1909-yil) asariga so'z iboralarni jamlovchi bo'limni kiritgan [8].

Frazeologiya tushunchasi turli davr olimlar tadqiqotlarida turlicha ta'riflarga ega bo'lgan:

N.S.Valgina, D.E.Rozental va M.I.Fominalar fikrlariga ko'ra, frazeologizm deyilganda, ma'no munosabatiga ko'ra bo'linmaydigan iboralar tushuniladi; umumiy ma'nosining turg'unligi, komponentlari, grammatik kategoriyalarining aniqligi ularga xos xususiyatlardan biridir.

L.Xan ta'kidlashicha, frazeologik birliklar milliy mentalitetning aniq ifodasi hisoblanib, ular o'zlarida xalqning stereotipini va milliylik belgisini ifoda etadi, hamda xalqning lingvomadaniy xususiyatlarini o'zida mujassam etuvchi iboralar deb aytdi, ular uzoq tarixni, dinni, xalqning donoligini, axloq-odobini o'zida aks ettiradi[9].

O'zbek olimlaridan Sh.Raxmatullaev: "Frazeologik birlik bo'lish uchun so'zlarning obrazli birlashuvi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatilishi shart" [10], degan fikrni ilgari sursa, turk olimlari esa, "bir tushuncha, bir holatni jozibador ifoda bilan yoki o'ziga xos birikma ichida ta'kidlagan va asosiy ma'nolaridan alohida ma'nosi bo'lgan qoliplashgan birikmalarga frazeologizmlar deyiladi"[11].

Frazeologiyaning rivojiga mashhur frantsuz tilshunos olimi Sh.Balling o'rni katta. U frazeologik birliklarni ilmiy tomondan o'rganish lozimligini ta'kidlagan va "Précis de stylistique", "Traité de stylistique française" nomli kontseptsiyasini yaratgan [12,60]. Olimning bu kontseptsiyasini keyinchalik V.V.Vinogradov, G.G.Sokolova, A.V.Kunin, V.P.Jukov, A.G.Nazaryanlar davom ettirganlar.

V.V.Vinogradov Sh.Balling frazeologiya to'g'risidagi kontseptsiyasini yanayam sayqallashirgan tadqiqotchi olimlardan biri hisoblanadi va u: "Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topgan, ma'no jihatdan yaxlit, muloqot jarayonida keng qo'llanadigan so'zlar birikmasi" [13,45-69], deb izoh qoldirdi.

SH.Raxmatullaev o'zining "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida frazeologik

birliklarning antonimiya, sinonimiya, omonimiya hodisalarini chuqur tadqiq etadi. Bundan tashqari, olim o'zbek frazeologiyasida olib borilayotgan tadqiqotlar, ya'ni frazeologizmlarning semantik tuzilishiga asoslangan tahlil yo'lini ochib berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida ta'kidlaganimizdek, frazeologiyani o'rganishda juda ko'p tadqiqotchilar qatorida rus olimlari ham o'z hissalarini sezilarli darajada qo'shishgan.

O'zbek frazeologiyasida ilk tadqiqot ishlari 50-yillarga borib taqaladi. Bularga Ya.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainov, SH.Raxmatullaevlarning tadqiqot ishlari misol qilishimiz mumkin. Ungacha frazeologiya alohida soha sifatida shakllanib ulgurmagani edi. Ularga A.Gulomov, X.Zarif, U.Tursunov, F.Kamol, A.K.Borovkovlarning ilmiy ishlarini fikrimizning dalili sifatida keltiramiz

SH.Raxmatullaev o'zining "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida frazeologik birliklarning antonimiya, sinonimiya, omonimiya hodisalarini chuqur tadqiq etadi. Bundan tashqari, olim o'zbek frazeologiyasida olib borilayotgan tadqiqotlar, ya'ni frazeologizmlarning semantik tuzilishiga asoslangan tahlil yo'lini ochib berdi.

60-70-yillarda esa, o'zbek tilshunosligida Sadridin Ayniy, Hamza Hakimzoda [14].Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qaxxor, Shuxrat, G'afur G'ulom kabi o'zbek yozuvchi va shoirlari ijodlarining uslubiga xos turli xil yo'nalishlarda, tadqiqot ishlari olib borildi[15].

O'zbek tilidagi iboralarning struktural-grammatik, stilistik, semantik xususiyatlarini o'rganish 70-80-yillarga borib taqaladi. Bu yillarda iboralar uch turga bo'linib o'rganilgan ya'ni:

1) diaxronik planda iboralarning tadqiq etilishi. (E.Umarov, S.Mutallibov, A.Juraboev, MDakimov) bunda frazeologiyaning dialektal masalalarini o'rganishga urg'u berildi (M.Turotova, Yu.Jumanazarov, O.Madraximov, Yu.Jumanazarov, X.Doniyorov, T.Sodikov, X.Uzokov)

2) iboralarni lug'atlarda izohlash orqali ilmiy tomondan o'rganildi. (M.Umarxujayev, S.Akobirov, M.Abduraximov, V.X.Qodirov).

3) o'zbek va boshqa tillardagi frazeologizmlarning qiyoslab o'rganish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek tilidagi frazeologizmlarni nemis (A.Isaev, A.Yaxshiev, M.Azimova, M.Umarxujayev), frantsuz (A.Eshonqulov, A.Narziqulov), ingliz (K.Musaev, A.Shokirov, K.Nazarov, M.Xudoyberganova K.Musaev), tojik (M.Siddiqova, M.Tursunova), rus (T.Mirzaeva, I.Rasulov, Ya.Rajabov, B.Qarshiev, R.Jo'raqulov, A.Cho'ponov), boshqa turkiy tillar (E.Umarov, M.Ro'ziqulova) bilan qiyoslab olib borilgan ilmiy tadqiqotlarini misol qilishimiz lozim. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda frazeologiya keng ma'noda qiyoslab tahlil qilingan.

Jumladan, E.M.Vereshagen hamda, V.G.Kostomarovlar frazeologizmlar semantikasini diaxronik va sinxronik jihatdan ikki planli frazeologik birliklarga bo'lib o'rganishni tavsiya qilishgan[16].

Sinxron jihatdan frazeologik birliklarning diaxron jihat frazeologik birliklardan farqi shundaki, unda so'zlar o'z motivatsiyasini yo'qotgan holda o'z ma'nosida ifodalanadi: fr. Qui langue a, à Rome va (izlagan Makkani topadi).

Diaxronda, frazeologizmlar butun semantika va etimologik motivatsiyani o'zida mujassam qiladi. Misol: Madame Benoiton (uyda o'tirmaydigan inson haqida) singari frazeologizmi etimologiyasiga murojaat etmasdan turib to'g'ridan-to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Uning paydo bo'lishi Vikoren Sarduning "Benua oilasi" kommediyasidagi qahramon nomi bilan bog'liq va bunda yozuvchi burjua hayotining salbiy tomonlarini tasvirlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Tilning frazeologik birliklari va ularning kelib chiqish tarixini o'rganish millatning urf-odatlarini, yashash tarzi, qadriyatlarini yanada teranroq tushunib olishga imkon beradi. Unda xalqning madaniyatini ifodalovchi frazeologik birliklar lingvistik vositalar yordamida yorqin aks etadi. Frazeologik birliklar yordamida shaxs nafaqat hodisa va tushunchalar, atrofdagi voqelikni balki, olamga munosabatni ham ifodalaydi. Frazeologik birliklar, markazida shaxs

joylashgan dunyoning o'ziga xos frazeologik tasvirini ifodaydi.

Tilshunoslikda frazeologiya va uning ta'riflariga oid fikrlarni umumlashtirib quyidagi xulosaga kelish mumkin: Frazeologiya – urf-odat, madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, lingvistik ifodaga ega bo'lgan hamda, ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topib ma'naviy bog'liq bo'lgan, turg'un bog'lanmalarning umumiy nomi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ройзезон Л.И., Малиновский Е.А., Хаютин А.Д., Очерки истории становления фразеологии как лингвистической дисциплины. – Самарканд, 1975. С. 5-70
2. Хамидов Х.Х. Турк тилида фразеологизмларнинг юзага келиши, маъно ва грамматик хусусиятлари.– Тошкент, 2018. Б. 14.
3. Юлдашев Б. Ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1993. Б. 17.
4. Юлдашев Б. Ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1993. Б. 19
5. Рўзиқулова М. Ўзбек тилида идиомалар. Дис.канд.филол наук. –Самарканд, 966. Б.18.
6. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. Б. 212.
7. Казымбек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. – Казань, 846. С.120.
8. Muhitddinova S. Etymology of phraseological units in English and Uzbek languages. Vol No 3
9. Азизова.Ф.С. Олий таълим муассасаларига инглиз тили фразеологизмларини ўргатишнинг лингвимаданий хусусиятлари. –Тошкент, 2019. Б. 22.
10. Рахматуллаев Ш.У. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. Б.
11. Aksoy A.O. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul, 1994. S. 52
12. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. С. 60.
13. Юлдашев Б. Ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. –Тошкент, 1993. Б. 23
14. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Русский язык, 2001. С. 45-69.
15. Йўлдошев Б. Ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. — Т., 1993. С. 30.
16. Верещагин Е.М. Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Русский язык, 1990. С.65-66



**Yulduz JAYSANOVA,**

*Master Student of the Tashkent International University of Financial Management and Technologies*

*E-mail: jaysanovayulduz@gmail.com*

*Rewievier Z.Ayimbetova, Associate Professor of the "Philology" department of Tashkent International University of Financial Management and Technologies*

### HISTORICAL OVERVIEW OF POETIC DEVICES IN PROSE

Annotation

This article provides a comprehensive historical overview of the use of poetic devices in prose across various literary epochs, from classical antiquity to contemporary literature. It explores how elements traditionally associated with poetry, such as metaphor, alliteration, and assonance, have been incorporated into prose to enhance narrative depth, emotional impact, and thematic complexity. Through a qualitative literary analysis of key texts and authors, the study traces the evolution of these devices and examines their functional roles within prose narratives. The findings reveal that poetic devices are not merely decorative but are crucial for enhancing the aesthetic and rhetorical qualities of prose. This investigation not only contributes to a deeper understanding of literary style and technique but also highlights the fluid boundaries between poetic and prose forms, suggesting a more nuanced appreciation of genre interplay in literary studies.

**Key words:** poetic devices, literary analysis, prose style, historical literary trends, classical literature, romantic and Victorian literature, modernist literature, narrative techniques.

### ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРИЕМОВ В ПРОЗЕ

Аннотация

В статье представлен всесторонний исторический обзор использования поэтических приемов в прозе в различные литературные эпохи, от классической античности до современной литературы. В нем исследуются, как элементы, традиционно связанные с поэтикой, такие как метафора, аллитерация и ассонанс, были включены в прозу для повышения глубины повествования, эмоционального воздействия и тематической сложности. Посредством качественного литературного анализа ключевых текстов и авторов исследование прослеживает эволюцию этих приемов и изучает их функциональные роли в прозаических повествованиях. Результаты показывают, что поэтические приемы не просто декоративны, но имеют решающее значение для повышения эстетических и риторических качеств прозы. Это исследование не только способствует более глубокому пониманию литературного стиля и техники, но также подчеркивает плавные границы между поэтическими и прозаическими формами, предлагая более тонкую оценку взаимодействия жанров в литературоведении.

**Ключевые слова:** поэтические приемы, литературный анализ, стиль прозы, исторические литературные направления, классическая литература, романтическая и викторианская литература, модернистская литература, приемы повествования.

### PROZADAGI BADIY TASVIR VOSITALARINING TARIXIY SHARHI

Аннотация

Ushbu maqolada klassik antik davrdan tortib to hozirgi zamon adabiyotigacha bo'lgan turli adabiy davrlarda prozada badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi haqida batafsil tarixiy ma'lumotlar berilgan. Maqolada poetika bilan an'anaviy bog'langan metafora, alliteratsiya va assonans kabi elementlarning hikoya chuqurligini, hissiy ta'sirini va mavzu murakkabligini oshirish uchun nasrga qanday kiritilganligi o'rganilgan. Asosiy matnlar va mualliflarning badiiy tahlili orqali tadqiqotda ushbu vositalarning evolyutsiyasi kuzatiladi va ularning nasriy hikoyalardagi funktsional rollari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, poetik vositalar shunchaki bezak emas, balki nasrning estetik va ritorik funksiyalarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot nafaqat adabiy uslub va texnikani chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki unda she'riy va nasriy shakllar o'rtasidagi o'zgaruvchan chegaralar ta'kidlanib, adabiyotshunoslikka janrlarning o'zaro ta'sirini yanada nozik baholash taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** Poetik vositalar, badiiy tahlil, nasr uslubi, tarixiy adabiy yo'nalishlar, mumtoz adabiyot, romantik va Viktoriya adabiyoti, modernistik adabiyot, hikoya qilish uslublari.

**Introduction.** The exploration of poetic devices in prose is not merely an academic endeavor but a pursuit that reveals the intrinsic link between the aesthetic form of literature and its emotional and intellectual impact on readers. While poetry is often celebrated for its overt use of rhythm, meter, and figurative language, prose too is richly imbued with these elements, though they may be employed more subtly. The purpose of this paper is to trace the historical use of poetic devices within prose, to understand how these elements have been used to enhance narrative depth, emotional resonance, and thematic complexity across various literary epochs.

Historically, the integration of poetic devices in prose can be seen as a reflection of the evolving literary ambitions and cultural contexts of different periods. From the ornate expressions of the Renaissance to the stark brevity of Modernism, prose writers have borrowed techniques from poetry to enrich their narratives and to push the boundaries of how stories are told and experienced. This interplay between poetry and prose raises significant questions about the fluid boundaries of genre and the definition of what constitutes poetic versus prosaic writing.



This study aims to map out a comprehensive overview of how poetic devices have been utilized in prose from classical antiquity through to contemporary literature. By examining key texts and influential authors, this article will highlight both the continuity and variation in the use of poetic techniques, suggesting that the richness of prose is often tied to its poetic elements. Through this analysis, we can appreciate not only the historical progression of literary styles but also the ways in which prose has continually adapted and responded to readers' changing needs for expression and engagement.

Furthermore, the study of poetic devices in prose also contributes to broader discussions in literary theory, particularly in the areas of stylistics and the theory of literary forms. By understanding the historical context and application of these devices, scholars and readers alike can gain insights into the creative processes of writers and the aesthetic principles that underpin effective storytelling.

In sum, this article will provide a detailed exploration of the historical trajectory of poetic devices in prose, offering insights into the artistic and communicative potentials of literature. The findings aim to enhance our appreciation of literary creativity and deepen our understanding of how prose has evolved over centuries as a vibrant medium of human expression and reflection.

**Literature Review.** Theoretical background on poetic devices in literature. The study of poetic devices within prose necessitates a foundational understanding of these elements typically associated with poetry. Scholars like Burke [1] and Frye [2] have articulated how devices such as metaphor, simile, alliteration, and assonance function within poetry to evoke sensory responses or construct symbolic meanings. These discussions provide a lens through which one can examine their transition into and impact on prose narratives. Todorov [3] extended this analysis into the narrative structures of prose, highlighting how poetic devices contribute to the "poeticization" of prose, thus blurring the lines between poetic and narrative functions.

**Historical application and analysis.** Literary history shows a rich tradition of employing poetic devices in prose, with early examples seen in the classical rhetoric of Greek and Roman texts. For instance, Aristotle's *Rhetoric* [4] discusses the use of rhythm and meter in oratory, which influenced prose styles in subsequent European literatures. The medieval period saw prose narratives like the *Gesta Romanorum* using allegory and repetition to moralize and entertain, indicating the functional breadth of these devices [5].

**Transition through literary periods.** During the Renaissance and Enlightenment, as noted by scholars such as Fowler [6] and Mack [7], prose writers increasingly adopted poetic devices to enrich their expressive range and engage with a literate audience seeking both information and aesthetic pleasure. This trend continued into the Romantic and Victorian eras, where authors like Dickens and Hawthorne utilized imagery and symbolism extensively to deepen thematic explorations and character developments, as discussed by Miller [8] and Van Ghent [9].

**Modern and contemporary insights.** In the modern era, the use of poetic devices in prose has been pivotal in the evolution of narrative forms, particularly through stream of consciousness and fragmented narratives as explored by Cuddy-Keane [10] in the context of Virginia Woolf's novels. Contemporary literature has seen a continuation and expansion of these techniques, with authors like Toni Morrison deploying rhythm and motif to enhance narrative complexity and emotional depth [11].

**Critical perspectives and debates.** The academic discourse around the use of poetic devices in prose also includes critical debates regarding the efficacy and impact of

such techniques. Critics like Eagleton [12] and Attridge [13] have debated whether the integration of poetic devices can sometimes overshadow narrative clarity or whether it indeed enriches the textual engagement. These discussions are crucial in understanding both the potentials and the challenges posed by the poeticization of prose.

This literature review frames the ongoing scholarly conversation about poetic devices in prose, setting the stage for a detailed analysis of their historical applications and impacts. It highlights the continuous interplay between form and function in literature, encouraging a deeper appreciation of how writers use poetic techniques to enhance and complicate their narrative works.

**Materials and Methods.** The methodology of this study is structured around a qualitative literary analysis. The aim is to critically examine the use of poetic devices in prose across various historical periods, from classical antiquity to contemporary literature. The primary focus is on identifying and analyzing how these devices contribute to narrative structure, thematic development, and the emotional impact of the prose.

Texts for analysis were selected based on their historical significance and their known use of poetic devices. This selection process aimed to cover a wide range of literary periods and styles, ensuring a comprehensive overview of the evolution of poetic techniques in prose. Works from major literary figures known for their stylistic prowess and influence on literary trends were prioritized.

Data from the close readings will be systematically cataloged and analyzed to draw conclusions about the evolution and function of poetic devices in prose. This analysis will consider the frequency, type, and impact of poetic devices across different literary periods and individual authors' works.

This methodology is expected to yield a detailed understanding of how poetic devices have been employed by prose writers to enhance literary expression and to achieve specific aesthetic and emotive effects. The findings will contribute to a richer appreciation of literary style and technique, as well as provide a foundation for further studies in the interplay between poetic and prosaic elements in literature.

This approach ensures a rigorous examination of the textual material, allowing for an in-depth exploration of the nuanced ways in which prose writers have used poetic devices to craft memorable and impactful narratives.

**Results. Classical and Medieval Periods.** In classical literature, authors like Cicero and Plato often used devices such as anaphora and chiasmus to lend their prose rhythmic harmony and persuasive power. For instance, Cicero's *Orations* and Plato's *Republic* exhibit meticulous use of rhythm and meter that mirror poetic structures [14].

Moving into the medieval period, prose writings began incorporating more structured poetic forms to adorn narratives. The *Golden Legend* by Jacobus de Voragine, for example, utilizes alliteration and assonance, techniques common in medieval poetry, to enhance the text's memorability and oral readability [15].

**The Renaissance to the Enlightenment.** The Renaissance rekindled interest in classical techniques, blending them with vernacular languages. Sir Thomas Browne's *Hydriotaphia, Urn Burial* (1658) demonstrates a profound use of metaphor and hyperbaton, creating a sonorous depth that reflects Renaissance eloquence [6].

During the Enlightenment, prose aimed at clarity and reason, yet writers like Jonathan Swift in his *A Modest Proposal* (1729) skillfully employed irony and satire – traditionally poetic devices – to critique society [16].

The Romantic and Victorian Eras. The Romantic era saw a surge in the expressive and emotive use of language. Prose writers like Nathaniel Hawthorne in *The Scarlet Letter* (1850) and the Victorians like Charles Dickens in *Great Expectations* (1861) applied poetic devices such as symbolism and imagery extensively to express complex emotional landscapes and critique social norms [8].

**Modern and Contemporary Literature.** Modernist writers, including Virginia Woolf in *To the Lighthouse* (1927), experimented with stream of consciousness, a technique derived from free verse poetry, to delve deeper into the psychological dimensions of characters [10]. In contemporary literature, authors like Toni Morrison in *Beloved* (1987) use motifs, repetition, and rhythm to build narrative layers and thematic resonances [11].

**Discussion.** Interplay between poetic devices and prose narrative. The analysis of poetic devices across various literary periods has revealed that these elements are not merely ornamental but serve crucial narrative and thematic functions. The strategic use of poetic devices such as alliteration, assonance, metaphor, and imagery within prose enhances not only the aesthetic quality of the text but also deeply influences reader engagement and interpretation. For instance, Virginia Woolf's use of metaphor in *To the Lighthouse* offers a dense layer of meaning that invites readers to explore complex psychological and existential themes [10].

Evolution and adaptation across literary periods. Historically, the application of poetic devices in prose can be seen as a reflection of broader literary and cultural shifts. During the Renaissance, the revival of classical rhetoric in prose, as seen in the works of Sir Thomas Browne, demonstrated a blend of ornate language with philosophical inquiry, resonating with the intellectual climate of the time [6]. In contrast, the modernist prose of the early 20th century, characterized by stream of consciousness and fragmented narrative forms, employed poetic devices to mimic the tumult and disjointedness of modern life [10].

Comparative insights: Poetry vs. Prose. A comparative analysis between the poetic devices in traditional poetry and their application in prose highlights the fluid boundaries between genres. Prose writers often adopt rhythmic and sonic qualities typically associated with poetry, thereby creating a "poetic prose" that blurs categorical distinctions. This cross-genre utilization underscores the versatility of poetic devices and their ability to convey depth and emotion, irrespective of the formal constraints of the literary work [16].

Functional roles of poetic devices in prose. The functional analysis indicates that poetic devices in prose often play key roles in setting tone, building atmosphere, and

developing character. In Dickens's *Great Expectations*, for example, the repetitive use of dark imagery and specific sounds enhances the Gothic atmosphere, amplifying the psychological and moral themes of the novel [8]. Such devices actively shape the reader's experience, guiding interpretation and response to the narrative.

Implications for literary theory and criticism. The findings of this study suggest significant implications for literary theory, particularly in the realms of stylistics and narrative theory. Understanding the use of poetic devices in prose not only enriches the analysis of individual texts but also offers insights into the evolution of narrative forms and styles. It challenges traditional genre classifications and opens up discussions about the dynamic possibilities of literary expression [15].

Limitations and avenues for further research. While this study provides a broad historical overview, it is by no means exhaustive. The selection of texts, though diverse, is limited to a few notable works from major literary periods. Future research could expand the scope to include lesser-known authors and works, exploring how poetic devices are utilized in a wider array of cultural contexts and literary traditions. Additionally, a more quantitative approach could be employed to analyze the frequency and impact of these devices across a larger corpus of texts.

The use of poetic devices in prose is a testament to the adaptability and enduring relevance of these techniques in literary expression. This study not only highlights their aesthetic and emotive significance but also their crucial role in the evolution of narrative forms. By tracing the historical application of these devices, the study opens up new perspectives on the interplay between form and meaning in literature, reaffirming the profound connection between the art of poetry and the craft of prose.

**Conclusion.** This study has illuminated the significant role of poetic devices in the evolution of prose, demonstrating that these techniques are not merely ornamental but integral to enhancing narrative depth, emotional resonance, and thematic complexity. Through a detailed historical analysis, we have seen how authors across different epochs have skillfully incorporated poetic elements into prose to achieve greater literary expression and reader engagement. The findings underscore the adaptability and enduring relevance of poetic devices, offering a deeper appreciation of literary creativity and the dynamic interplay between poetry and prose. This exploration invites further scholarly exploration and broadens our understanding of the stylistic tools that shape literature's power and beauty.

#### REFERENCES

1. Burke, K. (1945). *A Grammar of Motives*. Prentice-Hall.
2. Frye, N. (1957). *Anatomy of Criticism: Four Essays*. Princeton University Press.
3. Todorov, T. (1984). *Theories of the Symbol*. Cornell University Press.
4. Aristotle. (1991). *Rhetoric* (trans. W. Rhys Roberts). The Modern Library.
5. Witt, R. (1999). *In the Footsteps of the Ancients: The Origins of Humanism from Lovato to Bruni*. Brill.
6. Fowler, A. (1964). *The Rhetoric of Renaissance Poetry*. University of California Press.
7. Mack, P. (1989). *Elizabethan Rhetoric: Theory and Practice*. Cambridge University Press.
8. Miller, J. E. (1971). *The Form of Victorian Fiction*. University of Notre Dame Press.
9. Van Ghent, D. (1980). *The English Novel: Form and Function*. Harper & Row.
10. Cuddy-Keane, M. (2000). *Virginia Woolf, the Intellectual, and the Public Sphere*. Cambridge University Press.
11. Peach, L. (1998). *Toni Morrison*. Macmillan Press.
12. Eagleton, T. (2007). *How to Read a Poem*. Blackwell Publishing.
13. Attridge, D. (2004). *The Singularity of Literature*. Routledge.
14. Bonner, S. F. (1949). *Roman Declamation in the Late Republic and Early Empire*. Liverpool University Press.
15. Ziolkowski, J. (1993). *Theories of the Text*. Oxford University Press.
16. Smith, A. (1985). *Jonathan Swift and the Age of Compromise*. University of Kansas Press.



*Tursunoy JARKINOVA,*  
*ToshDO'TAU tayanch doktranti*  
*E-mail:tursunoyjarkinova@gmail.com*

*Xalqaro Nordik universiteti dotsenti v.b., PhD S. Shomurodova taqrizi asosida*

## YUSUF SHOMANSUR VA XAYRIDDIN SALOH SHE'RIYATINING MUSHTARAK JIHATLARI

Аннотация

Ijod maktablarining ma'lum bir davr adabiy muhitida adabiyotning barkamol kelajak avlod vakillarini yetishtirib berishda o'rni beqiyos. Maqolada mana shunday maktablardan sanalmish "G'ayraty to'garagi"ning Yusuf Shomansur, Xayriddin Saloh, Erkin Vohidov kabi shoirlarni ijod olamiga kirib kelishiga qo'shgan hissasi haqida yozilgan. Shuningdek, Yusuf Shomansur va Xayriddin Saloh ijodining mushtarak jihatlari sabab bo'lgan omillar sarasiga Maqsud Shayxzoda saboqlari ham ko'rsatilgan. Ikki shoirning mavzu ko'lami, obraz doirasi o'xshash she'rlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiyot to'garagi, lirik qahramon, poetik tafakkur, mavzu ko'lami, obraz, ijod laboratoriyasi.

## ОБЩИЕ АСПЕКТЫ ПОЭЗИИ ЮСУФА ШОМАНСУРА И ХАЙРИДДИНА САЛАХА

Аннотация

Роль творческих школ в литературной среде определенного периода бесподобна в воспитании совершенных представителей следующего поколения литературы. В статье описывается вклад таких школ в вхождение в мир творчества таких поэтов, как Юсуф Шомансур, Хайридин Салах, Эркин Вахидов. Также среди факторов, обусловивших общность произведений Юсуфа Шомансура и Хайридина Салаха, показаны уроки Мақсуда Шейхзаде. Анализируются стихотворения двух поэтов, близкие по тематике и образам.

**Ключевые слова:** Литературный кружок, лирический герой, поэтическое мышление, предметный круг, образ, творческая лаборатория.

## COMMON ASPECTS OF THE POETRY OF YUSUF SHOMANSUR AND KHAIRIDDIN SALAH

Annotation

The role of creative schools in the literary environment of a certain period is incomparable in bringing up perfect representatives of the next generation of literature. The article describes the contribution of such schools to the entry of such poets as Yusuf Shomansur, Khairiddin Salah, Erkin Vahidov into the world of creativity. Also, the lessons of Maqsud Sheikhzadeh are shown among the factors that caused the common aspects of the works of Yusuf Shomansur and Khayriddin Salah. Poems of two poets with similar themes and images are analyzed.

**Key words:** Literary circle, lyrical hero, poetic thinking, subject scope, image, creative laboratory.

**Kirish.** Adabiyot maydonida qismati va ijod yo'li o'xshash bo'lgan ijodkorlar ko'p. Mana shundaylar sirasiga shoirlar Xayriddin Saloh va Yusuf Shomansurni kiritishimiz mumkin. Adabiyot dunyosiga kirib kelishi va ijodining shakllanishida muhim rol o'ynagan omillar ham ikki ijodkorda aynan bir xil. Birinchi omil G'ayraty rahbarlik qilgan adabiyot to'garagidir. O'zbek adabiyoti ravnaqiga o'z hissasini qo'shgan adiblardan biri G'ayraty mashaqqatli va sinovli davrda ijod qildi. Bu haqida Uyg'un shunday ta'kidlaydi: "G'ayraty nomini tilga olar ekanmiz, o'zbek sovet adabiyotining tug'ilishi, rivoji, balog'ati ko'z oldimizga keladi. G'ayraty adabiyotimizning o'sish yo'lida ro'y bergan murakkab kurashlarda faol qatnashdi"[1].

G'ayraty o'tgan asrning 20-yillarida G'afur G'ulom, Oybek, H. Olimjon, Mirtemir, Elbek, Botu, Sobir Abdulla safida ustozlari izidan borib, ulardan mahorat sirlarini o'rganib, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot haqida kuyladi. "Erk tovushi", "Yashash taronalari" to'plamlaridagi she'rlar bunga yaqqol namuna bo'la oladi. She'rlarida yer-suv islohoti, xotin-qizlar ozodligi, yangi hayot kabi zamonaviy mavzularni dolzarb masala sifatida aks ettirgan. Yangi o'zbek she'riyatiga sanoat mavzusini olib kirganligi uning yangilikka tashna bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Zamon talablariga hozirjavoblik uning she'rlarini asosiy xususiyatlarini belgilab beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yangi o'zbek adabiyotining Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon va Hamzadan keyingi namoyandalaridan biri G'ayraty o'tgan asrning 40-yillarida tuhmatga uchrab, ozodlikdan mahrum etiladi. Urush yillarida Toshkentga ko'chib kelib, G'ayraty xonadonidan panoh topgan rus yozuvchilaridan biri uni millatchilikda ayblab, sobiq Itifoq Yozuvchilar uyushmasi a'zolidan o'chirilgan va qamoq jazosiga mahkum etilgan. Shoir ikki yillik qamoq muddatini o'tab kelganidan keyin ham unga adabiyot maydonida ishlash imkoniyati berilmagan. Urush yillarida o'z yurtini tashlab qochishga majbur bo'lgan, urush mashaqqatlarini boshidan kechirib yashayotgan o'zbek oilasining unga ko'rsatgan muruvvatiga shunday razillik va nomardlik bilan javob bergan rus yozuvchisining ism-sharifi, afsuski, aniq emas[2]. Biroq shoirning qizi filologiya fanlari nomzodi D.Abdullaeva bu shaxsning kimligini bilgan. U o'z maqolasida uning ismi moskvalik yozuvchi S.Rodov bo'lganligini ta'kidlaydi. Uning tuhmatnomasi sababli otasi hibsga olinganligini, ammo tuhmat asossiz ekanligi ochiqqlanganligini, shunga qaramay G'ayratyning "Onamga xat", "Jinasta" poemalari haqida og'iz ko'pirtirib gapirgan safdoshlarining ko'pchiligi undan yuz o'g'irganligini aytib o'tadi.

G'ayraty taloto'pli yillarda yashab, boshidan ko'p qiyinchiliklarni kechirishiga qaramay adabiyotimizning

gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan zabardast yoshlarni tarbiyalab bera oldi. Ustozining adabiy xazinasidan ozuqlangan Erkin Vohidov, Yusuf Shomansur, Sayyor, Xayriddin Saloh, To'liqin kabi shijoatli yoshlar yetishib chiqdi. Bu ijodkorlar o'tgan asrning 60-yillar o'zbek adabiyotiga o'ziga xos nafas olib kira oldi.

“Ba’zi bir odamlar bo’ladiki, - deydi shoir Erkin Vohidov, - ular o’zlaridan nur sochib turadilar, bu ziyodan odamlar bahramand bo’ladilar. Bamisoli shamga o’xshagan bo’ladi-yu, bu odam, shamning atrofiga odamlar yig’iladi. G’ayratiy domla, Mirtemir domla ana shunaqa shamga o’xshagan odamlar edilar. O’sha Sog’uniy domlalaridan ma’rifat nuri, e’tiqod, musaffolik, soflik, poklik nuri taralib turardi. Va ular o’zining atrofida jam bo’lgan odamlarni suhbatlari bilan bahramand qila olardilar”[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shoir Yusuf Shomansur esa ustozining jonkuyarligini alohida e’tirof etadi: “Oddiy bir to’garakning shunchalik maqomi nimada edi? O’ylashimcha, avvalo, gap ustoz G’ayratiyning havaskordan havaskorni farq qila bilish iqtidorida. U kishi dilida talant uchquni bo’lmagan biror havaskorni shoir qilib qo’ygani yo’q. U yoshlarning o’zida bor iqtidorning yuzaga chiqishiga yordam berdiki, shuning o’zi katta san’atdir. ...Bizning to’garagimizda o’qilgan biror yaxshi satr zoe ketmasdi. Zarrama-zarra bilim olib, ulg’ayardik. Yo’ldoshev degan do’stimiz (ismini eslolmadim) o’zi ancha bo’shtob bo’lsa ham, bir kuni tuzukkina she’r yozib keldi. Bu uning birinchi va oxirgi she’ri ekanligini keyin bildik. Shunga qaramay, domla shu she’rni matbuotga tavsiya etdi. She’r bosildi, hatto kattagina tarjimon tarjimasida “Murzilka”da ham chiqib ketdi. Bu o’rinda domla xato qilmadimikan? Ustoz buni umid bilan qilgan edi, sinab ko’rdi, afsuski, do’stimiz sinovdan o’tolmadi. Biz domladan mana shunday olijanoblikni, halollikni o’rgandik. Havaskorning ijodkor bo’lib yetishuvida bu hal qiluvchi omillardandir”[4].

Ikki ijodkorning shakllanishida muhim rol o’ynagan ikkinchi omil esa Maqsud Shayxzoda domlaning adabiy saboqlaridir. Yusuf Shomansur va Xayriddin Saloh o’rta maktabni tugatgach, Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Pedagogika universiteti)ning kechki bo’limida tahsilni davom ettiradi. Buni qarangi, taqdir ularni o’zbek adabiyotining atqil namoyondalaridan biri, yetuk shoir Maqsud Shayxzoda yetovidagi to’garakka ijod sirlarini anglashga chorlaydi. Bu to’garakning faol tinglovchilaridan bo’lish bilan birga yosh qalamkashlar adabiy muhokamalarda ham faol qatnashar edi. Ular ustozdan she’riyatning sirli olamini zargarona kashf etish yo’llarini, dunyo, borliq, inson va tabiat haqida faylasufona kuylashni o’rganadilar. Professor Naim Karimov Maqsud Shayxzoda rahbarligidagi adabiy to’garakda bu ikki iste’dod egasining faol bo’lganligini e’tirof etib, quyidagilarni aytadi: “ Bu yerda u bilan Xayriddin Saloh o’rtasidagi do’stlik rishtalari yana ham mustahkamlandi. Ikki ajralmas do’stni hatto Hasan-Husan deb atay boshladilar. Shayxzoda bu ikki yosh shoirmi shunday unvon bilan atar ekan, ular mushtarak qismat bilan tugashini bilmas edi, albatta”[5].

Ularning taqdir yo’li ayanchli tugash bilan birga she’riyatida ham uyg’unliklar borligini payqashimiz mumkin. To’g’ri, bu ikki shoirming o’ziga xos ijod yo’li, ovozi, uslubi mavjudki, buni hech kim inkor etolmaydi. Chunonchi, Yusuf Shomansurda borliqni faylasufona anglashga, tabiat va jamiyatni mushtaraklikda tasvirlashga moyillik kuchli. Shuningdek, bolalik deya atalmish olamni yumor bilan suratlantirishga o’ch. Xayriddin Saloh esa tabiatni, undagi hodisalarni kuyga soladi. Uning lirikasida romantik tasavvur kuchli. Shu sababdan bo’lsa kerakki, ijod ahli orasida “romantik tasavvur va lirik tasavvur kuychisi” deya e’tirof etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Adabiyot xiyobonida ona yurt madhini satrlariga jo aylamagan shoir yo’q. Bu ikki ijodkor ham vatanini shunday sevadiki, unga bo’lgan mehrini jo’shqinlik bilan misralarga joylaydi. Yusuf Shomansur “Mehringga to’ymayman” she’rida jonajon makonini quyoshli o’lka sifatida ta’riflab, oftobning zarrin nurlarini rango-rang tovlanuvchi atlasga qiyoslaydi:

Quyosh atlasidan yoyganida sep,  
Husningga bir umr bo’lganman maftun.  
Jo’shqin buloqlarining suvini ichib,  
Yuragimda saqlab qolganman taftin,  
Mehringga to’ymayman, jonajon o’lkam!

Lirik qahramon quyosh atlasidan jilvalangan jonajon o’lkasining husniga maftun bo’lib qolgan, ona yurtini yashillik bilan ta’minlab turuvchi buloqlarining taftini esa yuragida saqlab qolgan. Shoir quyosh va suv obrazi orqali borliqni hayot bilan ta’minlovchi asosiy yaratilarga ishora qilish orqali vatanini ham, unga bo’lgan muhabbati ham abadiy ekanligini ta’kidlamogda.

Aynan shunday ohangni, mazmun-mohiyatni Xayriddin Salohning quyidagi misralari orqali ham anglashimiz mumkin:

Kuydirsang ham tovonim yozda.  
Junjitsang ham tanim ayozda  
Sirim sendan darig’ tutmadim.  
Uzilsa ham sendan oyog’im  
Uzilmagay yuragim mutloq.  
Otam,  
Onam,  
Urug’-aymog’im  
Dafn etilgan muqaddas tuproq[6].

Lirik qahramon yurtining taqdiri hamma vaqt uning yuragi bilan tutash ekanligini ta’kidlaydi. Shoir boshqa bir she’rida qarshilantirish san’ati orqali ona vatanining betakror bog’larini, tog’larini, sahrolarini, yozini, qishini kuylaydi, ulardan ayro o’zini tasavvur qila olmaydi. Sog’inch tuyg’ulari uni tark etmaydi.

Cho’lda yurganimda eslayman bog’ni,  
Bog’da kezganimda – cheksiz sahroni..  
Qishda, qahratonda qo’msayman yozing,  
Issiq saratonda - sovuq ayozing...

Yusuf Shomansurda ham, Xayriddin Salohda ham “bir kaft tuproq” obrazi uchraydi. Shoirlar unga ramziy ma’no yuklaydi. Tuproq ona yurt, Vatan ma’nolarini ifodalaydi. Xayriddin Saloh o’zga elga chiqqan chog’ida har vaqt “bir kaft tuproq” ni yonida saqlashi orqali unga bo’lgan sog’inch taftini bosishini ta’kidlasa, Yusuf Shomansurda aynan tuproq obraziga bag’ishlangan uchta she’r uchraydi. Ularning birida atirgul novdasi garchi yetarlicha nur, havo suv bilan ta’minlanishiga qaramay oddiy qora tuproqsiz yashay olmasligi aytilsa, yana birida ko’chat bozorini aylanayotgan ayolning sotuvchiga qarata “Og’a, bir kaft tuprog’ingdan sot!” degan so’zi uning qalbida og’riq uyg’otadi:

Sotuvchining sanchiq turar tanida,  
Baravar zirqirar o’n uch yarasi  
Bir kaft tuproq uchun kechib jonidan,  
Bir vaqt jang qilgandi bu yurt bolasi.

Sotuvchi – ona vatani, kindik qoni to’kilgan tuprog’i uchun, xalqining erkin va ozod yashashi uchun jon bergan, qon to’kkan fidokor xalq o’g’lonlarining obrazi. U yurt tuprog’ini ko’ziga mo’miyodek surtadi.

Ikki shoir ijodida milliyligimizning ko’zgusi sanalmish atlas haqidagi she’r uchraydi. Atlas azaldan xalqimizning fidokorona mehnatining samarasi, tengsiz ijod namunasi sanaladi. Undagi turli-turli tuman ranglar kamalakdek jilvalanadi. Xayriddin Saloh “Atlas kiygan qizlarga” she’rida suluvlar uchun ato etilgan ushbu qadimiy matoda yurt tabiatining go’zalligi aks etganligini, kelinlar

uyidagi zar palagi ham, Toshkent fontanining kamalagi ham chiroyda yengolmasiligini aytadi:

Hatto yulduzlar ham yoqasin tutsin  
Tan berib bu ziynat, bu ko'rk, ilmga.  
Marg'ilon atlasin dovrug'i ketsin  
Yetti iqlimga[7].

Xayriddin Saloh qizlarni atlasni uchrashuvga kiyib borishga chorlasa, bu she'rning mantiqiy davomi sifatida yozilgan Yusuf Shomansurning "Atlas kiy, atlas!" she'rida yo'lga o'tlanayotgan sho'x pardozi payida tinib-tinchimas qizlarning holati tasvirlanadi. Ushbu she'rda yoshlikning qaynoq taftini sezamiz. Ushbu matoga bo'lgan mehrini quyidagi misralarga joylaydi:

Ranglar alangasi, ranglar jilvasi  
Ko'zim qamashtirib, esim og'dirsin.  
Fontanlar yonida atlas shu'lasi  
Tiniq to'liqlarga olov yog'dirsin,  
Suvlarga tikilay mahliyo, besas,  
Bu gal ushrashuvda atlas kiy, atlas!

Bunda atlasning tiniq to'liqlardagi shu'lasi qalblarda ham muhabbat olovini yoqqanligiga ishora bor. Shu sabab oshiq yoriga besas mahliyo bo'lmoqqa mahkum. Keyingi misralarda ranglarni jonlantiradi, ularga ramziy ma'no

yuklaydi. Har bir rangda yil fasllarining tarovati jilvalanishi aytib, bahor – yashil, yoz – qizil, kuz - harir durrang, kuz - oltin rangda atlasda ham bo'y ko'rsatishini e'tirof etadi:

To'rt faslni birdan sayrga boshlab chiq:  
Qizili – qizil yoz, oltin rangda kuz,  
Yashil bo'yoqlarga bahor qo'ygan ishq,  
Harir durrang esa kumush qishdan iz.  
Rangda kamalak ham kelolmasin bas,  
Bu gal uchrashuvda atlas kiy, atlas!

Har bir shoir ranglarga poetik ma'no yuklaydi. Yuqoridagi misralarda ham yashil rang yoshlik, yangilanish, hayotning boshlanishini, qizil rang esa shijoatni, umrning avj nuqtasini anglatib turibdi. Atlas matosining dovrug'i, e'zozlanishi ham ko'zni qamashtiruvchi mana shu ranglarni o'zida uyg'unlashtirganida deb o'ylaymiz.

**Xulosa va takliflar.** G'ayraty, Maqsud Shayxzoda rahbarligidagi adabiy to'garaklari bu ikki shoirning yetuk ijodkor bo'lib yetishuvda muhim omillardan bo'lgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, ularning ijod laboratoriyasida mavzu ko'lami, obraz doirasi o'xshash yoxud biri-birini to'ldiradigan she'rlarni uchratishimiz mumkin. Ularda uyg'unlik bo'lishi bilan birga o'ziga xos yondashuv ham mavjudki, bu ularning "men"ini, dunyoqarashini yaqqol ko'rsatib turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mamajonov S. G'ayraty. Adabiy portret. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – B 82.
2. Hafizova M. Erkin Vohidov ijodining boshlanishi va shakllanishidagi asosiy adabiy maktablarning ahamiyati. – T.: Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi, 2021, aprel. –B. 251
3. Toir Yunus. Insonning tirikligi // Sharq yulduzi. –T., 1993. – B. 191.
4. Yusuf Shomansur. Biz G'ayraty to'garagidanmiz // "Guliston" jurnali, 1975. - №4
5. Karimov N. Yusuf Shomansur. Men o'tkazmagan daraxtlar. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B 288.
6. Saloh X. Izlar va hislar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – B 176.
7. Saloh X. Ishqim va rashkim. – T.: "Toshkent badiiy nashriyoti, 1965. – B 220.



**Shahnoza KARIMOVA,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti*  
*E-mail: karimovashaxnoza@mail.ru*

*Filologiya fanlari doktori, professor S.Zokirova taqrizi asosida*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF STORIES IN MAJMA UL-AKHBOR AND MAJMA UL-ASRAR

Annotation

This article compares two important works of Persian literature: "Makhzan ul-asrar" (Treasure of Secrets) and "Majma ul Akhbar" ("Collection of Stories") by Nezami Ganjavi. The research aims to examine the thematic, methodological and philosophical aspects of these texts, their contribution to the Persian literary tradition and their respective influence on later literary works. This article examines the narrative structures, thematic themes, and literary devices used in these works to shed light on the similarities and differences between Makhzan ul-Asrar and Majma ul Akhbar.

**Key words:** Persian literature, Nizami Ganjavi, Makhzan ul-asrar, Majma ul Akhbar, didactic poetry, prose stories, spiritual themes, moral themes, Sufi thought, allegory.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ В МАДЖМА УЛ-АХБОР И МАДЖМА УЛ-АСРАР

Аннотация

В данной статье сравниваются два важных произведения персидской литературы: «Махзан уль-асрар» («Сокровище тайн») и «Маджма уль-Ахбар» («Сборник рассказов») Низами Гянджеви. Целью исследования является изучение тематических, методологических и философских аспектов этих текстов, их вклада в персидскую литературную традицию и их соответствующего влияния на более поздние литературные произведения. В этой статье рассматриваются повествовательные структуры, тематические темы и литературные приемы, использованные в этих произведениях, чтобы пролить свет на сходства и различия между ходами Махзана уль-Асрара и Маджмы уль-Ахбара.

**Ключевые слова:** персидская литература, Низами Гянджеви, Махзан ул-Асрар, Маджма ул Ахбар, дидактическая поэзия, прозаические рассказы, духовные темы, нравственные темы, суфийская мысль, аллегория.

## MAXZAN UL-ASROR BILAN MAJMA UL-AXBORDAGI HIKOYALAR QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fors adabiyotidagi ikkita muhim asar: Nezomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" (Sirlar xazinasasi) va "Majma ul axbor" ("Qissalar to'plami") qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot ushbu matnlarning tematik, uslubiy va falsafiy jihatlarini o'rganish, ularning fors adabiy an'alariga qo'shgan hissasi va keyingi adabiy asarlarga tegishli ta'sirini ko'rsatishdan iborat. Ushbu maqola ushbu asarlarda qo'llanilgan hikoyat tuzilmalari, mavzuli mavzular va adabiy vositalarni o'rganib, "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor"ga xos bo'lgan bir-biridan farq qiluvchi va bir-biriga o'xshash unsurlarni yoritishga harakat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Fors adabiyoti, Nizomiy Ganjaviy, Maxzan ul-asror, Majma ul axbor, didaktik she'r, nasriy hikoyatlar, ma'naviy mavzular, axloqiy mavzular, so'fiy tafakkuri, allegoriya.

**Kirish.** Fors adabiyoti o'zining chuqur teranligi va keng tarixi bilan dunyoda eng mashhur adabiy asarlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bular orasida Nezomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasasi") va "Majma ul axbor" ("Qissalar to'plami") forsning boy madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi ibratli matnlar sifatida alohida ajralib turadi.

XII asrda yaratilgan "Maxzan ul-asror" didaktik she'r bo'lib, ma'naviy-axloqiy mavzularni majoziy va majoziy iboralar gobeleniga aylantiradi. Fors adabiyotining yorqin namoyandasi Nezomiy Ganjaviy bu asardan insoniy holatni chuqur o'rganish, qalbning ma'rifat va axloqiy fazilatlarga intilish yo'lini tadqiq etishda foydalanadi. Uning fors tili va she'riy shaklidagi mahorati "Maxzan ul-asror"ni fors she'riy an'alarining tamal toshi sifatida asos solgan.

Boshqa tomondan, hikoyalar va latifalar to'plami bo'lgan "Majma ul axbor" fors rivoyat an'alarining panoramik ko'rinishini taqdim etadi. Ushbu to'plam Nizomiy asariga nisbatan tuzilishi jihatidan bir xil bo'lsa-da, tarixiy voqealardan tortib, axloqiy hikoyalargacha bo'lgan turli mavzular va mavzularni taqdim etadi. "Majma ul axbor"ning nasriy uslubi o'z davrining ijtimoiy qadriyatlarini va axloqiy me'yorlarini o'zida mujassam etgan holda, uni kengroq o'quvchilar ommasiga yetkazadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor"ni tadqiq qilish fors adabiyotining kengroq mazmunini hamda bu asarlarning shu mazmundagi o'ziga xos hissalarini tushunishni taqozo etadi. Ushbu adabiyot sharhi ushbu ikki matnning tematik, uslubiy va falsafiy jihatlarini haqida tushuncha beradigan va ularni kengroq fors adabiy an'alarini doirasida joylashtiradigan asosiy ilmiy ishlarini o'rganadi.

Fors adabiyoti, ayniqsa, mumtoz davr adabiyoti o'zining boy she'riy va hikoya shakllari bilan ajralib turadi. E.G. kabi olimlar. Braun "Fors adabiyoti tarixi" (1951) va Yan Rypka "Eron adabiyoti tarixi" (1968) asarida fors adabiyoti tarixining har tomonlama sharhini berib, forsning madaniy va intellektual manzarasini shakllantirishda shoir va rivoyatlarning muhim rolini ta'kidlaydi. Har ikki muallif ham fors adabiyotida axloqiy-ma'naviy mavzularning ahamiyatini ta'kidlab, "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor" kabi asarlarni tushunish uchun zamin yaratadi.

Nezomiy Ganjaviy chuqur ruhiy va axloqiy xabarlarini etkazishda allegoriya va metaforadan mohirona foydalangani bilan mashhur. Julie Skott Meisaming "O'rta asrlar fors saroyi she'riyati" (1987) Nezomiyning fors she'riyatiga qo'shgan hissalarini chuqur tahlil qilishni taklif qiladi, xususan, uning hikoya qilish texnikasi va tematik

tashvishlariga e'tibor beradi. Meysamiyning asari "Maxzan ul-asror"da Nezomiyning allegorik hikoyatlardan foydalanishi kitobxonlarni inson qalbini chuqur o'rganishga, uning ma'rifat sari sayohatiga jalb etishga qanday xizmat qilishini yoritib beradi.

J.T.P. de Bryuijn "Fors so'fiy she'riyati: mumtoz fors she'rlarining tasavvufiy qo'llanilishiga kirish" (1997) asarida Nezomiy ijodidagi so'fiylik unsurlarini yanada tadqiq qiladi, shoirning tasavvufiy mavzularni axloqiy ko'rsatmalar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyatini ta'kidlaydi. De Bryuijn tahlili "Maxzan ul-asror"ni kengroq so'fiylik adabiy an'analari doirasida kontekstualashtirishga yordam beradi, uning didaktik maqsadi va ma'naviy teranligini ta'kidlaydi.

"Majma ul axbar" fors adabiy an'anasining boshqa, ammo bir xil darajada muhim jihati - rivoyatlar va latifalar jamlanmasini ifodalaydi. C.A kabi olimlar. "Fors adabiyoti: bio-bibliografik tadqiqot" (1927) asaridagi Storey turli hikoyalar to'plamlari va ularning fors adabiyotidagi ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Stori ishi bunday kompilyatsiyalarning madaniy va tarixiy bilimlarni saqlash, shuningdek, axloqiy saboqlar berishdagi rolini ta'kidlaydi.

A.J. Arberning "Mumtoz fors adabiyoti" (1958) asarida fors nasriy asarlarida, jumladan "Majma ul axbar"da qo'llanilgan hikoya qilish uslublari haqida so'z boradi. Arberry she'riy matnlarning ko'pincha murakkab va ramziy tabiatiga qarama-qarshi bo'lgan nasriy hikoyalarning ravshanligi va qulayligini ta'kidlaydi. Bu farq "Majma ul axbor"ning to'g'ridan-to'g'ri hikoya qilinishi va axloqiy ta'limotlari orqali kengroq auditoriyani qanday jalb qilishini tushunish uchun juda muhimdir.

Fors adabiy asarlarini qiyosiy o'rganish turli matnlarning o'ziga xos va umumiy unsurlarini ajratib ko'rsatish uchun zarurdir. Franklin Lyuisning "Rumi: o'tmish va hozir, Sharq va G'arb" (2000) asarida fors shoirlarining qiyosiy tahlili va ularning mavzuga oid tashvishlari haqida tushunchalar berilgan. Rumiya e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, Lyuisning uslubiy yondashuvini Nezomiyning "Maxzan ul-asror"ini "Majma ul axbor" kabi boshqa asarlar bilan solishtirishda qo'llash mumkin.

Bundan tashqari, Seyid Husayn Nasrning "Islom san'ati va ma'naviyati" (1987) asari islom madaniyatidagi san'at, adabiyot va ma'naviyatning kesishishini o'rganadi. Nasrning fors adabiyotining ma'naviy o'lchovlari haqidagi bahsi "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor"dagi axloqiy va falsafiy mavzularni solishtirish uchun foydali asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu qiyosiy tadqiqot "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor"ning mavzu, uslubiy va falsafiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu asarlarda qo'llanilgan rivoyat tuzilmalari, tematik tashvishlar va adabiy vositalarni o'rganib chiqib, maqola fors adabiyotiga qo'shgan bu ikki muhim hissani tavsiflovchi aniq va bir-biriga mos keladigan elementlarni ochishga intiladi. Tahlil nafaqat har bir asarning o'ziga xos xususiyatlarini, balki islom olami adabiy manzarasiga umumiy ta'sirini ham ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot orqali maqola "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor"ning o'z davrining intellektual va madaniy oqimlarini qanday aks ettirishini yoritishni maqsad qilgan. Ularning fors adabiyotining keng an'alariga qo'shgan hissalarini tushunib, biz ushbu asarlarning abadiy merosi va ularning zamonaviy adabiyotshunoslikka aloqadorligi haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

"Maxzan ul-asror" forscha qofiyali qofiyalar shakli bo'lgan masnaviy sifatida tuzilgan bo'lib, hikoya va didaktik she'riyat uchun juda mos keladi. Asar yigirmata nutqdan iborat bo'lib, ularning har biri turli axloqiy va falsafiy masalalarga bag'ishlangan. Nezomiy o'z xabarlarini etkazish uchun metafora va masallardan keng foydalangan holda

allegoriyani to'g'ridan-to'g'ri didaktika bilan uyg'unlashtirgan hikoya uslubidan foydalanadi.

Bundan farqli ravishda, "Majma ul axbor" turli hikoya va latifalarni jamlagan nasriy asardir. Hikoya tuzilishi unchalik bir xil emas, har bir hikoya alohida qism sifatida ishlaydi. Ushbu kompilyatsiya uslubini tarixiy voqealardan tortib axloqiy ertaklarga bo'lgan turli mavzular va mavzularni taqdim etish imkonini beradi va o'quvchilarga keng qamrovli hikoyalar taqdim etadi.

"Maxzan ul-asror"da eng avvalo ma'naviy-axloqiy mavzularga e'tibor qaratilgan. Nezomiy insoniy holat, ilmga intilish, ezgulikning ahamiyati, dunyo mulkining o'tkinchiligi haqida gapiradi. Uning she'riyatida ko'pincha so'fiylik mavzulari aks ettirilib, o'z-o'zini anglash va Ilohiy bilan birlashtirish sari sayohatga urg'u beradi.

"Majma ul axbor" axloqiy va axloqiy mavzularni ham qamrab olgan bo'lsada, mazmuni jihatidan ancha rang-barangdir. Hikoyalar hukmdorlar va janjallarning tarixiy hikoyalardan tortib oddiy odamlar duch keladigan kundalik axloqiy dilemmalargacha. Bu xilma-xillik ishning keng qamrovini aks ettiradi, uning maqsadi qiziqarli, ma'lumot beruvchi va ko'rsatma beruvchi rivoyatlarning keng qamrovli to'plamini taqdim etishga qaratilgan.

Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asari adabiy vositalardan boy foydalanishi bilan mashhur. Uning she'riyatiga murakkab metaforalar, jonli tasvirlar, allegorik hikoyatlar xosdir. Nizomiyning til mahorati, murakkab g'oyalarni go'zal misralarga to'qib bera olishi ijodining o'ziga xos belgilaridir.

"Majma ul axbor" nasriy to'plam bo'lgani uchun ko'proq to'g'ridan-to'g'ri bayon qilish usullariga tayanadi. Shu bilan birga, hikoyalarning axloqiy va ibratli sifatini oshirish uchun latifalar, maqollar, iboralar kabi ritorik vositalardan ham foydalaniladi. Nasr uslubi tushunarli va jozibali bo'lib, saboqlarni qulay va o'zaro bog'liq hikoyalar orqali etkazishga qaratilgan.

"Maxzan ul-asror"ning falsafiy teranligi uning belgilovchi xususiyatlaridan biridir. Nezomiy ekzistensial savollar va voqelik tabiatini chuqur o'rganadi, ko'pincha so'fiy tafakkuridan foydalanadi. Uning nutqlari kitobxonlarni ichki hayoti haqida fikr yuritishga, ma'naviy ma'rifat sari intilishga undaydi.

"Majma ul axbor" esa axloqiy va falsafiy masalalarga yanada pragmatik yondashishni taklif etadi. Hikoyalar ko'pincha jamiyatning kundalik tashvishlarini aks ettiruvchi axloqiy dilemmalar va amaliy donolikni taqdim etadi. Unda Nezomiy ijodining chuqur falsafiy teranligi yo'q bo'lsada, o'sha davrning axloqiy me'yorlari va qadriyatlarini haqida qimmatli tushunchalar beradi.

**Xulosa.** Nezomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" va "Majma ul axbor"ning qiyosiy tahlili fors adabiyotining boyligi va rang-barangligini ochib beradi. Har bir asar o'ziga xos tarzda fors adabiy an'alarining gobeleniga hissa qo'shib, o'z davrining madaniy, axloqiy va falsafiy jihatlarini haqida tushuncha beradi.

"Maxzan ul-asror" she'riy yorqinligi va ma'naviy teranligi bilan Nizomiyning til mahorati va so'fiylik tafakkuri bilan chuqur aloqadorligidan dalolat beradi. She'rdagi murakkab metaforalar, jonli obrazlar va allegorik hikoyatlar o'quvchilarni o'z-o'zini tafakkur va ma'naviy-ma'rifiy sayohatga chorlaydi. Nezomiy ijodida fazilat, ilm va dunyo mulkining o'tkinchiligi muhimligi ta'kidlanib, o'quvchilarni ilhomlantirishda davom etayotgan abadiy mavzular bilan jaranglaydi.

Bundan farqli o'laroq, "Majma ul axbor" o'zining xilma-xil qissa va latifalar jamlashi orqali axloqiy va falsafiy masalalarga pragmatik yondashuvni taklif etadi. Nasriy rivoyatlarda tarixiy voqealardan tortib, kundalik ma'naviy-axloqiy muammolargacha bo'lgan keng ko'lamlil mavzular o'z

aksini topgan bo'lib, o'sha davrning ijtimoiy qadriyatlarini va me'yorlarini aks ettiradi. Ushbu to'plam o'zining sodda hikoya uslubi bilan keng auditoriyani o'ziga jalb etadigan donolik va axloqiy nasihatlar ombori bo'lib xizmat qiladi.

“Maxzan ul-asror” inson hayotining ma'naviy va ekzistensial qirralarini chuqur o'rgansa, “Majma ul axbor”da axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy xulq-atvor haqida amaliy tushunchalar berilgan. Bu asarlar birgalikda fors adabiyotining ko'p qirrali va teranligini ko'rsatib, uning insoniy tajriba va tashvishlarning keng doirasini hal qilish qobiliyatini ta'kidlaydi.

Bu ikki asar o'rtasidagi mavzu, uslub va falsafiy qiyoslar fors adabiy an'alarining ko'p qirraliligini ko'rsatadi. “Maxzan ul-asror” va “Majma ul axbor” o'z

davrining ma'naviy-madaniy oqimlarini aks ettiribgina qolmay, adabiyotshunoslikda o'tmish va bugun o'rtasidagi davomiy muloqotga ham hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, “Maxzan ul-asror” va “Majma ul axbor”ni o'rganish fors adabiyotining bardavom merosi haqidagi tushunchamizni boyitadi. Ushbu asarlarning o'ziga xos va bir-biriga o'xshash elementlarini o'rganish orqali biz fors mualliflarining asrlar davomida axloqiy, ma'naviy va hikoyaviy muammolar bilan shug'ullanish usullari haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lamiz. Bu adabiy xazinalar fors adabiy an'alarining abadiy dolzarbligini ko'rsatib, zamonaviy kitobxonlarni ilhomlantirishda va xabardor qilishda davom etmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Arberry, A.J. Classical Persian Literature. London: George Routledge & Sons, 1958.
2. Browne, E.G. A Literary History of Persia. Cambridge: Cambridge University Press, 1951.
3. Bruijn, J.T.P. de. Persian Sufi Poetry: An Introduction to the Mystical Use of Classical Persian Poems. Richmond: Curzon Press, 1997.
4. Lewis, Franklin. Rumi: Past and Present, East and West. Oxford: Oneworld Publications, 2000.
5. Meisami, Julie Scott. Medieval Persian Court Poetry. Princeton: Princeton University Press, 1987.
6. Nasr, Seyyed Hossein. Islamic Art and Spirituality. Albany: State University of New York Press, 1987.
7. Rypka, Jan. History of Iranian Literature. Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1968.





Zahro KENJAYEVA,  
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi  
E-mail: zahrokenjayeova670@gmail.com

QarDU professori (DSc) T.Jumayev taqrizi asosida

## O‘ZBEK TILIDA “VAQT/ZAMON” SEMASINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARDA GETEROGEN IMKONIYAT

Annotatsiya

Leksik birliklar, asosan, gomogen qiymatli, ular faqat leksikologiyaning birligi sifatida qaraladi. Biroq bu masalaga botiniy jihatdan yondashilsa, bu ta’rif ayni sathning cheklanganlik mohiyatiga berilgan baho ekanligi namoyon bo‘ladi. Leksik sathning vaqt fenomeniga bog‘liqligi tadqiq etilganda, avvalo, lesik birliklar gomogen qiymatni ham namoyon etishi, ularning vaqtga nisbati esa leksemalarning pragmatlingvistik imkoniyati vaqt semasiga bog‘liq bo‘lishini yoki bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkinligini ko‘rsatishi maqolada talqin etilgan.

**Kalit so‘zlar:** leksika, leksema, vaqt fenomeni, semema, sath, ziddiyat, omonim, ko‘pma’nolilik, tarmoqlanish, gomogenlik, geterogenlik.

## ГЕТЕРОГЕННАЯ ВОЗМОЖНОСТЬ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПОНЯТИЕ “ВРЕМЯ” В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Лексические единицы имеют в основном гомогенное значение, они рассматриваются только как единицы лексикологии. Однако если подойти к этому вопросу с внутренней точки зрения, то это определение проявляется как оценка, данная ограниченной природе данного уровня. При исследовании зависимости лексического уровня от феномена времени в статье исследуется, что, прежде всего, лексические единицы проявляют гомогенное значение, а их соотношение ко времени показывает, что прагматлингвистическая возможность лексем может зависеть или не зависеть от времени.

**Ключевые слова:** лексика, лексема, феномен времени, семема, уровень, конфликт, омоним, неоднозначность, ветвление, гомогенность, гетерогенность.

## HETEROGENEOUS POSSIBILITY OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE CONCEPT OF “TIME” IN UZBEK

Annotation

Lexical units have a basically homogeneous meaning; they are considered only as units of lexicology. However, if we approach this issue from an internal point of view, then this definition appears as an assessment given to the limited nature of a given level. When studying the dependence of the lexical level on the phenomenon of time, the article examines that, first of all, lexical units exhibit a homogeneous meaning, and their relationship to time shows that the pragmatlinguistic possibility of lexemes may or may not depend on time.

**Key words:** vocabulary, lexeme, phenomenon of time, sememe, level, conflict, homonym, ambiguity, branching, homogeneity, heterogeneity.

**Kirish.** Leksika muayyan tildagi so‘zlarning umumiyliigi, jami bo‘lish bilan birga eng o‘zgaruvchan sath hisoblanadi. Chunki til jamiyat bilan hamohang rivojlanar ekan, uning yangidan yangi belgilari leksikada o‘z aksini topib boradi. Demak, lug‘at sostavi avvaldan o‘zlashib kelgan va hozirda iste‘moldagi so‘zlar bilan birga nisbatan yangi so‘zlarga va eskirgan so‘zlarga egaligi bilan ham xarakterlanadi [1]. Leksik sathning umumme‘yoriy jihatdan tasniflaydigan ushbu munosabat mazkur sathning gomogen xususiyatini oydinlashtiradi.

Leksik qatlam muayyan jamiyat a‘zolari foydalanadigan lug‘aviy birliklar jami hisoblanib, bu butunlikni ko‘plab mavzuviy guruhlarga bo‘lib talqin etish mumkin. Jumladan, ayni sathga oid vaqt sememasi lug‘aviy birliklarning o‘zga sathlarga o‘tish jarayonini tadqiq etish bir qadar o‘ziga xos lisoniy nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi.

Vaqt fenomeni atash semasi bilan leksik sathga a‘zo bo‘lib, milliy-madaniy tushuncha sifatida uni his etish mumkin bo‘ladi, unga bo‘lgan munosabatlar o‘rmi bilan farqlarga ham egalik kasb etadi. Vaqtning lisoniy ifodalinishida farqlar va umumiyliklar mavjud bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qadimgi dunyoning mashhur qomusiy olimi Aristotel vaqt fenomenining fizik, falsafiy va grammatik jihatlarini tadqiq etib, uning lisoniy ifodasi hamda vaqtga bo‘lgan munosabati mutlaq va nisbiy ekanligini qayd qilgan edi.

I.Nyuton talqiniga ko‘ra vaqt semasi dialektik fazoning (pranstranvo) deyarli barcha tarmoqlarida o‘z aksini topadi va “Vaqt bir o‘lchovli, uzluksiz, cheksiz, universal, bir xil” ekanligini uqtiradi. Bu tasnif vaqtning ot so‘z turkumiga doir gomogenlik qirrasini ancha to‘liq qamrab olganligi bilan xarakterlidir.

Albert Eynshteyn o‘zining mashhur nisbiylik nazariyasida fizika qonunlari barcha tezlanmaydigan kuzatuvchilar uchun bir xil ekanligini aniqladi va u vakuumdagi yorug‘lik tezligi kuzatuvchining harakat tezligidan qat’i nazar bir xil ekanligini ko‘rsatdi. Natijada, u makon va vaqt fazo-vaqt deb nomlanuvchi yagona uzluksizlik bilan bog‘liqligini aniqladi. Va bir kuzatuvchi uchun bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lgan hodisalar boshqa bir kuzatuvchi uchun turli vaqtlarda sodir bo‘lishi mumkin. Demak, vaqt muqim atalishdan xoli, unga nisbatan bo‘lgan barcha yondashuvlar nisbiydir.

Tadqiqotchi olim M. Hakimova vaqtning nominativ semalarini asos qilib olib, ularni sakkiz guruhga ajratadi: a)sof vaqtni mavhum predmet sifatida ifodalovchi otlar (vaqt, payt, mahal, davr...); b) vaqt o'lchovi otlari (sekund, minut, soat...); c) sutka qismlari otlari (kun, tong, chohgoh...); d) hafta kunlari otlari (dushanba, seshanba...); e) fasl otlari (bahor, yoz...); vaqtning o'rini ifodalovchi payt otlari (azal, ibtido, kelajak...); muayyan ishning maqsadga muvofiq yoki o'ziga xos ro'yobga chiqish vaqtini ifodalovchi otlar (fursat, mavrit, xonasi...) kabi.

Ko'rinadiki, vaqt fenomeni, asosan, nominativ qiymatga ega bo'lib, uni talqin va tasavvur etish pragmatik-subyektiv munosabatga molikligi bilan xarakterlanadi [2].

**Tahlil va natijalar.** Vaqt sememasi dialektik fazoning (pranstranvo) deyarli barcha tarmoqlarida o'z aksini topadi va "Vaqt bir o'lchovli, uzluksiz, cheksiz, universal, bir xil"ligini namoyon qiladi [3]. Vaqt harakat bilan bog'lansa, zamon tushunchasi bilan aloqador bo'ladi. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tili fe'lining zamon formalariga juda boyligi bilan ham xarakterlanadi [4].

Shunga muvofiq o'zbek tilidagi leksik birliklarning gomogenlik va geterogenlikka munosabatini ikki ko'rinishda tasnif etish mumkin: 1. Vaqt/zamonga bog'liq leksik birliklar. 2. Vaqt/zamon bilan bog'liq bo'lmagan leksik birliklar.

1. Vaqt/zamonga bog'liq leksik birliklar. Bunday so'zlar bir yo'la ikki so'z turkumi belgilarini namoyon qila oladi. Masalan:

a) uch, yetti, yigirma, qirq sonlar marosim bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi va ot so'z turkumi maqomida turadi. Ya'ni, son ↔ ot paradigmasi bilan geterogenlik qiymat hosil qiladi.

b) navro'z, kecha, arafa, bahor, yoz, kuz, qish singari bayram, fasl semantikali otlarda atash ma'nosi ustunlik qiladi, biroq ularda vaqtga ishora ham mujassamligi sezilib turadi. Endi bu o'rinda gomogenlik qiymati yuzaga chiqib, ot ↔ vaqt assotsiativlik munosabati faoliyatga kirishadi;

c) "chaqaloq", "go'dak", "bola", "o'smir", "o'spirin", "yigit", "kish", "erkak", "qariya" singari shaxs kamoloti bosqichlarida ham vaqt semantikasi presuppozitiv prinsip asosida anglanishini sezish qiyin emas. Demak, bu o'rinda ham ot ↔ vaqt aloqadorligi monogenlik ifodasini tasdiqlaydi.

Shu qonuniyatga binoan tilshunoslikning sathlari ham subyektiv yondashuvda biridan ikkinchisiga aylanishi mumkin. Bu mantiqning mohiyati faqat substansional yondashuvdagina o'zligini namoyon qiladi.

2. Vaqt/zamon bilan bog'liq bo'lmagan leksik birliklar. Til birligi sifatida so'z juda murakkab xususiyatga ega, unga qandaydir umumiy yoki muayyan ta'rif berishdan ko'ra, uning o'ziga xos tomonlariga, boshqa til birliklaridan farqli belgi-xususiyatlariga e'tibor berish talab etiladi.

Har bir milliy tilda bo'lganidek o'zbek tilida ham leksemalar muayyan qonun-qoidalar asosida bir yerga jamlanib, to'dalanib boradi. Tilning o'ziga xos tarixiy taraqqiyoti jarayonida mazkur leksik-semantik guruhlar sifat va miqdor jihatidan tinmay o'zgarib turadi [7].

Tildagi so'zlarning jami leksik sathning birliklari bo'lishi barobarida formal va funksional jihatidan boshqa sathning ham birliklariga o'tishi kuzatiladi. Bu joyda forma ikkinchi planga o'tadi, ya'ni ikki o'xshash shakl xoslanish jihatidan boshqa-boshqa sath a'zolari bo'ladi, ya'ni bu a'zolar o'rtasida ichki semantik bog'lanish uziladi, aloqadorlik tashqi – formal ko'rinishga o'tadi. Aniqlik qilib aytganda, bu nomutanosiblikni formal ziddiyat deb baholash mumkin bo'ladi.

"O'zaro o'xshashlik (paradigmatik) munosabatlarida bo'lgan birliklarning (yoki birlik guruhlarining) o'xshashlik asosida ayrim farqlar bilan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi ziddiyat (opozitsiya), ziddiyatda ishtirok etayotgan birliklar

(birliklar guruhi) esa ziddiyat a'zolari deb aytiladi. Har bir ziddiyatda ushbu a'zolar muayyan belgi-xususiyatlariga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi [8]". Bu tasnif leksik birliklar orasidagi ziddiyatga berilgan semantik ziddiyat hisoblanadi. Formal ziddiyat esa turkumlar yoki sathlararo yuzaga chiqadi.

Bu talqinni soz, don, dor, xona, noma, ish, choq, qin, lab, chang singari atash ma'nosiga ega so'zlar orqali tasnif etishga harakat qilamiz.

1.Soz so'zi ikki ma'nosi bilan "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan o'rin olgan:

SOZ I [f. ساز – rozilik; ruksat; kelishuv; moslik, muvofiqlik] 1 Yaxshi, tuzuk, durust, qulay. Oz so'z – soz so'z. Maqol. Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar. Maqol. Namangan boraman, sozdir havosi, Mevalari shirin dardning davosi (S.Abdulla).

SOZ II [f. ساز – tor; musiqa asbobi] 1 Milliy musiqa asboblarining (mas., dutor, tanbur, g'ijjak) umumiy nomi. Qirqida qo'lga soz olgan qiyomatda qulog'ini burar. Maqol [7].

Har holatda ham morfologik sathning a'zolari, birinchisida – belgi, ikkinchisida – narsa jism nomini bildiruvchi leksik birlik vazifasida qo'llanadi.

2. Shaklan -soz ot yasovchi qo'shimcha bo'lib, so'z yasalishi bo'limining a'zosiga o'tadi. Asosdan anglashilgan narsa-jismni yaratuvchi, tuzatuvchini anglatadigan ot yasaydi: soat + soz, asbob + soz.

Xuddi shuningdek, don so'zi ham bir yo'la leksika va so'z yasalish bo'limlarining a'zozligiga o'ta oladi, ular shaklan bir xil, funksional jihatidan zidlanish xususiyatiga ega lisoniy birliklar maqomini yuzaga keltiradi.

Don I [f. دان — urug', tuxum; dona] 1 Boshqoli va dukkakli o'simliklar mahsulining bir donasi. Bug'doy doni. Makkajo'xori doni. Dehqon ishlab don sochar, El-yurtiga non sochar. Maqol.

-don. asosdan anglashilgan narsa solinadigan, shu narsa saqlanadigan narsa-jismni bildiruvchi ot yasaydi: siyoh + don, tuz + don, kul + don, suv + don, qalam+don.

Dor fors-tojikcha so'z bo'lib, omonimlik va ko'pma'nolilik xususiyatlari bilan tilimizda yashab keladi, denotativ ma'nosi "O'limga mahkum etilgan kishini osib o'ldirish uchun yasalgan maxsus qurilma. Dorga osmoq (yoki tortmoq). Bevafo yor – joningga dor. Maqol. Esingizda bormi, meni dor ostidan qutqarib, menga yangi hayot bag'ishlaganingiz. A. Qodiriy, O'tkan kunlar. (O'TA, 1-jild, – B.646)" jazolash quroli ekanligi. Boshqa ma'nolar signifikativ xarakterga ega hisoblanadi. Bu talqin leksikologiyaga oid yondashuvdir.

Morfologik talqinga ko'ra -dor affiksi: a) ot yasovchi; b) sifat yasovchi bo'lib nutqda qo'llanadi.

a) Asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo'lgan shaxs ma'nosidagi ot yasaydi: bog'dor, do'kondor, mulkdor kabi.

b) Asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalikni, shunday narsa borligini bildiradi: yarador, jozibador, aybdor, xabardor, vafodor kabi.

Ish so'zi ham turkiy bo'lib ko'p ma'nolidir. Uning lug'aviy ma'nosi inson amalga oshiradigan faoliyat hisoblanadi yoki kishilik jamiyatida bajariladigan harakatning nominativ ifodasi deyish mumkin.

Ish shakli morfologik sathda a) ot; b) harakat nomi; s) birgalik nisbat singari affiksalar morfemalarga aylanadi. Demak, ish tashqi tarmoqlanishga ham, ichki tarmoqlanishga ham mansub bo'lgan geterogen fenomen hisoblanadi.

Siz II shaxs ko'plik sonda turadigan kishilik olmoshi hisoblanadi:

Sof quyosh, muzday havo top-toza suvlarning qizi,  
Kim tegishdi, yuzlaringiz qon talashgan qirmizi,

Siz yarashgan bu chamanning bo'lmagay hech bir kuzi,

Yaxshi o'rtoqlar bilan ulfatchilik bo'lgan kezi  
Kelsangiz quvnoq kulish-la – quvnamay qolgaymi men?

G'.G'ulom

2. Asosdan anglashilgan ma'noga ega emaslik semantikasidagi so'z yasovchi ko'rsatkichi vazifasida qo'llanadi:

Tinimsizdir yolg'iz shabada,

Maysalarning sochi silkinar,

Mana, hozir chirqirab turgan

Parrandalar, qushlar ham tinar... (H.Olimjon)

2. -siz xabar maylining sifatdosh va ravishdosh formalaridan yasalgan o'tgan zamon turlarida, hozirgi zamon fe'lining barcha formalarida, hozirgi-kelasi zamon formasida va maqsad mayli formasida ikkinchi shaxsning ko'pligi -siz ko'rsatkichiga ega bo'ladi. Masalan: kelib+siz, kelgan+siz kabi.

Xona, noma so'zlari fors-tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, atash-nomlash xususiyatini o'zida mujassam etgan faol so'zlar sanaladi. Xona – turarjoyning alohida ajratilgan har bir bo'limi; noma – rasmiy uslubga xos, muayyan tartib asosida bitilgan yozishma sememalari bilan tilda qo'llanadigan leksik birlik.

Tilda bu leksemalar o'z shaklini o'zgartirmagan holda qo'shimchalar (affiksoid) maqomini kasb etadi, o'zidan oldingi so'zga qo'shib oraliq holatda turadi. Bu jarayon ham xona va noma lisoniy birliklarning geterogenlik qiymat kasb etishini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Ko'rinadiki, lison va nutq farqlanishining bosh mezoni "bevosita kuzatishda berilmaganlik (umumiylik, imkoniyat, mohiyat)" va "bevosita kuzatishda berilganlik (xususiylik, voqelik, hodisa)"dan iborat [6] ekanligi vaqt ma'noli leksemalarning semantikasida o'z aksini topmoqda. Mazkur lug'aviy birliklarda ot so'z turkumining xoslikka tegishli umumiy sememalarda dominantlik alleli ustunlik qilsa-da, ulardagi vaqtga doir ma'no tashuvchi sememalarda retsessiv allellik belgisi tajallilanishi o'zligini namoyon qiladi. Shunday qilib, vaqt so'zi semantikasida yig'iq propositsiya, yashirin predikatsiyani yuzaga chiqaradi, aniqrog'i, ushbu jabhaga doir olamning lisoniy manzarasini botinan jamlashda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, leksik birliklar muayyan qat'iy fonetik qobiqqa ega bo'lib, ma'no anglatish yoki anglatmaslikdan qat'i nazar leksikologik sathning a'zosi bo'lish bilan birga ayni forma bilan boshqa sathlarga a'zo bo'la olish imkoniyatini sodir etadi. Bu xususiyat tilga tizim sifatida yondashish lozimligini yana bir karra isbot etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тили лексикологияси. Масъул муҳаррирлар: А.Ҳожиёв, А.Аҳмедовлар. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 133.
2. Хакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – (– 70 б.)
3. Ньютон И. Математические начала натуральной философии. – М.-Л.: ОГИЗ, 1936. Т. 5. – С. 134.
4. Ўзбек тили грамматикаси. 1 – жилд. Морфология. – Т.: Фан, 1975, – Б. 475-476.
5. Аристотель. Сочинения. В 4 т. (Серия «Философское наследие»). – М.: Мысль, 1975 – 1983. Т. 1. / Ред. и вступ. ст. В. Ф. Асмуса. 1975. – 552 стр.
6. [https://www.google.com/search?q=translate&oq=Tr&gs\\_lcrp=EgZjaHJ](https://www.google.com/search?q=translate&oq=Tr&gs_lcrp=EgZjaHJ)
7. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ қилиш. – Тошкент: – Б. 80.
8. Нейматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 6, 10.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Б. 544.



**Khusnurakhon KOSIMOVA,**  
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti  
E-mail: qosimovaxusnura@gmail.com

PhD, I. Bazarov taqrizi asosida

## INTRODUCTORY PHRASES IN MODERN LINGUISTICS, THEIR SYNTACTIC STATUS AND DIFFERENCE FROM INTRODUCTORY

Annotation

Analyzing the history of the study of introductory parts, we can find that the differences of introductory elements from insertions are causing a lot of disputes among linguists. In general, the ambiguity of the sharp difference between them increases the need for further study. This article is devoted to determining the difference between introductions and insertions and, in this regard, defining their syntactic status.

**Key words:** introductory part, insertion, syntactic relations, coordination, subordination, introduction, subjective modal assess, objective explanation.

## ВВОДНЫЕ ФРАЗЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ, ИХ СИНТАКСИЧНЫЙ СТАТУС И ОТЛИЧИЕ ОТ ВВОДНЫХ

Аннотация: анализируя историю изучения вводных частей, можно обнаружить, что отличия вводных элементов от вставок вызывают много споров среди лингвистов. В целом неоднозначность резкого различия между ними увеличивает необходимость дальнейшего изучения. Данная статья посвящена определению отличия между введениями и вставками и в связи с этим определению их синтаксического статуса.

**Ключевые слова:** вводная часть, вставка, синтаксические отношения, согласование, подчинение, введение, субъективная модальная оценка, объективное объяснение.

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KIRISH BO'LAKLAR, ULARNING SINTAKTIK MAQOMI VA KIRITMALARDAN FARQI

Annotatsiya

Kirish bo'laklarning o'rganilish tarixiga nazar solsak, kirishlarning kiritma konstruksiyalardan farqi tilshunos olimlarning keng tortishuviga sabab bo'lgan masala ekanligiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Umuman olganda, ular orasidagi keskin farqning noaniqligi ularning yanada kengroq o'rganishni dolzardligini oshirmoqda. Ushbu maqola kirish bo'laklarning kiritmalardan farqini aniqlash va shu yo'sinda ularning sintaktik maqomini belgilashga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** kirish bo'lak, kiritma, sintaktik aloqalar, tenglashish, tobelashish, kirishish, subyektiv modal baho, obyektiv izoh.

**Kirish.** Bizga ma'lumki, kirishlar va kiritmalar o'tgan asrning o'rtalarigacha bir xil sintaktik kategoriya sifatida tahlil qilingan. Kiritma konstruksiyalarni kirishlardan farqlab, alohida sintaktik birlik sifatida talqin qilish o'tgan asrning o'rtalarida yuzaga kelgan, ammo hozirgacha munozaralarga sabab bo'lib kelyapti.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kiritmalarni alohida o'rganish bo'yicha dastlabki fikrlarni ba'zi grammatikalarda, xususan, M.V. Lomonosov[1], N.I.Grech[2], A.X.Vostokov[3], A.Preobrajenskiylarning ishlarida[4] uchratish mumkin. E'tiborlisi shundaki, ulardagi kiritmalarga oid ilk qarashlar parentez konstruksiyalar bahsida doirasida emas, balki tinish belgilarning, xususan, qavsning ishlatilishi to'g'risida edi. Keyingi grammatikalarda kirishlarni modal ma'no anglatuvchi va gapda qo'shimcha fikr ifodalovchi turkum sifatida ajratilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu fikr kirish va kiritma konstruksiyalarni farqlash masalasining yuzaga kelishida dastlabki nazariy asoslari bo'ldi.

Shuningdek, Y.P.Sedun o'zining ilmiy ishlarida kirish konstruksiyalarga (kiritmalarga ham) «вводное образование» (O.S. Axmanova[5] ham o'z ishlarida kirishlarga nifodalashda ushbu termini qo'llagan), «категория сопутствования» sifatida qarab, hatto ular doirasiga undalma va undovlarni ham qo'shadi. Ya'ni olim kirish, kiritma va undalmalarni bir tushuncha deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u kirish gaplar (demak kiritma gaplar ham) asosiy gap strukturasi bilan

birgalikda qo'shma gapning maxsus turini tashkil etadi, deb ko'rsatadi[6; 7] I.A.Babakova esa kirish hodisasini yanada kengroq planda olib qaraydi. U kirish va kiritma konstruksiyalar, undalma va undovlarning umumiy bo'lgan xususiyatlariga tayanib, bir tipdagi hodisalar - «kirish hodisasi turlari sistemasidagi bir xil tip kategoriyalar» («явления вводности») sifatida qaraydi. Biroq Y.P.Sedundan farqli o'laroq, u kirish va kiritma gaplar asosiy gap bilan birga qo'shma gapni tashkil etmaydi, balki faqat u yoki bu gapning kirish va kiritmalar bilan murakkablashuvi haqida gapirish mumkin, deb ko'rsatadi[8].

I. Toshaliyevning fikriga ko'ra, kirish hodisasini bu xilda juda keng ma'noda tushunish gap sostavidan tashqarida kelgan kiritma gaplarni ham kirish konstruksiyalar qatorida qarashga olib kelmoqda[9]. L.A.Metsler o'zining dissertatsion ishida[10] ham xuddi shunday fikr bildiradi. U prof. A.G.Rudnev singari, asosiy gap sostavidan tashqarida kelgan, ikki va undan ortiq gaplar mazmuniga tegishli bo'lgan kiritma gaplarni ham kirish konstruksiyalarning maxsus tipi sifatida tekshiradi[11].

Bundan tashqari, A. Hojiyev "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati"da kirish va kiritmalar alohida tushunchalar ekanligini quyidagicha farqlaydi: "Gap bo'laklari bilan shakliy-grammatik bog'lanmagan, asosiy fikrga qo'shimcha, yo'l-yo'lakay yangi fakt bayon qiluvchi, to'ldirish, aniqlik kiritish va sh. k. maqsadida qo'llanuvchi tuzilmalar. Kiritma

tuzilmalar, kirish tuzilmalardan farqli holda, modal ma'nomalarni ifodalamaydi, gap boshida kelmaydi"[12].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kirish, kiritma konstruksiyalar, undalma, undov so'zlarning gapning kengaytiruvchilari sifatida olib qarab va boshqa umumiy xususiyatlariga asoslanib, bir sintaktik kategoriya sifatida yana bir qator ilmiy ishlarda tahlil qilingan. Keyinchalik kirish so'z, so'z birikmalari, kirish gaplar alohida sintaktik kategoriya sifatida qarala boshlandi.

Yana shuni aytish kerakki, kirishlarni ikki tipga ajratish ko'proq kirish gaplar bilan bog'liq holda ilgari surilgan. Ya'ni, kirish so'z va kirish gaplarni alohida sintaktik hodisa sifatida o'rganilganligini guvohi bo'lamiz. Ularda kirish so'zlarning subyektiv munosabatlarni ifodalashi ko'rsatilsa, kirish gaplarga doir ta'rifda esa ko'proq kiritmalarga xos belgilar boshqa gap ichiga hech qanday grammatik aloqalarsiz yo'l-yo'lakay, shunchaki kiritilishi tilga olinadi. Bizningcha, ularga farqlamay yondashish, ular o'rtasidagi keskin farqlar borligini topa olmaganlik va ularning sintaktik maqomi aniqlanmaganlik kirish va kiritma bo'laklar va gapning qolgan qismi o'rtasidagi ma'lum sintaktik munosabatlarni farqlamaslikning natijasidir.

Ularning asosiy farqi tilshunos D. Jamoldinovaga ko'ra, kirish bo'laklar gapga subyektiv modal munosabatni bildirsas, kiritmalar obyektiv izohni bildirishi bilan izohlash mumkin[13]. Shuningdek, ularda ishlatiladigan tinish belgilar ham farqli hisoblanadi. Kirish konstruksiyalar bilan doim vergul ishlatiladi va ularning gapda joylashish o'rni ham turli, ya'ni ular gap boshida ham oxirida ham o'rtasida ham ishlatilaveradi. Kiritmalar bilan esa turli tinish belgilari, ya'ni vergul, qavs, tire ham ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. G.

M. Ibragimova kirish va kiritmalarni farqlab quydagicha ta'riflaydi: "kiritma bu til hodisasi, chunki u bir qolipga solingan kundalik muloqotda qo'llanuvchi leksik-frazeologik elementlardan tashkil topgan, kirish esa nutq hodisasi bo'lib ular bir qolipga solinmagan va kundalik nutqda ko'p qo'llanilavermaydigan til birliklardir." Shuningdek olimlar parentetik kiritmalarning vergul, nuqtali vergul va gap ko'rinishidagi muallif-individual xarakterdagi kiritmalar esa qavs va tire bilan ajratilishini alohida ta'kidlagan[14].

Yuqoridagi nazariy qarashlardan shuni xulosa qilish mumkinki, kirish va kiritma konstruksiyalar ko'p tilshunoslardan tomonidan farqlanmay o'rganilgan bo'lishiga qaramay, ular bir biridan bir biridan ancha farq qiluvchi sintaktik birliklardir. Kirishlar so'zlovchining gapdagi fikrga munosabatini (subyektiv modal bahosini) bildirsas, kiritmalar gapga qo'shimcha izoh(obyektiv izoh) beradi. Kirishlarni gapdagi o'rni erkin, ya'ni ular gap boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin, ammo kiritmalar ko'pincha o'zi izohlayotgan bo'lakdan keyin keladi. Kirishlar bilan faqat vergul ishlatiladi: gap boshida kelsa undan keyin, o'rtasida kelsa ikki tarafidan, oxirida kelsa undan oldin ishlatiladi. Kiritmalar bilan esa turli tinish belgilari: vergul, nuqtali vergul, qavs va tire kelishi mumkin. Shu o'rinda kirishlarni nafaqat kiritmalardan, balki ajratilgan va izohlovchi bo'laklardan asosiy farqi ularning klisheleshgani, ya'ni stereotiplashgani va qisman frazeologizatsiyalashganidir. Kiritmalar esa standartlashmagan hisoblanadi. Umuman olganda, kirish va kiritmalarni alohida tushunchalar sifatida o'rganish ularni umumlisoniy tabiatini ochib berishda ahamiyatli hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ломоносов М.В. Российская грамматика, Полное собрание сочинений, ч. 6, 1804. – С. 435-437;
2. Греч Н. И. Практическая русская грамматика, 1827. – С. 359, 577;
3. Востоков А. Х. Русская грамматика по начертанию, 1842. – С. 232;
4. Преображенский А. Русская грамматика для средних учебных заведений, ч. 2. – М., 1900. – С. 17-18, 90-91.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М: Едиториал УРСС, 2004. – С. 571.
6. Седун Е.П. Понятие вводной конструкции в синтаксисе современного английского языка //Иностранные языки в школе. – М, 1956. – №4 – С. 12-13.
7. Седун Е.П. Синтаксис вводных образований в современном русском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1953 – С. 22-33;
8. Бабакова И.А.. Явление вводности в русском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Харьков, 1955. –С. 128.
9. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар, монография, – Тошкент: Фан, 1976. –Б. 45
10. Мецлер А.А. Структурные связи в тексте (Парентезные конструкции). –Кишинёв: Штиинца, 1987.- С. 78
11. Руднев А.Г. Синтаксис современного русского языка, – Москва: Высшая школа, 1968–С. 176-182.
12. Ҳожиев. А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1992. – Б. 50.
13. Жамолитдинова Д.М. Бадий нутқда парентез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 51.
14. Ибрагимова Г.М. Инглиз бадий адабиёти матнларидаги парентез бирликларнинг синтактик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. фал. док. (PhD) дисс... автореф. – Наманган, 2022. – Б. 20.



Malik KUCHIYEV,  
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi  
E-mail: kuchievmalik@gmail.com

SamDCHTI, (PhD), dotsent Q.Egamnazarov taqrizi asosida

### FRAZEOLOGIZMLAR QO'LLANGAN SODDA STRUKTURALI ILOVA KONSTRUKSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada ilovali elementlarning tabiatga xos bo'lgan xususiyatlardan biri, ya'ni uning tarkibida frazeologizmlarning qo'llanilish muammosiga to'xtalib, frazeologizmlarning ilovali elementlar tarkibida qo'llanilishi va uning strukturasi haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ilova konstruksiya, frazeologik birliklar, funksiya, stilistik funksiya, perifraz, takror, badiiy tasvir vositalari, murakkab sintaktik butunlik, qo'shimcha ma'no.

### PHRASEOLOGISMS ARE SIMPLE STRUCTURAL AUXILIARY CONSTRUCTIONS

Annotation

The article focuses on one of the natural productions of the applied material, that is, the problem of the use of phraseology in its content, and gives an opinion on the problem of the use of phraseology and its structure.

**Key words:** Application construction, phraseological units, function, stylistic function, periphrasis, repetition, means of artistic representation, complex syntactic integrity, additional meaning.

### ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ – ЭТО ПРОСТЫЕ СТРУКТУРНЫЕ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ КОНСТРУКЦИИ

Аннотация

В статье отмечена одна из природоподобных особенностей прилагательных элементов, то есть проблема применения в ней фразеологизмов, а функции, выполняемые фразеологизмом в составе прилагательных элементов, и дается мнение о проблеме употребления фразеологии и ее структуры.

**Ключевые слова:** Прикладная конструкция, фразеологизмы, функция, стилистическая функция, перифраз, повтор, средства художественного изображения, сложная синтаксическая целостность, дополнительное значение.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik sohasida ilova konstruksiyalarning lisoniy mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog'liq struktur-semantik xususiyatlar va ularning tuzilishini aniqlash muammosi ko'pgina ilmiy izlanishlarning tadqiqot obyekti sifatida bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Ilova konstruksiya sintaktik-stilistik hodisa sifatida juda ko'plab tillarda ilmiy izlanishlar doirasida murakkab sintaktik butunlikning strukturaviy guruhlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Murakkab sintaktik butunlik, bu- matnning bir ko'rinishidir. Hozirgi zamon nemis tili grammatik qurilishi sohasida bugungi kungacha juda ko'plab diqqatga sazovor bo'lgan ilmiy ishlar olib borilgan bo'lsa ham, uning ayrim tomonlari hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, biz ushbu maqolada frazeologizmlar qatnashgan sodda strukturali ilova konstruksiyalar haqida so'z yuritamiz.

Keyingi yillarda tilshunoslikda ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar, ilovali elementlar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari salmog'i ortib bormoqda. Bunday ilmiy izlanishlar tadqiqotchilar S.E.Kryuchkov, M.E.Shafiro, N.S.Valgina, A.P.Velichuk, F.P.Sidorova (hozirgi zamon rus tili materialida), L.I.Burak (hozirgi zamon belarus tili materialida), F. Abdurahmonov, A. Mamajonov, B. Maksimov, A.A. G'afforov (hozirgi zamon o'zbek tili materialida), B.T.Tursunov, B.M.Axmedova, M.B.Begmatov, I.U.Mamasoliyev (nemis tili materiallari asosida) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ular ilova hodisasi haqida ma'lum tushunchalar berib, ushbu sintaktik qurilmaning struktura jihatdan turlari, ilova konstruksiya tarkibida bajarib keladigan funksiyalari, ularning sintaktik-semantik xususiyatlari, o'ziga xos ma'no nozikliklarini tadqiq qilishgan.

#### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

V.V.Gavrilova ilova konstruksiyalar, ularning hozirgi zamon

nemis badiiy adabiyotida stilistik qo'llanishi masalalarini tadqiq qilib, bu borada quyidagi fikr-mulohazalarni aytib o'tdi: "Ilovali konstruksiyalarning badiiy matnda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy tasvir vositalarining ilova konstruksiya sifatida bajaradigan stilistik funksiyalarini alohida ta'kidlash lozim, ular kitobxonda emotsionallikni kuchaytirish, ma'lum qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi" [3].

Demak, ilova konstruksiyada asosiy e'tibor qo'shimcha qilinayotgan so'z va birikmalar, gaplar (ilovali elementlar) orqali asosiy gapning mazmuniga nisbatan bildirilayotgan qo'shimcha ma'noga qaratiladi. Ana shu ilovali elementlar asosiy ifodaning ma'lum bo'lagini konkretlashtirib, ularning mazmunini to'ldirib keladi. Shu o'rinda, tilshunos olim M.Begmatovning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim deb hisoblaymiz. Uning fikricha, "ilovali elementlar tomonidan asosiy ifodaning butunlay mazmuniga yoki uning biron-bir komponentiga nisbatan bildirilayotgan qo'shimcha ma'no quyidagicha kommunikativ xarakterga ega bo'lish mumkin: konkretlashtirish, to'ldirish, izohlash, reallashtirish va ba'zi hollarda umumlashtirish" [1].

Aynan ana shu to'ldirish, qo'shimcha qilish ilova aloqalarning xususiyatlarini ta'minlab beradi, ular nutq birliklarining birikib kelishini ko'rsatadi, bu birliklar to'liq fikrni shakllantiradi, ushbu fikrning kengayishiga, ma'no va emotsional jihatdan kuchaytirilishiga maxsus qo'shimcha nutq komponentlarini kiritish orqali erishiladi. Ta'kidlash kerakki, bu nutq birliklari (yoki komponentlari) asosiy ifodaga bog'lovchilar yordamida va bog'lovchisiz birikib keladi.

Ko'p hollarda ilova konstruksiyalarning komponentlari bir-birlaridan nuqta orqali ajratiladi, ba'zi tadqiqotchilarning tasdiqlashicha, ilova aloqalar nuqta, nuqtali vergul, tire, qavs va ko'p nuqta mavjud bo'lganda ham sodir bo'lishi mumkin. Ma'lumki, nuqta tugallangan to'liq yoki

to'liq bo'lmagan darak gaplar oxiriga qo'yiladi. Nuqtaning funksiyalaridan biri gapga ko'proq ma'nodorlik berishga harakat qilishdan iborat. Ham bog'lovchili, ham bog'lovchisiz ilova konstruksiyalarida bog'li matnni sintaktik bo'laklarga bo'lishda ilovada nuqta muhim rol o'ynaydi.

Taniqli tilshunos N.V.Cheremisina ilova aloqalarni murakkab sintaktik butunlik doirasida o'rganib, quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Aytganlardan shu narsa aniqki, odatdagi gapni ilova konstruksiyasiga aylantirish uchun ko'pincha faqat birgina gap ohangi belgisining o'zi yetarli .... Ilova konstruksiyasida ohang ham sintaktik, ham tinish belgilari jihatidan asoslangan, buni ilovali element strukturasi qo'yilgan nuqta bildirib keladi..." [5]. N.V.Cheremisina tomonidan nuqtaning ilovali element va asosiy ifoda o'rtasida qo'llanilishi haqidagi fikrlari ilova konstruksiyasi bo'yicha olib borilgan keyingi lingvistik tadqiqotlarda yanada rivojlantirildi.

Odatda, ikki va undan ortiq kommunikativ mustaqil nutq birliklaridan tashkil topgan, gaplarni ajratib turuvchi nuqtalariga ega bo'lgan, mazmunan-grammatik aloqalar asosida bir butunga birlashgan, nuqta orqali harakat qiladigan murakkab birlik lingvistik adabiyotlarda "murakkab sintaktik butunlik" nomini oladi.

Muhokoma va natijalar. Bildirilgan fikr mulohazalarning hammasi shundan darak beradiki, nafaqat sintaktik, balki ma'no aloqalari ham bir gap chegarasidan tashqariga chiqishi mumkin. Jumladan, agar sintaktik aloqalar sintaktik tuzilish chegarasidan chetga chiqsa, unda moslashadigan so'z hokim so'zdan ajratiladi va ilova konstruksiyani hosil qiladi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, turli ilova konstruksiyalarining hosil bo'lishida nafaqat alohida so'zlar, balki so'z birikmalari yoki butun gaplar ham ishtirok etishlari mumkin.

Shu sababli, bir tomondan, bir gap – sodda yoki qo'shma gaplar doirasidagi ilova aloqalarni, ikkinchi tomondan, gap doirasidan tashqarida nisbatan tugallangan ifoda sifatida yaratiladigan ilova aloqalarni bir-biridan aniq ajratish lozim. Barcha holatlarda ilovali element ilova konstruksiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yerda sintaktik aloqalarning ifodalanish usullaridan biri namoyon bo'ladi, bunda ilova bir fikrni bildiruvchi ikki yoki undan ko'proq ifodalarni, ularni ajratib turuvchi nuqta orqali bog'lash vositasi bo'lib keladi, ular sodda strukturani ifodalab kelishi mumkin.

Ma'lum bir sintaktik struktura ilova konstruksiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, unda ilovali element bog'lovchili yoki bog'lovchisiz kelishi mumkin va har doim nuqtadan keyin turadi. Quyidagi misol ushbu fikrni tasdiqlab keladi, demak ular sodda strukturani namoyon qiladi:

Pech mit dem Wetter. Es regnete in Strömen und die Spiele mussten immer wieder unterbrochen werden. (rundschau-online.de, 21. 8. 2001).

Ushbu misolda ilova aloqa ikki komponentdan tashkil topgan, bir-biri bilan shaklan va mazmunan bog'langan murakkab sintaktik butunlikni hosil qiladi. Murakkab sintaktik butunlik komponentlari o'rtasidagi ilova aloqaning yagona shakliyi ko'rsatgichi bu yerda bog'lovchi hisoblanadi. Ilova aloqaga ega bo'lgan murakkab sintaktik butunlik struktur va ma'no jihatdan tugallikka ega bo'ladi, uning ayrim komponentlarining ma'nosi butun murakkab butunlik ma'nosidan tashqariga chiqarilishi mumkin.

Ilova konstruksiyalar qo'shimcha xabar, fikrning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos sintaktik strukturalar bo'lib, "avval bildirilgan fikrga qo'shimcha ma'no sifatida yaqqol namoyon bo'ladi" [2]. Ilova konstruksiyalar belgisini ko'rsatadigan qo'shimcha axborotning semantik xususiyati o'zining formal ifodasini eng avvalo, ilova aloqalarning struktural vositalarida topadi: bu maxsus

biriktiruvchi bog'lovchi yoki uning semantik o'xshash so'zlari (o'rmini bosadigan so'zlar) – "qo'shimcha axborot berish g'oyasi"ni ifodalaydigan so'z va iboralardan iborat. Ular odatda alohida yoki so'z birikmalari shaklida qo'llanishi mumkin.

Qo'shimcha axborot (ilova) ko'rsatgichlariga ega bo'lgan bunday ilova konstruksiyalar matnda bo'laklarga ajratilgan va ajratilmagan strukturalarda namoyon bo'ladi; bu yerda sodda strukturali ilovali elementlarni kuzatishimiz mumkin:

Sie zogen in die Stadt um. Mit Kind und Kegel (Kühn. Zeit zum Aufstehen. S. 113).

Ta'kidlash joizki, ilova ma'nosi faqat maxsus ko'rsatkichlar - bog'lovchilar va ularni o'rni qo'llaniladigan so'zlar yordamida ifodalanmaydi. Ilova hodisasining asosiy va eng muhim ko'rsatkichlaridan biri intonatsiya hisoblanadi: ilova konstruksiyaning birinchi qismida ohang (ton)ning pasayishi va uzoq to'xtam (pauza), uni A.M.Peshkovskiy "ajratuvchi" deb atagan [4], ulardan keyin yozuvda odatda nuqta, so'roq yoki undov belgilari qo'yiladi. Pauza ajratib ko'rsatilgan konstruksiyalarning bir qismi – ilova qilinayotgan komponent boshlang'ich, bazaviy qism bilan sintaktik jihatdan bog'lanishi mumkin. Bunday bog'lanish strukturaviy jihatdan bog'lovchili yoki bog'lovchisiz amalga oshirilishi ko'zda tutiladi; bunday konstruksiyalar sodda strukturani ifodalaydi:

Das kleine Mädchen machte einen ganz erbärmlichen Eindruck. Seine Strümpfe zogen Wasser, und sein Kleid war zerknittert. (Gunter Hofe. Roter Schnee. S. 368).

Shunday qilib, kommunikativ jihatdan ajratilgan va ajratilmagan ilova konstruksiyalar o'rtasidagi farq ularning ilova ma'nosi struktural ifodalanishga ega bo'lishi yoki bo'lmasligida emas, balki ushbu ma'noning yetkazib berilish usullarining o'zidir: ajratilgan konstruksiyalarda formal usullar, struktural jihatdan kommunikativ ajratilmagan konstruksiyalarda esa, ko'p hollarda, ohang usullar orqali namoyon bo'ladi. Demak, ilova aloqaning maxsus ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan konstruksiyalarda qo'shimcha axborot berish semantik munosabati uning qismlarining kontakt joylashuvi va maxsus ohang rasmiylashtirish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Ilova konstruksiyasidan tashqarida kam sonli ayrim struktural ham mavjud bo'lib, ularda ham ma'lum darajada ilova munosabatlari kuzatiladi. Lekin ularda ilova munosabatlari ancha kuchsiz va yetakchi semantik munosabat hisoblanmaydi. Ular ham ilovali elementlarga o'xshash "qo'shimcha ma'no" berish xususiyatiga ega bo'ladilar. Shu jihatdan, bunday tuzilmalarni ilovali elementlardan ilova ancha qiyinchilik tug'diradi, chunki har ikkalasi ham "qo'shimcha axborot berish" belgisiga ega bo'ladi, yani asosiy ifoda birikib kelgan ilovali element sodda strukturani ifodalab keladi. Masalan:

Morgen früh kamen sie wieder. In zwanzig Stunden (Bredel Willi. Die Söhne. S.263)

Ma'lumki, turli xil qo'shiladigan elementlar qo'shimcha izoh berish xususiyatlariga ega, chunki ular gapning oldingi qismi (asosiy ifoda)da bildirilgan fikr - mulohazalarni izohlab, to'ldirib kelmoqda. Shuning uchun ham, tilshunos olimlar asosiy ifoda va qo'shiladigan (ilovali) elementlar o'rtasidagi ilova munosabatlarini tadqiq qiladilar. Ta'kidlash kerakki, bu yerda "ilova konstruksiyasi foydasiga" ikki holat guvohlik beradi: birinchidan, qo'shimcha qilinayotgan qismda maxsus ilova ko'rsatkichining mavjudligi, ikkinchidan, uning gap strukturasi boshqa qismlar bilan sintaktik aloqa kirishishi. Har ikkalasi ham sintaktik konstruksiyaning muhim struktur belgisi hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rni shuni ta'kidlash kerakki, ilova konstruksiyalarga qo'shimcha axborot berish maxsus semantik munosabatga ega bo'lgan alohida sintaktik struktura sifatidagi gaplarga xos. Ular asosiy ifodaga qo'shimcha ma'no

ifodalovchi bitta ifodali element shaklida bog'lanib keladi va sodda strukturali ilovali element deb ataladi. Shuningdek, ilovali elementlar badiiy matnda bayon etilayotgan voqea-

hodisalarning tasvirini yanada to'ldirishga va aniqlashtirishga xizmat qiladi. Natijada ular tinglovchi uchun emotsionallikni, aniqlikni, obrazlilikni ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бегматов М.Б. Тўлдирувчилар билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 1999. – 145 б.
2. Бегматов М.Б. Иловали элементларнинг матнда ифодаланиши. Таржима, ахборот, мулоқот-сиёсий ва ижтимоий кўприк. Халқаро илмий амалий анжуман материаллари. – Самарқанд. 2018, 403-404 б.
3. Гаврилова В.В. Присоединительные конструкции и их стилистическое использование в произведениях современной немецкой художественной литературы: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л., 1969. – 21 с.
4. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. М.: Учпедгиз, 1956. –511 с.
5. Черемисина Н.В. О присоединительных конструкциях в современном русском языке. Научный записки Харьковского гос. пед. ин-та, 1958. Т.29. –С. 91-103.
6. Bredel Willi. Die Söhne. Aufbau Verlag. – Berlin und Weimar, 1979. – 558 S.
7. Hofe Gunter. Roter Schnee. Verlag der Nation. – Berlin.1976. – 512 S.
8. Kühn August. Zeit zum Aufstehen. Frankfurt a. M.: S. Fischer Verlag, 1975.
9. Seghers Anna. Das Vertrauen. Aufbauverlag. – Berlin und Weimar. 1971. – 155 S.
10. Anorqulov, S. I. (2020). TOPONYMS AS CULTURALLY SIGNIFICANT LANGUAGE UNITS. Theoretical & Applied Science, (9), 442-447.





**Mahbuba QARSHIYEVA,**  
*Guliston shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
E-mail: qarshiyevamahbubaa@gmail.com

*GulDU professori, f.f.d M.Mamatqulov taqrizi asosida*

## THE CONTRIBUTION OF THE TEXTUAL SCHOLAR TO THE FIELD OF LITERARY STUDIES

### Annotation

The article is dedicated to the research of the scientific observations and practical works of Vahob Rahmonov, an accomplished representative of the Sirdarya School of Literary Studies, a source scholar, textologist, literary critic, translator, Methodist scientist. It aims to evaluate the achievements of the scientist in this field, the service of the textologist-researcher in our national literature and analyzes the above.

**Key words:** source scholar, text scholar, literary scholar, translator, text, critical text, Navoi studies, Babur studies.

## ВКЛАД УЧЁНОГО ТЕКСТОЛОГА В ОБЛАСТЬ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ

### Аннотация

Статья посвящена изучению научных наблюдений и практической деятельности Вахоба Рахмонова – видного представителя сырдарьинской школы литературоведения, источниковедения, текстолога, литературоведа, переводчика, ученого-методиста. Она направлена на оценку достижений ученого в этой области, заслуги текстолога-исследователя в нашей отечественной литературе и анализирует изложенное.

**Ключевые слова:** источниковед, текстовед, литературовед, переводчик, текст, критический текст, навоиведение, бабуроведение.

## MATNSHUNOS OLIMNING ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIGA QO'SHGAN HISSASI

### Annotatsiya

Maqola Sirdaryo adabiyotshunoslik maktabining yetuk vakili manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon, metodist olim Vahob Rahmonovning matnshunoslik sohasida qilgan ilmiy kuzatuvlari, amaliy ishlari tadqiqiga bag'ishlangan. Unda olimning mazkur sohadagi yutuqlari, matnshunos-tadqiqotchining milliy adabiyotimizdagi xizmatini baholashga qaratilgan va yuqoridagilar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon, matn, tanqidiy matn, navoiyshunoslik, boburshunoslik.

**Kirish.** Ma'lumki, keyingi yillarda mumtoz asarlarimizni, boy ma'naviy merosimizni tahlil va talqin etish, uni har tomonlama o'rganish hukumat tomonidan qayta ko'rib chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-126-son qarori ayni shu masalani qamrab oldi [<https://lex.uz/uz/docs/-5854226>].

Qarorning mazmuniga e'tibor qaratamiz: "So'nggi yillarda mamlakatimizda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatining tashkil etilishi o'zbek zaminida tavallud topib, ilmiy faoliyat olib borgan buyuk alloma va mutafakkirlar merosini ilmiy tadqiq etish va uning natijalaridan amaliy foydalanish jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarimizning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o'rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi". Albatta, bugun ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixiy merosimizni, ilmiy manbalarimizni o'rganishimiz dolzarb muammolardan biri. Lekin, eng asosiy masala ana shu manbalarni o'rganuvchi yosh mutaxassislarining kamligida. Shunday ekan, bu soha bo'yicha uzoq yillar mehnat qilgan ustoz olimlar ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanishmay turib sohani o'rganish ham to'laligicha o'zini oqlamaydi, nazarimizda. Ana shunday zabardast olimlarimizdan biri – Vahob Rahmonov hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tekstologiya (matnshunoslik)ning nazariy jihatlarini dunyo adabiyotshunosligida ham atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, D.S.Lixachev ilmiy kuzatishlari bunga yorqin misol bo'la oladi [Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М., – Л., Наука, 1964].

Bundan tashqari bu ilmiy yo'nalishda o'zbek matnshunoslaridan Porso Shamsiyev, Alibek Rustamov, Abduqodir Hayitmetov, Saidbek Hasanov, Suyi

ma G'aniyeva, Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov, Vohid Zohidov, Shuhrat Sirojiddinov kabilar jiddiy ishlar amalga oshirgan. Biroq, Vahob Rahmonovning matnning nazariy jihatlarini haqidagi qarashlari yuqoridagilardan o'zining ilmiy-ommabopligi, tanqidiy ruhning kuchliligi hamda ko'proq badiiy asarlarning matniga diqqat qaratganligi bilan ajralib turadi. Xususan, olimning fikriga ko'ra matnshunos:

Birinchiidan, qo'lyozmani to'g'ri o'qiy olishi;

Ikkinchiidan, diniy bilimga ega bo'lishi;

Uchinchiidan, mumtoz adabiyot bilimdoni bo'lishi va matn mazmuniga e'tibor berishi;

To'rtinchiidan, eski o'zbek yozuvi va tilini bilishi;

Beshinchiidan, mumtoz asarlar lug'atidan chuqur xabardor bo'lishi;

Oltinchiidan, aruz ilmini yaxshi bilishi;

Yettinchiidan, badiiy san'atlardan xabardor bo'lishi;

Sakkizinchiidan, qofiya ilmini chuqur anglashi;

To'qqizinchiidan, matnchi va matn muharriri barcha matnlarni nashrdan avval sinchikovlik bilan qayta o'qib chiqishi lozimligi uqitiriladi [Rahmonov V. Mumtoz so'z bahsi

(Ocherklar, maqolalar, hujjatli latifalar). – T., Adabiyot, 2022 (528 bet).

Kuzatishlarimizga ko'ra olimning faoliyatida yuqoridagilardan oltinchi punktni kuzatmadik. Buning sababi sifatida olim ayni shu soha bilan shug'ullanmaganligi bo'lishi mumkin. Aruz ilmi olimning qolgan ishlarida ham deyarli ko'zga tashlanmaydi.

V.Rahmonning matnshunoslik nazariyasiga oid qarashlari yuqoridagilarda o'z aksini topgan bo'lib, olim asosan, mana shu jihatdan matn ustida ishlaydi. Chunonchi, "Mumtoz so'z bahsi" kitobining "Matnshunosligimizning dolzarb masalalari" qismidagi quyidagi fikrlarga diqqat qilamiz: "Matnchi ma'suliyati mumtoz asarlarning mumtozlik darajasini hozirgi yozuvdagi nusxada saqlash bilan belgilanadi" [Rahmonov V. Mumtoz so'z bahsi (Ocherklar, maqolalar, hujjatli latifalar). – T., Adabiyot, 2022. 18-bet]. Bu o'rinda mazkur qarash olimning matn borasidagi qarshlarini, nazarimizda, deyarli aks ettirgan. Shu bilan birga olimning matn borasidagi amaliy faoliyati tahsinga loyiq, chunki amaliyotshunos nazariya bo'lishi mumkin emas.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot obyekti sifatida Vahob Rahmonovning matnshunoslik borasidagi eng yirik tadqiqoti "Mumtoz so'z sehri" [Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. – T., O'zbekiston, 2015 (438 bet).] hamda "Mumtoz so'z bahsi" kitoblari [Rahmonov V. Mumtoz so'z bahsi (Ocherklar, maqolalar, hujjatli latifalar). – T., Adabiyot, 2022 (528 bet)] olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, kompleks va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Avvalo, olimning qisqacha biografiasini bilan tanishsak, Vahob Rahmonov 1940-yil 12-aprelda Tojikiston Respublikasi, Xo'jand tumani, Yova qishlog'ida tug'ilgan. U manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon, metodist olim. 1958-1963-yillarda Xo'jand pedagogika institutining Tarix-filologiya fakultetini tugatgan. 1965-1968-yillarda Samarqand davlat universiteti aspiranturasida o'qigan. Mana shu o'rindan boshlab olimning ilm olamiga kirib kelganligini kuzatish mumkin.

Birinchi, Samarqand hamda Xo'jand viloyatlari ikki tilda – o'zbek va tojik tillarida gaplashadigan xalqlardan iborat. Bu olim uchun mana shu muhitda bu tillarni mukammal bilish imkonini yaratgan.

Ikkinchi muhim jihat, olimning adabiyotshunoslikning ulkan maktablaridan biri – Samarqand adabiyotshunoslik maktabining vakili ekanligida. Olim u yerda akademik Vohid Abdullayev, Boturxon Valixojayev kabi yetuk ilm ahlidan saboq olgan. Shundan so'ng, 1968-yil V.Abdullayev rahbarligida "Sa'diy Sheroziy "Guliston"ning o'zbekcha tarjimalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1963-1976-yillarda Xo'jand davlat pedagogika institutida o'qituvchi (1963-1965), katta o'qituvchi (1968-1970), dotsent (1970-1976) vazifalarida ishlagan. 1977-1986-yillarda O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida katta ilmiy xodim bo'lgan. 1986-2004-yillarda Guliston davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti vazifasida xizmat qilgan. 2005-yildan 2018-yilgacha erkin ijodkor bo'lgan. 2018-yildan to 2020-yil sentabrgacha Guliston davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, 2020-yilning sentabridan hozirgacha O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda [Guliston davlat universiteti qomusi. (M.Xodjiyev, R.Mahmudov, H.Mirhaydarov) – T., Mumtoz so'z, 2020. 238-bet.].

Kuzatishlarimizga ko'ra Vahob Rahmonov ilmiy faoliyatini biz shartli ravishda quyidagicha guruhladik:

Matnshunoslik faoliyati.

Tarjimachilik faoliyati.

Lug'atchilik faoliyati.

Adabiyotshunoslik faoliyati. (Mazkur guruhning o'zi uch qismdan iborat):

Olimning navoiyshunoslik faoliyati;

Olimning boburshunoslik faoliyati;

Olimning mumtoz poetikaga oid faoliyati.

Tabdilchilik faoliyati.

Vahob Rahmonovning filologiya sohasida amalga oshirgan eng yirik faoliyatlaridan biri bu – matnshunoslik borasidagi ishlaridir. Olimning bu boradagi eng yirik tadqiqoti "Mumtoz so'z sehri" [Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. – T., O'zbekiston, 2015 (438 bet).] hamda "Mumtoz so'z bahsi" kitoblarida aks etgan [Rahmonov V. Mumtoz so'z bahsi (Ocherklar, maqolalar, fiqralar, hujjatli latifalar). – T., Adabiyot, 2022 (528 bet)]. Avvalo, olimning bu boradagi ishlarini ikki yo'nalishga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi yo'nalish: matnshunoslik (tekstologiya)ning nazariy masalari tadqiqi.

Ikkinchi yo'nalish: ayni shu sohaning amaliyot qirralari tadqiqi hisoblanadi.

V.Rahmon faoliyatining katta qismi aynan matndagi nuqsonlarni tuzatish bilan belgilanadi. Bu olimning shu soha bilimdoni va zakoligidan dalolatidir. Kitobning "Zahiriddin Muhammad Bobur" qismida "Bot"mi yoxud "bat"mi nomli maqola o'rin olgan. V.Rahmon tayyorlagan "G'aribing andijoniydur" kitonidan quyidagi misrani keltiramiz:

G'ogil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut,

Vaqt aysh emas boqiy, ol chog'ir, bat tut.

[Zahiriddin Muhammad Bobur. G'aribing andijoniydur. Saylanma she'rlar.

(Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi Vahob Rahmonov). – T., Sharq. 2008].

Mazkur misra nuqsonlari tuzatilishini olim shunday izohlaydi: "Insof bilan aytganda, "erur" so'zi barcha qo'lyozmalarga mosdir. Biroq poetik an'analar va hayotiy mantiqqa ziddir. Shuning uchun men 2007 va 2008-yillarda "erur" o'rniga "emas" so'zini kiritganman. Aslida, esa tag'in bir o'zgartish kiritish lozim: "bot" (tez, darhol) so'zi "bat" (o'rdak shaklidagi qadah)ga aylantirmog'i kerak. Buning sababi, isboti, dalili – ikkita: boshqa barcha nashrlarda shu so'zda qofiya buzilgan: kuzataylik: g'animat – bot – himmat – saodat – himoyat. Ko'rinyaptiki, bu qofiyalar shodasida "bot" jaranglamayapti. Qofiya islohi uchun "bot" "bat"ga keltiriladi. Ikkinchi, chog'ir – may. Muallif may talab qilayapti-yu, matnda idish yo'q. "Bat" esa qadahdir. Shu ma'noda ham, mazmun uzviyligi "bot"ni "bat" tarzida isloh qilishimizni oqlaydi"[Rahmonov V. Mumtoz so'z bahsi. – T., Adabiyot, 2022. 380-bet.]".

Bu o'rinda olimning chuqur nigoh egasi ekanligi, matnga jiddiy tanqidiy ruh bilan yondashishi hamda talabchan ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon Vahob Rahmonov Sirdaryo adabiyotshunoslik maktabining yetuk vakili hisoblanib, olimning ilmiy kuzatuvlari milliy adabiyotimizning matn bilan bog'liq kemtignini to'ldirganligini alohida etirof etish maqsadga muvofiq. Olimning asosiy ilmiy faoliyati matnshunoslik hisoblanadi-da, biroq V.Rahmon adabiyotshunoslikning mumtoz adabiyot bilan bog'liq deyarli barcha sohalar bilan shug'ullangan. Keyingi tadqiqotlarimizda mana shu masalalar borasida fikrlarimizni bayon qilamiz.

## ADABIYOTLAR

1. Guliston davlat universiteti qomusi. (M.Xodjiyev, R.Mahmudov, H.Mirhaydarov) – T., Mumtoz so'z, 2020. 238-bet.

2. <https://lex.uz/uz/docs/-5854226> Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-126-son qarori.
3. Rahmonov V. Mumtoz so'z bahsi (Ocherklar, maqolalar, fiqralar, hujjatli latifalar). – T., Adabiyot, 2022 (528 bet).
4. Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. – T., O'zbekiston, 2015 (438 bet).
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. G'aribing andijoniydur. Saylanma she'rlar. (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi Vahob Rahmonov), - T., Sharq. 2008. (260 bet)
6. Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М, – Л., Наука, 1964.(106 стр)
7. Rahmonov V. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at.- T., O'qituvchi, 1983 (200 bet)
8. Rahmonov V. She'r san'atlari. – T., Yozuvchi, 2001 (72 bet)
9. Hayitmetov A. Matnshunoslik muammolari. Sharq yulduzi. 1982. № 3 169 b
10. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2000 (155 bet)



Zulayho MAJIDOVA,  
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail:zulayho@mail.ru

F.f.d, professor R.Saidova taqrizi asosida

## PRINCIPLES OF PROVIDING COMMUNICATIVE SUCCESS IN DIALOGIC SPEECH

Annotation

This article is focused on the conditions of accomplishing the communicative success of dialogic speech in English and Uzbek languages and interpreting it correctly by illocutive and perlocutive methods. Also, the article comprises the ways of making communicative success by the maxims of Paul Grice and due to it, the principles of guaranteeing this success by the theory of J.Austin and peculiarities of their manifestation in English and Uzbek examples.

**Key words:** speech act, discourse, communicative success, implicature, semantic, semantic-syntactic unit, locution, illocution, perlocution, postulate, maxim.

## ПРИНЦИПЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОГО УСПЕХА В ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы об условиях достижения коммуникативного успеха диалогической речи в английском и узбекском языках и его правильной интерпретации с помощью иллокутивного и перлокутивного метода. Также в статье говорится о способах осуществления коммуникативного успеха с помощью максимов Пола Грайса, соответственно этим, о принципах гарантирования успеха теорией Джона Остина, его особенностях проявляющиеся в различных дискурсах на примерах английского и узбекского языках.

**Ключевые слова:** речевой акт, дискурс, коммуникативный успех, импликация, семантико-синтаксическая единица, локуция, перлокуция, постулат, максим.

## DIALOGIK NUTQDA KOMMUNIKATIV MUVAFFAQIYATNI TA'MINLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek dialogik nutqning kommunikativ muvaffaqiyatini amalga oshirish hamda uni illokutiv va perlokutiv jihatdan to'g'ri talqin etish shartlari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, Pol Grays maksimlari va unga muvofiq holda kommunikativ muvaffaqiyatni ta'minlash tamoyillari, J.Ostin nazariyasi va uning ingliz va o'zbek nutqi turli diskurslarda namoyon bo'lishidagi o'ziga xos jihatlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy akt, diskurs, kommunikativ muvaffaqiyat, implikasiya, semantic-sintaktik birlik, lokusiya, illokusiya, perlokusiya, postulat, maksim.

**Kirish.** XX asrning o'rtalariga kelib tilshunoslikka oid tadqiqotlarda "Nutq aktlari nazariyasi"ning yaratilishi ushbu sohaning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'ldi va endilikda lingvistikaga semantika, pragmatika, diskurs deb atalgan yangi yo'nalishlar kiritildiki, ushbu yo'nalishlarning tilshunoslik va falsafa bilan bog'liqligi ularning ham qiziqarli ham murakkab jihatidir. Tillar insonlarning muloqot quroli ekan, bu ularning bir-birlarini tushunishlariga, ularning yetkazmoqchi bo'lgan fikrlarini oson anglab etishlariga xizmat qilmog'i lozim. Nutq bu muayyan qonun-qoidalarga amal qilgan holda til qurilmalari vositasida muloqot qilish shakli. Sodda qilib aytganda, nutq og'zaki yoki yozma shaklda so'zlar orqali gapira olish, o'z his-tuyg'ularini ifodalay olish qobiliyatidir. Og'zaki nutqsiz insonlar o'z fikr-mulohazalarini, muayyan axborotlarni tez yetkaza olmasa, yozma nutqsiz tarixda bo'lib o'tgan Voqealardan, ajdodlarning amalga oshirgan xatti harakatlaridan boxabar bo'la olishmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nutqiy kommunikatsiya tushunchalariga ta'rif berar ekanmiz, nutqning tabiati haqidagi zamonaviy tushunchalar rivojlanishi tarixi haqida to'xtalib o'tamiz. Nutqiy aktlar nazariyasi muayyan nutqiy akt modellari zamirida rivojlanib borganini alohida ta'kidlab o'tish zarur bo'lib, ushbu masala kommunikativ muvaffaqiyat tamoyillari tahlili uchun to'xtalib o'tishimiz kerak bo'lgan aspekti hisoblanadi. Samarali muloqot bu suhbat ishtirokchilarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari hamda perlokusiya va illokusiya aktining o'zaro mos

kelishidir. Muvaffaqiyatli muloqot uning ishtirokchilarining umumiy nutqiy fe'l-atvorlari asnosida yuqori darajadagi mutanosiblikka ko'ra shakllanadi. Muloqot muvaffaqiyati mutanosiblik, kelishuv, o'zaro moslashish va qoniqish orqali namoyon bo'ladi "[1]. Ya'ni, muloqot mutanosibliigi bu uning ishtirokchilarining shaxs sifatida takrorlanmas individ bo'lishlariga qaramay, bir-birlarini tushunishlari hamda so'zlovchi va tinglovchining qarashlari mos kelishidir.

Bizning fikrimizcha, muvaffaqiyatli muloqotning kaliti sifatida quyidagi qoidalarni e'tirof etishimiz mumkin: suhbatdoshga nisbatan do'stona munosabatda bo'lish, suhbatga qiziqish ko'rsatish, o'z fikrining samimiy ifodalanishiga e'tibor berish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nutq vaziyatida kommunikativ intentsiyaning ko'ngildagidek amalga oshirilishi uchun so'zlovchi tinglovchiga do'stona va samimiy hurmat bilan muomala qilishi kerak. Har ikki suhbatdoshning xatti-harakatlari do'stona bo'lishi esa muloqotning muvaffaqiyat uchun asos vazifasini o'taydi. Dushmanlik kayfiyatidagi adresant va adresatning zada bilan yoki nomaqbul so'zlarni qo'llab, bir-birlariga nisbatan yoqimsiz muomalada bo'lishlari kommunikativ tanazzulga, boshqacha qilib aytganda, salbiy muloqotga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Har qanday mavzu asosiga qurilgan suhbatga uning ishtirokchilari tomonidan qiziqish ko'rsatish esa tomonlarning bir-birlari haqida ijobiy taassurotlar olishiga zamin yaratadi. Har bir shaxs mukammal

tuzilgan xarakterni jamlagan o'ziga xos individ bo'lib, doim ham o'zgaralar bilan dunyo- qarashlari, qiziqishlari mos kelavermaydi. Bunday holatda o'rinni savol tug'iladiki, fikrlashi turlicha bo'lgan insonlar o'zlari istamagan mavzu borasida muloqot qilishga majburmi? Biz albatta bunday fikrdan yiroqdamiz va hech bir shaxsni o'z irodasiga qarshi zo'raki suhbatdoshlari bilan muloqot qilishlariga majbur deya olmaymiz. Biroq suhbatning har ikki tomon yodida yoqimli tarzda eslab qolinishi hamda so'zlovchi va tinglovchining kelgusida ham ijobiy muomala bo'lishlarini ta'minlash uchun ularning har ikkisi ham bir-birlariga hurmat ko'rsatgan holda uzatilayotgan fikrga nisbatan tolerantlik, ya'ni sabr ko'rsatishlari maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Muvaffaqiyatli kommunikasiyaning uchinchi tamoyili o'z fikrini samimiy ifodalash bo'lib, respientning qabul qilingan fikrni istalgan tarzda talqin qilishi uchun produsient uni samimiy tarzda ifodalashi, ya'ni yolg'on ishlamay, ortiqcha mulozamatlarsiz ifodalashi ayni muddaodir. Sababi illokusiyani to'g'ri anglashni ta'minlash uchun ikkinchi muloqot ishtirokchisining karakter-xususiyatini hisobga olish, "Uning o'rnida bo'lganimda men qay tarzda tushungan bo'lar edim?" degan savolni o'rtaga qo'yishi lozim. Bunday tashqi ekstralingvistik omillarni yodda tutgan holdagina muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshirish mumkin.

Nutq aktlari nazariyasining dastlabki tezisi gapning taklif mazmuni va uning ifodalovchi vazifasini farqlashdan iborat bo'lib, xuddi shu taklif mazmuni turli xil nutq aktlarini berib, turli xil tasviriy funksiyalar bilan birlashtirilishi mumkin. Masalan: "Siz ertaga biznikiga kelasiz." jumlasini buyruq ohangida yangrab, biroq qat'iylik bilan aytilgan bo'lsa, "Ertaga bizni ko'ring." kabi nutqiy akt esa yumshoq ohang bilan taklif ma'nosini nazarda tutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, gapda hech qanday taklif mavjud emas, bu atama faqat gap mazmunining semantik rejasini anglatadi: "faqat uning ma'nosi va ma'noning ba'zi komponentlari taklif bo'lishi mumkin: ba'zi qismlari jumla takliflarni ifodalashi mumkin." Nutq aktlari nazariyasi jumlaning xususiyatlarini (mantiqiy-semantik tuzilma sifatida) o'zida mujassamlashtirgan va u amalga oshirilgan inlokutiv harakatning xususiyatlarini o'z ichiga olgan holda taklif shaklida bo'lmay turib ham taklif ma'nosini bera oladi. D. Gordon va J. Lakoff gapning kodlangan tasviriy kuchi bilan uning formal sintaktik konstruksiyasi o'rtasida yakkamayakka muvofiqlik bor, deb hisoblaydi[4]: Gapning kodlangan tasviriy kuchi ma'no postulatlarini deb ataladigan so'z yordamida gapning rasmiy tuzilishi ma'nosidan kelib chiqadi. Muammoga yana bir yondashish, ifodalovchi kuch jumlaning mantiqiy tuzilishida bayonning bevosita maqsadini aks ettiruvchi predikat shaklida kodlanganligini nazarda tutadi. Misol uchun, bunday mantiqiy talqinda berilgan "Oynani yoping" jumlasini "xohlayman" predikatini o'z ichiga oladi va kengaytirilgan shaklda quyidagicha ko'rinadi: "Men derazani yopishingizni xohlayman." Diametrik ravishda qarama-qarshi

qo'yilgan nuqtai nazar yangi ma'lumot berishi ham, bermasligi ham mumkin[3]. Muammo bo'yicha bir va boshqa nuqtai nazarni tasdiqlovchi misollar topiladiki, u bo'yicha bir va boshqa nuqtai nazarni tasdiqlovchi misollarni berib o'tamiz. Ikkinchi turdagi nutq qo'llanilishini o'rganish bilvosita nutq aktlari nazariyasini yaratishga olib keldi, u to'g'ridan-to'g'ri so'zma-so'z ma'nodan to'g'ridan-to'g'ri nutq ma'nosiga tarjima qilish naqshlarini ko'rib chiqadi. Har qanday nutqiy akt adresatning ma'lum bir modeli uchun mo'ljallangan va bu uning samaradorligining muhim shartlaridan biridir. P. Grays tamoyillari - bu adresatning kommunikativ manfaatlarini uning mumkin bo'lgan "nutq agressiyasi" dan himoya qiladigan o'ziga xos "himoya kompleksi"dir. Pol Grays ishlab chiqqan dastlabki 5 postulat keyinchalik 4 ta asosiy Maksimga bo'linib, ular asosiy tamoyil - "hamkorlik tamoyili" - qabul qilingan maqsad va suhbatning yo'nalishiga mos keladigan nutq aloqasiga hissa qo'shish talabiga bo'ysunadi[7]. Bunga to'rtta Maksim bo'ysunadi: ma'lumotlarning to'liqligi Maksimi, sifat Maksimi (to'g'risini aytg!), dolzarblik Maksimi (mavzudan chetga chiqmang!), uslub Maksimi (aniq gapiring!). Murojaat qiluvchi va oluvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir xil darajada muhim tamoyil - bu nutq odobi sohasiga tegishli bo'lgan xushmuomalalik tamoyili. Xushmuomalalik maksimlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, nafaqat ularning buzilishi, balki tirishqoqlik bilan rioya qilish ham noqulaylik tug'diradi. Kommunikativ kod har qanday qoidalarga to'plami kabi faqat ongli va qasddan nutq harakatlariga taalluqlidir. U, bir tomondan, nutq (illokutiv) kuchlarni, ikkinchi tomondan, taklifning mazmunini tartibga soladi.

Muvaffaqiyatli muloqotga erishish va tobora murakkablashib borayotgan inson faoliyatini muvofiqlashtirish uchun insonlarning kommunikativ (og'zaki) xatti-harakatlarini tartibga solish uchun muloqot holati bilan bog'liq holda til birliklarining pragmatik xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Har qanday kommunikativ muvaffaqiyatni amalga oshirish uchun kommunikatorlar ma'lum bir til vositalaridan foydalanadilar, ularning tanlovi ular joylashgan kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi. Tilni to'g'ri tushunish ingliz tilida so'zlashuvchi lingvomadaniyatda direktivlikni ifodalash demakdir, aks holda pragmatik noqulay oqibatlariga duch kelish mumkin. Kommunikativ vaziyatni tashkil etuvchi narsa haqidagi fikrlarning plyuralizmi nutq aktlarining tasnifida ajratilgan nutqiy harakatlar soni, nutqiy harakatlarning turli sinflarining o'ziga xos xususiyatlari kabi parametrlarda farq qiluvchi ko'plab tasniflarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, samarali muloqotga erishish uchun Grays tomondan taklif etilgan qoidalarga amal qilgan holda, kommunikantlar o'zaro hurmat, tolerantlik hamda suhbatga qiziqish ko'rsatib muloqot qilishi muvaffaqiyat kaliti bo'lganligi uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сearле Ж., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов //Новое в зарубежной лнгвистике. – 1986. – Т. 18. – С. 242-263.
2. Hymes D. et al. On communicative competence //sociolinguistics. – 1972. – Т. 269293. – С. 269-293.
3. Rasulova M.I. The basis of lexical categorization in linguistics. Tashkent: Fan. 2005.
4. Rosaldo Michelle Z. The Things We Do With Words: Ilongot Speech Acts and Speech Act Theory in Philosophy // Language in Society. 1982. № 11. P. 203–237
5. Sbisà M. Speech act theory //Key notions for pragmatics. – 2009. – Т. 1. – С. 229-344.
6. Vassilyeva O. V. Акт коммуникации как ключевой аспект в исследовании межличностного речевого общения //Европейский журнал гуманитарных и социальных наук. – 2020. – №. 3. – С. 146-150.
7. Thomas J. Cooperative principle //Concise Encyclopedia of Philosophy of Language, Peter V. Lamarque, 1997: Philosophy of Language. – 1997. – Т. 1. – С. 393.



UDK: 83/4(0/3)

**Maqsud MAXSUMOV**,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti  
E-mail: maqsudmaxsumov7@gmail.com

Tosh DO'TAU doktoranti A.Razzoqov taqrizi asosida

### “G'AROYIB US SIG'AR”DAGI BIR G'AZAL SHARHI (NAFS MAVZUSINING BADIYYATIGA DOIR)

Annotatsiya

Maqola barcha zamonlar uchun birdek dolzarb hisoblangan “nafs” mavzusiga bag'ishlanadi. Nafs tarbiyasi mavzusi Alisher Navoiyning “G'aroyib us sig'ar”dagi bir g'azalini tahlil doirasiga tortish asnosida ilmiy o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** nafs, qalb, xulq, el axloqi, nafs tarbiyasi...

### REVIEW OF A GHAZAL IN “GARUYIB US SIGAR” (ON THE ARTISTRY OF THE SUBJECT OF TEMPTATION)

Abstract

The article will be devoted to the topic of “temptation”, which is considered equally relevant for all times. The subject of temptation upbringing was studied scientifically by Alisher Navai in the context of weighing one of his ghazals in “Garoyib us sigar” into the framework of the analysis.

**Key words:** lust, heart, behavior, El morality, temptation upbringing.

### КОММЕНТАРИЙ НА ГАЗЕЛЬ В “ГАРОИБ УС СИГАР” (О ХУДОЖЕСТВЕННОСТИ ТЕМЫ ИСКУШЕНИЯ)

Аннотация

Статья будет посвящена теме “искушение”, которая считается одинаково актуальной на все времена. Тема воспитания искушением была научно изучена Алишером Наваи в контексте анализа одной из его газелей в “Гаройб ус сигар”.

**Ключевые слова:** похоть, сердце, поведение, нравственность, воспитание искушением...

Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,  
Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo'.

Alisher Navoiy

**Kirish.** Hazrat Nizomiddin Alisher Navoiy “G'aroyib us sig'ar” devonining o'ndan ziyod g'azallarida nafs mavzusining badiiy manzaralarini chizganiga guvoh bo'lamiz. Bu g'azallar mazmuni umumlashtirilsa, insonning to'g'ri hayot kechirishi; baxtli va faravon yashashining bosh omili uning nafsiga bog'liq ekanini anglashiladi. Inson butun umri davomida anashu nafs iskanjasida hayot kechiradi va vaqt o'tgan sari uni tarbiyalab boradi. Negaki, nafs tarbiyaga muhtoj. Chunki uning asliyati tubanlik va xorlikka chaqiradi. Hazrat Navoiyga ko'ra, nafsni tarbiyalovchi obraz bu aqlidir. Zero, “inson zotiga aql bilan birga nafs ham ato etilgan. Toki jon tanani tark etmaguncha inson vujudida aql va nafs o'rtasida kurash boradi. Aql inson maqomini farishtalar maqomiga ko'tarishni istasa, nafs uni hayvonlar maqomiga tushirishga harakat qiladi. Shu ikkisi o'rtasidagi bahs-tortishuv tufayli inson bu dunyo sinovidan o'tadi. Nafs tomonida shayton tursa, aql tomonida Alloh turadi. Ba'zan aql nafsning dastoriga aylanib, u nimani buyursa, shuni so'zsiz bajaradi. Ba'zan aql nafsdan ustun kelib, uning orzu-istagi va xohishini bajarishdan bosh tortadi. Aql nafs ustidan g'olib kelganida inson yaxshilik yo'lini tutadi. Agar nafs aqlni o'ziga tobe qilib olsa, inson yomonlik yo'lini tutib, razolat va qabohat botqog'iga botadi. Ana shu vaqtda Allohning o'zi unga yordam bermasa, ya'ni to'g'ri yo'lga yo'llamasa, u hech qachon o'zini bundan qutqara olmaydi. Nafs yaxshi-yomon, foyda-zararni farqlamaydi, xohish-istagi amalga oshsa, bas. Aql esa, uning aksi bo'lib, har bir narsaning foyda-zararini ajratishga xizmat qiladi. Shu bois, Qur'oni karimda aql egalarning martabasi yuksak ekanini ko'plab oyatlarda qayd etib o'tilgan”[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rganilayotgan mavzu avvalo Qur'oni karim va hadisi shariflarda mukammal

suratda yoritib berilgan. Shuningdek, mavzu jahon faylasuflari, adabiyotshunos va ruhshunoslari ishlarida ham atroflicha o'rganilgan. Xususan, Najmiddin Komilovning 2009 yilda “O'zbekiston” nashriyatida nashr etilgan “Tasavvuf”, Ibrohim Haqqulovning 2007 yilda “Fan” nashriyatida bosilib chiqqan “Navoiyga qaytish” asarlarida bu mavzuga murojaat bor. Qolaversa, Samarqand davlat universiteti professori Muslihiddin Muhiddinov, Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti A.Muhammadiyev kabi ko'plab olimlarimizning tadqiqotlarida mazkur mavzu haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda yetakchi sifatida germevntik tahlil metodidan unumli foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ko'rinadiki, aql nafsni tarbiyachisi ekan. Nafs tarbiyasi haqida Navoiy quyidagicha yozadilar:

Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,  
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand[2;110].

Bu baytda go'zal tamsil san'ati mavjud. Dastlabki misrada Navoiy o'quvchiga “o'zgalar axloqidan xursand bo'lavermasdan, o'z xulqungni tuzat”, deya nasihat qiladi. Keyingi misrada esa buning hayotiy misolini (kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand) keltirish orqali o'z fikriga asosli dalil keltiradi va shu yo'l orqali bayt mazmunining ta'sirchanligini oshiradi.

Ma'lumki, “nafs” istilohi tasavvufda asosiy o'rin egallaydi. Najmiddin Komilov “Tasavvuf ahli barcha falokatlar, yomonliklarining bosh sababchisi, insonni buzadigan asosiy nuqs sifatida nafsni ko'rsatadilar va nafsqa qarshi urush e'lon qilganlar”, – deb yozadi. Darhaqiqat shunday. Ulug' shayxlardan biriga tasavvuf nima, deb savol

berganlarida “Tasavvuf – shaytoniy nafsni yengmoq” deb javob bergan ekan. Shunday bo'lgandan keyin, tasavvufni o'z ijodlarining bosh g'oyasiga aylantirgan xamsanavis shoirlar ham bu nafsga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganlari aniq. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da insonning salbiy xislatlari – mayparastlik, manmanlik, zolimlik haqida yozar ekan, bular nafs belgilari ekanini unutmadi. Bularning hammasi kamolot yo'lidagi g'ovlardir. Navoiy nazarida nafs – insonning eng qattol dushmani, nafsini yenggan odam mardlar – so'fiylar safiga kira oladi”[3].

Zamon ahlidin uz payvand, agar desang biroq birla  
Qilay payvand bore, qilmag'il noahl ila payvand.

Navoiy yuqoridagi baytda har bir kishi o'z nafsini tuzatishi, uni tarbiyalashi haqida so'z yuritgan edi. Mazkur bayt ham ayni shu mazmunning musalsal davomi sifatida yangragan. Nafsini tarbiya qilishni istagan odam, Navoiyga ko'ra, zamon ahliga bo'lgan (bu o'rinda nodon ahl nazarda tutilgan) taalluqlikdan voz kechishi shart. Bordiyu biror kim bilan bog'lanishni istasang ham noahl insonlarga dil bermagin, deydi Navoiy.

Qo'ngul komini qo'y, gar xud mening devona  
ko'nglumni,

Toparsen ayla yuz parkandu sol har itga bir parkand.

Alisher Navoiyda ayrim o'rinlarda ko'ngil va nafs tushunchalarining ma'nani uyg'unlashganini ko'rishimiz mumkin. Zero, komil insonning ko'ngli bilan johil kishining ko'ngli teng bo'lmaganidek, tarbiya topgan nafs bilan, betarbiya nafs ham teng emas. Baytni shu nuqtai nazardan kelib chiqib sharhlaydigan bo'lsak, ko'ngling (nafsing) istagan har ishni qilaverma degan ibratli mantiq g'aydalanadi. Anashunday devona ko'nglimni topsang, deydi Navoiy: uni yuz pora (bo'lak) qilginu, har bir bo'lagini bir itga yedirgin (toki Navoiy bunday ko'ngildan xalos bo'lsin).

Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,  
Qila olsang, eshitgil pand, sen kim, elga bermak  
pand?

Donishmand xalqimiz o'gitlarida hamda muqaddas diniy manbalarda hamisha kam gapirish va ko'p tinglash (o'rganish) lozimligi uqtiliradi. Navoiy ham o'zi misolida o'quvchilarga xuddi shu nasihatni go'zal tarzda tushuntirmoqda.

Bu foniylar dayr aro gar shohlig' istar esang, bo'lg'il  
Gadolig' nonig'a xursandu bo'lma shahg'a hojatmand.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida hamisha “shohlig'” va “gadolig'” tazodi shoirlarga ta'sirchan misralar bitish imkonini berganining guvohi bo'lakmiz. Navoiy ham anashunday imkoniyatdan foydalanib aytadi: agar bu o'tkinchi dunyoda ko'ngling shohlikni istab qolsa, sen gadoning noni bilan xursand bo'lish yo'lini tut va shohga (shohlikka) ehtiyojini qoldirma. Boshqacha aytganda, g'avg'osi ko'p hashamdan betashvish topilgan bir burda non afzal ekanini nafsingga tushuntir. Qanoatli bo'l,– demoqchi Navoiy.

Bu haqda adabiyotshunos olim A.Muhammadiyahning “G'aroyib us-sig'ar”da naqshbandiya tariqatining tamoyillari tahlili”[4] nomli maqolasidan shunday tahlillarni o'qiyimiz:

“Qanoat tariqig'a kir, ey ko'ngul,

Ki xatm o'lg'ay oyini izzat sanga,

Desang shoh o'lay yeru ko'k basdurur,

Bu bir taxtu ul chatri rif'at sanga[5].

Navoiyning ta'kidlaricha, agar inson izzatga erishish yo'lini qidirsang, ko'nglini qanoat ko'chasiga kiritishi, boriga sabr qilish, chidamli va bardoshli bo'lishi, tamadan tiyilishi lozim. Agar inson ko'ngli shohlikni xohlasa, unga yeru osmon kifoya. Yeru – taxt, osmon – chatri rif'at (yuqorilik chodiri, baxt iqbol)dir.

Fano sho'lasida yoshur jismni,

Kerak bo'lsa zarbaft xil'at sanga.

Yetar lola butgan qiyo qullasi,

Murod o'lsa gulgun hashmat sanga.

Navoiyning ta'riflaricha, shohona hayotu zarbof liboslarni istasng, jismingni fano (o'tkinchilik) sho'lasiga bilan o'rashing kifoya. Bordiyu senga rang-barang hashamdorlik kerak bo'lsa, lola o'sgan qoya cho'qqisi yetarlidir” [1].

Bo'lub nafsingga tobi', band etarsen tushsa  
dushmanni,

Senga yo'q nafsdek dushman qila olsang ani qil band.

Ammora nafs haqida tasavvufshunos olim N.Komilov shunday yozadi: “...so'fiylar nafsni butun falokatlarining boshi deb ko'rsatib, muridlar oldiga avval ana shu shaytoniy nafs («nafi ammora»)ni mahv etish vazifa qilib qo'yilgan edi. O'z nafsini yengolgan kishi o'z g'alari g'amini yeyishi mumkin [8]. Demak, kishi har qancha kuchli va makkor dushmanni yenga oladi. Biroq o'z nafsiga tobe'. Aslida inson uchun eng daxshatli dushman bu uning nafsidir. Navoiy ta'kidlaydilarki, agar yenga olsang, sen avvalo o'z nafsingga kishan sol. Demak, Navoiyga ko'ra, insonning o'z nafsini ustidan g'olib bo'lishi kuchli dushmanni yengishdan ko'ra buyukroqdir. Angladikki, nafsning lavvoma bosqichi uning bema'ni qiliqlarini anglab, nafsiga qarshi chiqq boshlashda ko'rinadi.

“G'aroyibus sig'ar”ning boshqa bir g'azalida xuddi shu bayt mazmuni zudasini Navoiy quyidagicha badiiy aks ettiradi:

Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,

Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo'.

To'qayzordagi she'rni mahv etgan kishi shijoatli emas,  
bilaks nafs itini zabun etgan kishigina eng shijoatlidir.

Shakarlablar tabassum qilg'anin ko'rgach ko'ngul  
berma

Ki, bedillarni achchig' yig'latur oxir bu shakkarxand.

Navoiy bu baytda o'z tasavvufiy fikrlarining zudasini badiiy bayon qilgan. Unga ko'ra, o'tkinchi dunyo hoyu havaslaridan voz kechish shart. “Shakarlablar tabassumi” jumlasida xuddi shu mazmun yuklangan. YA'niki, bu shakkarxand (chiroyli tabassum, kulgi)larga ko'ngil bergan dilsizlarning oqibati mahzunlik va achchig' yig'idan boshqasi emas.

Jahon lazzotini shirin ko'arsen, lek bandingdur,

Giriftor o'lma, voqif bo'lki, qaydu qand erur monand.

Inson – benuqson emas, ayniqsa, dunyo va shaytoniy nafs uning ruhiga kishan, uni yo'ldan ozdirib turadi. Negaki, dunyo lazzatlari inson nafsiga xush kelgani bois, nafs egasi shularga bog'lanib qoladi. Navoiy esa o'quvchini bu kabi giriftorlikdan ogoh bo'lishga chaqirmoqda. Chunki “qayd” (mubtalolik, bog'lanib qolish) va “qand” (shirinlik) so'zlari bir-birini taqozo etuvchi o'xshash tushunchalardir. Shu bois kamolot yo'li – bu nafsni mahv etib, foniylar qilib, ma'rifat egallashdadir.

Ko'nguldin jahl ranji dofe'i gar istasang bordur,

Navoiy bog'i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

Alisher Navoiy o'z ash'orini shakarzor nazm bog'iga qiyos qiladi. Agar ko'ngling jahl ranjidan butkul qutulishni istasa, bu nazm bog'iga tashrif buyur va jahl ranjidan xalos etuvchi gulqandlarni terib ol, deydi Navoiy.

**Xulosa va takliflar.** Adabiyotshunos olim M.Muhiddinov nafsni yengish borasida o'z tadqiqotlarida Nizomiy, Dehlaviy va Navoiylar ijodini qiyosan o'rganar ekan, jumladan shunday yozadi:

“Amir Xusrav nazarida, so'fiylik yo'lga kirgan odam birinchi galdga o'z manmanligi, insoniyat va nafsniy xirsu hislarini yengishi, tuproqsifat xoksuru kamtarin bo'lishi lozim. Ulug'lik – xoksurlik orqali qo'lga kiradigan xazina”.

Darhaqiqat, inson boshiga yetadigan jamiki musibatlar sababi daqiq o'rganilsa, uning ortidan nafs (tarbiyasiz, buzuq nafs) bo'y ko'rsataveradi. Demakki, barcha ulug'larimiz, jumladan, Navoiy ta'kidlaganidek, nafsni jazolash, uning aytganiga ko'nmaslik va shu yo'l bilan uni tarbiyalash barcha davrlar, jamiyatlar uchun nihoyatda muhim va dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

## ADABIYOTLAR

1. Мухаммадиев А. Фаройиб ус-сиғар”да нақшбандия тариқатининг тамойиллари таҳлили. “Жаҳон маданий цивилизацияси контекстида Хожагон, Нақшбандия тасаввуфий таълимотлари илмий-маънавий меросининг умумбашарий аҳамияти” мавзусидаги Халқаро илмий конференция маъреаллари. Навоий, 2019 йил, 28 май
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 3-жилд: Хазойин ул-маоний: Фаройиб ус-сиғар. Т.: “Фан”, 1988. 109-110-бетлар.
3. Комилов Н. Тасаввуф. . – Т.: Ўзбекистон, 2009. - 447 б.
4. Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. – Тошкент: “Фан” нашриёти 2007 йил. – 234 б.
5. Мухиддинов М. Комил инсон адабиёт идеали. Тошкент. Маънавият 2015 йил. Б-236. 178-бет.
6. Мухаммадиев А. “Фаройиб ус-сиғар”да нақшбандия тариқатининг тамойиллари таҳлили”. 2022.
7. Toshmanov, N., & Muhammadiev, A. (2021). Three aspects of determining pedagogical skills (research, experience and results). *academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 426-434.
8. Мухаммадиев, А. М. (2021). Insoniy fazilatlar tarannumi («mahbubul-qulub» da hadislarning badiiy talqini). *Международный журнал алишера навои*, 1(2).
9. Mahmudovich, M. A. (2020). Navoi's praising ghazals: analysis and interpretation. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(6).
10. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/itemlist/user/280-muslimuz>
11. <https://islom.uz/maqolalar/73/12>
12. Z.Yakhshieva. Suryey of Timur and timurids in Alisher Navoi's scientific,
13. literary heritage. Alisher Navoiy va XXI asr. 9-xalqaro konferensiya.Toshkent.Bursa.2024 8 fevral. 718-722.





Saodat MUSTAFAYEVA,  
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi  
E-mail:saodat906675151@gmail.com

F.f.d, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

## RELATIONSHIP OF LANGUAGE AND CULTURE

Annotation

This article deals with the interrelationships of language and culture and their influence on each other. The article analyzes the relationship of language and culture in different aspects. As a research methodology, literature analysis, scientific articles and internet resources are studied. The article addresses issues such as language and culture overlapping, language representing culture, and culture enriching language. It has also been suggested that the relationship between language and culture is manifested in a variety of fields, including literature, art, music, linguistics, anthropology, and sociolinguistics. The results of the study show that language and culture play an important role in the development of mankind, and the study of their interaction is of urgent importance for the future.

**Keywords:** language, culture, interaction, anthropology, sociolinguistics

## ВЗАИМОСВЯЗЬ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В этой статье рассказывается о взаимосвязи языка и культуры и их влиянии друг на друга. В статье анализируются взаимосвязи языка и культуры с разных точек зрения. В качестве методологии исследования изучается анализ литературы, научных статей и интернет-ресурсов. В статье рассматриваются такие вопросы, как Взаимосвязь языка и культуры, то, как язык представляет культуру, и то, как культура обогащает язык. Также рассматривалось, как Взаимосвязь языка и культуры проявляется в различных областях, включая литературу, искусство, музыку, лингвистику, антропологию и социолингвистику. Результаты исследования показывают, что язык и культура играют важную роль в человеческом развитии, и изучение их взаимоотношений приобретает все большее значение в будущем.

**Ключевые слова:** язык, культура, взаимодействие, антропология, социолингвистика

## TIL VA MADANIYATNING O‘ZARO MUNOSABATI

Annotatsiya

Ushbu maqola til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va ularning bir-biriga ta’siri haqida so‘z yuritadi. Maqolada til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari turli jihatlardan tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, ilmiy maqolalar va internet manbalari o‘rganilgan. Maqolada til va madaniyatning bir-birini taqozo etishi, tilning madaniyatni ifodalashi va madaniyatning tilni boyitishi kabi masalalar ko‘tarilgan. Shuningdek, til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari turli sohalarida, jumladan, adabiyot, san’at, musiqa, tilshunoslik, antropologiya va sotsiolingvistikada namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyat insoniyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish kelajak uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** til, madaniyat, o‘zaro munosabat, antropologiya, sotsiolingvistika

**Kirish.** Til va madaniyat insoniyatning eng muhim yutuqlaridan biridir. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birisiz mavjud bo‘la olmay di. Til madaniyatni ifodalaydi, madaniyat esa tilni boyitadi va rivojlantiradi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uzoq evolyutsion jarayon natijasida yuz bergan bo‘lib, bu jarayon madaniyatning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir [1].

Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari qadimdan olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ushbu mavzu antropologiya, tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi ko‘plab fanlarning tadqiqot ob’ektiga aylangan [2]. Olimlar til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini turli jihatlardan o‘rganishgan va bu borada turli xil nazariyalar va yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Til va madaniyat mavzusi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Globallashuv jarayonlari, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, turli madaniyatlarning o‘zaro integratsiyasi til va madaniyat masalalarini yanada muhim ahamiyat kasb etishiga olib keldi [3]. Bundan tashqari, til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari ta’lim tizimida ham muhim rol o‘ynaydi. Chet tillarini o‘qitishda madaniy jihatlarni

hisobga olish, o‘quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir [4].

Mazkur maqolada til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari haqida so‘z boradi. Maqolaning maqsadi til va madaniyatning bir-biriga ta’sirini, ularning o‘zaro bog‘liqligini va bir-birini boyitishini ko‘rsatib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari turli sohalarida qanday namoyon bo‘lishi haqida ham fikr yuritiladi.

Maqolaning ahamiyati shundaki, u til va madaniyat mavzusidagi tadqiqotlarni boyitadi, ushbu sohadagi bilimlarni kengaytiradi va til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini yangi jihatlardan yoritib beradi. Shuningdek, maqola til va madaniyat masalalariga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ham muhim rol o‘ynashi mumkin.

**Metodologiya va adabiyotlar tahlili.** Ushbu tadqiqotda til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish uchun tavsifiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida til va madaniyat mavzusiga oid ilmiy maqolalar, kitoblar va internet manbalari o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariyalar va yondashuvlarni tizimli ravishda o'rganish imkonini berdi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat mavzusi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama o'rganilgan. Ushbu mavzuga oid dastlabki tadqiqotlar XX asr boshlarida antropologiya va tilshunoslik sohalarida olib borilgan. Amerikalik antropolog Frants Boas (Franz Boas) va uning shogirdlari Edvard Sepir (Edward Sapir) va Benjamen Uorf (Benjamin Whorf) tilning madaniyatni shakllantirishi va aks ettirishi haqidagi g'oyalarni ilgari surganlar [1]. Ularning ishlarida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, tilning insonning dunyoqarashini belgilashdagi roli kabi masalalar ko'tarilgan.

Keyingi davrlarda til va madaniyat mavzusiga oid tadqiqotlar yanada kengaydi va chuqurlashdi. Mashhur tilshunos olim Dell Xaymes (Dell Hymes) "Etnografiya of Communication" (Muloqot etnografiyasi) konsepsiyasini ishlab chiqdi [2]. Ushbu yondashuv tilni madaniy kontekstda o'rganish va tahlil qilishni nazarda tutadi. Xaymesning ishlari til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va madaniyat mavzusiga oid yana bir muhim nazariya "Lingvistik nisbiylik gipotezasi" (Linguistic Relativity Hypothesis) hisoblanadi. Ushbu gipoteza Sepir va Uorf tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra, til insonning dunyoqarashi va tafakkur tarzini belgilaydi [3]. Ya'ni, turli tillarda so'zlashuvchi insonlar dunyoni turlicha idrok etadilar va fikrlaydilar. Ushbu gipoteza ko'plab bahslarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim rol o'ynagan.

Yana bir mashhur nazariya "Lingvistik imperializm" (Linguistic Imperialism) konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiya Robert Filipson (Robert Phillipson) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tilning madaniy va siyosiy hukmronlikdagi rolini tahlil qiladi [4]. Filipson ingliz tilining global miqyosda tarqalishi va boshqa tillarning siqib chiqarilishini tanqid qiladi hamda bunday jarayonlarning sabiy oqibatlarini ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, til va madaniyatning o'zaro munosabatlari sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmatika kabi sohalarida ham faol o'rganilmoqda. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy kontekstdagi rolini, turli ijtimoiy guruhlarning til xususiyatlarini tahlil qilsa [5], psixolingvistika tilning individual psixologik jihatlarini o'rganadi [6]. Pragmatika esa til birliklarining kontekstual ma'nolarini, nutqiy aktlarning madaniy xususiyatlarini tadqiq etadi [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, til va madaniyatning o'zaro munosabatlari turli sohalarida namoyon bo'ladi. Masalan, adabiyotshunoslikda badiiy asarlarning lingvomadaniy xususiyatlari, tarjima jarayonidagi madaniy o'zgarishlar kabi masalalar o'rganiladi [8]. Shuningdek, madaniyatshunoslik, etnografiya kabi sohalarida ham til va madaniyat masalalari muhim o'rin tutadi [9].

Bundan tashqari, til va madaniyatning o'zaro munosabatlari amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, chet tillarini o'qitishda madaniy jihatlarini hisobga olish, o'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir [10]. Shuningdek, xalqaro munosabatlar, diplomatiya, turizm kabi sohalarida ham til va madaniyat masalalari muhim rol o'ynaydi [11].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, til va madaniyatning o'zaro munosabatlari murakkab va ko'p qirradir. Ushbu mavzu turli fanlar va sohalarining diqqat markazida bo'lib, har tomonlama o'rganilgan. Shu bilan birga, globalashuv va integratsiya jarayonlari til va madaniyat masalalarini yanada dolzarb va ahamiyatli qilib qo'yimoqda. Kelajakda til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini yanada

chuqurroq o'rganish, nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

**Natijalar.** Adabiyotlar tahlili va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Ular bir-birini taqozo etadi va bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi madaniyatning shakllanishi va taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy xalqlarning tili, madaniyati, urf-odatlariga haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [12]. Ushbu asar tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan muhim manba hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarning leksik va grammatik xususiyatlarini tahlil qilish bilan birga, turkiy xalqlarning madaniy hayoti, an'analari, qadriyatlarini ham yoritib bergan. Bu esa til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi yorqin misoldir.

Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asari esa turkiy va forsiy tillarning qiyosiy tahlili, ularning o'ziga xos jihatlariga haqida so'z yuritadi [13]. Navoiy ushbu asarida turkiy tilning boy imkoniyatlari, uning forsiy tilidan qolishmaydigan jihatlariga haqida fikr bildirgan. Shuningdek, u tilning madaniyat va milliy o'zlikni ifodalashdagi rolini ham ta'kidlagan. Navoiyning ushbu qarashlari til va madaniyatning uzviy aloqadorligini ko'rsatadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ham til va madaniyat masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Avloniy ushbu asarda tilning milliy va ma'naviy qadriyatlarini ifoda etishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. U tilni millat ruhining ko'zgusi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Avloniy yoshlarni ona tilini asrab-avaylashga, uni yanada boyitishga chorlaydi. Uning fikrlari til va madaniyat o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni yorqin ifodalaydi.

O'zbek tilining taraqqiyotida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani muhim rol o'ynagan. Ushbu asar o'zbek adabiy tilining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qodiriy romanda o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlarini, an'analari mahalliy shevalar vositasida realistik tarzda tasvirlaydi. Bu esa til va madaniyatning bir-birini taqozo etishini ko'rsatuvchi yana bir misoldir.

Mustaqillik yillarida til va madaniyat masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Davlat tili haqida"gi qonun o'zbek tilining davlat tili maqomini mustahkamladi. Shuningdek, o'zbek tilini yanada rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim sohasidagi yangilanishlar ham til va madaniyat masalalariga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. 2020-yil 24-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning yuksak ma'naviyat va axloq egasi bo'lib shakllanishiga ko'maklashish vazifalari belgilab berilgan. Bu o'z navbatida, til va madaniyatni o'qitish jarayonida ham milliy va umuminsoniy jihatlarini uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi va bir-birini boyitadi. Til madaniyatning ajralmas qismi sifatida uning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, madaniyat ham tilning boyishi va takomillashuviga yordam beradi. Tilning leksik tarkibi, grammatik qurilishi, uslubiy xususiyatlari madaniy hayot bilan chambarchas bog'liqdir.

Globalashuv va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida tillararo va madaniyatlararo muloqot yanada kuchaymoqda. Bu esa tillarni o'rganish, madaniy xilma-xillikni tushunish va hurmat qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda yer yuzida 7000 dan ortiq til

mavjud bo'lib, ularning aksariyati yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Shu bois, tillarni asrab-avaylash va rivojlantirish, madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish dolzarb vazifaga aylanoqda.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatlari murakkab va ko'p qirradir. Ular bir-birini taqozo etadi va bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Til madaniyatni ifodalasa, madaniyat tilni boyitadi va rivojlantiradi. Til va madaniyat masalalarini chuqur o'rganish, ularni o'qitish va targ'ib qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Zero, har bir millatning ma'naviy kamoloti, taraqqiyoti va istiqboli uning tili va madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Tahlil. Ushbu maqolada til va madaniyatning o'zaro munosabatlari turli jihatlardan tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etadi.

Til madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. U madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni ifodalaydi va avlodlardan avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu asarda turkiy xalqlarning tili bilan birga, ularning madaniy hayoti, turmush tarzi, qadriyatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [12]. Bu esa til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, madaniyat ham tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tilning leksik tarkibi, grammatik qurilishi, uslubiy xususiyatlari bevosita madaniy hayot bilan aloqadordir. Yangi tushunchalar, predmetlar, hodisalar paydo bo'lishi bilan tilning lug'at boyligi ham ortib boradi. Masalan, keyingi yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida o'zbek tiliga ko'plab yangi so'z va atamalar kirib keldi. Bu esa til va madaniyatning o'zaro ta'sirini ko'rsatuvchi yana bir dalildir.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, til milliy o'zlikni anglash va ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tilga millat ruhining ko'zgusi sifatida qaraladi [14]. Darhaqiqat, til millatning ma'naviy boyligi, qadriyatlari, dunyoqarashini aks

ettiruvchi muhim vositadir. Tilni asrab-avaylash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish millatning ma'naviy kamoloti uchun zarurdir.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatlari ta'lim sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, o'quvchi-yoshlarni yuksak ma'naviyat va axloq egasi bo'lib shakllantirishga ko'maklashish vazifalari belgilab berilgan [17]. Bu esa til va madaniyatni o'qitish jarayonida milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bugungi globalashuv va integratsiya jarayonlari til va madaniyatning o'zaro munosabatlariga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Bir tomondan, milliy tillar va madaniyatlarni asrab-avaylash, ularning noyob xususiyatlarini saqlab qolish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ikkinchi tomondan esa, turli xalqlar va elatlarning til va madaniyatlarini o'rganish, ular o'rtasida muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurati ortib bormoqda. Bu esa tillarni o'qitish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishni taqozo etadi.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatlari hayotning barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Ular bir-birini taqozo etadi va bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bois, til va madaniyat masalalarini har tomonlama o'rganish, ularning o'zaro aloqadorligini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Til va madaniyatga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, ularni yanada rivojlantirish har bir jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Muhokama.** Xulosa qilib aytganda, til va madaniyat inson hayotining ajralmas qismidir. Ular millatning o'tmishi, buguni va kelajagini birlashtiruvchi ko'prikdir. Til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini chuqur anglash, ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish har bir jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Zero, til va madaniyat ravnaqi milliy taraqqiyotning muhim omili va garovidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Boas, F. (1911). Handbook of American Indian languages. Government Printing Office.
2. Hymes, D. (1974). Foundations in sociolinguistics: An ethnographic approach. University of Pennsylvania Press.
3. Sapir, E. (1929). The status of linguistics as a science. Language, 5(4), 207-214.
4. Phillipson, R. (1992). Linguistic imperialism. Oxford University Press.
5. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An introduction to language and society (4th ed.). Penguin Books.
6. Steinberg, D. D., & Sciarini, N. V. (2006). An introduction to psycholinguistics (2nd ed.). Longman.
7. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.
8. Bassnett, S. (2002). Translation studies (3rd ed.). Routledge.
9. Duranti, A. (Ed.). (2004). A companion to linguistic anthropology. Blackwell Publishing.
10. Byram, M., & Feng, A. (Eds.). (2006). Living and studying abroad: Research and practice. Multilingual Matters.
11. Holliday, A., Hyde, M., & Kullman, J. (2004). Intercultural communication: An advanced resource book. Routledge.
12. Koshg'ariy, M. (1960). Devonu lug'otit turk. (S. Mutallibov, Tarj.). O'zSSR Fanlar akademiyasi.
13. Navoiy, A. (1966). Muhokamatul lug'atayn. (P. Shamsiev, Tahrir). Badiiy adabiyot nashriyoti.



UDK: 82/81

*Fatxiddin NISHONOV,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n*  
*E-mail:fatxiddin@mail.ru*

*Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

### LEXICAL UNITS EXPRESSING HUMAN CHARACTER IN FRENCH AND UZBEKI

Annotation

This article examines the lexical units used to express human character in French and Uzbek languages. By examining the similarities and differences in the linguistic expressions of these two different languages, this study aims to provide insight into cultural perspectives and language structures. The analysis is based on a comparative approach, emphasizing how each language conceptualizes and communicates human characteristics.

**Key words:** lexical units, human character, French language, Uzbek language, cultural connotations, comparative linguistics.

### ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ХАРАКТЕР ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются лексические единицы, используемые для выражения человеческого характера во французском и узбекском языках. Изучая сходства и различия в языковых выражениях этих двух разных языков, данное исследование призвано дать представление о культурных перспективах и языковых структурах. Анализ основан на сравнительном подходе, подчеркивающим, как каждый язык концептуализирует и передает человеческие характеристики.

**Ключевые слова:** лексические единицы, человеческий характер, французский язык, узбекский язык, культурные коннотации, сравнительное языкознание.

### FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA INSON XARAKTERINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada frantsuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalashda qo'llaniladigan leksik birliklar o'rganiladi. Ushbu ikki xil tilning lingvistik ifodalardagi o'xshashlik va farqlarni o'rganish orqali ushbu tadqiqot madaniy istiqbollar va til tuzilmalari haqida tushuncha berishni maqsad qilgan. Tahlil qiyosiy yondashuvga asoslangan bo'lib, har bir til inson xususiyatlarini qanday qilib kontseptualashtirishi va so'zlashuvini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** leksik birliklar, inson xakteri, frantsuz tili, o'zbek tili, madaniy konnotatsiyalar, qiyosiy tilshunoslik.

**Kirish.** Til insonning kechinmalari, his-tuyg'ulari va xususiyatlarini ifodalash uchun kuchli vositadir. Bular orasida inson xarakterining xususiyatlari kundalik muloqotda, adabiyotda va madaniy nutqda muhim o'rin tutadi. Turli tillar bu xususiyatlarni qanday etkazishini tushunish, so'zlashuvchilarning asosiy madaniy va ijtimoiy normalari haqida ko'p narsalarni ochib berishi mumkin. Ushbu tadqiqot frantsuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalashda qo'llaniladigan lug'aviy birliklarni o'rganib chiqadi va bu iboralar tarkibidagi til va madaniy murakkabliklarni ochib beradi.

Lotin ildizlariga ega roman tili bo'lgan frantsuz tili uzoq yillik adabiy va madaniy an'anaga ega bo'lib, uning so'z boyligi va inson xarakterini tasvirlashda nuanslarni shakllantirgan. Frantsuz madaniyati ko'pincha individualizmga urg'u beradi, bu tilning boy va rang-barang leksikasida shaxsiy xususiyatlar uchun aks etadi. "Bienveillant" (mehribon), "courageux" (jasur) va "ambitieux" (shubhali) kabi so'zlar frantsuz tilida so'zlashuvchilarning odamlar tabiatini tasvirlashning nozik usullarini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, tarixiy o'zaro munosabatlar tufayli fors va rus tillarining kuchli ta'siri ostida bo'lgan turkiy til bo'lgan o'zbek tili inson xarakteriga o'ziga xos nuqtai nazarni taqdim etadi. O'zining kollektivistik qadriyatlarini va mustahkam ijtimoiy rishtalari bilan mashhur o'zbek madaniyati o'z tilida ana shu tamoyillarni aks ettiradi. "Mehribon" (mehribon), "jasur" (jasur) va "saxovatli"

(saxovatli) kabi atamalar ko'pincha shaxs doirasidan tashqariga chiqadigan ma'nolarni ham o'zida mujassam etgan bo'lib, jamoa totuvligi va ijtimoiy mas'uliyatni ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqot ushbu ikki tilning inson xarakterini qanday ifodalashidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganish uchun qiyosiy leksik tahlildan foydalanadi. Lug'atlar, adabiy asarlar va so'zlashuv tili korpusini o'rganib, tadqiqot frantsuz va o'zbek tillaridagi asosiy leksik birliklar bilan bog'liq bo'lgan semantik sohalari, qo'llanish kontekstlari va madaniy konnotatsiyalar to'g'risida har tomonlama tushuncha berishga qaratilgan.

Bu tillardagi inson xarakterining lingvistik ifodalarni tushunish nafaqat frantsuz va o'zbek tillaridagi bilimimizni boyitibgina qolmay, balki tilning madaniy o'ziga xoslikni qanday shakllantirishi va aks ettirishi haqida ham kengroq tushunchalar beradi. Ushbu qiyosiy tahlil orqali biz turli xil til va madaniy landshaftlarda inson tabiatining so'zlashuvi va kontseptsiyasining turli usullarini yoritishga umid qilamiz.

**Metodologiya.** Metodologiya qiyosiy leksik tahlilni, lug'atlardan, adabiy asarlardan va frantsuz va o'zbek tillaridagi og'zaki nutqning korpuslaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Inson xarakteriga oid asosiy leksik birliklar aniqlandi va ularning semantik sohalari, qo'llanish kontekstlari va madaniy konnotatsiyalarini tushunish uchun tahlil qilindi.

#### Natijalar

1. Frantsuz tilidagi leksik birliklar

Fransuz tilining lotincha ildizlari va keng adabiy an'analari ta'sirida inson xarakterini tavsiflash uchun boy lug'at mavjud. Asosiy leksik birliklarga quyidagilar kiradi:

Bienveillant (turli)  
 Courageux (jasur)  
 Généreux (saxiy)  
 Ambitieux (ambitsiyali)  
 Égoïste (xudbin)  
 Têtu (qaysar)

Ushbu atamalar ko'pincha frantsuz madaniyatidagi xarakter tavsiflarining murakkab tabiatini aks ettiruvchi modifikatorlar va kontekst bilan farqlanadi.

O'zbek tilidagi leksik birliklar

O'zbek tili o'zining turkiy ildizlari va fors ta'sirlari bilan inson xarakterini ifodalash uchun turli atamalarni ham taklif qiladi:

Mehribon (mehribon)  
 Jasur (jasur)  
 Saxovatli (saxiy)  
 Tama'kor (ambitsiyali)  
 O'zini o'ylovchi (xudbin)  
 Qaysar (qaysar)

O'zbek xarakteri tasvirlari ko'pincha madaniy me'yorlar va ijtimoiy kutilmalar bilan chuqur bog'langan bo'lib, o'zbek jamiyatining kollektivistik tabiatini aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil

1. Mehribonlik:

Fransuzcha: *Bienveillant* implies a benevolent and kind nature, often associated with moral goodness.

O'zbekcha: Mehribon oila va ijtimoiy rishtalarga asoslangan mehr va rahm-shafqat tuyg'usini ifodalaydi.

2. Jasorat:

Fransuzcha: *Courageux* highlights not just physical bravery but also moral and intellectual courage.

O'zbek: Jasur xavf-xatar oldida mardlikka urg'u beradi, ko'pincha qahramonlik tuyg'usini ifodalaydi.

3. Saxiylik:

Fransuzcha: *Généreux* denotes a willingness to give freely and selflessly.

O'zbek: Saxovatli ham xuddi shunday saxovatli ruhni aks ettiradi, lekin ko'pincha ijtimoiy mavqe va jamoat mas'uliyati bilan bog'langan.

4. Ambitsiya:

Frantsuz: *Ambitieux* can have both positive and negative connotations, depending on the context.

O'zbek: Tama'kor ko'proq salbiy ma'noga ega bo'lib, ochko'zlik yoki haddan tashqari shuhratparastlikni anglatadi.

5. Xudbinlik:

Fransuzcha: *Égoïste* straightforwardly describes a self-centered person.

O'zbekcha: "O'zini o'ylovchi" ham xuddi shunday, birinchi navbatda o'zi haqida, ko'pincha tanqidiy ma'noda o'ylaydigan kishini bildiradi.

6. O'jarlik:

Fransuzcha: *Têtu* can imply both determination and obstinacy.

O'zbek: Qaysar o'jarlikning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini xuddi shunday aks ettiradi.

Munozara

Frantsuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi leksik birliklarning qiyosiy tahlili bu ikki tilning lingvistik va madaniy doiralari haqida qiziqarli fikrlarni ochib beradi. Ushbu bo'limda madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar inson xarakterini ifodalash va idrok etish usullarini qanday shakllantirishini ta'kidlab, topilmalar batafsil muhokama qilinadi.

Frantsuz tilida "*bienveillant*" atamasi ko'pincha shaxsiy fazilatlar bilan bog'liq bo'lgan xayrixohlik va axloqiy yaxshilik tuyg'usini qamrab oladi. Bu shaxsiy axloqiy yaxlitlik

va altruizmga frantsuz madaniy urg'usini aks ettiradi. Bu atama nafaqat mehribon, balki xayrixohlik va xayrixohlikka umumiy munosabatda bo'lgan kishini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Bundan farqli o'laroq, o'zbekcha "mehribon" atamasi mehr-oqibat va oilaviy rishtalarga kuchli urg'u berib, mehr-oqibatni bildiradi. U o'zbek madaniyatida markaziy o'rin tutgan ijtimoiy va oilaviy mas'uliyat bilan chuqur ildiz otgan. Bu atama o'zbek jamiyatining kollektivistik tabiatini aks ettiradi, bu yerda mehr-oqibat ko'pincha oila va jamiyatga foyda keltiradigan harakatlar orqali namoyon bo'ladi.

Fransuzcha "*courageux*" so'zi turli kontekstlarda, jumladan, jismoniy, axloqiy va intellektual jasoratda jasoratni anglatadi. Frantsuz madaniyati o'z e'tiqodlarini himoya qilish va qiyinchiliklarga matonat bilan qarshi turish g'oyasini qadrlaydi, bu atamaning qo'llanilishida aks etadi.

O'zbek tilida "jasur" xuddi shunday mardlik tuyg'usini, lekin ko'pincha qahramonlik ma'nosini bildiradi. U ko'pincha xavf-xatarga jasorat bilan duch kelgan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi, bu qahramonlikka bo'lgan madaniy hayratni va qiyinchiliklarga qarshi jasoratning ahamiyatini aks ettiradi. Bu atama o'z jamiyatining qadriyatlarini himoya qiladigan va qo'llab-quvvatlaydigan shaxslarga hurmatni ta'kidlaydi.

Fransuz tilida saxiylik "*généreux*" atamasi bilan ifodalanadi, bu erkin va fidokorona berishga tayyorlikni anglatadi. Bu atama ko'pincha frantsuz jamiyatidagi shaxsiy saxiylikning qadrini ta'kidlab, mehribon va xayriyali shaxslarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

O'zbek tilidagi "saxovatli" atamasi ham xuddi shunday saxovatli ruhni ifodalaydi, lekin ijtimoiy mavqe va jamoat mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq. O'zbek madaniyatida saxiylik nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy umid, ayniqsa, boylik va nufuzli kishilar uchun hamdir. Bu jamoaviy mas'uliyat va jamiyatni qo'llab-quvvatlashning madaniy ahamiyatini aks ettiradi.

Fransuz tilidagi ambitsiya tushunchasi "*ambitieux*" orqali ifodalanadi, bu atama kontekstga qarab ham ijobiy, ham salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu g'ayratli va muvaffaqiyatga qaror qilgan odamni tasvirlashi mumkin, ammo u ma'lum bir shafqatsizlik yoki o'zini o'zi o'ylashni ham anglatishi mumkin.

O'zbek tilida "tama'kor" ko'proq salbiy ma'noga ega bo'lib, ko'pincha ochko'zlikni yoki haddan tashqari shuhratparastlikni anglatadi. Bu atama shaxsiy ambitsiyalarni jamoaviy uyg'unlik va axloqiy xulq-atvordan ustun qo'yimaslik uchun madaniy ehtiyotkorlikni aks ettiradi. Bu kamtarlik va nazoratsiz ambitsiyalarning mumkin bo'lgan xavfini ta'kidlaydi.

Xudbinlik:

Frantsuz tilida "*égoïste*" to'g'ridan-to'g'ri o'zini o'zi o'ylaydigan odamni tasvirlaydi, ko'pincha salbiy ma'noga ega. Shaxs huquq va erkinliklarini qadrlaydigan frantsuz madaniyati bu atamani o'z ehtiyojlarini boshqalardan ustun qo'yadiganlarni tanqid qilish uchun ishlatadi.

O'zbek tilidagi "o'zini o'ylovchi" so'zi ham xudbinlikni bildiradi, lekin ko'pincha kuchliroq axloqiy mulohaza yuritadi. Jamoa va oila ustuvor bo'lgan kollektivistik jamiyatda xudbin xatti-harakatlar ijtimoiy me'yorlar va majburiyatlarning jiddiy buzilishi sifatida ko'riladi.

6. O'jarlik:

Frantsuzcha "*têtu*" atamasi kontekstga qarab qat'iyat va o'jarlikni anglatishi mumkin. Bu ijobiy qat'iyat va salbiy moslashuvchanlik o'rtasidagi nozik chiziqning madaniy tan olinishini aks ettiradi.

O'zbek tilida "qaysar" o'jarlikning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini xuddi shunday qamrab olgan. Bu qat'iyatli va qat'iyatli odamni tasvirlashi mumkin, ammo asossiz o'jar kimsani ham tasvirlashi mumkin. Bu ikkilik o'zbek

madaniyatida o'jarlikning nozik tushunchasini aks ettiradi, bu yerda ham qat'iyat, ham moslashuvchanlik qadrlanadi.

Boshqa tomondan, o'zbekcha xarakter belgilarini ifodalash kollektivistik qadriyatlar bilan chuqur bog'langan. Til ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviy totuvlik va oilaviy rishtalarga urg'u beradi. Mehribonlik, saxiylik va jasorat kabi fazilatlar ko'pincha shaxsiy fazilatlardan ko'ra, ularning jamiyatga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

**Xulosa.** Fransuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi leksik birliklarni o'rganish tilda madaniy qadriyatlar va jamiyat normalarini aks ettirishning murakkab usullarini ko'rsatadi. Ushbu iboralarni o'rganib chiqib, biz turli madaniyatlar inson xususiyatlarini qanday qilib kontseptsiyalash va og'zakilashtirishni chuqurroq tushunamiz. Bu qiyosiy tahlil nafaqat frantsuz va o'zbek tillaridagi bilimimizni boyitibgina qolmay, balki til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar haqida kengroq tushunchalar beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Larousse French Dictionary. (2020). Paris: Éditions Larousse. Retrieved from Larousse
2. Le Petit Robert Dictionary. (2021). Paris: Dictionnaires Le Robert. Retrieved from Le Petit Robert
3. Madrahimov, O. (2008). Uzbek-Russian Dictionary. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
4. Aitmatov, Chingiz. (1980). The Day Lasts More Than a Hundred Years. Moscow: Progress Publishers. (for Uzbek literary examples)
5. Foucher, A. (2018). Dictionnaire des Synonymes et Nuances. Paris: Hachette Éducation.
6. Baker, C. (1992). Lexical Categories: Verbs, Nouns, and Adjectives. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Khudayberganova, R. (2015). Cultural Connotations in Uzbek Language. Tashkent: Tashkent State University Press.
8. Greimas, A. J. (1990). Semantique Structurale. Paris: Presses Universitaires de France.
9. Uzbekistan Academy of Sciences. (2012). Annotated Dictionary of the Uzbek Language. Tashkent: Fan va Texnologiya.
10. Camus, Albert. (1942). L'Étranger. Paris: Gallimard. (for French literary examples)



**Faxriddin RAJABOV,**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: rajabovfaxriddin@mail.ru*

*Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida dotsenti v.b., PhD N.Sharipova taqrizi asosida*

### ILLUSTRATIONS TO THE LIFE AND WORK OF THE NURLAT WRITER RAHIM KADIR

Annotation

This article discusses some considerations concerning the life and work of the Nurlat writer, folklorist, comedian Rahim Kadir and his role in the history of literature and folklore, as well as the sources, roots, development and improvement of Nurlat artistic creativity in the history of Uzbek literature.

**Key words:** Nurata, Kurgan, Bakhshi, creativity, poetics, traditions, cultural heritage, history, territorial creativity.

### ИЛЛЮСТРАЦИИ К ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВУ НУРЛАТСКОГО ПИСАТЕЛЯ РАХИМА КАДЫРА

Аннотация

В этой статье рассматриваются некоторые соображения, касающиеся жизни и творчества Нурлатского писателя, фольклориста, комика Рахима Кадыра и его роли в истории литературы и фольклористики, а также источников, корней, развития и совершенствования Нурлатского художественного творчества в истории узбекской литературы.

**Ключевые слова:** Нурата, Курган, Бахши, творчество, поэтика, традиции, культурное наследие, история, территориальное творчество.

### NUROTALIK YOZUVCHI RAHIM QODIR HAYOTI VA IJODIGA CHIZGILAR

Аннотация

Ushbu maqolada nurotalik yozuvchi, folklorshunos, hajvgo'y Rahim Qodir hayoti va ijodining o'ziga xosligi va muallif yaratgan asarlarning adabiyot tarixi va folklorshunoslikda tutgan o'rni hamda Nurota badiiy ijodkorligining manbalari, ildizlari, rivojlanishi va takomillashuvi uning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni xususidagi ayrim mulohazalar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Nurota, Qo'rg'on, baxshi, ijodkorlik, poetika, an'ana, madaniy meros, tarix, hududiy ijodkorlik.

**Kirish.** "Haqiqiy adabiyot ruhiyat alifbosidan dars beradi; aql va tuyg'ular o'yinidan yaraladi. Har qanday ijodda chin yurakdan yozish, o'ylab va o'ynab yozish, so'ylanib yozish, o'chirib yozish, yozib o'chirish, eng muhimi, iymon va vijdon bilan haqiqatni xolis yozish lozim. Ko'rganlaridan ko'chirib, bironlarning insholarini stilistik tarafdin o'zlashtirib kitob yasash bilan iztirobli ijod, ijod zavqi o'rtasida farq bor"[1].

Nurotalik ijodkor Rahim Qodir aynan shu sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda badiiy va ilmiy ijod bilan shug'illandi. Rahim Qodir 1950-yil 14-martda Navoiy viloyati Nurota tumanida tug'ilgan. 1957-1959-yillar tumandagi 2-maktabda, 1959-1965-yillar 7-son maktab-internatda, 1965-67-yillar A.S. Pushkin nomli maktabda o'qigan. Maktabni tugatib, tuman pochta bo'limida xizmat qilgan. Aynan shu davrda muallifning so'zga bo'lgan munosabati va Nurotaning qadimiy boy madaniy merosiga bo'lgan qiziqishni pochta bo'limiga kelgan gazeta va jurnallarni sinchiklab o'rganish shakllantirdi. 1968-yil ToshDUning Jurnalistika fakulteti talabasi bo'lgan. Bo'lajak olimning talabalik davri Toshkent muhitida yashash uchun qo'shimcha ishlashni talab etdi. Avval qurilishda, so'ng "O'qituvchi" nashriyotida korrektor, bosmaxonada ishchi sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1976-yil Nurota tuman radioeshittirish bo'limida, 1978-yil tuman Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma") gazetasi mas'ul kotibi, 1982-yil Navoiy viloyat gazetasi "Do'stlik bayrog'i"da mas'ul kotib, 1983-yil Viloyat radioeshittirish bo'limi xodimi, 1989-yil Navoiy viloyati Yozuvchilar uyushmasi bo'limi raisi, 1999-yil O'zbekiston Respublikasi Teleradiokompaniyasi muxbir lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

Nurotalik yozuvchilar tomonidan Rahim Qodirning folklorshunos [2], yozuvchi [3] va madaniyat xodimi[4] ekanligi alohida e'tirof etildi. Rahim Qodir faoliyatining

asosiy qismini Nurota madaniy merosi va tarixini o'rganishga bag'ishladi. Nurotalik baxshilarni o'rgandi, kitobxonlarga tanishtirdi. Olimning ilmiy-ijodiy jihatdan shakllanishiga asosan kitob o'qish va o'z ustida ko'proq izlanish turkni bo'lganligini e'tirof etadi. "Folklor asarlarining o'zi ham uni yaratuvchi xalqning nimaga qodirligini, o'tmishi madaniyati qay darajada ekanligini ko'rsata oladi. Xalq ijodi asarlari o'zining mukammalligi, mazmunan chuqurligi, tarixiyligi bilan ajralib turadi. Chunki uning yaratuvchisi umum, ko'pchilik. Folklor ko'pchilikning fikri, tafakkuri, didi, tuyg'ulari majmui. Asrlar oshib, o'zida yangi davr qarashlari, shu davr kishilari intilishlarini aks ettiruvchi, vaqt o'tib sayqallashib, turli o'zgarishlarni ifodalovchi mazmun va shakl jihatdan mukammalashib boradigan va xalq ijodi janrlari uni yaratuvchi xalqning abadiy, barqaror yodgorligi, ma'naviy xazinasi sifatida avloddan avlodga o'taveradi" [5] Rahim Qodir ana shunday adabiyotimizning folklor bo'limini nurotalik yangi baxshilar yangi dostonlar bilan boyishiga xizmat qildi.

Olim yillar mobaynida madaniy merosning bir qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodini o'rganish borasida nurotalik baxshilar va ularning ijodini o'rgandi. Har bir janrning o'ziga xosligi shundaki, ular yagona maqsadga insonning ijtimoiy masalalarini yoritishga qaratiladi. "Poetik shakllar muayyan mazmunni faqat o'z imkoniyatlari doirasida ifodalaydilar. Binobarin, faqat birgina mavzudagi lirik kechinma bir vaqtning o'zida ham g'azal, ham ruboiy shaklida ifodalanganda, ularda tug'ilgan taassurot, g'oyaning keng yoki tor ifodalanish darajasi turlicha bo'ladi. Demak har bir janr hayotiy mazmunga-mavzu, g'oya kabilarga befarq poetik shakllar emas. Bu narsa folklorida aniq ko'zga tashlanadi. Chunki og'zaki poetik janrlarning nafaqat poetikasi va hayotiy qamrov darajasi, balki ularning ijro o'rni, ijro shakli va

funksiyalari folklorida aniq hisobga olinadi. Masalan, to'yda yig'i-yo'qlov aytilmaganidek, motamda alla yoki kelin salom aytib bo'lmaydi. Ma'lum bo'ladiki, har bir poetik shaklning o'ziga xos tasvir yoki ifoda imkoniyatlari hayotiy vazifalari mavjud bo'lib, shaklning ana shu talablari orqaligina mazmun qamrab olinadi"[6].

Nurota dostonchiligini shakllanishida samarali ijod qilgan Qo'tir [1] qishlog'lik Bekmurod (Jirav [2]) Jo'raboyev, Qurbon jirov, Chanko't jirovlarning ijodiga bag'ishlangan "Baxshi izidan"[7], "Bekmurod jirov"[8], "Qo'tirqishloq dostonchiligi" [9], "Xalq kuychilari" [10], "Chanko't jirov" [11], "Qurbon jirov" [12], "Bekmurod jirov" [13], "El sevgan kishi" [14], "Xalq shoiriga ehtirom" [15], "Qalblarda qolgan iz" [16], "Ulug' shoir o'tgan" [17], "So'z durining sohibi" [18], "Chanko't jirov" [19], "Chanko't jirov" [20] kabi maqolalarni e'lon qildi.

"Nurota rayonining Qo'tir, Zulmsaroy, Zulqarnayn, Jadir va boshqa qishloqlarida ham XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator xalq baxshilari ijod etganlar. Zulmsaroyda Ashur baxshi, Qurbon baxshi, Jadirda Esirgap baxshi, Sovuqbuloqda Jiyaboy baxshi va hokazo"[21].

Rahim Qodir yuqoridagi maqolalarda Nurota dostonchiligi, tarixi, baxshilar repertuarining qamrovi, baxshilarning aytish uslublari va O'zbek folklorshunosligidagi o'rni xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Olim baxshilarning yuksak saviyada shakllanib dostonlarni maromida kuylashni o'rgangan ustozlari xususida ham afsuski qisqa ma'lumotlarni yoki faqat nomlarinigina keltirib o'tadi xolos.

Yozuvchi bu boradagi ishlarini yana izchil davom ettirdi. O'zbek folklorshunosligini yetuk baxshisi Ergash Jumanbulbul haqida "Baxshilar sarvari"[22] nomli asar yozdi. Muallif asarda O'zbek dostonchiligining uzoq yillik tarixiy qatlamlari, Qo'rg'on dostonchilik poetik maktabi, uning vakillari-baxshi -shoirlarning mashaqqatli hayoti, o'zbek folklorshunoslik fani vujudga kelayotgan daslabki yillarning qiyinchiliklari, o'sha davr muhitining ijtimoiy-siyosiy manzaralari kabi voqealar, tasvirlar bevosita buyuk shoir taqdiri bilan bog'liq aks ettirilgan.

"Muhammad Jonmurod o'g'li (Po'ltan baxshi) o'z asarlari bilan butun O'zbekistonga mashhurdir. Uni yaqin-yaqingacha elliklab dostonni yodda tutishini so'ylar edilar"[23]. Olimning baxshi haqidagi "Po'ltan shoir ibrati" [24] asari ham uning O'zbek dostonchilik san'ati namoyandalari baxshi shoirlarining mashaqqatli hayotlari,

baxshining tengsiz quvvai hofizasi, so'z va soz sirlarining bilimdoni ekanligi hamda Po'ltan shoirning murakkab kechgan umri tafsilotlariga bag'ishlangan.

1891-yil hozirgi Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanining Oqchop qishlog'ida tug'ilgan. Ota onadan yettin qolib, Umri ismli so'zga chechan, to'y-ma'raka, ayollar gurungi bazmining suxandoni hazil-mutoibaga hozirjavob ammasi qo'lida tarbiyalangan baxshi Abdumurod Berdixol o'g'lidan "Bo'tako'z"[25] dostonni yozib oldi. "Ma'lumki, "Go'ro'g'li" turkum dostonlar silsilasi rang-barang, ko'lami keng, o'tmish voqealari, qahramonlari va misilsiz romantik tasvirlarda badiiy ifodasini topadi. Har bir ijrochi quvvai hofizasida uni kengaytiradi, o'ziga xos rang-bo'yoqlar orqali sayqal beradi. "Bo'tako'z" an'anaviy "Go'ro'g'li" turkumida ko'p ifodalangan Avaz hayotiga bag'ishlanadi, uning sevgisi, qahramonligi talqin qilinadi. Aslida: voqealar rivoji, maqsad-muddaoning nihoyasidan aniqki, Avazning Qunduz va Yulduzga borishi, uylanishi... Biroq Bo'tako'z bilan Avazning uchrashuviga bir to'qnashuv-butun asar rivojini o'zgartirishda "kalit" bo'lishi" [25]voqealari tasvirlangan.

Rahim Qodirning badiiy ijod sohasida faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Bu borada hayotiy voqealar asosida jonlantirilgan qiziq hikoyalari, chuqur falsafiy mulohazalarga undovchi fikrlar, inson tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlar asosiga qurilgan "Yomg'ir gullari" [26], turmush chorahalarida goh halol, goh birozgina ustomonlik bilan kun ko'rishni o'ylayotgan odamlar. Ularning har xil fazilatlarini kulgiga olingan "O'zlari kim?" [27] hamda turli yoshda va turli kasbda mehnat qilayotgan ayrim navoiylik ijodkorlarning qisqa tarjimai holi va ijodidan namunalar yig'ilgan "Zarafshon ohanglari" [28] kitoblari ham o'quvchilar tomonidan sevib o'qilmoqda.

Xullas Rahim Qodirning O'zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligidagi ijodini alohida ta'kidlash joiz. Olimning olib borgan ilmiy izlanishlari samarasi o'laroq bugun Nurota dostonchiligi, baxshilar hayoti va ijodi mazmun kasb etmoqda. Alohida e'tirofga loyiq jihat shundaki, Nurota dostonchiligini ilmiy jihatdan tadqiq etish borasida ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi kelgusidagi tadqiqotlarga zamin hozirlaydi. Rahim Qodirning ilmiy qarashlari ushbu maqolada qo'limizda mavjud materiallar asosidagina yoritishga harakat qilindi. Kegusida Nurota dostonchiligi borasidagi ilmiy mulohazalarimizni yanada kengroq o'rganish navbatdagi vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ijodkor Rahim Qodirning aytishicha baxshi degan so'z Nurota qishloqlarining ba'zilarida jirav atamasi bilan ifodalanadi.
2. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Qo'tir qishloq bo'lgan va u yerda dostonchilikning kichik maktabi ham bo'lgan. Bekmurod jirovning ona tomonidan bobosi Eshmurod baxshi bo'lgan hamda amakvachchalari Xolmurod Nurmurod va Ergashlar ham yetuk dostonchi bo'lgan.(Bu haqida qarang: Qodirov R. Bekmurod Jirov // Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1978, 23 dekabr, 3 bet)
3. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. T.; 2018. 364 b
4. Mirzayev T. Ustozlar safdoshlar izdoshlar. T.; "Tafakkur tomchilari". 2021. 384 b
5. Mustafoyev S. Tabarruk nurli Nurota. T.; "Turon zamin ziyo". 2015. 260 b
6. Mirzayev B., K.Ahmatqulov. Nurota tarixidan lavhalar. T.; 1997. 40 b
7. Xo'jayev T. XV asrning birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor. T.; "Fan" nashriyoti. 2008. 132 b
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.; 2004. 127 b
9. Qodirov R. Baxshi izidan. //Lenin yo'li(hozirgi "Zarafshon"). 1977, noyabr
10. Qodirov R. Bekmurod Jirov. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1978, 23 dekabr
11. Qodirov R. Qo'tirqishloq dostonchiligi//Lenin yo'li(hozirgi "Zarafshon"). 1979, 9 yanvar
12. Qodirov R. Xalq kuychilari //Lenin yo'li(hozirgi "Zarafshon"). 1979, yanvar
13. Qodirov R. Chanko't jirov //Lenin yo'li(hozirgi "Zarafshon"). 1979, yanvar
14. Qodirov R. Qurbon jirov //Lenin yo'li(hozirgi "Zarafshon"). 1979, yanvar
15. Qodirov R. Bekmurod jirov //Lenin yo'li(hozirgi "Zarafshon"). 1979, yanvar
16. Qodirov R. El sevgan kishi. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1979, 4 oktyabr
17. Murodov M. Qodirov R. Xalq shoiriga ehtirom. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1980, 29 may
18. Qodirov R. Qalblarda qolgan iz. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1979, 29 sentyabr
19. Qodirov R. Ulug' shoir o'tgan. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1979, 13 sentyabr
20. Qodirov R. So'z durining sohibi. //Kommunizm uchun. 1978, 5 yanvar



21. Qodirov R. Chanko't jirov. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1978, 31 yanvar
22. Qodirov R. Chanko't jirov. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1978, 12 fevral
23. Mamarasulov B. Bekmurod baxshi. //Ilg'or chorvador(hozirgi "Nurnoma"). 1974, 28 sentyabr
24. Qodirov R. Baxshilar sarvari. T.; "O'zbekiston". 2018. 320 b
25. G'.G'ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T.; "Fan".1971. 432 b
26. Qodirov R. Po'ltkan shoir ibрати. T.; 2015. 244 b
27. Bo'tako'z. Doston. (Aytuvchi: A.Berdixol o'g'li. Nashrga tayyorlovchi: R.Qodirov). T.; "Yozuvchi", 1998. 96 b
28. Qodirov R. Yomg'ir gullari. T.; 2019. 332 b
29. Qodirov R. O'zlari kim?. T.; 1995. 64 b
30. Zarafshon ohanglari. (To'plab nashrga tayyorlovchi: R.Qodirov). T.; "Yozuvchi", 1998. 88 b



Fayziddin RAHIMOV,  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti doktoranti  
E-mail:fayziddin@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti S.Yuldasheva taqrizi asosida

## OLAMNING LISONIY MANZARASI VA UNING TADQIQI

Annotatsiya

Bilamizki, shu kungacha lingvokulturologiya yo'nalishida qator ishlar qilinishiga qaramasdan o'z yechimini kutayotgan ishlar talaygina. Jumladan, olamning lisoniy manzarasi haqidagi tushunchasi ham atroflicha o'rganilgan deyolmaymiz. Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasi haqida va ularning turli olimlar tomonidan qay tarzda talqin etilganligi batafsil tahlil ostiga olingan.

**Kalit so'zlar.** Lingvokulturologiya, olamning lisoniy manzarasi, konseptual manzara, til, madaniyat, tafakkur, madaniy kod, milliy til.

## ЛИТЕРАТУРНЫЙ ВЗГЛЯД НА МИР И ЕГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

Мы знаем, что, несмотря на то, что в области лингвокультурологии проделана большая работа, есть еще много вещей, которые ждут своего решения. В частности, нельзя сказать, что концепция лисонийского ландшафта мира досконально изучена. В данной статье подробно анализируются лисонийские ландшафты мира и то, как они интерпретируются различными учеными.

**Ключевые слова:** языковая культура, языковой ландшафт мира, концептуальный ландшафт, язык, культура, мышление, культурный код, национальный язык.

## LITERATURE VIEW OF THE WORLD AND ITS RESEARCH

Annotation

We know that, despite the fact that a lot of work has been done in the field of linguo-cultural studies, there are still many things that are waiting for their solution. In particular, we cannot say that the concept of the lisonian landscape of the world has been thoroughly studied. In this article, the lisonian landscape of the world and how they are interpreted by various scientists is analyzed in detail.

**Key words:** Linguistic culture, linguistic landscape of the world, conceptual landscape, language, culture, thinking, cultural code, national language.

**Kirish.** Til nafaqat madaniy kommunikativ qiymatga asoslangan va ramziy tabiati bilan tavsiflanadi, balki u mavjud va rivojlanadi va uni namoyon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Xalq madaniyatining o'ziga xos barcha nozik qirralari uning tilida o'z ifodasini topadi, chunki til inson va uning atrofidagi olamini verbal, noverbal va konseptual xususiyatlar bilan qamrab oladi.

Ikki tushuncha-"madaniyat" va "til" ning o'zaro bog'liqligi lingvokulturologiya - tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida shakllangan, tilda mustahkamlangan xalq madaniyatining aksini o'rganishga qaratilgan fanda o'z ifodasini topdi. Ushbu fanning asosiy tushunchalari "lingvistik shaxs" va "kontsept" atamallari hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik shaxsni o'rganishda juda ko'p yondashuvlar mavjud. Bu atama nutqiy faoliyat qobiliyati jihatidan ajralib turadigan ona tili sifatidagi shaxsni, aslida nutqiy shaxsni anglatadi.

Zamonaviy ilmiy dunyoda "Olamning lisoniy manzarasi"(keyingi o'rinlarda OLM tarzida beriladi)ni qurish va milliy dunyoqarashga xos xususiyatlarni aniqlash, ya'ni yagona etnik guruhga tegishli dunyo manzarasining milliy o'ziga xos modelini tasvirlash tendensiyasi hukmronlik qilmoqda. Bunda til "ma'naviy boylik to'plash unsuri", "ma'naviyat bayrog'i" sifatida qaraladi [9]. Etnosning milliy xususiyatlari afsonalar, rivoyatlar, urf-odatlar va tilda aks ettirilgan o'ziga xos fikrlash xususiyatlari tarzida ifodalanadi. Demak, "milliy xarakterni, milliy g'oyalarni o'zida

mujassamlashtirgan til ma'lum bir madaniyatning an'anaviy belgilarida ifodalanishi mumkin"[6].

Insoniyat o'z tarixini tili orqali anglaydi. Til orqali u yoki bu xalqning, butun bir millatning madaniy, axloqiy, falsafiy, ilmiy bilimlarining bebaho merosi avlodlarga yetkaziladi. Til insonni va uning butun hayotini o'rab turgan voqelikni, ya'ni to'plangan individual tajribani takrorlaydi. Binobarin, har bir xalq o'ziga xos milliy madaniyati, dunyoning o'ziga xos manzarasi va milliy mentaliteti bilan ajralib turadi. Tilshunoslikda tafakkur shakllanishining zamonaviy bosqichida OLM tushunchasi insonning o'ziga xosligini va uning mavjudligini tushuntiruvchi fundamental tushunchalarga tegishligi haqidagi fikrning tasdig'ini ko'rsatadi.

"Olam tasviri" fenomeni va uning ramziy shakllardagi tasviri insonning atrofida dunyodan ajralib chiqishi va "men va dunyo" munosabatlarini tushunish davridan boshlab muhokama qilinishi kerak. "Insonning dunyoda mavjudligining o'ziga xosligi uning dunyoning qolgan qismiga qarama-qarshi bo'lgan voqelik qonuniyatida namoyon bo'ladi" bunda insonga olam tasviri kerak bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. XIX-XX asrlarda fizik olimlar G.G. Gerts va M. Plank tadqiqotlaridagi "olam modeli (manzara)" atamasi bugungi kun fanida yetakchi o'rinni egalladi. L.Vitgenshteynning "olamning manzarasi" tushunchasi til-fikr - dunyo triadasini anglatadi. Bu faylasufning fikricha, olamning manzarasi voqelikni tasvirlaydigan va uni aks ettiruvchi model, u haqiqatni

ifodalagani uchun real tasvirdir. Bu manzarada fikrlar majmui mavjud va shundan kelib chiqadiki, til fikrlarning sxematik ifodasidan iborat [14]. Falsafada bu atama dunyoqarash, "shaxs ega bo'lgan ob'ektiv mazmun yig'indisi" sifatida tushuniladi [17].

Shuningdek, insonning eng yuksak bilish qobiliyati bo'lgan dunyo tasviri va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni inkor etib bo'lmaydi. Madaniyatda mavjud bo'lgan olam manzarasi eng yaxlit tasvirlar tizimini tavsiflovchi sifatida, "kategorik to'r" da mavjud bo'lgan aqliy komplekslar bilan birgalikda madaniyatning tafakkur maydoni bilan belgilanadi [4]. Olam tasviri "aks ettirilgan turmush tarsi" rolini o'ynaydi va tavsiflanishi kerak bo'lgan "olam" tushunchasi "atrof-muhit va insonning o'zi haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasi" degan ma'noni anglatadi [1].

**Muhokama.** Zamonaviy ilmiy dunyoda mavjud bo'lgan olam tasviri tushunchasining turli xil ta'riflari va talqinlarida atrofda olamni inson ongida aks ettirish haqiqatini markaziy fikr sifatida qoldiradi, masalan: "obyektiv real yoki tasavvur qilinadigan voqelik haqidagi sub'ektiv bilimlari va fikrlari yig'indisi" [13], "atrof-muhit va inson haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasi" [10], ommaviy (shuningdek, guruh, individual) ongda shakllangan voqelik haqidagi bilimlarning tartibli sur'ati [15] kabi ta'riflar fikrimizning isboti hisoblanadi. Binobarin, odamlar voqelikni idrok etishi va ularning ongida mavjud bo'lgan olam tasvirini yaratishi mumkin bo'lgan koordinatali tarmoq sifatidagi olam tasviri haqidagi ta'limot shubhasiz e'tirof etiladi. Boshqa aqliy shakllanishlar singari, olamning tasviri ham aniq belgilangan shakl-shamoyiliga ega emas, u mantiqiy jihatdan mos bo'lmagan komponentlardan, noaniq tasvirlardan, yechimsiz qolgan muammolarning "bo'shliqlari" dan iborat. Olam manzarasi ko'p qatlamli va ko'p variantli hodisadir, chunki u ilmiy bilimlarning, diniy e'tiqodlarning, hayotiy tajriba ko'rsatkichlarining mavjud tarkibiy qismlarining to'plamidir [4].

Tahlil qilinayotgan mavzuning xilma-xilligini hisobga olgan holda tilshunoslikda olamning lisoniy va kontseptual manzarasini farqlash joiz:

"Kontseptual manzara olamning lisoniy manzarasiga qaraganda boyroqdir, chunki uning shakllanishida turli xil tafakkur turlari ishtirok etadi" [16]. Olamning manzarasi olamning lisoniy manzarasiga qaraganda murakkabroq hodisa bo'lib, u lingvistik "bog'lanish" ni o'z ichiga olgan shaxs kontseptual dunyosining bir qismidir. "Inson tomonidan idrok etilgan va anglangan, turli sezgi a'zolari orqali va tashqi ta'sirlar orqali inson ongiga kirib kelayotgan hamma narsa ham og'zaki shaklga ega bo'lavermaydi. Hamma narsa ham til orqali aks etavermaydi, tashqaridan kelayotgan barcha ma'lumotlar ham til shakllari orqali o'tishi shart emas" [8]. Bazi olimlar olamning sodda manzarasi degan termini ham qo'llagan bo'lib bu termin inson tomonidan erkin qo'llaniladigan va uning ilmiy fanlarni bilishi va dunyoning ilmiy manzarasini tushunish bilan shartlanmagan sodda tushunchalar asosida shakllanadi. Olamning sodda manzarasini Yu.D. Apresyan "narsaning sodda tushunchasi" dan shakllangan bo'lib, asrlar davomida rivojlanib boradi va insonning moddiy va ma'naviy dunyosini aks ettiradi, deya ta'kidlaydi [1].

Bundan tashqari, dunyoning sodda tasviri ma'lum bir tilda so'zlashuvchi odamlarning moddiy va ma'naviy tajribalarining butun majmuasini aks ettiradi. Dunyo haqidagi sodda g'oya til bilan belgilanadi va shubhasiz, bu tilda so'zlashuvchilarning bilimi va madaniyatini namoyish etadi [12].

Demak, olamning sodda manzarasi bilan olamning lisoniy manzarasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi qarash o'rinlidir va bu tilshunoslarning lisoniy manzarani sodda deb

tan olishlariga asos bo'ladi. Olam manzalarining lisoniy manzaralardan tashqari barcha turlari ilmiy va falsafiy adabiyotlarda kontseptual deb ataladi. Olamning lisoniy manzarasining ilm-fandagi maqomi to'g'risida haligacha biror bir qonun-qoida mavjud emas. Shuning uchun olamning lisoniy manzarasi dunyoning boshqa manzaralarini tushuntirishning mustaqil vositasi deb hisoblash mumkinmi, degan savol ham munozarali bo'lib qolmoqda. V.Gumboldtning lingvistik dinamizm nazariyasini qo'llab-quvvatlovchi olimlar (L.Vaysberger, E.Sepir, B.Uorf) olamning lisoniy manzarasini mustaqil hodisa sifatida ko'rib chiqdilar. Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida ushbu munozarada ishtirok etgan olimlar shunday xulosaga keldilar: olamning lisoniy manzarasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u dunyoning mustaqil manzarasini shakllantirmaydi, balki kontseptual manzara bilan parallel ravishda ishlaydi, lekin ayni paytda o'ziga xoslikni ko'rsatmaydi. G.V.Kolshanskiyning ta'kidlashicha, "til o'z taraqqiyotining biror bosqichida mustaqil ijodiy kuch sifatida harakat qilmaydi va dunyoning o'ziga xos manzarasini yaratmaydi, u faqat kontseptual dunyoni qamrab oladi, chunki tilning asl manbai real dunyodir" [5].

Olamning lisoniy manzarasi milliy va tarixiy jihatlarda belgilanadi. Olamning tilda ifodalanishi uning tarkibiy qismi, ya'ni "madaniy kod" bo'lgan madaniy an'ana va til o'rtasidagi munosabatga asos yaratadi [19]. G.H. Gadamer fikriga ko'ra, biz doimo tarixiy o'tmishga bog'liq tarzda an'analar doirasidamiz [2].

**Natija.** Har bir tabiiy til tarixiy jarayonning u yoki bu bosqichida voqelikni yangi idrok etish, unga mavjud "koordinatalar tarmog'i"ni o'rnatish va dunyoni shakllantirishning o'ziga xos usulini aniqlash bilan tavsiflanadi. Yangi paydo bo'lgan ma'no va tushunchalar yagona qarashlar, qadriyatlar, maqsadlar tizimiga va o'ziga xos "jamoat falsafasi"ga birlashtiriladi [1], bu barcha ona tilida so'zlashuvchilar uchun majburiy element sifatida "o'rnatilgan". O'z navbatida, ona tilida so'zlashuvchilar shunday mezonga egaki, bu mezon "xalq ruhi" bilan chambarchas bog'langan madaniyatini tashkil etuvchi so'zlardir. Til insonda dunyo haqidagi ma'lum bilimlarni keltirib chiqaradi. Binobarin, olamning lisoniy manzarasi anana va yangi dunyoqarashni o'zida mujassam etgan. Tilshunoslik ongidagi har bir davr dunyoning o'ziga xos tasviri bilan tavsiflanadi.

D.S. Lixachevning ta'kidlashicha, milliy til, xalq madaniyatining "siqilgan", "algebraik ifodasi" vazifasini bajaradi, milliy til madaniyatning "o'rnini bosuvchi"dir [9]. Til - bu dunyoning o'ziga xos taksonomik manzarasini yaratadigan va har qanday tildan tashqari xabarni mexanik ravishda nutqga yetkazadigan, kognitiv portret, ma'lum bir tilning asl mantig'i, falsafasi va poetikasiga mos keladigan semantik talqinni beradigan modellashtirish tizimidir [11]. A. Yu. Korneevaning fikriga ko'ra, "ijtimoiy ong darajasida ko'rib chiqiladigan dunyoning kontseptual tasviri faqat lingvistik vositalar bilan yaratilgan olamning lisoniy manzarasining ko'zgdagi tasviridir" [7].

Dunyoning kontseptual manzarasi bu - shaxsning faoliyatida mazmunli va potentsial tarzda ifodalangan obyektlar haqidagi axborot tizimi. Bunday tizim doirasida kontseptual axborot birligi bo'lib, uning funksiyalari olamning kontseptual tasviri tarkibiga kiritilgan voqelik ob'ektlarining madaniy, kontseptual, assotsiativ, hissiy, og'zaki va boshqa mazmunini aniqlash va yangilashni o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki olam manzarasi xalqning lisoniy va kontseptual qirralarini ko'rsatadigan tilshunoslik uchun eng muhim bo'lgan omil hisoblanadi. Til madaniyat o'zgdida shakllanar ekan OLM har qanday tilshunoslik doir tadqiqotlarning birlamchi tayanch tushunchasi sifatida qaralishi aniq. Shuningdek, ma'lum

etnoslarning tili va undagi farqlar tahlilida OLMda yotadi. Tilshunos olimlarning keltirilgan fikrlari va qaralaridan aytilish mumkinki, OLM butun bir xalq madaniyati va tilini

ko'rsatibgina qolmasdan uning konseptual qarashlarini ham namoyon etib berishga qodir eng muhim unsur hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Апресян, Ю. Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания / Ю. Д. Апресян // Избранные труды. - Т. Интегральное описание языка и системная лексикография. - М.: 1995.
2. Гадамер, Г.-Х. Истина и метод / Г.-Х. Гадамер - М.: 1998. -С.34-62
3. Гуревич, А.Я. Категории средневековой культуры / А.Я. Гуревич - М.: 1972. -С.74-81
4. Кармин, А.С. Культурология. / А.С. Кармин. - СПб. М.: Краснодар, 2003. -С.43-49
5. Колшанский, Г.В. Объективная картина мира в познании и языке / Г.В. Колшанский. - М.: 1990. -С.72-78
6. Колесов, В. В. "Жизнь происходит от слова..." / В.В. Колесов. - СПб., 1999. -С.17-22
7. Корнеева, А.Ю. О становлении когнитивной лингвистики как самостоятельной научной дисциплины/ А.Ю. Корнеева // Русское слово в мировой культуре. - 2003. - Ч. 1. - С. 250-256.
8. Куликова, Л.В. Концепт "чужой" в теории межкультурной коммуникации (русско-немецкий контекст). /Л.В. Куликова //Вестник МГУ. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. - 2004. - № 1. - С. 179-187.
9. Лихачев, Д. С. Концептосфера русского языка / Д.С. Лихачев // Русская словесность: от теории словесности к структуре текста. Антология. - М.: 1997. -С. 280-287.
10. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений. - М.: Издательский центр Академия. - 2001. - С.208.
11. Одинцова, М.П. Вместо введения: К теории образа человека в языковой картине мира / М.П. Одинцова // Язык. Человек. Картина мира. Лингво-антропологические и философские очерки (на материале русского языка). Часть I / Под ред. М.П. Одинцовой. - Омск: 2000. -С. 8-11
12. Пименова, М. В. Душа и дух: особенности концептуализации / М.В. Пименова. - Кемерово: 2004. -С.62-68
13. Пименова, М. В. Ментальность: лингвистический аспект / М. В. Пименова. - Кемерово: 1996. -С.171
14. Пищальниковой В.А., Стриженко А.А. Аспекты исследования картины мира / под ред. - М.: Барнаул, 2003. -С. 67-82
15. Попова, З.Д., Стернин, И.А. "Слабые места" публикаций по когнитивной лингвистике (к проблеме унификации и стабилизации лингвокогнитивной терминологии) / З.Д. Попова, И.А. Стернин // Язык.
16. Серебrenников, Б А. Язык отражает действительность или выражает ее знаковым способом? Как происходит отражение картины мира в языке? / Б А. Серебrenников // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. -М.: 1988. -С. 132-137
17. Слышкин, Г.Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты / Г.Г. Слышкин. - Волгоград: 2004. -С. 91-97
18. Телия, В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры / В.Н. Телия // Фразеология в контексте культуры. - М.: 1999
19. Телия, В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н. Телия. - М.: 1996. -С. 271



UDK:800

*Saidaxon SAYDIGANIYEVA,*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik tayanch doktoranti*  
*E-mail: [Saydiganiyeva86@gmail.com](mailto:Saydiganiyeva86@gmail.com)*

*F.f.d., dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

## A COMPARATIVE STUDY OF PUNCTUATION IN CHINESE AND UZBEKI

Annotation

Punctuation norms are an important part of the norms of the literary language, and the writing of the present period is unthinkable without punctuation marks. The article reveals the similarities and differences between punctuation marks in Chinese and punctuation marks in Uzbek, examines the main differences and similarities in their use.

**Key words:** Punctuation norms, punctuation, history of punctuation marks, Uzbek language, Chinese language, differences in the use of punctuation marks.

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПУНКТУАЦИИ В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Нормы пунктуации являются важной частью норм литературного языка, и письменность настоящего периода немыслима без знаков препинания. В статье раскрываются сходства и различия между знаками препинания в китайском языке и знаками препинания в узбекском языке, исследуются основные различия и сходства в их использовании.

**Ключевые слова:** Нормы пунктуации, пунктуация, история развития знаков препинания, узбекский язык, китайский язык, различия в использовании знаков препинания.

## XITOIY HAMDA O'ZBEK TILIDAGI TINISH BELGILARNING QIYOSIY TADQIQI

Аннотация

Punktuatsion me'yorlar adabiy til me'yorlarining muhim bir qismi bo'lib, hozirgi davr yozuvini tinish belgilarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Maqolada xitoy tilidagi tinish belgilari bilan o'zbek tilidagi tinish belgilarining o'xshash hamda farqli tomonlarini ochib berilib, ularning qo'llanilishidagi asosiy farq hamda o'xshash tomonlari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Punktuatsion me'yorlar, tinish belgilari, tinish belgilarining rivojlanish tarixi, o'zbek tili, xitoy tili, tinish belgilarining qo'llanilishidagi farq.

**Kirish.** Tilshunoslikda punktuatsiya termini tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalar majmui va tinish belgilarga nisbatan qo'llaniladi. Punktuatsiya so'zi lotincha "punktum" – nuqta so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida tinish belgilari tizimi va ularning qo'llanilishi qonun-qoidalarini o'rganadi. Punktuatsiya qoidalari va me'yorlarini bilish esa yozuvda fikrni aniq, mantiqan to'g'ri va ifodali, ravon va tushunarli hamda maqsadga muvofiq bayon qilishda katta ahamiyatga ega. Tinish belgilarining asosiy vazifasi yozuvda ifodalangan fikrning bo'linishi, gapning qanday qismlarga ajratilishi va bu qismlarning o'zaro munosabatini ochib berishdan iborat. Bunda ular gapning ma'nosiga ta'sir qilib, ularning qo'llanilishidagi xatoliklar gapning asl ma'nosi o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin.

Xitoyning tinish belgilarining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xitoyning qadimgi kitoblarida tinish belgilari mavjudligi aniqlangan. Bu tinish belgilar "judou" ("句读" bu yerda "读" - dou shaklida o'qiladi) deb nomlanib, ularning yozuv shakli "。" hamda "、" tarzida ifodalanadi, "ju" (句) har bir gapning ohirida kelib, "dou" (读) gapning o'rtasida ohanga pauza berish uchun qo'llanilgan. XX asrning 20-yillarida Xitoyning tilshunos olimlari tomonidan qadimgi ko'rinishdagi tinish belgilari asosida, yana Yevropa davlatlari hamda Yaponiyaning tinish belgilarini qabul qilgan holda punktuatsion belgilarni me'yorga keltirishda katta ishlarni amalga oshirildi. Bu ishlarning natijasi sifatida 1920-yilning fevral oyida birinchi butun Xitoy uchun umumiy bo'lgan punktuatsion me'yorlar nashr qilindi. Bu davrda tinish belgilarining soni 12 ta bo'lgan. 1951-yil senyabrda hukumat tomonidan "Tinish belgilarining qo'llanilishi me'yorlari"

nashrga chiqarilib, shu yilning oktyabr oyida butun Xitoyda qo'llanilishi talab qilindi. Bunda 14 ta tinish belgilari kiritildi. 50 yil davomida bu me'yorlardan turli soha vakillari foydalanib keldi. 1990-yilning mart oyida Davlat til va adabiyot ishlari qo'mitasi Xitoy Xalq Respublikasining Matbuot va nashr boshqarmasi bilan birgalikda "Tinish belgilarining qo'llanilish me'yorlari"ni nashr qilib, bu nashrda oldingi me'yorlarga yana ikkita tinish belgisi qo'shiladi. 1995-yilning dekabr oyida Davlat texnik nazorat boshqarmasi tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi davlat standarti (GB/T 15834-1995) sifatida "Tinish belgilarining qo'llanilish me'yorlari" e'lon qilindi, 1996-yilning iyun oyida amalga oshirildi. Bu me'yorda hammasi bo'lib 16 ta tinish belgilari ko'rsatildi [1]. Hozirgi kunda Xitoyda amalda bo'lgan "Tinish belgilarining qo'llanilish me'yorlari" Xitoy Xalq Respublikasi Sifatni nazorat qilish bosh boshqarmasi hamda Xitoy Davlat standartizatsiya qo'mitasi bilan birgalikda nashr qilingan, hamda 2012-yilning 1 iyunida muomilaga kiritilgan "GB/T 15824-2011" standarti hisoblanadi [3].

Xitoy tilidagi tinish belgilar ikki xil bo'lib, birinchi turdagi tinish belgilar gapda to'xtash, pauza hamda intonatsiyani ifodalab, ular "dianhao" (点号-tinish belgi) deb nomlanadi. "Dianhao" o'z navbatida ikkiga bo'linib, gapning ohirida qo'llaniladigan hamda gapning ichida qo'llaniladigan "dianhao"larga ajratiladi. Gapning ohirida qo'llaniluvchi tinish belgilar, gapga to'xtash va intonatsiya berish uchun himat qilib, ularga nuqta "。" (句号), so'roq "?" (问好) va undov "!" (叹号) belgilari. Ganing ichida qo'llaniluvchi tinish belgilar, gapning ichidagi turli xil xarakterdagi pazalar berish uchun hizmat qilib, ularga vergul "、" (逗号), yuqoriga qaratilgan vergul "、" (顿号,

odatda uyushib kelgan so'zlarni ajratish uchun hizmat qiladi), nuqta vergul “ ; ” (分号), ikki nuqta “ : ” (冒号) kiradi.

Xitoy tilidagi tinish belgilarning ikkinchi turi “biaohao” (标号) deb nomlanib, ular gapda kelgan komponentlarning (asosan so'z va so'z birliklar) o'ziga hosligi va qo'llanilishini ifodalab keladi. Bu turdagi tinish belgilarga qo'shtirnoq “ ”, “ ” (引号, ikki xil shaklda qo'llaniladi), qavs “ ( ) ”, “[ ]”, “ [ ] ” (qaysi matbuot nashri habarlari ekanligini ko'rsatish uchun, masalan 【新华社南京消息】) hamda olti burchakli qavs (rasmiiy hujjat chiqqan sanani ko'rsatish uchun olti burchakli qavs qo'llaniladi) (括号), tire “—” (破折号), ko'p nuqta “……” (省略号), urg'u beruvchi nuqta (着重号, xitoy punktuatsiya belgisi bo'lib, iyeroglifning ostiga qo'yiladi), defiz (连接号), ajratuvchi nuqta (间隔号, xitoy tilidagi tinish belgisi bo'lib, ismlarni ajratish uchun hizmat qiladi), kitobiy qo'shtirnoq “《》” (书名号), atoqli otlar belgisi “——” (专名号), og'ma chiziq (分隔号) (3, 494-495b.)

Ilmiy manbalarda o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanilishi davri sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi ko'rsatiladi [4]. Tarixda o'zbekcha matnlarda hozirgidek shakl va mazmundagi tinish belgilari qo'llanilmagan, ammo qadimgi qo'lyozmalarda tugal fikrni yoki uning ayrim qismlarini bo'laklarga ajratuvchi maxsus ishoralar ishlatilgan [5]. Ma'lumki, xalqimiz tarixiy taraqqiyoti davomida turli xil yozuvlardan foydalanib kelgan, bu yozuvlarning tarixi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar punktuatsiyadagi o'zgarishlarni davrlashtirishga ham asosli manba sifatida hizmat qiladi. O'zbek xalqi qadimdan o'rxun-enasoy, uyg'ur, arab, lotin va kirill yozuvlaridan foydalangan, bu tillardagi punktuatsion belgilarning barchasini hozirgi o'zbek adabiy tili punktuatsiyasining asoslari deb aytishimiz mumkin. Qadimgi qo'lyozmalarni tadqiq qilgan olimlarning ma'lumot berishicha, O'rxun-Enasoy yodgorliklari orasida “Irq bitigi” da turli xil ishoralar ko'p berilgan. Bu ishoralar haqida quyidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin: “Asardagi bo'limlar bir-biridan qora siyohli qo'shaloq kelgan bir, ikki, uch hamda to'rtta kichik dumaloq tizimi bilan ajratilgan. Dumaloqlarning ichi qizil siyoh bilan bo'yalgan. Bu tartibda asarning boshidan oxirigacha amal qilingan. Asarning har bir bo'limi yangi qatordan boshlangan”[6]. Shuningdek, bu

davrga tegishli bo'lgan qo'l yozmalarda ikki nuqta (:) bilan, bir nuqta (·) qo'llangan bo'lib, ushbu qizil siyohda berilgan belgilar so'z va jumalarni bir-biridan hamda qo'shimchalarni so'zlardan ajratish uchun hizmat qilgan.

O'zbek tili punktuatsiga doir qilingan tadqiqot ishlariga ko'ra, o'zbek punktuatsiya tarixini quyidagi davrlarga ajratish mumkin [4].

I-VIII asrlar. Bu davrga oid oromiy va turkiy runik yozuvdagi manbalarda ishlatilgan tinish belgisiga o'hshash vositalar, ularning asosiy vazifasi ajratuvchi bo'lib, gap qismlari ma'lum oraliq masofa – intervallar vositasida ajratilgan. Bu davrdagi belgilar hech qanday ma'no ifodalagan, shunchaki so'zlarni o'zaro qo'shib ketmasligi uchun hizmat qilgan.

IX-XIX asrlar. Punktuatsiya taraqqiyot tarixining bu davrida arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvi amalda bo'lgan va ajratuvchi belgilar tugallanganlik, xabar, so'roq, buyruq kabi qo'shimcha vazifalarni vajara boshlagan. Gap mazmunini farqlash uchun nuqtaning turli ko'rinishlaridan foydalanilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirigacha bo'lgan davr bo'lib, bu davrga kelib, tinish belgilarning tizimi va ularning vazifalariga aniqlik kiritilgan bo'lib, til egalarida tinish belgilarini qo'llash malakasi shakllangan. O'zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida, ayniqsa, 1971-yilning 28-aprelidab boshlab, 1917-yilning boshlarigacha muntazam ravishda nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazetasi” muhim o'rinni egallagan. Bu davrda tarjimashunoslik ham juda rivojlangan va ayni jarayonda asliyadagi tinish belgilari ham o'zbekcha nusxaga o'tgan.

XX asrning oxiridan hozirgacha bo'lgan davr. Sohada izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar tomonidan punktuatsiyaning nazariy va amaliy masalalari o'rganilib, tinish belgilarini qo'llash bo'yicha qoidalar takomillashtirilgan.

Tinish belgilari haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlar Ahurali Zohiriy va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydi. Fitrat tinish belgilarini turush belgilari nomi ostida o'rganib, “Nahv” asarida 12 ta tinish belgisini keltiradi [2].

Hozirgi o'zbek tilida 10 ta tinish belgisi mavjud bo'lib, ularning o'z tarixi, grafik shakli va qo'llanishning ilmiy asoslari mavjud.

1.	Nuqta (·)	6.	So'roq belgisi (?)
2.	Vergul (·)	7.	Undov belgisi (!)
3.	Nuqtali vergul (;)	8.	Ko'pnuqta (...)
4.	Ikki nuqta (:)	9.	Qavs ( ), [ ]
5.	Tire (—)	10.	Qo'shtirnoq – (“ ”, « »)

O'zbek tilidagi tinish belgilari qo'llanilishiga ko'ra ikki xil bo'lib, gap oxirida qo'llaniluvchi tinish belgilar (nuqta, ko'pnuqta, so'roq va undov belgilari) hamda gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilar (vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo'shtirnoq)dan iborat. Bu jihatdan xitoy tilidagi tinish belgilarning birinchi turi “dianhao” (点号) nomli tinish belgilari ham huddi shunday ikki turga ajratilgan edi. O'zbek tilidagi tinish belgilari qo'llanish usuliga ko'ra yakka holda qo'llanuvchi tinish belgilari (bunga faqat ikki nuqta kiradi) va yakka va takror qo'llanuvchi tinish belgilari (qavs, undov, so'roq yakka holda ham, takror ham qo'llaniladi. Masalan, qavs yopiluvchi qavs shaklida qo'llanganda yakka ishlatiladi)ga bo'linadi [2].

O'zbek tilidagi tinish belgilari tuzilishiga ko'ra bir tarkibli tinish belgilari (vergul, tire, nuqta) va ko'p tarkibli tinish belgilariga (ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq, ko'pnuqta, so'roq va undov belgisi) ajratiladi. Ko'p tarkibli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq belgilardan tashkil

topgan bo'lib, ularga hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalarda o'zbek tilidagi tinish belgilari vazifasiga ko'ra uch guruhga bo'lib o'rganilgan. [4, 54-b]. Birinchi guruh chegaralovchi tinish belgilari bo'lib, ularga qo'shtirnoq va qavs kabi tinish belgilari kiradi. Ikkinchi guruh ayiruvchi tinish belgilari bo'lib, bu guruhga nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul kabilar kiradi. Uchinchi guruh murakkab vazifali tinish belgilari bo'lib, bu tinish belgilar matn qismlarini o'rni bilan ham ajratish, ham chegaralash, ba'zan esa biriktirish vazifasini bajaradi. Masalan, ikki nuqta ajratish va biriktirishga, vergul va tire ajratish, chegaralash, biriktirishga xizmat qiladi. Ko'pnuqta esa fikrning bo'linishi, qisqarishi kabi vazifalarni bajarish uchun hizmat qiladi [2].

Umumiy qilib aytganda xitoy tilida tinish belgilarning soni 17 ta bo'lib, ularning qo'llanilishi va vazifalari 2012-yilning 1 iyunida muomilaga kiritilgan “GB/T 15824-2011” standartida aniq ko'rsatib o'tilgan. Xitoy tilidagi juda ko'p tinish belgilari o'zbek tilida va umuman boshqa tillarda

mavjud emasligi tufayli, tarjima jarayonida ularning o'zbek tili me'yorlariga mos tushadigan tinish belgilari bilan qo'llanilishi va vazifalari, gapda bildirgan ma'nosiga ko'ra almashtirishni talab qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. 贺国伟, 历琳. 现代汉语标点符号数字用法规范手册. – 上海: 上海辞书出版社, 2011
2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). – T.: "Zamin nashr", 2021. -232b.
3. 教育部语言文字信息管理司, 组编. 语言文字规范标准. -北京: 商务印书馆, 2017 (2021重印) -668页
4. Nazarov K. O'zbek punktuatsiyasi tarixi. -T.:1976
5. G'oziyev H. O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. -T.: 1979
6. Alimuhamedov R. Qadimgi turkiy bitiklarda punktuatsiya va manni anglash uchun ishlatilgan ishoralar haqida. Xorijiy filologiya. 1-son. -T.:2016



**Maxtumquli SABIROV,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*  
E-mail: maxtumkuli@mail.ru

*O'zDJTU dotsenti, f.f.d M.Abduvaxabova taqrizi asosida*

## STRATEGY FOR INTERPRETING THE STYLISTIC DEVICE OF SIMILARITY

Annotation

This article is dedicated to providing information about the stylistic tool of comparison, one of the widely used stylistic tools in literary texts, and its translation strategies. There are six strategies for translating the stylistic device of comparison, and the article shows their role in translation using example analysis.

**Key words:** comparison, literary text, stylistics, original text, translated text, strategy, stylistic coloring, method, tool.

## СТРАТЕГИЯ ИНТЕРПРЕТАЦИИ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ПРИЕМА ПОДОБИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена предоставлению информации о стилистическом инструменте сравнения, одном из широко используемых стилистических инструментов в художественных текстах, и его стратегиях перевода. Существует шесть стратегий перевода стилистического приема сравнения, и в статье с помощью анализа примеров показана их роль в переводе.

**Ключевые слова:** сравнение, художественный текст, стилистика, оригинальный текст, переведенный текст, стратегия, стилистическая окраска, метод, инструмент.

## O'XSHATISH STILISTIK VOSITASINI TARJIMA QILISH STRATEGIYASI

Аннотация

Mazkur maqola badiiy matnda keng qo'llanadigan stilistik vositalardan biri o'xshatish stilistik vositasi va uning tarjima qilish strategiyalari borasida axborot berishga bag'ishlangan. O'xshatish stilistik vositasini tarjima qilishning oltita strategiyasi mavjud bo'lib, maqolada ularning tarjimadagi roli misollar tahlili yordamida ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, badiiy matn, stilistika, aslyat matni, tarjima matni, strategiya, stilistik bo'yoqdorlik, usul, vosita.

**Kirish.** Tarjima nazariyasining eng muammoli jihatlaridan biri stilistik vositalarni tarjima qilishdir. Bugungi kunda ham bu jihat tadqiqotchilar, nazariyotchilar va amaliyotchi tilshunos va tarjimashunoslarning e'tiborini tortmoqda. Badiiy asarning obrazli ifodasini tasirli darajada yetkazish zarurati obrazli vositalar tarjimasini o'rganish, tarjimada asl nusxaning stilistik ta'sirini qayta tiklashning asosiy jihati hisoblanadi.

O'xshatish badiiy diskursda tasviriylikka erishishning eng keng tarqalgan vositalaridan biridir. O'xshatish nasriy diskursda ham, she'riy diskursda ham keng qo'llaniladi. Olimlar har qanday hodisani ommabop tushuntirish uchun ham ularga murojaat qilishadi. Odatda o'xshatishlar publisistlar tomonidan jonli nutqni ifodalash vositasi sifatida ham qo'llaniladi.

O'xshatish obrazli nutqning eng oddiy shaklidir. Deyarli har bir obrazli ifodani o'xshatish orqali tasvirlash mumkin. Masalan, can- sariq barglar – Barglar oltindek sarg'aygan. Boshqa stilistik vositalardan farqli o'laroq, o'xshatish har doim ikki nomlilikdir: u ikkala qiyoslanayotgan ob'yektlarni (hodisalar, sifatlar, harakatlar) nomlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'xshatishga berilgan tavsiflarga e'tibor qaratsak, uning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri anglab olishimiz mumkin. V.Vinogradov ta'бири bilan aytganda o'xshatish – bu mantiqiy usul bo'lib, uning yordamida ob'yektiv dunyo ob'yektlari va hodisalarining o'xshashlik va farqi jihatlari aniqlanadi[1].

“O'xshatish bir ob'yektni badiiy tasvirlash maqsadida boshqa ob'yekt bilan qiyoslashdir”[2]. O'xshatish badiiy tasviriy usul bo'lib, unda tasvir bir ob'yekt bilan boshqasini solishtirish orqali yaratiladi. O'xshatish boshqa badiiy

qiyoslardan, masalan, metaforadan har doim qat'iy rasmiy belgilar (ingliz tilida: as, as if, like, as...as; o'zbek tilida: go'yo, bamisoli, xuddi)ga ega bo'lishi bilan farq qiladi.

Demak, o'xshatish badiiy diskursning eng ommalashgan badiiy tasviriy vositalardan hisoblanib, u ikki ob'yektni qiyoslash orqali biridagi sifat va belgilarni yorqinroq ifoda etish maqsadida qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan misolga e'tibor qaratsak, barglarning sariqligini yorqinroq ifoda qilish uchun barglarga nisbatan oltin so'zi ishlatilmoqda. Chunki borliqda eng sariq ranglar turkumida oltin, tilla rang eng yorqin va chiroylisi hisoblanadi. Barglarning sarg'ayishi, ulardagi rangni ifodalashda oltin, tilla so'zi ishlatiladi. Bu orqali esa bargning sariqligiga o'quvchini e'tiborini yanada qaratishga, shu orqali badiiy matnning badiiy-estetik qiymatini oshirish maqsad qilindi.

Badiiy matnda qo'llanilgan o'xshatishli konstruksiyalarni xorijiy tilga tarjima qilish o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy tarjima faoliyati turli uslubga oid aslyat matnlari bilan bevosita bog'liq. Bugungi kundagi tarjimashunoslik aslyat matnining uslub va janr xususiyatlari, uning lisoniy va nolisoniy xossalari to'laqonli o'rgangan holda tarjima amaliyotiga kirishini nazarda tutadi. Tarjima jarayonida muallifning his-tuyg'ularini, holatini va kechinmalarini o'ziga tilda qayta ifodalash murakkab jarayonlardan hisoblanadi. Buning uchun tarjimon lug'at boyligining o'zi yetarli emas. Bunda tarjimon tarjima matniga tasviriy ifodani singdira bilish muhimdir.

O'xshatishni bir tildan boshqa tilga o'girish tarjimonlarni o'z ishiga juda ham ehtiyotkor munosabatga yondashishga majbur qiladi. O'xshatishli ifodani tarjima qilish



muammosi nafaqat havaskorlarni, balki professional tarjimonlarni ham chalkashtirib yuboradi[3].

Professional tarjimon matnga yorqinlik va ta'sirchanlik berish uchun asliyat matnda qo'llaniladigan stilistik vositalarni yetkazish usullaridan foydalanadi. Har doim tarjimonlar qaror qabul qilishda ikkilanishlarga duch kelishgan. Ulardan biri asl matndan stilistik vositani ko'chirib olishga urinib ko'rish, yoki buni amalga oshirish imkonsiz bo'lsa, tarjimada xuddi shunday hissiy badiiy ta'sirga ega bo'lgan o'z stilistik vositasini yaratish. O'xshatish stilistik vositasini tarjima qilish borasidagi qarashlar dastlab mana shu ikki tanlovni yoki ikkisiidan birini tanlashni o'z ichiga olgan. Badiiy asarning majoziy qiymatini o'zida mujassam etuvchi stilistik vositalarni tarjima qilish ko'pincha turli tillar stilistik tizimining milliy xususiyatlari tufayli tarjimonlarga qiyinchiliklar tug'diradi. Barcha tilshunoslar tarjimada asl matnning qiyofasini saqlab qolish zarurligini ta'kidlab, tarjimon, birinchi navbatda, stilistik vositaning o'zini emas, balki uning vazifasini takrorlashga intilishi kerak, deb hisoblaydilar[4].

O'xshatishlarni chet tiliga o'girishda tarjimon har safar asosiy tasvirni saqlab qolish yoki tarjimada uni boshqasi bilan almashtirish kerakmi yoki yo'qligini hal qilishi lozim. O'xshatishni o'zga tildagi o'xshatish bilan almashtirishning sababi tarjima tili so'zlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, so'zlarning mosligi va boshqalarda bo'lishi mumkin.

Tarjimaning stilistik aspekti tarjimon uchun zarur bo'lib, usiz chiroyli va saviyali tarjimaga erishib bo'lmaydi. Aynan tilning stilistik jihati nafaqat biror lisoniy birlikni asliyat tilidan tarjima tiliga olib o'tish, balki tarjimonning o'ziga xos yondashuvlari va mahorati bilan ham bog'liqdir. Zero, tarjimaning sifati tarjimonning uslubiy birliklarning ma'nosini qanday yetkaza olishiga bog'liq. Tarjimada tarjimon uchun eng qiyin vazifa ifoda vositalarini tarjima qilishdir. Tarjimon ularga e'tibor bermasdan tarjimani amalga oshirishi mumkin, biroq u saviyasiz, estetik bo'yoqlardan holi tarjimani yuzaga kelishi mumkin.

Mana shunday holatlarga tushib qolmaslik, badiiy tarjimada turli g'alizliklarga yo'l qo'ymaslik uchun badiiy matnda qo'llangan o'xshatishlarni tarjima qilish strategiyalaridan mohirona foydalanish lozim. U.Yo'ldoshev o'z tadqiqot ishida tarjima strategiyasi borasida quyidagi xulosani taqdim etadi: "tarjima strategiyasi tarjima boshlanishidan oldin va jarayonda tuziladigan reja bo'lib, bunga ko'ra, tarjimon o'quvchining maqsadi, mavqei, bilim darajasi, asliyat matnining uslubi kabi omillarni o'rganib chiqib, matni o'girish uchun metod va matndagi kichik birliklar uchun transformatsiya tanlashni o'z ichiga oladi" [5]. Muallifning fikriga ko'ra, asliyat matnda qo'llangan stilistik vositalarni tarjima qilish usul va yo'llarini tarjimashunoslikda tarjima strategiyalari termini bilan talqin qilinadi. Shuningdek, U.Yo'ldoshev o'z ilmiy izlanishida metafora, metonimiya, kioniya, shaxslantirish, mubolag'a va allyuziya stilistik vositalarini tarjima qilish strategiyalarini taklif etgan.

Jaskelainen strategiyani "ma'lumotni olish, saqlash va undan foydalanishga yordam beradigan bir qator ko'nikmalar, harakatlar yoki jarayonlar to'plami" [6], deya ta'riflaydi. Ushbu ta'rifdan tarjima strategiyalari aslida tarjimonlar tomonidan manba matnini o'girishda yuzaga keladigan muammolarga yechim topish uchun amalga oshiriladigan harakatlar to'plami ekanligini anglatadi. Bunday tarjima bosqichlari tarjimon kerakli natijalarga erishgunga qadar asliyat matni to'laqonli tarjima qilish uchun ishlatiladi. Jaaskelainen (2005, p.71)

Piyerini o'xshatishni tarjima qilish bilan bog'liq bo'lgan oltita tarjima usulini o'zida qamrab olgan tarjima modelini taqdim etadi[7]. Bu model o'xshatish tarjimasidagi turli bosqichlarni o'zida mujassam etadi. Pierini (2007, p.31)

Birinchi strategiya – o'xshatishni so'zma-so'z tarjima qilish. Bunda P.Nyumark to'g'ri ta'kidlaganidek, o'xshatishlar asliyat va tarjima tillarida mavjud bo'lsa va ular umumbashariy xarakterga ega bo'lsa, ularni tarjima qilishda so'zma-so'z tarjima usuli qo'llanishi mumkin. Newmark (1981, p.88). Shuningdek, Larson ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda, o'xshatish tarjima matni o'quvchisi tomonidan to'g'ri talqin qilinsa, tarjimada so'zma-so'z tarjima qo'llanishi mumkin, degan xulosani bildirib o'tadi. Larson (1984, p. 280). Masalan, The clothes she wore were as white as snow – Qiz kiyib olgan kiyimlar qordek oppoq edi. Ushbu matn o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda stilistik bo'yoqdorlik mavjud. Chunki oppoq, toza kiyimni qorga o'xshatish hodisasi ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham mavjud.

Ikkinchi strategiya – asliyat tilidagi o'xshatishni tarjima tilidagi turli o'xshatishlar bilan almashtirish. Bu strategiyada tarjimon asliyat tilidagi badiiy tasvirni aynan tarjima tilida shu ma'noni beruvchi badiiy tasvir bilan almashtira oladi, chunki asliyat va tarjima tillaridagi o'xshatishlar ham doim ham bir xil tasvirni bera olmaydi. Bundan tashqari, Larson aslyait matnidagi o'xshatishni tarjima tilida xuddi shunday ma'noni ifodalovchi o'xshatish bilan almashtirishi mumkin. Masalan, This man is strong as a horse – Bu kishi filday baquvvat. Mazkur o'xshatish orqali biror insonning kuchli, baquvvat, zabardast sifatleri namoyon etiladi. Ingliz tilida bu kabi sifatlar ot bilan ifodalansa, o'zbek tilida bu kabi sifatlar bilan inson filga qiyoslanadi. Bu bevosita ingliz va o'zbek xalqining milliy mentaliteti, olamning lisoniy tasviridagi farqi bilan izohlanadi. (1984, p. 253).

Uchinchi strategiya – o'xshatishning uning ma'nosiga ko'ra qisqartirish hisoblanadi. P.Nyumarkning takidicha, tarjimon tasviriy ifoda ma'nosining ahamiyatini e'tiborga oladi va shunga ko'ra uni qisqartiradi. Bu usul tarjima tilida o'xshatish ifodasini kamaytirish uchun qo'llanishi mumkin. Masalan, Something in the field shines bright like a diamond – Dalada bir narsa olmosdek yaltirardi. Bu yerda ingliz tilidagi o'xshatishli matnda yorug', nur sochmoq ma'nolar ham mavjud. Biroq, tarjima tilidagi "olmosdek yaltiramoq" birikmasi bu ma'nolarsiz ham asliyat matnidagi ma'noni ifodalab kelmoqda.

To'rtinchi strategiya – o'xshatishni tasviriy ifodaga aylantirib berish. Bu usulda tarjimon tarjima tilida turli izohlar qo'shish orqali o'xshatishning badiiy tasvirini yanada yorqinlashtiradi. Masalan, ingliz tildagi "As clean as a whistle" o'xshatishli birikmasi o'zbek tiliga so'zma – so'z "hushtak kabi toza" tarzida tarjima qilinadi. Biroq, ushbu birikma yuqoridagi strategiyadan foydalanib, tarjima qilinsa, o'zbek tiliga "yog' tushcha yalagudek toza" tarzida tasviriy ifoda orqali ifoda qilinadi.

Beshinchi strategiya – individual o'xshatishni turg'un o'xshatishga aylantirish tarjima strategiyasi. Ushbu strategiyada odatda muallif tomonidan yaratilgan va asarda o'ziga xos badiiy estetik zavq bag'ishlash uchun qo'llanadigan individual o'xshatishlar turg'un o'xshatishlarga ayantiriladi.

Masalan, His left hand was still as tight as the gripped claws of an eagle gapidagi as tight as the gripped claws of an eagle o'xshatishli birikmasi individual o'xshatish bo'lib, uni Ernest Hemingvey "An old man and the sea" asarida qo'llangan. Mazkur matn o'zbek tiliga "Uning chap qo'li hamon burgutning qisilgan tirnoqlariday qattiq edi" tarzida tarjima qilinadi. Biroq ushbu gapni yuqorida takidlangan strategiya orqali tarjima qilsak, "Uning qo'li hamon tarashadek qotib qolgan edi" tarzida ifoda etiladi.

Vanihayat, oxirgi strategiyada tarjima tilida muammoli deb hisoblangan o'xshatish yoki o'xshatishli birikma tarjima matnida tushirib qoldiriladi. Masalan, ingliz tilidagi "My father has eyes like a hawk. He finds out even the minutest of things" matni o'zbek tiliga "Otamning ko'zlari

lochinga o'xshaydi. U yeng kichik narsalarni ham bilib oladi." Tarzida tarjima qilinadi.

Demak, o'xshatish va o'xshatishli birikmalar yuqorida takidlab o'tilgan oltita strategiyalardan biridan foydalanish orqali tarjima qilinib, ular asliyat va tarjima tillarining o'ziga

xosliklari, shuningdek, asliyat va tarjima tillari sohiblarining milliy-madaniy, kognitiv xususiyatlari, xalqlarning dunyoqarashi, muallifning badiiy olam tasviriga yndashuvlari, insonlarning streotiplari asosidan tanlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Виноградов, В. В. Проблема авторства и теория стилей / В. В. Виноградов. – М. : Гослитиздат, 1961. – С. 31.
2. Голуб И.Б. Стилистика русского языка ДОС. М.: Рольф; Айрис-пресс, 1997. – С. 247.
3. Горшков, А. И. Русская стилистика/ А. И. Горшков. – М. : Астрель, 2001. – 367 с.
4. Гальперин И.Р. Перевод и стилистика.- В сб.: Теория и методика учебного процесса. -М.: изд-во АПН, 1960. –С.38.
5. Ёўлдшев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латиғалари). фил.фан.ном. диссертацияси. –Т.: 2017. –Б. 61.
6. Jaaskelainen, R., (2005). Translation studies: what are they? Retrieved November 11, 2006 from <http://www.hum.expertise.workshop>.
7. Pierini, P. (2007). Simile in English: From description to translation. CÍRCULO de Lingüística Aplicada a la Comunicación (clac) 29, 21-43



*Mohinur SUYUNOVA,*

*full-time Phd student at National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

*E-mail:suyunovamohinur@gmail.com*

*Under the review by Umida Abdullayeva, senior teacher at Uzbekistan State World Languages University*

## THE ROLE OF TECHNOLOGY IN COGNITIVE LANGUAGE LEARNING

Annotation

Language learning has transformed the way languages are learned and taught since the advent of technologies and the development of digital world. However, the role of technologies should be clarified when they are used as a medium of instruction or as a teaching tool. This paper investigates the incorporation of technologies into language learning in a context of English as a second language. The research subjects are students of a private university who study the language for vocational purposes. The study uses quasi-experimental method as the research subjects are selected among students of the researcher.

**Key words:** digitalization, cognitive skills, cognitive tools, cognitive performance, conventional methods, critical thinking

## РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ В КОГНИТИВНОМ ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Аннотация

Изучение языков изменило способы изучения и преподавания языков с момента появления технологий и развития цифрового мира. Однако следует уточнить роль технологий, когда они используются в качестве средства обучения или инструмента обучения. В этой статье исследуется внедрение технологий в изучение языка в контексте английского как второго языка. Объектами исследования являются студенты частного университета, изучающие язык в профессиональных целях. В исследовании использован квазиэкспериментальный метод, поскольку субъекты исследования выбираются среди студентов-исследователей.

**Ключевые слова:** цифровизация, когнитивные навыки, когнитивные инструменты, когнитивная деятельность, традиционные методы, критическое мышление.

## KOGNITIV TIL O'RGANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING O'RNI

Annotatsiya

Texnologiyalar paydo bo'lishi va raqamli dunyoning rivojlanishi tillarni o'rganish va o'rgatish usullarini o'zgartirdi. Biroq, texnologiyalarning o'rni ular o'qitish vositasi sifatida foydalanilganda aniqlanishi kerak. Ushbu maqola ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish kontekstida texnologiyalarni til o'rganishdagi rolini o'rganadi. Tadqiqot ob'ektlari - bu tilni kasbiy maqsadlarda o'rganadigan xususiy universitet talabalari. Tadqiqot kvazi-eksperimental usuldan foydalaniladi, chunki tadqiqot mavzusi tadqiqotchining talabalari orasidan tanlanadi.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, kognitiv qobiliyatlar, kognitiv vositalar, kognitiv ishlash, an'anaviy usullar, tanqidiy fikrlash

**Introduction.** The use of computers as cognitive tools marks a dramatic shift from earlier ideas about technology. Information and intelligence are not encoded in instructional communications used in cognitive tools, which are intended to effectively transfer such knowledge to learners. The conventional design and development methods are done away with when using cognitive technologies. The technologies are taken away from the educational communications specialists and given to the learners to use as media for representing and expressing what they know, as opposed to the specialists using them to restrict the learners' learning processes through prescribed communications and interactions. Using technology as instruments for information access, world analysis, organizing and interpreting their own knowledge, and communicating it to others, learners play the role of designers.

**Review of Literature.** As the name suggests, cognitive tools are generalizable computer tools designed to promote and engage cognitive thinking (Kommers, Jonassen, & Mayes, 1992). Cognitive tools refer to mental and computational instruments that facilitate, direct, and expand individuals' thought processes people (Derry, 1990). These are instruments for knowledge building and facilitation that can be used in a range of topic areas. Databases, spreadsheets, semantic networks, expert systems, multimedia/hypermedia creation, computer conferencing, collaborative knowledge

construction environments, and, to a lesser extent, computer programming and microworld learning environments are examples of cognitive tools and learning environments that have been modified or created to act as intellectual partners with the learner in order to engage and facilitate critical thinking and higher order learning. Students must evaluate topic areas, create mental models to represent them, and represent what they understand in terms of those models when they build knowledge bases using databases, expert systems, or semantic networking technologies. It requires a lot of labor.

Critical thinking and cognitive learning processes are triggered by cognitive settings and instruments. These are mental extension and complementing computational tools. They process information generatively (Wittrock, 1974). Deeper information processing in generative processing arises from activating relevant mental models, interpreting new information with them, assimilating new information back into those models, rearrangement of the models in light of the newly interpreted information, and finally explanation, interpretation, or inference of new knowledge using those newly expanded models (Rumelhart & Norman, 1978).

Investigations into the integration of mobile devices to promote language learning and practice have also been conducted in-depth. According to certain research, students' academic achievement may be enhanced by using tablets and mobile phones sensibly (Huang, Lin & Cheng, 2010; Ivić &

Jakopec, 2016; Lu & Yang, 2018). Sung, Chang, and Liu (2016) discovered in a meta-analysis that there was a medium effect size for learning achievement when mobile devices were used in the classroom. In other words, compared to students who did not use mobile devices, the majority of students who used them fared noticeably better on dependent variables linked to achievement. According to Hwang et al. (2014), language learners were motivated to practice their foreign language abilities more while utilizing a mobile learning tool because they had favorable perceptions and intentions toward learning activities with these technologies. A number of research, including those by Ciampa (2013), Huang, Lin, and Cheng (2010), Rogers (2011), and Zheng, Chen, and Kong (2017), support the idea that learning via mobile devices increases motivation. Nonetheless, Froese et al. (2012) found that students who texted unrestrictedly during the lecture performed significantly worse than those who turned their phones to silent. This suggests that mobile phones have the potential to be a distraction.

The conditions under which students can assimilate and retain new information without taxing their limited short-term memory resources are the focus of cognitive load theory. When students are working on complicated tasks that need them to draw on their schemas, cognitive load is usually increased (Paas, van Gog, & Sweller, 2010). Working memory will not be able to successfully retain all of the information contained in the task, which will impede effective learning, if they haven't developed the necessary schemas or if the instructional procedures are poorly designed, involving the extraneous or intrinsic, rather than germane, types of cognitive load (Paas & Ayres, 2014; Paas, Tuovinen, Tabbers, & Van Gerven, 2003). This theory could contribute to the understanding of why students with comparable language skills respond differently to the same course material in different learning settings. Researchers have shown that, particularly in the past 20 years, learners' cognitive load can serve as a reliable predictor of the effectiveness of novel teaching strategies or learning technology (Deegan, 2015; Paas, van Gog & Sweller, 2010; van Merriënboer & Sweller, 2005). In order to investigate EFL students' readiness to use mobile learning resources, a model designed for technology acceptance was adopted in this study, as mobile learning may have special characteristics that classic acceptance theories find challenging to handle.

Based on the findings above, the researcher raises the following research questions:

To what extent has digitalization of language classes facilitated language learning;

Results and discussion

Table 1.

	Valid	Missing	Mean	Std. Deviation	Minimum	Maximum
pre-test	20	0	2.700	0.470	2.000	3.000
post-test	20	0	4.850	0.366	4.000	5.000

As the descriptive statistics shows, all research participants have taken part in the tests. It further shows that mean stands at 2.7, indicating that in the pre-test student satisfaction and motivation in language classes are around 3

To what extent does digitalization assist language classroom organization.

### Research Methodology

#### Research participants

The research covers 20 private university students who are studying English as a second language for vocational purposes. Furthermore, ESP teachers at this institution are also included in order to evaluate the effectiveness of application of technological tools in teacher performance.

#### Research ethics

Ethical guidelines will be adhered while conducting research and consider participants' personal data safety, attempt to minimize possible harm and discomfort. A number of steps can be taken to address the ethical issues related to research project which includes:

-Obtaining ethical approval: the researcher will obtain ethical approval from the relevant institutional ethics board to ensure that the research is conducted in an ethical manner;

-Informed consent: informed consent will be obtained from all participants giving a full explanation about the research procedure to confirm their rights and minimize research-related risks;

-Ensuring voluntary participation: it is ensured that participants have rights to decline participation or withdraw participation in the study without any penalties for them.

-Following academic honesty: academic honesty will be followed using previous studies according to the relevant academic honesty rules.

1)What issues for the personal safety of the researcher(s) arise from this research?

There will be no personal safety concerns for the researchers as a result of this research.

2)steps will be taken to minimise the risks of personal safety to the researchers?

Not applicable.

A quasi-experimental method is used selecting participants among students she has already taught. Furthermore, pre-prepared pre-test and post-tests were used in order to find differences in student performance before and after use of technology. T-test is then, run in order to discuss the findings of the research. Before application of technological tools in classes, students' interaction modes in the classroom and their writing performance are checked by a survey. During the treatment period, research subjects are taught with incorporation of technological tools. Furthermore, teachers' attitudes towards classes are checked in pre-application and post-application tests.

according to the 5-point-likert scale. However, post-test results shows that student satisfaction and motivation stand at 4.8, accounting for almost the highest in the scale.




Table 2.

Table 2 shows the distribution plots of research participants according to their motivation and language learning satisfaction before and after use of technological tools in language classes. As the results show, the majority of

research participants in the test are not satisfied and motivated in the classes. On the other hand, the majority of the participants stated their high-level satisfaction and motivation in language classrooms.




Table 3.

The pre- and post-test results show that when students' vocabulary expansion and writing skills are checked after the treatment period, research participants have scored "good" and "below standard" performances account for a slight minority. The reverse is true for pre-test results, as the statistics show.

**Conclusions and Recommendations**

The effective integration of digital tools and technologies in the English language classroom has been a

subject of considerable research and debate in recent years. This study sought to investigate the impact of utilizing such tools on language learning outcomes and student engagement. Through a comprehensive analysis of various studies and empirical evidence, several key conclusions have emerged, affirming the positive effects of digital tools in enhancing English language instruction.

Firstly, the findings of this research support the notion that digital tools offer valuable opportunities for interactive and personalized learning experiences. By incorporating multimedia resources such as videos, audio recordings, and interactive applications, educators can cater to diverse learning styles and preferences, thereby promoting deeper understanding and retention of language concepts.

Moreover, digital tools facilitate authentic language practice and communication opportunities, both inside and outside the classroom. Platforms such as online forums, virtual language exchanges, and language learning apps enable students to engage in real-world language use, interact with native speakers, and receive immediate feedback on their language production. Such authentic experiences not only enhance linguistic proficiency but also foster cultural awareness and global citizenship among learners.

Additionally, the integration of digital tools promotes collaborative learning and peer interaction. Through collaborative online projects, discussion forums, and virtual group activities, students can collaborate with their peers, share ideas, and co-construct knowledge in a supportive and engaging environment. This collaborative approach not only

cultivates essential 21st-century skills such as communication, collaboration, and critical thinking but also fosters a sense of community and belonging within the classroom.

Furthermore, the research findings highlight the potential of digital tools to accommodate individual learner needs and preferences. Adaptive learning platforms, personalized learning algorithms, and data-driven feedback mechanisms enable educators to tailor instruction according to each student's unique strengths, weaknesses, and learning pace. This personalized approach enhances learner autonomy, motivation, and self-efficacy, ultimately leading to more meaningful and effective language learning experiences.

In conclusion, the evidence presented in this research strongly supports the effective application of digital tools and technologies in the English language classroom. By leveraging the affordances of digital tools, educators can create dynamic, interactive, and personalized learning environments that promote linguistic proficiency, cultural competence, and 21st-century skills among learners. However, it is imperative for educators to approach the integration of digital tools thoughtfully, ensuring alignment with instructional goals, pedagogical principles, and learner needs.

#### REFERENCES

1. Deegan, R. (2015). Complex mobile learning that adapts to learners' cognitive load. *International Journal of Mobile and Blended Learning*, 7(1), 13-24. <https://doi.org/10.4018/ijmbl.2015010102>.
2. Derry, S.J. (1990). Flexible cognitive tools for problem solving instruction. Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, Boston, MA, April 16-20.
3. Froese, A. D., Carpenter, C. N., Inman, D. A., Schooley, J. R., Barnes, R. B., Brecht, P. W., & Chacon, J. D. (2012). Effects of classroom cell phone use on expected and actual learning. *College Student Journal*, 46(2), 323-332.
4. Hwang, G.-J., & Chang, S.-C. (2015). Effects of a peer competition-based mobile learning approach on students' affective domain exhibition in social studies courses. *British Journal of Educational Technology*, 47(6), 1217-1231. <https://doi.org/10.1111/bjet.12303>
5. Kommers, P., Jonassen, D. H. & Mayes T. (Eds.). (1992). *Cognitive tools for learning*. Heidelberg FRG: Springer-Verlag.
6. Lajoie, S.P. (1990). Computer environments as cognitive tools for enhancing mental models. Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, Boston, MA, April 16-20.
7. Paas, F., & Ayres, P. (2014). Cognitive load theory: A broader view on the role of memory in learning and education. *Educational Psychology Review*, 26(2), 191-195. <https://doi.org/10.1007/s10648-014-9263-5>
8. Rogers, K. D. (2011). *Mobile learning devices*. United States of America: Solution Tree Press.
9. Rumelhart, D.E., & Norman, D.A. (1978). Accretion, tuning, and restructuring: Three modes of learning. In J.W. Cotton & R.L. Klatsky (Eds.), *Semantic factors in cognition*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.
10. Wittrock, M.C. (1974). Learning as a generative activity. *Educational Psychologist*, 11, 87-95.



**Gavhar TILOVOVA,**  
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: [gavhar.abdaxatovna@gmail.com](mailto:gavhar.abdaxatovna@gmail.com)

*O'zMU professori, f.f.n. Sh.Imyaminova taqrizi ostida*

## THE EARLY FORMATION PERIOD OF DICTIONARY AND REVOLUTIONARY DEVELOPMENTS

Annotation

In this article, the gradual stages of the formation of dictionaries in world linguistics, the factors that are the basis for the creation of dictionaries, mainly the increasing need for them in the process of translation, monolingual, bilingual and multilingual dictionaries are created, according to the requirements of the times. There are opinions and opinions about the fact that electronic dictionaries are taking the place of printed dictionaries. Also, the article provides information about the fact that by the 20th century, which is the century of technological development, the lexicon of all fields is covered in electronic dictionaries, the dictionaries of various fields are gradually presented to the user in the form of a digital format, as well as information about their convenience and advantages.

**Key words:** Ebla tablets, electronic dictionaries, Islamic golden age, bilingual dictionaries, cuneiform, Renaissance vocabulary.

## ПЕРИОД РАННЕГО ФОРМИРОВАНИЯ СЛОВАРЯ И РЕВОЛЮЦИОННЫХ РАЗВИТИЙ

Annotatsiya

В данной статье рассмотрены поэтапные этапы формирования словарей в мировой лингвистике, факторы, лежащие в основе создания словарей, главным образом возросшая потребность в них в процессе перевода, создание с течением времени одноязычных, двуязычных и многоязычных словарей. требования, высказывались мнения о том, что электронные словари заменяют печатные словари. Также в статье представлена информация о том, что к XX веку, который является веком технологического развития, лексика всех отраслей охватывается электронными словарями, словари различных специальностей постепенно представляются пользователю в цифровом формате, и представлена информация об их удобных и выгодных аспектах.

**Ключевые слова:** таблички Эбла, электронные словари, золотой век ислама, двуязычные словари, клинопись, лексика эпохи Возрождения.

## LUG'ATCHILIKNING ILK SHAKLLANISH DAVRI VA INQILOBIY O'SISHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida lug'atlar shakllanishining tadrijiy bosqichlari, lug'atlar yaratilishiga asos bo'lgan omillar, asosan tarjima jarayonida ularga bo'lgan zaruratning ortib borishi, bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar yaratilib, davr taqozasi bilan bosma lug'atlar o'rnini elektron lug'atlar egallab borayotgani haqida firq va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada texnologik rivojlanish asri bo'lgan 20-asrga kelib, elektron lug'atlarda barcha sohalar leksikasi qamrab olinayotgani, bosqichma-bosqich turli sohalarga oid lug'atlarning raqamli format shaklida foydalanuvchiga taqdim etilishi hamda ularning qulay va afzal tomonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ebla lavhalar, elektron lug'atlar, Islomning oltin davri, ikki tilli lug'atlar, mixxat yozuvlari, Uyg'onish davri lug'atchiligi.

**Kirish.** Ko'p tilli lug'atlar tarixi insoniyat sivilizatsiyasi davomida tillar, jamiyatlar va texnologik taraqqiyotning evolyutsiyasini aks ettiruvchi boy va murakkab hodisadir. Ushbu tarixiy sayohatni bir necha muhim bosqichlarga bo'lish mumkin, ularning har biri muhim o'zgarishlar va yangiliklar bilan ajralib turadi, bu bizning tilshunoslik bilimlarini tushunish va to'plash usulini shakllantiradi. Shu kunga qadar lug'atlar insoniyat sivilizatsiyasida muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan. Lug'atlarda so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganish, tarixan olib qaraganda turli xil xalqlar o'rtasidagi til va madaniy tafovutlarni bartaraf etishda hal qiluvchi vosita bo'lib kelgan. Lug'atlar leksikologiyaning asosiy quroli sifatida turli xalqlarning bir-birini tushunishiga yordam berib, til o'rganishni osonlashtirgan. Noyob manbalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda lug'atlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, ular global muloqot almashinuvga bebaho hissa qo'shib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Butun dunyoda ilk lug'atchilikning shakllanish bosqichlarini tadqiq qilish mubaynida P. Giovanni, M. Paolo, A. Alfonso kabi

olimlarning ilmiy asarlariga murojaat qilindi va ular tomonidan berilgan muhim ma'lumotlariga tayanildi. Lug'atlarning ilk shakllari qadimgi Mesopotamiya va Misrda yaratilgan bo'lib, ular mixxat yozuvlari va ierogliflar so'zlar bilan ifodalanib, ulardan ro'yxatlar tuzishda foydalanilgan. Ushbu ro'yxatlar ma'muriy va ilmiy kontekstlarda bir nechta tillar bilan shug'ullanadigan ulamolar va olimlar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Qadimgi Ebla shahrida (hozirgi Suriya) topilgan Ebla lavhalar miloddan avvalgi 2500 yilga to'g'ri keladi va ular insoniyat tarixidagi yozma yozuvlarning eng qadimgi namunalaridan biridir. Mixxat yozuvida yozilgan bu lavhalar qadimgi Ebla tili, madaniyati, boshqaruvi va iqtisodiyoti haqida chuqur ma'lumot beradi [10].

Ebla lavhalar tavsifiga ko'ra, ular asosan loydan iborat bo'lib, u ho'l bo'lganda osonlik bilan yozilganligi sababli, qadimgi Yaqin Sharqda yozuvning keng tarqalgan turi bo'lgan. Qamish qalami bilan yozilganidan so'ng, ularni ming yillar davomida bardoshli qilish uchun loydan yasalgan lavhalar pishirilgan yoki quyoshda quritilishi uchun qoldirilgan [9]. Lavhalar asosan shumer va eblayt tillarida yozilgan bo'lib, (Mesopotamiya tillariga shumer, elam va

akkad, shu jumladan, eblayt tillari kiradi) [13] tilshunoslar va tarixchilar uchun bebaho bo'lgan ikki tilli lug'at leksikasini taqdim etgan. Shumer tili izolyatsiya qilingan hamda eblayt esa akkad tiliga tegishli semit tillari oilasiga mansub. Ikki tilli matnlarning mavjudligi ayniqsa, muhim bo'lib, u ikkala tilni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash orqali tushunishni osonlashtiradi. Lavhalar 1970-yillarda Paolo Mattia boshchiligidagi italiyalik arxeologik guruh tomonidan qazishma ishlarida topilgan. Qazishmalar natijasida Ebla saroy majmuasi ichidan 1800 ga yaqin to'liq lavhalar va 4500 dan ortiq parchalarni o'z ichiga olgan arxiv xonasi topilgan [2].

Ebla lavhalarini ikki tilli leksikani nazarda tutib, uning eng diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri shumer va eblayt o'rtasidagi tarjimalarni o'z ichiga olgan so'zlar ro'yxatidir. Ushbu ro'yxatlar ikki tilli lug'atlarning eng qadimgi namunalaridan biri bo'lib, qadimgi tillarning leksikasi va grammatikasini tushunish uchun juda muhim hisoblangan [1]. Qadimgi Ebla lavhalarining tilshunoslik va leksikografiyadagi ahamiyati shundaki, lavhalarining ikki tilli tabiati shumer va eblayt tillarining lug'at, sintaksisi va semantikasini tushunishdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'rta asrlar davri va islomning oltin davrida lug'atchilikning rivojlanishi. Taxminan V asrdan XV asrgacha bo'lgan davrlarda Evropa, xususan, til, ta'lim va bilim sohalarida chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu davrda lotin tili Yevropaning lingua franca tili sifatida paydo bo'lib, ilmiy muloqotni osonlashtirish maqsadida, lotin matnlarini tushunishga yordam beradigan lug'atlar va leksikonlarni yaratishga yordam berdi [4]. Shu bilan birga, islomning oltin davri (VIII-XIV asrlar) islom olamida ilm-fan, falsafa, tibbiyot va san'atdagi sezilarli yutuqlar bilan ajralib turadigan ajoyib intellektual va madaniy yuksalish davri bo'ldi. Islom olami va o'rta asrlar Yevropasi o'rtasida bilim almashishning asosiy vositalaridan biri tarjimalar bo'lgan. Qadimgi yunon faylasuflari, olimlari va matematiklarining musulmon olimlari tomonidan saqlangan, ishlab chiqilgan va kengaytirilgan asarlari arab tilidan lotin tiliga tarjima qilingan. Bu jarayon 12-asrda, asosan Ispaniya va Sitsiliyada, islom va nasroniy madaniyatlarini kesishgan hududlarda jiddiy tarzda boshlangan [6].

Tahlil va natijalar. Evropada tarjimaning asosiy markazi - Toledo tarjimonlar maktabi bo'lib, u yerda Jerar Cremona (1114-1187) kabi olimlar faoliyat yuritgan. Jerar arab tilidan lotin tiliga 70 dan ortiq asarlarni, jumladan Ptolemeyning "Almagest", Ibn Sinoning (Avetsina) "Tib qonunlari" va Ibn al-Haysam (Alxazen) "Optika kitobi"ni tarjima qilgan.

Sitsiliyadagi Fridrix II saroyida ishlagan yana bir taniqli tarjimon, Maykl Skot Aristotel asarlarini va Ibn Rushd (Averroes) sharhlarini arab tilidan lotin tiliga tarjima qilgan va O'rta asrlar Yevropa falsafasi faniga chuqur ta'sir qilgan. Tarjima asarlar oqimi yevropalik olimlarga arab manbalaridan kiritilgan murakkab lug'at va tushunchalarni tushunishga yordam beradigan yangi leksika va lug'atlarni yaratish zaruratini qondirib kelgan. Bu leksikalar faqat tarjimalarni emas, balki ilgari lotin tilida noma'lum bo'lgan ilmiy va falsafiy atamalarining izohlarini ham o'z ichiga oladi.

Adelard Bath 12-asr boshlarida islom olamiga o'qish uchun borgan ingliz olimi, Yevropaga qaytgach, u bir qancha muhim arab asarlarini tarjima qildi.

Liber Abaci 1202 yilda Pizalik Leonardo (Fibonachchi nomi bilan tanilgan) tomonidan yozilgan ushbu kitob hind-arab raqamlar tizimini Yevropaga kiritib, matematikada inqilob qildi. Unda lotin o'quvchilariga notanish bo'lgan yangi raqamlar va arifmetik amallar haqida keng tushuntirishlar mavjud edi.

Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-Kindi, Forobiy kabi allomalarning lotin tiliga tarjima qilingan falsafiy va ilmiy asarlari Yevropa tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu asarlar

ko'pincha batafsil izoh va tushuntirishlarni talab qilib, maxsus leksikalarning rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Ibn Rushdning Aristotel haqidagi keng ko'lamli sharhlari Aristotel falsafasini Yevropaga qayta kiritishda muhim ahamiyatga ega edi. Murakkab falsafiy terminologiya lotin tilida so'zlashuvchi olimlar uchun ushbu g'oyalarni ochiq qilish uchun lug'atlar va tushuntirish matnlarini yaratishni talab qildi [12]. Shunday qilib, Islomning oltin davri va lotin tilining O'rta asrlarda Evropaning lingua franca sifatida yuksalishi o'rtasidagi bog'liqlik bilimlarni etkazish va noyob asarlarni tarjima qilishda chuqur ildiz otgan. Tarjimachilik harakati nafaqat islom olamidan Yevropaga ko'plab ilmiy va falsafiy asarlarni olib keldi, balki bu murakkab matnlarni tushunish uchun lug'atlar yaratishni taqozo etdi.

Al-Farohidiy Iroqning Basra shahridan bo'lgan taniqli filolog, grammatika va lug'atshunos olim sifatida arab tilshunosligi, she'riyati va musiqa nazariyasi kabi turli sohalariga katta hissa qo'shgan. Uning ijodi keyingi ko'plab olimlar va tilshunoslarning ilmiy hamjamiyatda yorqin paydo bo'lishiga zamin yaratgan [7]. Uning "Kitob al-Ayn" asari keyingi lug'atlarga ta'sir ko'rsatib, arab grammatikasi va filologiyasining rivojlanishiga zamin yaratdi [3]. "Kitob al-ayn" lug'at tuzishda o'ziga xos yondashuvi bilan ajralib turadi. "Al-Ayn" sarlavhasi lug'atda sanab o'tilgan birinchi o'zak so'zning birinchi harfiga ishora qilib, "Ayn" (ا) harfidan boshlanadigan harflarning og'izda bo'g'inlanish nuqtalari bo'yicha joylashishiga asoslangan ishnig tashkiliy tuzilishini belgilaydi. Al-Farohidiyning arab leksikasini tartibga solish va tahlil qilishda sinchkovlik bilan yondashgani tilshunoslik ilmi solnomasidan munosib o'rin egalladi.

Shunday qilib, izlanishlar yangi duch kelgan xalqlar va madaniyatlar bilan muloqotni osonlashtirish uchun lug'atlarni yaratish zaruratini yanada kuchaytirdi. XV-XVII asrlar uyg'onish davri o'rganishning tiklanishi va bosmaxonaning paydo bo'lishi bilan ikki va ko'p tilli lug'atlarning ko'payishiga olib keldi [5]. O'rta asrlarda yaratilgan lug'atlarga misol tariqasida Ambrojo Kalepinoning 1502 yilda chop etilgan "Dictionarium" lug'atini keltirish mumkin. U dastlab lotin lug'ati bo'lib, vaqt o'tishi bilan u bir nechta tillarni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi. Shuningdek, Antonio de Nebriyaning 1492 yilda yaratilgan "Grammatika" si asosan ispan tili grammatikasi bo'lsa-da, u kelajakdagi ikki tilli lug'atlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan leksikani o'z ichiga olgan.

XVIII-XIX asrlar, ya'ni ma'rifatparvarlik davrida bilim va aqlga e'tibor qaratilishi keng qamrovli va tizimli lug'atlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Yevropa davlatlarining mustamlakachilik ekspansiyasi Afrika, Osiyo va Amerika qit'alarining mahalliy tillarini o'z ichiga olgan lug'atlarning yaratilishiga olib keldi. Masalan, Samuel Jonsonning "A Dictionary of the English Language" (1755) lug'ati garchi bir tilli lug'at bo'lsa-da, uning keng qamrovli tabiati ikki va ko'p tilli leksikografiyaga ta'sir ko'rsatdi. Uilyam Marsdenning "Dictionary of the Malayan Language" (1812) [8] Janubi-Sharqiy Osiyo va ingliz tillarini o'z ichiga olgan ikki tilli lug'atning dastlabki namunasi, mintaqadagi mustamlakachilik manfaatlarini aks ettiradi.

Zamonaviy va texnologik yutuqlar davriga kelib esa, ya'ni 20-asr texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo muloqotga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani ta'sirida lug'atlar yaratilishining o'sishiga guvoh bo'ldik. Raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi leksikografiyada inqilob qildi, bu elektron va onlayn ko'p tilli lug'atlarning yaratilishiga olib keldi. Misol uchun "Oxford English Dictionary" dastlab bir tilli inglizcha lug'at bo'lsa-da, uning onlayn versiyasida bir nechta tillardagi tarjimalar va ekvivalentlar mavjud [11]. Shuningdek, Google Translate ham ko'p tilli lug'at va tarjimon sifatida samarali xizmat qiluvchi ko'plab tillar bo'ylab real vaqtda tarjimalarni ta'minlash uchun



sun'iy intellekt va mashina o'rganishdan foydalanadigan inqilobiy vosita bo'ldi.

**Xulosa va takliflar.** Ko'p tilli lug'atlarning tarixiy shakllanishining davriy bosqichlari lingvistik, madaniy va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni qisqacha bo'lsa-da yoritib berildi. Qadimgi tsivilizatsiyalardagi dastlabki so'zlar ro'yxatidan tortib, bugungi kunning murakkab raqamli vositalarigacha, ko'p tilli lug'atlar

jamiyatlarning o'zgaruvchan ehtiyojlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi, aytish joiz bo'lsa evolyutsiyasi insonlarning muloqoti va madaniy almashinuvidagi kengroq tendentsiyalarni va lingvistik tafovutlarni bartaraf etishda leksikografiyaning doimiy ahamiyatini belgilab beradi. Raqamli asrda lug'atlar bosma jildlardan dinamik onlayn platformalar va ilovalarga aylandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Archi, Alfonso. *Ebla and Its Archives: Texts, History, and Society*. De Gruyter, 2015. 854 p.
2. Aruz, Joan, and Wallenfels, Ronald. *Art of the First Cities: The Third Millennium B.C. from the Mediterranean to the Indus*. The Metropolitan Museum of Art, 2003. 540 p.
3. Baalbaki, Ramzi. *The Arabic Lexicographical Tradition*. Leiden: Brill, 2014. 489 p.
4. Burnett, Charles. *The Introduction of Arabic Learning into England*. The British Library, 1997. 110 p.
5. Considine, J. *Dictionaries in Early Modern Europe: Lexicography and the Making of Heritage*. Cambridge University Press, 2008, <https://doi.org/10.1017/CBO9780511485985>
6. Haskins, Charles Homer. *The Renaissance of the Twelfth Century*. Harvard University Press, 1927. 437 p.
7. *Introduction to Arabesques: Selections of Biography and Poetry from Classical Arabic Literature*, pg. 13. Ed. Ibrahim A. Mumayiz. Volume 2 of WATA-publications: World Arab Translators Association. Philadelphia: Garant Publishers, 2006. ISBN 9789044118889
8. Marsden, W. *A Dictionary of the Malayan Language*. Cox and Baylis. 1812, 589 p.
9. Matthiae, Paolo. *Ebla: An Empire Rediscovered*. Hodder & Stoughton, 1980. 272 p.
10. Pettinato, Giovanni. *The Archives of Ebla: An Empire Inscribed in Clay*. Doubleday, 1981. 325 p.
11. Simpson, J. *The Oxford English Dictionary*. Oxford University Press, 2004.
12. Siraisi, Nancy G. *Avicenna in Renaissance Italy: The Canon and Medical Teaching in Italian Universities after 1500*. Princeton University Press, 1987. 432 p.
13. <https://journals.linguisticsociety.org/booknotices>



UDK: 82/83

*Toshpo‘lat TUGALOV,*  
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi  
E-mail: [tugalovt@mail.ru](mailto:tugalovt@mail.ru)

*Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

### LITERARY HERITAGE OF PROFESSOR NURIDDIN SHUKUROV

Annotation

This article will also talk about the rich scientific and literary heritage of munaqqid and coach Nuriddin Shukurov and the fact that his poet, who created not only a literary critic, but also with the pseudonym “Khushnud”, was contemporary and his work as a translator. Poems by the scientist, such as “the wave”, “I am alone at home”, “in memory of inspiration”, are subject to analysis and valuable information about the history of their creation. Also included in the article are drawings that indicate that the literary critic is a socially active person, a kind coach.

**Key words:** critic, poetic image, pseudonym, artistic reality, Marcia, Ghazal, spiritual world, interpretation, literary environment.

### ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ПРОФЕССОРА НУРИДИНА ШУКУРОВА

Аннотация

В этой статье рассказывается о богатом научно-литературном наследии Мунаккида и тренера Нуриддина Шукурова, а также о том, что не только литературный критик, но и поэт, писавший под псевдонимом “Хушнуд”, является современником и переводчиком. Стихи ученого, такие как “Волна”, “Я дома одна”, “Памяти Илхома”, подвергаются анализу и дают ценную информацию об истории их создания. Статья также содержит строки, указывающие на то, что литературный критик-общественно активный человек, добрый наставник.

**Ключевые слова:** критик, поэтический образ, псевдоним, художественная правда, марсия, газель, духовный мир, перевод, литературная среда.

### PROFESSOR NURIDDIN SHUKUROVNING ADABIY MEROSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada munaqqid va murabbiy Nuriddin Shukurovning boy ilmiy-adabiy merosi hamda uning nafaqat adabiyotshunos, balki “Xushnud” taxallusi bilan ijod qilgan shoiri zamon ekanligi va tarjimonlik faoliyati xususida ham so‘z yuritiladi. Olimning, “To‘lqin”, “Men uyda yolg‘izman”, “Ilhom xotirasiga” kabi she‘rlari tahlilga tortilib, ularning yaratilish tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi. Shuningdek, maqoladan adabiyotshunosning ijtimoiy faol inson, mehribon murabbiy ekanligini ko‘rsatuvchi chizgilar ham o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** tanqidchi, poetik obraz, taxallus, badiiy haqiqat, marsiya, g‘azal, ruhiy olam, tarjimonlik, adabiy muhit.

**Kirish.** Serqirra va iste‘dodli odamning o‘ziga xos jozibasi, davralarga fayz va tarovat beradigan, ko‘pchilikni e‘tiborini tortadigan betakror fazilatlarini bo‘ladi. Munaqqid va murabbiy Nuriddin Shukurov nafaqat adabiy tanqidchi balki, “Xushnud” taxallusi bilan ijod qilgan shoiri zamon hamdir. Sanoqli she‘rlari vaqtli matbuotda chop etilgan bo‘lsa-da, tadqiq etilishi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan baho berilishi zarur bo‘lgan talay asarlari hali tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmagan. Uning Samarqand adabiy muhiti jarayonlari, yosh iqtidorlarni izlab topish borasidagi beminnat xizmatlari, go‘zal she‘riyatiga haligacha munosib baho berilmagan.

Chunki olim shoirlikka da‘vogarlik qiladiganlarga qo‘yadigan tosh-tarozida o‘zining asarlarini ham o‘lchab ko‘rar, ko‘p mulohaza qiladi va kamtarlik bilan adabiy davralarda ko‘ngli yaqinlarigagina she‘rlaridan o‘qib berardi. Bu xislat balki unga otasidan yuqqandir.

Adabiyotshunos olimning padari buzurgvori Abdushukur Qori Yaxshiboev ham madrasa ta‘limini olgan, islomiy ilmlarni puxta egallagan kishi edi. U badiiy ijod borasida ham yaxshigina qobiliyatga ega bo‘lgan va Ahlam taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Abdushukur qori Yaxshiboev hayoti va ijodi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Zebiniso Xurramova shoirning Ahlam taxallusi bilan go‘zal she‘rlar yozganini hatto oila a‘zolari ham bilishmaganligini qayd etib: “Ijodkor shoirlikka

da‘vogarlik qilmagan. Shunday bo‘lsa-da, zullisonayn shoir mumtoz she‘riyatning g‘azal, qasida, marsiya, hamd, munajat, masnaviy, muxammas kabi mumtoz janrlarida qalam tebratib, sharq she‘riyatining pand-nasihat, ishq-muhabbat, falsafiy-diniy, hasbi hol, ma‘rifatparvalik, peyzaj singari asoslari va azaliy mavzularini davom ettirgan”[1] ligini bayon qiladi.

Nuriddin Shukurov yoshligidanoq adabiy muhit ichida ulg‘ayadi. Chunonchi, mumtoz adabiyot va zamonaviy o‘zbek she‘riyatini bilish barobarida dunyo adabiyoti vakillari ijodi bilan ham chuqur tanishib borgan. Ayniqsa, qardosh xalqlar adabiyoti vakillarini ijodi, asarlarini o‘qib, adabiy jarayonni muntazam kuzatib, serqirra ijod egasi sifatida kamol topadi.

Nuriddin Shukurov iste‘dodining bir qirrasini kamtarligi bois chop etilmay, yon daftarlarida qolgan she‘riyati tashkil etadi. Olimning sanoqli she‘rlarigagina vaqtli matbuot yuzini ko‘rgan. Ijodini badiiy asarlar yozish bilan boshlagan adiblarning ilmga o‘tishlari ancha yengil bo‘lgan. Oybek, P.Qodirov, J.Kamol ijodi misolida bunga guvoh bo‘lish mumkin. Shu ma‘noda N.Shukurov ilmiy asarlari yengil va ravon yozilgani holda she‘rlarining yaratilishi nisbatan qiyin kechgan. Nuriddin Shukurov o‘z she‘rlariga ham munaqqidlik nazari bilan qaragani, poetik obrazlar yaratishida mantiqan fikrlashi, mavzu va so‘z tanlashida yaqqol ko‘rinadi.

Olim o'zining "Poetik mazmun va badiiylik problemi" maqolasida: "G'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal bo'lgan she'r yozish uchun shoir, eng avvalo, kuchli poetik fikrlar, ta'sirchan lirik gaplar yoki xarakterli tipik lavhalar, o'tkir falsafiy mulohazalar, xullas, hayajonbaxsh va teran mazmun topishi lozim", [3] – degan fikrni aytar ekan, nazmiy asarlarida o'ziga ham shu talabni qo'yib she'rlar bitadi. Adabiyotni o'z umrining mazmuni deb biladi.

"...olim-u adiblarisiz yigirmanchi asr o'zbek adabiyotini ham, adabiyotshunosligini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Bu jarayon hech qachon so'nmagan, to'xtab qolmagan, balki taraqqiy etgan, muttasil rivojlangan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Vohid Abdullo, Orifjon Ikromov, Nuriddin Shukurov, Botirxon Valixo'jaev, G'aybullas-Salom, Barot Boyqobilov, Dushan Fayziy, Omon Matjon kabi Samarqand adabiy muhitining darg'alari maydonga chiqdi"[2].

Nuriddin Shukurov tabiatan mutoyibaga moyilroq, xushnud bo'lganlari va boshqalarning ham xurram bo'lishini istaganlari bois bo'lsa kerak, she'rlariga "Xushnud" taxallusini tanlagan. Shoirning Shavkat Vohidov, Mavlon Jo'raqulov, Rahmatillo Qo'ng'urov, Botirxon Valixo'jaev kabi qator tengdosh va safdoshlariga atab yozgan muvashshah she'rlarida do'stlar quvonchini o'z shodligidek qabul qilgan lirik shaxsning xushnudlik kayfiyati bo'rtib ko'rinadi. Mazkur she'rlardagi original tashbehlar, ifori toza tasviriy ifodalar, hayotiy fakt-detallarning izchil tarzda poetik g'oyani ochishga yo'naltirilganligi, badiiy haqiqati va poetik ta'sirdorligi bilan kitobxon qalbida oydin hislar uyg'otadi.

Nuriddin Shukurov she'rlarida masalaning mohiyatiga falsafiy yondashish, bugun va kechani parallel holda badiiy idrok etish, arzimasdek tuyulgan xususiy hodisalardan kuchli umumlashmalar chiqarishni ilg'ash mumkin. Masalan, "To'liqin" nomli she'rda to'liqinning qirg'oqqa urilishi tasvirlanar ekan, o'zgarayotgan va o'zgarishi kutilayotgan tabiat manzaralarining hayotiy detallari lirik qahramon kechinmalari vobastaligida izchil kuzatiladi:

Borliq sokin, dengiz ham sokin,  
Farang yanglig' tovlanar mayin.  
Erkalanar quyosh taftida,  
Jilvalanar nur emgan sayin...

Ana shu tabiat manzarasi lirik ifodaga tortilib, katta hayotiy haqiqatni poetik idrok etishga yo'l ochadi.

Har bir topish inson ruhini yetti qat arsh sari yuksaltirsa, har bir yo'qotish inson ko'nglini shu qadar cho'ktiradi.

Duyonning gultoji asli insondur,  
Lekin shu gultoj ham omonat jondur,  
Qancha ulug' zotlar yerga nihondur,  
Ko'zim giryon, yuragim qondir...

Aslida ham she'r tabiat va jamiyatning go'zal hodisalari, odamning qalb kechinmalaridan tug'ilgan bo'lsa-da, bugun uning zamirida nozik ishq-muhabbat tyg'ularini, nafrat to'la yurak isyonini, shirin tabassumu, ayriliq azoblarini, obyektiv borliq va ruhiy olam uchrashuvidan hosil bo'lgan jamiki fikr va tuyg'ularning poetik manzarasini ko'ramiz. Bu holat Nuriddin Shukurov yozgan she'rlarga ham to'liq daxldordir.

N. Shukurovning "Kavkazni kezdim", "Bahovuddin Balogardon" g'azallari, "Varzob bilan suhbat", "Dengiz" kabi lirik she'rlari, "Yoshlik bulog'i" nomli voqeaband she'ri garchi turli yillarda yozilgan bo'lsa-da, voqelikni poetik talqin etishdagi o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi.

Yetti yashar Yulduzxon maktabdan kelib, bobosining holidan xabar oladi-yu, "Bir gap bo'lsa, meni chaqiring" deb o'z o'yiniga andarmon bo'ladi:

- Qizalog'im, hozir sensan shifokorim,  
Biror gapim bo'lsa, senga aytaman.

Har soatda o'lim komiga tortar,

Xudo saqlab qolar, zo'rga qaytaman...("Meni uyda yolg'izman" she'ri).

Lirik "men" eng og'ir vaziyatda ham chimdim mutoyibasi bilan ko'ngillarga yorug' nur olib kiradi, undagi hayotbaxshlik, ertaga umidvor qarash she'rxonga ham yuqadi. "Yoshlik bulog'i" she'rida yoshi o'tib qolgan chol va kampirning yosharish istagida boshidan kechirgan voqealar quvnoq va ibratli rivoyat tarzida qalamga olinadi. Shoir qadimiy va an'anaviy mavzuga yangi mazmun va ifoda bag'ishlaydi.

Munaqqid shoir sifatida she'riy janrlarning deyarli barchasida qalam tebratib, o'z salohiyatini ko'rsatadi. Mumtoz adabiyot namunalaridan sanalgan g'azal ("Kavkazni kezdim", "Ilhom xotirasiga") va muhammas (Mashrab g'azaliga muxammas) shular jumlasidan.

Ota uchun farzand, ustoz uchun shogird dog'idan ortiqroq musibat bo'lmasa kerak. Nuriddin Shukurovning ilmiy rahbarligida fan nomzodlari darajasiga erishgan shogirdlari Toshpo'lat Hamid, Asqarali Sharopov, Ilhom Hasanovlar bu foni dunyoni birin-ketin bevaqt tark etdilar. Bu yo'qotishlar ustozga og'ir zarba bo'ldi. Nuriddin Shukurovning ayniqsa, juda bog'lanib, mehr qo'ygan shogirdi Ilhom Hasanov xotirasiga bag'ishlangan "Ilhom xotirasiga" marsiyasi dard va hasratga, qayg'u va sitamga to'la:

Tayanchim erdi Ilhomim, tayanchimdan judo bo'ldim,  
Quvonchim erdi Ilhomim, quvonchimdan judo bo'ldim.

Jahondin o'tsa ustozlar, qolur shogird-u mumtozlar,  
Yupanchim erdi shu so'zlar, yupanchimdan judo bo'ldim...

Qadd-u qomatlar zebo, yigitlar ichra bir barno,  
Aql-u idrokda ham yakto, shu ganjimdan judo bo'ldim.

Hayotda ustoz uchun eng og'iri tayanchi va quvonchi bo'lgan barkamol shogirdidan ayrilish bo'lsa kerak. Bu judolik Nuriddin Shukurovni qaddini va ruhini bukib qo'ydi. Shoir "qaddi zebo", "yigitlar ichra barno", "aqli idrokda yakto" bo'lgan, ilm va ijod olamida nom qozonayotgan talant egasi, "ganji"dan judo bo'lganini xotirlab, ham ustoz ham ota o'rinda qattiq oh chekadi:

Jahonda buncha ofat ko'p, tasodif ko'p, falokat ko'p,  
Yovuz, ma'shum haloqat ko'p, ishonchimdan judo bo'ldim...

She'r oniy kayfiyat mahsuli. Biroq ana shu oniy kayfiyat lirik qahramonning ma'naviy-intellektual qiyofasida, ichki ruhiy olamidan darak berib turadi. Nuriddin Shukurovning akademik, ustoz Vohid Abdullaevga bag'ishlab yozgan "Vohid Abdullo qani?" she'ri ham marsiyaning yetuk namunasi bo'lib, she'rda Samarqand adabiy muhitining yorqin namoyondasi bo'lgan mehribon ustozdan ayrilish qayg'usi, olim va nuktadon, xushkalom insonning ulug' qiyofasi g'aydalantiriladi:

Tarixu merosga ul shaydo qani?  
So'zga mohir, nuktadon usto qani?  
Xushkalom, xushxulq-u, xush imlo qani?  
O'rtanur dil, Vohid Abdullo qani?  
Vo darig'o, vo darig'o, vo darig'o.

Nuriddin Shukurov adabiyot va insonshunoslikdek xayrli ish bilan bir umr band bo'ldi. Uning iste'dodlarni tarbiyalashdek xayrli yumushi, she'riyati bugun ham qalblarni hamisha yolqinlantirib turadi.

Adabiy jarayondan ma'lumki, badiiy tarjima bilan shug'ullanmagan yozuvchi yoki shoir yo'q. Tarjima ham katta ijodiy maktab. Nuriddin Shukurov Rasul Hamzatov asarlari-sakkizliklar, bitiklar, sonetlarni o'rganar ekan tarjimonlik salohiyatini ham ko'rsata oldi. Kavkaz xalqlarining yorqin milliy an'analari, urf-odatlarini, she'riyatini yaxshi bilganligi uchun mashhur shoir she'rlarini rus tilidan tarjima qilib

o'quvchilar e'tiboriga havola etadi. 1982 yilda Rasul Hamzatovning o'zbekchaga o'girilgan she'rlari "Bir xonadon farzandlari" nomi bilan chop etilgan. Unda Nuriddin Shukurov tomonidan yozilgan "Dog'iston lochinining parvozi" nomli kengaytilgan so'zboshisi va u tarjima qilgan 29 ta sonet va sakkizliklar, ettita bitik o'rin olgan.

Nuriddin Shukurov taniqli, asarlari dovuq yoygan adib va shoirlarni Samarqandga kelishlarini uyushtirgan, ijod ahli bilan qizg'in muloqotlar, adabiy kechalar tashkil etgan, xalqaro adabiy aloqalarni mustahkamlashga beqiyos xizmat qilgan ijodkor edi. "Rasul Hamzatov, Qaysin Quliyev, David Qo'g'iltin, Sobit Muqonov, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla

Qahhor, Ibrohim Mo'minov, Yevgeniy Yevtushenko... Mana Shukurovlar xonadoni mehmonlarining eng kamtarin yo'qlamasi!" [2]

Bugun ham Samarqand adabiy muhiti va respublikada ro'y berayotgan adabiy jarayonlarni N. Shukurov SamDUda shakllantirgan "Shalola" ijodiy klubining yuzlab qaldirg'ochilari, domla shogirdlarining teran ijodisiz izohlash mushkul. Bunday e'tirof va kuzatishlar o'ziga xos ilmiy-adabiy nuqtayi nazar, ulkan ijodiy salohiyatga ega bo'lgan Nuriddin Shukurovning ilmiy va adabiy merosini o'rganish zarurati borligini bildiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. "XX asr Samarqand adabiy harakatчилиги мумтоз адабиёт вакиллари ижодий мероси" (1920-1990 йиллар) рисоласи. "Маҳорат" нашриёти. Самарқанд. 2022 йил. 8-бет.
2. Муҳиддинов. М. "Самарқанд адабий муҳити мутасил ривожланиб, такомиллашмоқда". "Янги Ўзбекистон" газетаси. 2022 йил 8 январь.8-бет.
3. Шукуров. Н. "Бу олам сахнида" китоби. 32-бет.



*Madina USAROVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: kuzibekova1202@gmail.com,*

*Andijon davlat chet tillari instituti katta o‘qituvchisi, PhD Q. Umirzakov makrpuzu asosida*

## A COMPARISON STUDY OF SUBSTANTIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

### Annotation

This article is devoted to comparison study of substantive phraseological units in English and Uzbek languages, in which the classification of this type of phraseological units is described in detail. In particular, how substantive phraseological units are made, from which word groups they are made, which word units actively participate in such stable combinations, the presence or absence of negative or positive coloring in idioms, their formal organization with sentence fragments and the fact that auxiliary parts are also important are discussed thoroughly. It is also emphasized that the creation of substantive phraseological units plays a special role in enriching the phraseology of any language, including English and Uzbek, and it is expressed with examples.

**Key words:** Phraseology, phraseological units, substantive, substantive phraseological units, fixed compounds, expressiveness, positive coloring, negative coloring, model, noun, adjective, article.

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ СУБСТАНТИВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

### Аннотация

Данная статья посвящена сравнительному исследованию субстантивных фразеологизмов английского и узбекского языков, в котором подробно описана классификация данного типа фразеологизмов. В частности, как образуются субстантивные фразеологизмы, из каких групп слов они образуются, какие словосочетания активно участвуют в таких устойчивых сочетаниях, наличие или отсутствие отрицательной или положительной окраски в идиомах, их формальная организация с фрагментами предложений и то, что Вспомогательные детали также важны, обсуждаются подробно. Также подчеркивается, что создание субстантивных фразеологизмов играет особую роль в обогащении фразеологии любого языка, в том числе английского и узбекского, и выражено на примерах.

**Ключевые слова:** Фразеологизм, фразеологические единицы, субстантив, субстантивные фразеологические единицы, устойчивые соединения, экспрессивность, положительная оценка, отрицательная оценка, модель, существительное, прилагательное, артикль.

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SUBSTANTIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

### Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi substantiv frazeologik birliklarning chog‘ichtirma tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu turdagi frazeologik birliklarning tasnifi mufassal bayon etiladi. Xususan substantiv frazeologik birliklarning qanday yasalishi, qaysi so‘z turkumlaridan yasalishi, bunday turg‘un birikmalarda qaysi so‘z birliklari faol ishtirok etishi, idiomalarda salbiy yoki ijobiy bo‘yoqdorlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi, ularni rasmiy tashkil etilishida gap bo‘laklari bilan bir qatorda yordamchi bo‘laklar ham muhim ahamiyat kasb etishi alohida to‘xtalib o‘tiladi. Maqolada shuningdek, substantiv frazeologik birliklarning yasalishi har qanday til, jumladan ingliz va o‘zbek tili frazeologizmini boyitishda alohida rol o‘ynashi to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tilib, misollar bilan ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** Frazeologizm, frazeologik birliklar, substantiv, substantiv frazeologik birliklar, turg‘un birikmalar, ifodalilik, ijobiy bo‘yoqdorlik, salbiy bo‘yoqdorlik, model, ot, sifat, artikl.

**Kirish.** Frazeologiya, tilimizning yorqin ifodali so‘z va iboralarni o‘rganish, izohlash, tushuntirish va foydalanish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ob‘ektidir. Ushbu so‘z va iboralarni tahlil qilish orqali, ularning ma‘nolari, ularning asosiy maqsadi, ularning tarixiy yoki madaniy bog‘liqlik yoki turli tillardagi ta‘sirlari haqida ma‘lumot olishni o‘z ichiga oladi. Frazeologiya, tilning ifodaviy qobiliyatlarini va insonlar o‘rtasidagi muloqotlarni tushunishimizga yordam beradi. Bu so‘z va iboralarga nisbatan o‘zaro bog‘liqlik, boshqa so‘zlarga qo‘shimcha ma‘no qo‘shadi yoki biron bir ko‘rsatkichni ifodalaydi. A. V. Kuninga ko‘ra frazeologiya – frazeologik birliklar (frazeologizmlar), ya‘ni o‘zgaruvchan birikmalarning generativ tarkibiy-semantik modellarga ko‘ra shakllanmagan murakkab semantikaga ega so‘zlarning barqaror birikmalari haqidagi fan.

Frazeologik birliklar tilning leksik tizimidagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi, ular voqelikning insonga ma‘lum (yangi) tomonlari nomini to‘liq ta‘minlay olmaydi va ko‘p

hollarda ob‘ektlar, xususiyatlar, jarayonlar, holatlar, vaziyatlar va boshqalarning yagona belgilaridir. Frazeologik birliklarning shakllanishi tafakkur ehtiyojlari bilan tilning cheklangan leksik resurslari o‘rtasidagi ziddiyatni susaytiradi. Frazeologik birlik leksik sinonimga ega bo‘lgan hollarda, ular odatda stilistik jihatdan farqlanadi.

Frazeologiya til xazinasidir. Frazeologizmlar xalqning tarixini, madaniyati va turmush tarzining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Frazeologizmlar ko‘pincha aniq milliy xususiyatga ega. Ingliz frazeologiyasida sof milliy frazeologik birliklar bilan bir qatorda ko‘plab xalqaro frazeologik birliklar mavjud. Ingliz frazeologik fondi – bu asl va o‘zlashtirilgan frazeologik birliklarning murakkab konglomerati bo‘lib, birinchisining ustunligi aniq. Ayrim frazeologik birliklarda arxaik elementlar – oldingi davr vakillari saqlanib qolgan [2].

Tadqiq etilayotgan ikki til – ingliz tili ham, o‘zbek tili ham lug‘aviy jihatdan turli ma‘nolarni qamrab olgan frazeologik birliklarga juda boy. Frazeologizmlarning

substantiv frazeologik birliklar qismi esa ikki til lisoniy va madaniy ahamiyatini yaqqol ko'rsatib beruvchi o'ziga xos birliklardir. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan substativ frazeologik birliklarni tahlil qilamiz va ularning boshqalardan ajralib turadigan xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Substantiv frazeologik birliklarning individual jihatlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan bir qator xususiy tadqiqotlar mavjud. A.V. Kuninning ishida substantiv frazeologik birliklarning matnda salbiy yoki ijobiy bo'yqordorlikni berish xususiyati yoritilgan; rang belgidi komponrntini M.A. Nazirova tahlil qilgan; L.V. Bazarova va I.V. Straxova semantik jihatdan "Xudo" kategoriyasiga qaratilgan murakkab so'zlarni o'rganadi, ingliz va nemis substantiv frazeologik birliklarini rus tili bilan solishtirganda tadqiqotchi R.R.Yalolova, A.A.Lenovaning sifatini ifodalovchi substantiv frazeologik birliklarga qaratilgan tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, chog'ishtirma, tasniflash, kontekstual tahlil kabi bir qator metodlardan foydalanilgan va bir qancha tilshunoslarning ilmiy ishlari tahlili asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Frazeologik birliklar – bu tilning o'ziga xos ifodaviy vositalaridir. Ular ma'lum bir ma'noni ifodalash uchun shakllangan birikmalar bo'lib, ko'pincha alohida so'zlardan tashkil topgan, ammo ular birgalikda yangi ma'no hosil qiladi. Bu birliklar tilning boyligini, rang-barangligini va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Frazeologik birliklar tilni yanada jonli va ta'sirchan qiladi, ularning yordami bilan nutq aniqroq va obrazliroq bo'ladi. Tilning frazeologik boyliklari tilni o'rganishda, nutqni tushinishda va madaniy merosni anglashda katta ahamiyatga ega. Frazeologik birliklar insonlar o'rtasidagi muloqotni boyitadi va aniqroq ifoda qilish imkonini beradi. Frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular tilning umumiy qoidalaridan chetga chiqadi va o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Ular ko'pincha metaforik, metonimik yoki boshqa semantik usullar yordamida hosil qilinadi. Frazeologik birliklar o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, ularning tarkibi o'zgarishdan qoladi. Ular tilda o'z o'rniga ega bo'lib, madaniy va ijtimoiy kontekstda muhim rol o'ynaydi. Frazeologik birliklar kundalik hayotda va muloqotda keng qo'llanilib, odamlarning his-tuyg'ularini, fikrlarini va tajribalarini aniq va obrazli ifodalash imkonini beradi. Bu birliklar orqali odamlar o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini aniq va ta'sirli ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Frazeologik birliklar madaniy meros va qadriyatlarini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular tilning boyligi va rang-barangligini saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Frazeologik birliklar xalqning madaniy o'zgarishlari va rivojlanishlari bilan ham bog'liq. Ular turli davrlarda shakllanib, xalqning madaniy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Frazeologiyaning asosiy muammolari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, frazeologiyaning eng muhim masalalari bo'yicha hozirgi kunga qadar yagona nuqtai nazar ishlab chiqilmagan. Frazeologiyada tilning frazeologik birligini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas, frazeologik birliklarning mohiyatiga munosabat tubdan farq qiladi, frazeologik birliklarning kategorik belgilari, ularni erkindan ajratib turuvchi frazeologik birliklarning asosiy belgilari masalasi, iboralar bahsliligicha qolmoqda. Frazeologik birliklarning tarkibiy va grammatik tasnifi va ularning nutq qismlari bilan aloqasi munozarali bo'lib qolmoqda, frazeologik birliklarning tarkibiy xususiyatlari, frazeologik birliklar doirasi va ularga kiritilgan birliklar doirasi haqida tor yoki keng tushuncha; munozaraga sabab bo'ladi. Frazeologik birliklarning struktur-grammatik, funksional semantik va boshqa lingvistik xususiyatlariga va

ularni o'rganish usullariga ko'ra hozirgi zamon frazeologiyasida frazeologik birliklarning turli tasniflari qabul qilingan[4].

Substantiv frazeologik birliklar predmet yoki substantivlashgan harakatni bildiradi. Frazeologik birlikning asosiy komponenti - nutqning ma'lum bir qismiga tegishli bo'lgan yetakchi, grammatik jihatdan mustaqil komponent bo'lib, bitta frazeologik birlikning gapning o'ziga xos a'zosi sifatida ishlashini belgilaydi[1]. A.A.Lenovaga ko'ra substantiv frazeologik birliklar atrofda voqelikning asosiy qismini tashkil etuvchi predmet, hodisa va kishilarning ifodali nomlari qatoriga aytiladi (Achilles' heel, the apple of someone's eye, the boy next door). Ularning asosiy vazifalari nominativ va baholovchi funktsiyadir[3]. Bunga misol qilib o'zbek tilidagi anqoning tuxumi/urugi, almisoqdan qolgan, og'zidan suti ketmagan, pichog'i moy ustida kabilarni keltirish mumkin.

Obyekt yoki substantivlashtirilgan harakatni bildiruvchi substantiv frazeologik birliklar ularning asosiy komponenti bo'lgan otlar bilan funksional jihatdan bog'liqdir[6, – C. 104]. Ingliz va o'zbek tillari substativ frazeologik birliklar tarkibiy qismlari bo'ysunuvchi va muvofiqlashtiruvchi birikmalar yordamida birlashtirilishi mumkin. Bo'ysunuvchi bog'lanishlarga ega substantiv frazeologik birliklarda umumiy tizimli turlardan biri "N + N" modelidir ("ot + ot"). Ushbu strukturaviy turdagi substativ frazeologik birliklarni ikkita modelga bo'lish mumkin: 1 "aniq ot + aniq ot": smoker's heart - haddan tashqari chekish bilan bog'liq yurak kasallig. 2. "Mavhum ot + aniq ot": heart failure – yurak yetishmovchiligi; sea sickness - dengiz kasalligi; dog's disease - gripp; duck's/ducks' disease – "o'rdak kasalligi", oqsoqlik (bir oyog'i ikkinchisidan qisqaroq bo'lganligi sababli).

Substantiv frazeologik birliklarning rasmiy tashkil etilishida gap bo'laklari bilan bir qatorda yordamchi bo'laklar ham muhim o'rin tutadi. Ingliz frazeologik birliklarida ot grammatik hamrohlikka ega. Bu kategoriya artikl hisoblanadi. The Black Death – "qora o'lim" (vabo epidemiyasi); the English disease – "ingliz kasalligi", raxit; a frog in one's/the throat – bo'g'ilish, tomoqdagi spazmlar kabilarni shular jumlasiga kiradi[6, – 106]. O'zbek tilida esa artikl kategoriyasi mavjud emas.

Ayrim substantiv frazeologik birliklarning muhim vazifasi shaxs, predmet va hodisalarning sifat tavsifi (bahosi)dir. Ularni qurishning eng ko'p uchraydigan tuzilmaviy modeli "sifat + ot" modelidir - ikki nominal nutq qismining kombinatsiyasi (a closed book, bad blood, the top brass).

Substantiv idiomalarga frazeologik tuzilishga ega bo'lgan to'liq va qisman qayta ko'rib chiqilgan frazeologik birliklar va qisman predikativ tuzilishga ega bo'lgan to'liq qayta ko'rib chiqilgan frazeologik birliklar kiradi. Refreymingning asosiy turlari metaforik va metonimik refreymingdir.

Frazeologik birliklar, ayniqsa, o'zgaruvchan iboralar prototiplarini metaforik tarzda qayta ko'rib chiqish har qanday til, jumladan, ingliz tili frazeologiyasini boyitishning muhim manbalaridan biridir. Metaforik frazeologik birliklar har xil turdagi o'xshashliklarga asoslanadi, real yoki tasavvurga ega bo'lib, faqat shaxslarni, faqat shaxs bo'lmaganlarni yoki ikkalasini ham anglatishi mumkin. Shunga qaramay, frazeologik birliklarning mutlaq ko'pchiligi, xususan, metaforik birliklar tabiatan antropotsentrikdir, ya'ni, u bilan bog'liq bo'lgan shaxs yoki biror narsaga ishora qiladi. Bu aylanmalar odatda taxminiy xarakterga ega. Baholar ham salbiy, ham ijobiy bo'lishi mumkin. Ammo baholanmaydigan burilishlar ham mavjud.

Substantiv frazeologizmlarni o'rganishda shaxslarni identifikatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda

frazeologizmlar salbiy bahoga egalik, ijobiy bahoga egalik va baholanmaslik jihatlariga bo'linadi. Xususan, salbiy bahoga ega substantiv frazeologizmlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Yosh o'xshashligi jihatidan: babes and sucklings - yangi tug'ilgan bolalar, butunlay tajribasiz odamlar (og'zidan sutni ketmagan); xulq-atvorning o'xshashligi: a dog in the manger – o'zi yemas bировга bermas; joylashuv o'xshashligi: a round peg in a square hole – o'z o'rnida bo'lmaslik va boshqalar.

Ijobiy bahoga qaraganda salbiy bahoga ega bo'lgan frazeologizmlar ko'proq mazmunli, qiziqarli va madaniy bo'yoqdorlikka ega. Ulardan ba'zilari faqat ayollar, faqat erkaklar yoki faqat bolalarga murojaat qilish uchun qo'llaniladi: a fine lady - xonim, aristokrat sifatida namoyon bo'lgan ayol; lounge lizard - dangasa, bemaza, badavlat ayollar bilan tanishishga intiluvchi erkak; Peck's Bad Boy-yomon xulq-atvorli odam (J.V.Pekning "Pekning yomon bolasi va uning otasi" kitobining sarlavhasi asosida); a weak sister- boshqalarga nisbatan zaif, yordamga muhtoj odam.

Ijobiy bahoga ega bo'lgan substantiv frazeologizmlar quyidagi misollarni o'z ichiga oladi:

Qudratning o'xshashligi: a tower of strength- ishonchli tayanch, tosh devor kabi suyanishingiz mumkin bo'lgan odam; ahamiyat o'xshashligi: a big gun- muhim shaxs. Ijobiy bahoga ega bo'lgan ayrim frazeologik birliklar faqat ayollar yoki erkaklarga tegishli: the fair sex - ayollar; girl Friday – ayol yordamchi, ishonchli ishchi (ayniqsa qiz kotiba); golden girl -

mashhur qiz; golden boy - mashhur yigit; man Friday – ishonchli, sodiq xizmatkor; man's man - haqiqiy erkak.

Baholashning yetishmasligi quyidagi frazeologik birliklarda ko'rinadi: lavozimning o'xshashligi: back-room boys - maxfiy laboratoriyalardagi ilmiy tadqiqotchilar. Shaxsni bildiruvchi baholovchi bo'lmagan frazeologik birliklar tarkibida shaxs ismlari ham bo'lishi mumkin: John Hancock (amerikalik) – qo'lda yozilgan imzo (J. Xankok – Amerika davlat arbobi, u Mustaqillik Deklaratsiyasiga birinchi bo'lib imzo qo'ygan); Tommy Atkins – "Tommy Atkins" (ingliz askarining laqabi) va boshqalar.

**Xulosa va takliflar.** Frazeologik birliklar har qanday til, xususan ingliz va o'zbek tillari lug'atini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar xalqlarning madaniyati, dini, tarixi, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini ifodalabgina qolmay, shu tilde gapiruvchi xalqlarning ongi va dunyoqarashiga ham ta'sir o'tkazadi. Substantiv frazeologik birliklar frazeologiyaning muhim qismi bo'lib, ular atrofda voqelikning asosiy qismini tashkil etuvchi predmet, hodisa va kishilarning ifodali nomlari qatoriga aytiladi. Substantiv frazeologik birliklarning yasashida asosan ot + ot va sifat + ot modellarining ishlatilish bilan bir qatorda, qo'shimga gap bo'lagi vazifasini bajaruvchi artiklning ham ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Artikl kategoriyasi o'zbek tilida mavjud bo'lmaganligi sababli bu faqat ingliz tiliga xos xususiyatdir. Substantiv frazeologizmlar lug'avaviy ma'no jihatidan salbiy va ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lishi va umuman bunday baholanishga ega bo'lmasligi ham mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Базарова Л.В. Страхова И.В. Сравнительный анализ субстантивных фразеологических единиц с компонентом «бог» в русском, английском, немецком, татарском и турецком языках. – Тамбов: Грамота, 2016. № 6(60): в 3-х ч. Ч. 3. – С. 69-71.
2. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – 1996. – С. 4.
3. Леонова А.А. Субстантивные фразеологические единицы английского и русского языка со значением качественной оценки / Межкультурная коммуникация. РКИ и РКН в современном лингвокультурном пространстве 2014.; [https://yspu.org/images/4/42/Leonova\\_A](https://yspu.org/images/4/42/Leonova_A).
4. Назирова М.А. Субстантивные фразеологические единицы с компонентами цветообозначения в разноструктурных языках // АХБОРИ ДДНБСТ. – №2 (38), 2009. – С. 126.
5. Rahmatullayev SH., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. 2022.
6. Ялалова Р. Р. Структурно-грамматический анализ субстантивных и адъективных фразеологических единиц, характеризующих болезнь и здоровье в английском, немецком и русском языках. – С 104-106. / <https://cyberleninka.ru/article/n/strukturno-grammaticheskiy-analiz-substantivnyh-i-adektivnyh-frazeologicheskikh-edinit-harakterizuyuschih-bolezn-i-zdorovie-v/viewer>
7. Idioms and phrases (thefreedictionary.com)



*Dilrabo XAKIMOVA,*  
*Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:hakimova1971@list.ru*

*Renessans ta'lim universiteti f.f.d., professori M.Turdibekov taqrizi asosida*

## KONCHILIK LEKSIKASI VA KONCHILIK TERMINLARI MASALASI

Annotatsiya

«Maqolada kam tadqiq etilgan konchilik leksikasi va konchilik terminlari tilshunoslikning terminologiya bo'limida o'rganilishi aytilgan. Umuman terminlarning o'rganilishida ikkita o'zaro bog'liq taraqqiyot zanjiri borligi ta'kidlangan. Konchilik geologiya fanining maxsus o'rganish ob'ekti ekanligiga asoslanib, bu sohada ilmiy kuzatishlar olib borgan olimlarning tadqiqotlariga ilmiy axborot sifatida to'xtalib, ularni tizimli holatda tahlilga tortgan. Muallif boshqa terminlardan, xususan, geologiyaning boshqa terminlaridan o'zbek tilidagi konchilik leksikasi va konchilik terminlarini farqlash lozimligini asoslagan.

**Kalit so'zlar:** kon, konchilik, minerallar, minerallarning qazib olinishi, minerallarning qazib olinish jarayonlari, konchilik leksikasi, konchilik terminlari, konchilik terminlariga e'tibor, o'zbek tilidagi konchilik leksikasi hamda konchilik terminlarining tadqiqi masalasi.

## ГОРНАЯ СЛОВАРЬ И ПРОБЛЕМА ГОРНЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В статье исследуются, что горная лексика (дискурсы) и термины горного дела являются малоизученными терминами и они изучаются в терминологическом разделе лингвистики. В целом изучение терминов подчеркивает существование двух взаимосвязанных тенденций развития. Исходя из того факта, что геологическая наука является предметом специального изучения, геологическая наука была описана как научная информация для изучения ученых в этой области и систематически анализировала их. Автор утверждает, что горная лексика четко различается от других терминов и в частности, от геологических терминов.

**Ключевые слова:** месторождение, горный, минералы, процесс добычи полезных ископаемых, горная лексика, общая добыча полезных ископаемых, лексика горнодобывающей промышленности, термины добычи, внимание к терминологии добычи полезных ископаемых, вопросы исследования горных терминов, а также горной лексики в узбекском языке.

## MINING VOCABULARY AND THE PROBLEM OF MINING TERMS

Annotation

"The article explores mountain vocabulary (discourses) and mining terms in the terminology section of linguistics. In general, the study of terms emphasizes the existence of two interrelated development trends. Based on the fact that geological science is the subject of special study, geological science has been described as scientific information for the study of scientists in this field and systematically analyzed them. The author argues that from other terms, in other words, geological terms, it is necessary to distinguish between mining vocabulary and mining conditions in the Uzbek language.

**Key words:** deposit, mining, minerals, mining process, mining vocabulary, general mining, vocabulary of the mining industry, mining terms, attention to the terminology of mining, issues of studying mining terms, as well as mining vocabulary in the Uzbek language.

**Kirish.** Har bir sohaning alohida terminlari va tushunchalari bo'lgani singari konchilik sohasining ham maxsus terminlari mavjud. Shu bilan birga ularni ifodalaydigan leksik birliklar ham bor. Ularni leksikologiya hamda terminologiyada o'rganish maqsadga muvofiqdir. Biroq terminologiya tilshunoslikning katta hamda bahsli sohalardan biri bo'lgani kabi konchilik leksikasi hamda konchilik terminlarini farqlash tamoyil, omil va usullariga e'tibor berilmagan. Terminologiyada mavjud fanlarga oid terminlar ilmiy-nazariy va ilmiy amaliy asoslarda o'rganiladi va o'rgatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, konchilik terminlari ham terminologiyaning o'rganish va tadqiq etish ob'ektlaridan biri sanalgani singari konchilik leksikasining tadqiqi masalasi ham bahslidir. Shu o'rinda terminlarni o'rganishda ikkita o'zaro bog'liq taraqqiyoti zanjiri bor:

1. Ular hayotda zarur bo'lgani va ishlab chiqarishda uchragani uchun o'rganiladi.

2. Ular ilm-fan va sanoat rivoji uchun maxsus ravishda ilmiy hamda amaliy jihatlardan tadqiq etiladi.

Bu ikki holat konchilik leksikasi va konchilik terminlari tizimiga ham xos ichki taraqqiyot jarayonlardir.

**Muhokama va natijalar.** Konchilik terminlari til umumterminologiyasining bir qismi sifatida alohida xususiyatlarga ega. Shu tufayli ham u geologiya ilm-fanning bir bo'lami sifatida bundan 2000 yil ilgari vujudga kelgan [1]. Lekin yer, geologiyaga oid hodisalar, konchilik, konchilik bilan bog'liq foydali qazilmalar haqidagi tajribaga asoslangan ma'lumotlar kishilik jamiyatining boshlangich davri ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlanadi. Tajribaga, aniq ma'lumotga asoslangan ilk (birinchi) geologiyaga, aniqrog'i, konchilikka oid leksika va terminlar uzoq o'tmishdagi kishilar ongida ularning tabiiy boyliklarga bo'lgan ehtiyojidan va ularni ishlatish jarayonida shakllanadi. Uzoq o'tmishdagi odamlar tog' jinslari va minerallardan avvalo tosh asrida sodda qurollar, buyumlar yasab foydalanishgan. Keyinroq bronza va temir asrlarida kishilar mis, qalayi, qo'rg'oshin, oltin, kumush va temir rudalarini jamiyat taraqqiyotining talablariga muvofiq ishlatish boshlashgani singari ular vositasida konchilik



leksikasi hamda konchilik terminlarini ham yaratishni boshlashgan.

Qadimdan kishilarning ongini turli yer osti konlaridagi boyliklar bilan birgalikda geologiyaga oid jarayonlar, masalan, daxshatli zilzila va vulqon otilishi jarayonlari o'ziga jalb etib kelgan. Bular haqida qadimiy odamlarning hikoya va ba'zi rivoyatlarida uchraydiki[2], ularda ham kon bilan u yoki bu leksikaga va terminga duch kelish mumkin. Bunda ham konchilik leksikasi va konchilik terminlari shakllanishi, taraqqiyotiga tegishli doimiy amal qiladigan metodologiya va metodika amal qilinganligini kuzatish mumkin[3]. Til bormi, demak, kishilar o'z tillariga mos holda voqea- hodisalarni tildagi nomlanish jarayonida konchilik leksikasini ham, konchilik terminlarini ham nomlashganligi tabiiy holdir[4]. Albatta, ular leksik qatlamlar tizimida joy olishlari shart[5].

Turli geologiyaga oid hodisalarning sabablari, Yerning paydo bo'lishi va tuzilishi, uning yuzasini o'zgarishi haqida milodimizdan avvalgi VII—IV asrlarda Gretsiyaning Fales, Geraklit, Empedokl, Aristotel, Teofrast, Pliniy kabi olimlari o'zlarining ilmiy tushunchalarini ilmiy taxminlar tariqasida bayon etishgan. Mana shu taxminlar asosida XVIII asrda geologiyaga oid jarayonlarning sabablarini turlicha tushuntiruvchi ilmiy nazariy kontseptsiyalar bo'lgan neptunizm va plutonizm oqimlari shakllangan. Neptunistlar ta'limotiga ko'ra yer va undagi organizmlar suv ta'sirida paydo bo'lgan. Plutonistlar esa hamma mavjudotlar va yer olovdan vujudga kelgan degan fikrni ilgari surishgan. Aristotel yer yuzasining o'zgarishi to'g'risida o'zining "Meteorologiya" asarida shunday deb yozadi: "Erning biron qismi doim quruqlik yoki dengiz bo'lib qolmaydi. Dengiz o'rnida quruqlik, quruqlik o'rnida dengiz paydo bo'lib turadi". Bu bilan yerning, yer yuzasining o'ziga xos taraqqiyotini ham ko'rsatishga intilgan.

Grek olimi Strabon materik(lar)ning ba'zi joylarida uchragan va kadimgi dengiz sharoitida yashagan hozirgi vaqtda esa tosh-qotgan xayvon chiganoqlariga asoslanib, yer yuzasi doimo harakatlanib turadi degan xulosaga kelgan. U yer po'stining vertikal harakatlanishi vulqon ta'siridan bo'ladi, deb tushungan.

O'rta Osiyoda X-XI asrlarda yashab ijod qilgan mashhur olimlar Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, XIII asrda yashagan ozarbayjon matematigi va astronomi Muhammad Nasriddin kabi boshqa olimlar o'z davridagi geologiyaning, aniqrog'i konchilik leksikasi va konchilik terminologiyasining yuksak darajada ravnaq topshiga katta hissa qo'shishgan[6].

Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur qomuschi, mutafakkir olim 1021-1023 yillarda o'zining qalbni davolash qomusi ("Kitob ashshifo") ni yozgan. Shu kitobning tabiat bo'limining ikkinchi bobi "Geologiya va mineralogiya" masalalariga oid risolasi mavjud. Ibn Sino o'zining "Geologiya va mineralogiya" risolasida asrlar davomida kishilar bilishga oshiqqan - zilzila sabablari, tog'lar, tog' jinslari, oltin, kumush singari bir qancha minerallarning hosil bo'lishi, yer yuzasining shaklini o'zgartiruvchi sabablar va minerallarni to'rtta sinfga bo'lingan shajarasini kuzatish va tajriba ma'lumotlariga asoslanib bayon etgan[7].

Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Axmat (973-1048 yillar) XI - asrning qirqinchi yillari o'rtalarida javohirlar haqida ma'lumotlar to'plami - (arabchada - Kitob al-Jamoxir fi ma'rifat al Javobxir) nomli asarini yozgan. Bu asarda olim konlarimizda hozir ham ko'plab topilayotgan oltin, kumush, javohir kabi har bir mineralning fizik xossalari, tarkibi va solishtirma og'irligini aniqlash usullari hamda minerallarni sinash, aniqlash, ishlatish va mineral konlarining xususiyatlari haqida fikr yuritgan. Ularni qimmatbaho javohirlar va metallarga bo'lib, har bir mineral haqida o'z davri nuqtai nazaridan aniq va puxta ilmiy asoslangan ma'lumotlar bergan.

Beruniyning "Mineralogiya" asari Ovrupa mamlakatlarida bir necha marta turli tillarga tarjima qilingan va bir necha asr davomida soha bo'yicha o'ta zarur va muhim qo'llanmalardan biri vazifasini o'tagan. Chunki unda kon va konchilik bilan bog'liq tushuncha va terminlar atroflicha tushuntirilgan.

Bu olimning "Mineralogiya" dan tashqari qator asarlarida geologiya hamda konchilikka oid bir qator bahsli masalalar bayon etilgan[8]. Ularda Beruniy yer, geologiya va konchilik, konchilikdagi noyob metallar qazilishlarning xususiyatlari hamda metodlari sohasiga oid jarayonlar haqidagi eng muhim ilmiy g'oyalarni hayotiy misollar vositasida birinchilar qatorida bayon etgan.

Muhammad Nasriddin (1201 - 1274 yillar), Ovrupada Tusi nomi bilan mashhur, astronomiya, matematika sohasidagi Ozarbayjon olimi "Javohirnoma" nomli risola yozganki[9], unda minerallar haqida mukammal ma'lumotlar uchraydi.. Olim bu asarda feruza, zumrad, la'l, agat, yashma va boshqa minerallarning fizik va kimyoviy xossalari, ularni aniqlash usullarini batafsil bayon etganligi geologiya, aniqrog'i, uning bir bo'lagini tashkil etgan konchilik terminlari sohasi uchun katta yutuq bo'lgan.

Xullas, o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda geologiyaning ayrim sohalari, aniqrog'i, konda topiladigan minerallar haqida ko'p ma'lumotlar berilgan. Biroq konning ichidagi konchilik terminlari va ularning amalda qo'llanishi masalasiga yuqorida aytib o'tilgan olimlarning tadqiqotlarida jiddiy tarzda e'tibor berilmagan. Bulardan ko'rinib turibdiki, konchilik terminlariga qiziqish qadimdan bo'lgan, ammo tizimlilik asosida ular maxsus tadqiq etilmagan.

Konlar va konlarda qazib olinadigan metallarning qazib olinishiga oid jarayonlarga tegishli terminlariga e'tibor XVIII asrdan kuchaygan bo'lsa-da, XX asrda konchilik terminlari rus va Yevropa olimlari tomonidan ilmiy tadqiqqa tortilgan. XX asrdan o'zbek tilidagi konchilik terminlari ham o'rganila boshlangan, chunki mamlakatimiz hududida bir qancha konlarda minerallarni qazib olish ishlari kuchaygan. Biroq o'zbek tilidagi konchilik terminlari tadqiqi masalasi haligacha bahsli va ilmiy nazariy jihatdan mukammal o'rganilmagan holatdadir. To'g'ri, bu sohada ba'zi bir ilmiy kuzatishlar natijasida maqola va ilmiy maqola shaklidagi ba'zi ilmiy ishlar e'lon qilingan. Ammo o'zbek konchilik leksikasi va konchilik terminlari bo'yicha maxsus monografik tadqiqotning amalga oshirilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Konchilik terminlar ham terminologiyaga, ham onomastikaga tegishli oraliq terminlar sanaladi. Biroq "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati"da konchilikka oid faqatbittagina termin izohlangan, xolos: "Kon nomi - foydali qazilmalarni qazib olish uchun qirilgan yer osti inshootining atqali oti"[10]. Biz mo'ljallayotgan "O'zbek va fransuz tillarida konchilik terminlari va ularning leksikografik talqini" nomli monografik ishda o'zbek tilidagi konchilik terminlari boshqa tillardagi konchilik terminlari bilan o'zaro qiyoslanib o'rganiladi.

O'zbekistonda geologiya fani ancha rivojlangan bo'lsa-da, konchilik leksikasi hamda terminlarining tadqiqi masalasi bugungi kungacha atroflicha o'rganilmagan. Buning uchun ularga filololgik nuqtayi nazaridan ham tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Bu maqoladan kutilgan yana bir maqsad - o'zimizning olib borayotgan tadqiqotimiz to'g'risida hamkasblarga hisobot bergan holda boshqa mamlakatlarda bu mavzuda tadqiqotlar olib borgan hamda olib borayotgan xorijiy hamkasb olimlar bilan ijodiy hamkorlik qilishdir.

Demak, konchilik leksikasi hamda konchilik terminlari tizimiga e'tibor va qiziqish qadimdan bo'lgan, ammo ular tizimlilik asosida maxsus tadqiq etilmaganki, ularni tizimlash va tizimlilik asosida tahlilga tortish dolzarb muammolardan biri sanaladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Ўзбек терминологияси: бугунги ҳолати ва истиқболи. Илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент, 2017. – Б.3-214.
2. Эназаров Т., Хусанова М., Есенмуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, Наврўз, 2015. – Б.38-46.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Самарқанд, СамДУ нашри, 2011. – Б.22-26. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Самарқанд, СамДУ нашри, 2012. – Б.22-26.
4. Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Тошкент, Фан ва технологиялар, 2014. – Б.253-326.
5. Языковая номинация. Москва, Наука, 1977. – С.7-206.
6. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қапгламлари. Т., Фан, 1985. – Б. 6-21, 116-125.
7. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006. Б.41.
8. Dilrabo Yuldashovna Khakimova, Composition of the mining vocabulary, sources of origin and functional classification. International Scientific Journal. ISJ



**Gulnora XIMMATOVA,**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi  
E-mail: @gulnoraximmatova48gmail.com

CHDPU O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.b.f.d.(PhD).O'.Saidov taqrizi asosida

### IMAGE OF THE FEMALE PSYCHE IN THE LYRICS OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

Annotation

This article focuses on the depiction of the female psyche in the lyrics of Halima Khudoyberdiyeva, a famous poetess of Uzbek literature. The unique style of the poetess in infusing emotional experiences into the poem and expressing the subtle aspects of the female psyche is analyzed based on the specific features of the lyrics.

**Key words:** lyrics, subjectivity, concept, artistic thinking, landscape, metaphor, metaphor, pathos.

### ОБРАЗ ЖЕНСКОЙ ПСИХИКИ В ЛИРИКЕ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

Аннотация

В данной статье уделено внимание описанию женской психики в лирике Халимы Худойбердиевой, известной поэтессы узбекской литературы. На основе особенностей лирики анализируется неповторимый стиль поэтессы в привнесении в стихотворение эмоциональных переживаний и выражении тонких сторон женской психики.

**Ключевые слова:** лирика, субъектность, концепция, художественное мышление, пейзаж, метафора, метафора, пафос.

### HALIMA XUDOYBERDIYEVA LIRIKASIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining atoqli shoirasi Halima Xudoyberdiyeva lirikasida ayol ruhiyatini tasvirlanishiga e'tibor berilgan. Ruhiiy kechinmalarni she'rga singdirish, ayol ruhiyatining nozik jihatlari ifoda etishda shoiraning o'ziga xos uslubi lirikaning spetsifik xususiyatlariga asoslangan holda tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** lirika, subyektivlik, konsepsiya, badiiy tafakkur, peyzaj, tashbeh, talmeh, metafora, pafos.

**Kirish.** Adabiyot olamida lirika boshqa turlardan farqli ravishda o'ziga xos jihatlari bilan namoyon bo'ladi. Shu o'rinda adabiyotning vazifalarini qamrab olgan holda insonning ruhiy olamiga ta'sir qilib, uni hissiy tafakkurga chorlaydi. "Lirikaga mansub asarlarning ta'sirchanligini ta'min etadigan va uni tavsiflaydigan eng muhim xususiyati ijoiy ma'nodagi subyektivligidir." [Sultonov I. Adabiyot nazariyasi, T.:O'qituvchi nashriyot matbaa uyi- 2005. 173-b.] Chunki lirik asarlar monologik tarzda yaratiladi. Borliq muallifning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri orqali ifoda etiladi. Shu sababli lirik asarlarni o'qiyotganimizda shoirning o'zi bilan suhbatlashayotganday bo'lamiz. Uning tuyg'ulari sekinlik bilan bizga ko'chib, she'r ta'sir qilayotganini his etamiz. O'zbek adabiyoti ko'plab lirik shoirlarga guvoh bo'lgan. Shuning uchun adabiyotimizda lirik asarlar hajmi va ko'lam ancha yuqori. Lirikamiz boyligiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan va she'rlari bilan keng jamoatchilik e'tiboriga tusha olgan ijodkorlarimizdan biri Halima Xudoyberdiyevadir. Uning lirikasi juda go'zal va betakrorligi ko'p bora takidlangan. Halima Xudoyberdiyeva ijodining dastlabki yillaridayoq keng jamoatchilik e'tiboriga tushgan. Adabiyotimiz gulshanining zabardast vakilasi Zulfiyaxonim Halima Xudoyberdiyeva she'rlariga nisbatan iliq fikrlar bildirgan. Qolaversa, endigina adabiyotga kirib kelayotgan yosh shoiraga xalqimizning ardoqli farzandi Sharof Rashidovning qo'llab quvvatlashi ham katta kuch bag'ishlagan. Shoiraning she'riy to'plamlari birin ketin nahr etilgan vaqtga, adabiyot ixlosmandlari tomonidan yaxshi kutib olingan. O'nlab asarlari nashrdan chiqqandan so'ng Halima Xudoyberdiyeva haqiqiy iste'dod egasi ekanligi namoyon bo'lgan. Uning she'riy kitoblari shoiraning qanday yuksak ma'naviyat va egasi ekanligidan va adabiyotga qanday nafis didli va o'tkir qalam egasi kirib kelganini yaqqol namoyon qilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shoiraning she'rlari ijodkorining o'ziga xos uslub egasi bo'lganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda taniqli adabiyotshunos I.G'ofurov fikrlarini keltiramiz: "Halima she'riyat – badiiyatga o'z jumlasini bilan kirib keldi. Zotan, adabiyotga – badiiyatga faqat xos jumla bilan kiradilar: bir jumla o'qiganda darhol bu Qodiriy, bu Usmon Nosir deydilar. Halima ham ilk she'rlaridanoq shunday shoir bo'ldi: jumlasiga qarab oltmish yildan beri "Bu Halima!" – deydilar." [G'ofurov I.//Halima ruhoniyyati// Xalq so'zi.2019.https://xs.uz] Uning sof tuyg'ulari, milliy ruh bilan sug'orilgan g'oyalari singdirilgan she'rlarida haqiqiy insoniy kechinmalar o'z aksini topgan. "Lirikada voqelik subyekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyekt emas subyekt birlamchidir" [Quronov D, Mamajonov Z, SHERALIYEVA M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: "Akademnashr", 2010.152-b.] Ushbu nazariyadan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, bizga shoir tasvirlayotgan narsa emas, unga singdirilgan tuyg'ular tasviri muhim. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini tahlil qilish jarayonida bu jihat yaxshi rol o'ynaydi. Shoir mahoratli ijodkor sifatida she'rlarining barchasida aynan tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini bera olgan. Uning badiiy konsepsiyasida yetakchilik qiluvchi ota-ona, vatan, ayol kabi obrazlar ichidan ayol obraziga to'xtalmoqchimiz. Ayol obrazini tasvirlashdagi o'zgachaliklar, uning ruhiy dunyosini chizishdagi o'ziga xosliklar Halima Xudoyberdiyeva ijodining alohidalik xususiyatini ochib beradi. "Ayolga adabiyotda juda muhim va favqulodda rol berilgan. Ayol hayratga tushadi, ayol - ilhom manbai, u orzu qilingan orzu va dunyodagi eng ulug'vor timsol. Ayol bo'lmasa, adabiyot bo'lmasdi. Adabiyot, avvalo, ayolga atab, ayol uchun, uning ko'nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o'zi – shuni anglash uchun yaralgan." [Xalova M. She'riyatda ayol qalbi.//Xorijiy filologiya jurnali/https://samxorfil.uz] Darhaqiqat, Halima

Xudoyberdiyeva she'rlaridan ham ayolning jozibasi, go'zalligi va eng asosiysi, uning betakror ichki olami ifodalari ko'rishimiz mumkin. Shoiraning she'rlaridagi ayol ruhiyatini his qilganimizda, ayol chinda ojiza ema, mo'jiza ekanligini anglab yetamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ayollarning o'ziga xos ruhiy dunyosi va ichki olami mavjud. Ularning xohishlari, tuyg'ulari ham o'zgacha. Shunday ekan ayolni faqat sevishtirish va ardoqlash kerak. Ayol nozik xilqat. Uni she'riyatda ham, nasrda ham tasvirlamagan, uning sharafiga ikki og'iz jumla bitmagan ijodkor bo'lmas kerak. Har bir ijodkorning o'z dunyosi va ijod yo'li bo'lgani uchun ayol obrazini har kim o'z yo'nalishida yozishga uringan. Halima Xudoyberdiyeva ham ayol ruhiyatining nozik qirralarini, uning ichki kechinmalarini va his tuyg'ularini she'rlariga olib kira olgan. U ayol ruhiyatini aks ettirishda ko'proq o'z kechinmalarini she'rga solgan. O'zi ayol bo'lgani uchun o'z tuyg'ulari bilan umumiy ayollar ruhiy dunyosini ko'rsatishga harakat qilgan. Goh ona, goh turmush o'rtoq, gohida esa yosh qiz bo'lib, ayollik dunyosini tasvirlagan. Ayniqsa ishq, muhabbat mavzusida yozilgan she'rlarida buning yaqqol guvohi bo'lamiz.

Oh, qo'rqaman, ishqim mening rashqu orga aylanur,

To'liq urgan zanjir-zanjir sochim dorga aylanur.

Va qalbim ham, lolalarga uchragan shu baxtli qalb,

O'z qoniga bo'yalar-u lolazorga

aylanur...[Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1-jild.-T:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2018. 243-b.]

Ushbu she'riy parcha Halima Xudoyberdiyevaning "Sizni sevgach" deb nomlangan she'ridan olingan. She'rda ayol kimnidir sevsa, unga qanchalik bog'lanib qolishi, u uchun hamma narsaga tayyor turishi, butun borlig'ini o'sha insonga bag'ishlashi va u insonni hammadan qizg'onib yaxshi ko'rishi juda chiroyli o'xshatishlar bilan tasvirlangan. Ayollar sevganda qanchalik baxtiyor bo'lsa, rashk va iztirobdan shunchalik yomon ahvolga tushadi. Bu holatni shoira quyidagicha tasvirlagan: "Ko'z yoshlarim toshar daryo, ohlarim bulut bo'lur". Bu o'xshatishlar bunday holatda ayol ichki kechinmalari qanday tug'yon urishini ifodalash uchun qo'llangan. She'rni boshida ayol sevib qolganida go'yoki chamanlar va lolalarga duch kelganday tuyulishi aks etgan. Bunda ayolning qalbidagi sevgi shunday go'zal gullarday chechak otishiga ishora qilingan. She'r so'ngida keltirilgan "O'z qoniga bo'yalar-u, lolazorga aylanur" jumlasidagi lolazor esa iztirobdan qon bo'lgan yurakni ifodalaydi. Ayolning qanchalik kuchli sevgi egasi va rashkchi bo'lishini ham shu she'rdan anglasak bo'ladi. Chunki lirik qahramon sevgan insoniga nigoh tashlab o'tgan qizlar uchun shu darajada qizg'onib o'rtanmoqda. Ayolning sevgisi va o'ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan yana bir she'rdan parcha keltiramiz.

Intiq tuyg'ularim, o'ylarim manim

O'jar g'ururimning qurboni bo'lur.

Umrin so'ngigacha Sizning ekanim,

Shu o'yim, kuyimni yoritguvchi nur.

Bunday toq va lekin pok sevolgay kim,

Bu taqirdan zarra zorim yo'q, begim!

...[Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1-jild.-T:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2018. 248-b.]

Bu she'rdan ayol ruhiyatidagi biroq g'alatilik, biroq tushunarsizlikni his qilish mumkin. Lekin ayol tuyg'ularining naqadar yuksakligini ham anglab yetsa bo'ladi. Ayollar ojiza lekin o'ziga xos ruhiy olami mavjud bo'lib, uni tushunish har davrda biroq mushkul ish bo'lgan. Ya'ni ayol qanchalik darajada ko'ngilchan, his tuyg'uli bo'lsa ham, har qanday holatda kuchli va g'ururli bo'la oladi.

Adabiyot doim makon va zamon bilan hamnafas bo'lgani uchun, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ham bu holatni ko'rishimiz mumkin. Masalan, mustaqillikka erishishdan oldin yozgan she'rlarida aks etgan his tuyg'ular,

qarashlar bularning barchasi, xuddi o'sha paytdagi tuzum kabi chegaralangan va qaysidir ma'noda ezilganlik hissini beradi. Chunki ijodkor shaxs jamiyatning nomidan so'zlab, ijtimoiy hayotni va undagi insonlarni tasvirlab yozadi. O'sha paytlarda yozgan she'rlarida, jamiyat ayollarining ham kechinmalari biroq horg'inlikda tasvirlangan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin yozilgan she'rlarida esa, yangi nafas, yangi fikr va yangi she'riy uslub natijasida ayol ruhiy olami tasviri ham yangicha bosqichga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Halima Xudoyberdiyevaning badiiy konsepsiyasida ona obrazi ham yetakchi o'rinni egallaydi. Ona obrazi ayol ruhiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shoiraning aksariyat she'rlarida lirik qahramon qiz sifatida onani tasvirlaydi. "Tan olish kerakki, shoir lirik qahramonni, birinchi navbatda, o'zining shaxsidan oladi. Lekin shoir har safar, har bir asarning lirik qahramonida o'z shaxsiyatidagi muayyan qirralarni faollashtirish orqali lirik kechinmalarni umumlashtirish va universalashtirishga erishadi." [Yo'ldoshev Q, Yo'dosheva M. Badiiy tahlil asoslari. T. – 2016. 177-b.] Shunday ekan Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ham lirik qahramon aynan shoiraning o'zi va ona obrazi ham o'z onasi bo'lmasligi mumkin. She'rning kuchi, undagi psixologizim o'quvchiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizday lirik qahramon umumiy tuyg'ularni tashuvchi bo'lgani uchun, biz umuminsoniy hissiyotlarni tuyamiz.

Ona!

Shu tongda ham sen tashvish bilan band

Un elayapsanmi, sen turaqol, qiyin.

Bu galcha xamirni men o'zim qoraman,

Quyosh tandirida pishiraman keyin.[Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1-jild.-T:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2018.160-b.]

Bu she'rda jonkuyar o'zbek ayoli tasvirini ko'ramiz. Erta tong, xamir, tandir – bularning barchasi onalarimizning erta turib, uy ishlari, ro'zg'or tashvishlari bilan ovora bo'lishini tasdiqlaydi. Ayol shunday zotki, doim oilasini o'ylaydi. Uning orzulari, hayotdagi maqsadlarining barchasi oilasi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek ayolining fazilatlarini bu borada olqishlarga sazovor bo'lib kelgan. Yuqoridagi she'rdan ham haqiqiy o'zbek onasining, haqiqiy o'zbek ayolining ruhiy olamini his qilishimiz mumkin. Unda milliylik, fidokorlik va mehribonlik mujassam.

Shoiraning ayol ruhiyatini ifodalashda quyidagi she'ri ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ayol o'tib borar, sho'x yurib,

Shamollarda soch yoygan ayol.

Ich-ichida yo'lbars o'kirib

Sirdan mayin jilmaygan ayol.[ Xudoyberdiyeva X.

"Eng qora ish, eng toza ish – bizning ishimiz..." Qarang. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz).]

Ushbu she'rdan ayolning sabri, irodasi qanchalik kuchli ekanini his etamiz. Ayol sirdan doim kulib turgani bilan ichidan qanday kechinmalar o'tayotganini sezdirmaydi. Bu uning naqadar kuch qudrat egasi ekanidan dalolat. Uning ichida o'kirgan yo'lbars ayolning kuchini, ham g'am anduhini ifoda etadi. Bu o'xshatish ham atroflicha tahlil va tafakkurni talab qiladi. Shoira ayol qancha dardi bo'lsa ham u dard faqat ichida, ana o'sha ichki qalb esa aslida yo'lbarsday kuchli demoqchi, nazdimizda. Shuningdek, yuqorida keltirilgan to't qatorli parchadan ayolning bor ichki dunyosi chizmasini ham yaqqol ko'ra olishimiz mumkin. Qolaversa ayolning mayin jilmaygani uning farishtaday beg'ubor va beozorligiga ishora. Ammo ayol kishiga bo'ladigan noto'g'ri muomala, ayolning ichidagi yillar davomida turli dovon hamda qiyinchiliklar asosida paydo bo'lgan yo'lbarsni uyg'otib yuborishi mumkin. Ana o'shanda ayolning jasorati va ichidan qaynab chiqadigan o'tli shashtini guvohiga aylanish hech gap emas. Halima

Xudoyberdiyevaning aksariyat she'rlarida shu kabi ayol jasorati va chidamliligi o'zining yorqin ifodasini topa olgan.

**Xulosa va takliflar.** Halima Xudoyberdiyeva ayol ruhiyatini ochib berishda turli badiiy vositalar va epitetlardan foydalangan. Bunda peyzaj, metafora, tashbeh va talmeh kabi tasviriy vosita va badiiy san'atlari salmoqli o'rinlarni egallaydi. Masalan shoira ayolning irodasi kuchini, jasorati yuksakligini badiiy va obrazli tafakkur asosida To'maris obrazi orqali ifodalagan. Shoiraning mahorati natijaida she'rlaridagi lirik qahramon ayol psixologiyasini o'quvchiga mahorat bilan tushuntira oladi. She'rlarni o'qiyotganimizda qalb uyg'onib, tuyg'ular tafakkurga ham ta'sir etadi. She'r so'z san'ati mahsuli bo'lgani uchun, ma'lim go'zallikni o'zida

mujassam etadi. Ayol ham borliqda yaratilgan go'zallik na'munasi. Bu ikki go'zallikni birlashuvi esa o'quvchini go'zallikni anglash qobiliyatini yuqori darajada shakllantirib, ma'naviy olamini boyita oladi. Shoiraning qalami bilan yozilgan samimiy satrlar orqali o'quvchi ongiga ta'sir qiluvchi ayol fazilatlarini, uning ruhiy dunyosi ma'lum darajada ezgulik urug'larini qalblarga sochadi. Xulosa qilib aytganda Halima Xudoyberdiyeva asl shoira sifatida ayol ruhiyatining inja tuyg'ularini, uning orzu umidlarini va barcha ichki kechinmalarini o'ziga xos uslub asosida ifodalab, so'z kuchidan tog'ri foydalan holda yuqori pafosga ega bo'lgan lirikaning betakror namunalari yaratilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. G'ofurov I.//Halima ruhoniyyati// Xalq so'zi.2019.<https://xs.uz>
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T: "Akademnashr",2010.
3. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi, T.:O'qituvchi nashriyot matbaa uyi- 2005.
4. Xalova M. She'riyatda ayol qalbi.//Xorijiy filologiya jurnali/<https://samxorfil.uz>
5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1-jild.-T:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2018.
6. Xudoyberdiyeva X. "Eng qora ish, eng toza ish – bizning ishimiz..." Qarang. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
7. Yo'ldoshev Q, Yo'dosheva M. Badiiy tahlil asoslari. T. – 2016.



*Jamshid XOLMIRZAYEV,*  
*University of economics and pedagogy NOTM o‘qituvchisi*  
*E-mail: john1209@mail.ru*

*ADCHTI f.f.f.d (Ph.D) D.SH.Egamnazarova taqrizi asosida*

### “AT THE BEGINNING OF THE 21ST CENTURY, THE ROLE OF ANGLO-AMERICANISMS IN UZBEK COMPUTER JARGON”

Annotation

This article is devoted to the study of the computer slang loanwords in the Uzbek language caused by the processes of intercultural communication and language integration. The main material consists of Anglo-Americanisms in the computer field. An attempt has been made to investigate the types of loanwords and the degree of their assimilation into the recipient language. Young people are well acquainted with the loanwords and lead in their use in everyday life, while older people form a smaller proportion. Therefore, it can be concluded that Anglo-Americanisms are actively used in the Uzbek language, particularly in the field of computer and IT technologies, and this tendency indicates the processes of the internationalization of English worldwide.

**Key words:** Loanword, assimilation, intercultural communication, language integration, language internationalization.

### “В НАЧАЛЕ XXI ВЕКА РОЛЬ АНГЛО-АМЕРИКАНСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В УЗБЕКСКОМ КОМПЬЮТЕРНОМ ЖАРГОНЕ”

Аннотация

Эта статья посвящена изучению заимствований компьютерного жаргона в узбекском языке, вызванных процессами межкультурной коммуникации и интеграции языков. Основной материал состоит из англо-американизмов в области компьютеров. Сделана попытка исследовать типы заимствований и степень их ассимиляции в языке-получателе. Молодые люди хорошо знакомы с заимствованиями и лидируют в их использовании в повседневной жизни, тогда как доля старших людей меньше. Таким образом, можно сделать вывод, что англо-американизмы активно используются в узбекском языке, особенно в области компьютерных и IT-технологий, и эта тенденция указывает на процессы интернационализации английского языка по всему миру.

**Ключевые слова:** Заимствованные слова, ассимиляция, межкультурная коммуникация, языковая интеграция, распространение языка на международном уровне.

### XXI ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK KOMPUTER JARGONIDA ANGLO-AMERIKANIZMLARNING ROLI

Аннотация

Ushbu maqola madaniyatlararo muloqot va til integratsiyasi jarayonlari natijasida o‘zbek tilidagi komputer jargonlari o‘zlashmalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy material komputer sohasidagi anglo-amerikanizmlardir. O‘zlashmalarning shakllanish turlarini va qabul qiluvchi tilga qanchalik darajada o‘zlashtirilganligini o‘rganishga harakat qilingan. Yoshlar o‘zlashmalarni yaxshi bilishadi va kundalik hayotda qo‘llash borasida yetakchilik qilishadi, kattalar esa kichikroq ulushni tashkil qiladi. Shuning uchun, anglo-amerikanizmlar o‘zbek tilida, xususan, komputer va IT-texnologiyalari sohasida faol ishlatilayotgani va bu tendensiya ingliz tilining dunyo bo‘ylab xalqaro miqyosda tarqalish jarayonlarini ko‘rsatmoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** O‘zlashma so‘zlar, assimilatsiya, madaniyatlararo muloqot, til integratsiyasi, tilning xalqaro miqyosda tarqalishi.

**Kirish.** Til – bu dinamik hodisa. U doimiy ravishda rivojlanib boradi: yangi so‘zlar va iboralar qo‘shilib, har qanday tilning leksik materialini ular bilan to‘ldiriladi. Turli xil jargonlar va dialektlar til uchun juda odatiy hol. Ammo so‘nggi yillarda komputer jargonlari keng tarqalgan. O‘zlashmalar paydo bo‘lishi komputer texnologiyalarining XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlanishi va xususan, shaxsiy komputerlar va komputer qurilmalarining oddiy insonning kundalik hayotiga ommaviy joriy etilishi bilan bog‘liq [3]. Komputer terminologiyasi doimiy rivojlanish jarayonida. Ba’zi umumiy ishlatiladigan leksikalar o‘z ma’nolarini o‘zgartiradi, boshqalari esa eskiradi va ishlatilmay qoladi [4]. Bugungi kunda ko‘pgina komputer so‘z boyligi o‘zlashma bo‘lib, bu o‘zlashmalar asosan ingliz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu uning xalqaro miqyosda tarqalish tendensiyalarini ko‘rsatadi. Bu Internet va tarmoq texnologiyalarining jadal va har tomonlama rivojlanishi bilan bog‘liq. Angl-amerikanizmlarning o‘zbek tili lug‘aviy tarkibiga ommaviy ravishda kirib kelishi san‘at, texnika, iqtisodiyot, siyosat, servis sohalariidagi ko‘pgina tendensiyalar

aynan ingliz tilidagi mamlakatlardan boshlanishi bilan bog‘liq. Shuningdek, ingliz tili bugungi kunda universal kommunikatsiya vositasi sifatida qaralmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Anglo-amerikanizmlarning tadqiqoti turli davrlarda va turli tillarda amalga oshirilgan va ularning o‘rganilishi jamiyatning rivojlanishi, madaniyatlararo aloqalar va tilning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Quyida G‘arb olimlarining anglisizmlar bo‘yicha tadqiqotlari va ularning natijalari haqida qisqacha ma’lumot keltirib o‘tamiz. Reymon Xiki (Raymond Hickey) ingliz tilining kolonial davrda boshqa tillarga qanday ta’sir qilganini o‘rgangan. U kolonializm davrida ingliz tilidan turli tillarga kirib kelgan so‘zlar va ifoda vositalarini tahlil qilgan[8]. Manfred Gørlah (Manfred Gørlach) esa Yevropa tillaridagi anglisizmlarning grammatik va semantik o‘zgarishlarini o‘rgangan[9]. Jonatan Kalvert (Jonathan Culpeper) ingliz tilining tarixi va uning boshqa tillarga ta’sirini o‘rgangan. Uning asarida anglisizmlar va ularning turli tillarda qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan[10]. Anna Vejbiska (Anna Wierzbicka) anglisizmlarning ma’nolari,

grammatik hamda semantik o'zgarishlar va ularning madaniy kontekstdagi foydalanilishini o'rgangan [11].

Rahimov G'anisher Xudoykulovich O'zbekistonda ingliz tilining tarqalishi va uning ommalashuvini o'rganadi. Bu jarayonning turli ijtimoiy qatlamlarga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qiladi. Ushbu ilmiy tadqiqoti jarayonida dunyo miqyosida amal qilayotgan ingliz tilining lingvistik maqomi va variantlashuvi haqida ma'lumotlar beradi, O'zbekiston aholisi lisoniy faoliyatida English franca tizimidan foydalanishning sotsiolingvistik tamoyillarini aniqlaydi hamda O'zbekiston aholisi nutqiy faoliyatida ingliz tilidan foydalanishning pragmatik ko'rsatkichlarini ilmiy asoslab beradi. Ingliz tilining turli kommunikatsiya vositalarida, jumladan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida qanday qo'llanilishi o'rganiladi. Ingliz tilining O'zbekistonda tarixiy jarayonlar orqali qanday tarqalgani va rivojlangani tahlil qilinadi. Ingliz tilining o'zbek jamiyatida madaniy ta'siri va uning ommalashuviga ta'sir etgan omillar o'rganiladi [12].

Komputer yordamida muloqot millionlab odamlarni qamrab oladi va nafaqat odatiy hayot tarzini, balki fikrlash tarzimizni ham o'zgartiradi. Ushbu jarayonlarning barchasi tilga ta'sir qiladi. Shunday qilib, turli darajadagi tadqiqotchilar komputer tilining rivojlanishini katta qiziqish bilan kuzatmoqdalar. Internet o'ziga xos lingvistik hodisa sifatida filologlar e'tiborini tortadi. Ularning ko'plari komputer diskursining o'ziga xosligini, elektron (komputer, tarmoq) muloqot janr xususiyatlarini va Internet lug'atidagi yangi til o'zaro ta'sir formasini faol o'rgangan [7]. Bu allaqachon maxsus tadqiqotlarning mavzusiga aylangan. Shunday qilib, E.M. Beregovskaya va N.V. Vinogradova tomonidan Internet bilan bog'liq so'zlarni tushunish va talqin qilishga urinishlar mavjud. IT sohasidagi o'zlashmalar o'yin tili vositasi sifatida ham ko'rib chiqiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bizning ishimiz uning o'ziga xos xilma-xilligiga - axborot texnologiyalari sohasiga bag'ishlangan. Komputer jargonini shakllanish va rivojlanish jarayonlari, uning boshqa komputer muloqoti turlari bilan o'zaro ta'siri hali yetarlicha aniq emas. Tadqiqot obyekti - axborot texnologiyalari sohasiga oid anglo-amerikanimlardir. Ushbu tadqiqot mavzusi komputer jargonining shakllanishi va rivojlanishini, uning tasnifi va o'zbek tilida qanday darajada o'zlashtirilishini o'rganishdir. Bizning ishimizning maqsadi - o'zbek komputer tilining xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash, uning shakllanish sabablarini va bajaradigan funksiyalarini aniqlash. Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasini qanday boyitish yo'llari haqida ma'lumot to'plash, bunday lug'at boyligining tarqalishi va keyingi rivojlanishi haqida ba'zi xulosalar chiqarish biz uchun qiziqarli edi.

**Tahlil va natijalar.** O'zlashmalarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga professionallik so'zlari kiradi. Ular ilgari faqat IT mutaxassislar tomonidan ishlatilgan. Biroq, yigirma yil davomida ular ukrain tilining faol leksik materialiga kirib keldi. Komputer texnologiyalari hayotimizga kirib kelmoqda va biz endi Internet, komputer, telefon holda hayotni tasavvur qila olmaymiz [1]. Ushbu obyektlar bilan bir qatorda, ularning nomlari ham nutqimizga kirib keldi. Komputer, Windows, sichqoncha kabi so'zlarni eslatib o'tamiz. Ikkinchi kichik guruh Internet bilan birga kelgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Ularning manbai asosan ingliz tili. Ushbu o'zlashmalar guruhi nafaqat tilimizga kirib keldi, balki ko'plab o'zbekcha so'zlarni almashtirdi: (friend request) - friend request (do'stlik taklifi), (user) - user (foydalanuvchi), soft (софт) - dasturiy ta'minot, tresh (треш) - axlat.

Komputer jargonlari asosan terminlardan iborat, ammo u professionallikni ham o'z ichiga oladi, asosan mutaxassislarining nutqida qo'llaniladi. Axborot texnologiyalari sanoati doimiy ravishda rivojlanib borganligi

sababli, komputer leksikasi ham faol ravishda o'zgarib bormoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan, shaxsiy komputerlar va komputer qurilmalari foydalanish bilan komputer texnologiyalarining jadal o'sishi maxsus so'zlar va iboralar miqdorini katta darajada oshirdi [1]. Inglizcha terminlar va qisqartmalar, ko'pincha inglizcha imlododa, o'zbeklar nutqini to'ldirdi: mikroprotessor, operativ sistema, format, vincer, piksel, display va boshqalar.

Yangi texnologiyalar bilan bir qatorda, komputer o'yinlari ham inson olamiga kirib keldi, bu yerda ham ma'lum bir narsalarning individual nomlari mavjud, masalan, PubG, counter strike, clash va boshqalar. Texnologiyalarning ko'pi AQShdan keladi, shuning uchun ingliz tilining ta'siri bu sohada juda kuchli. Avvaliga, noodatiy ishlatishlar asta-sekin normaga aylanadi, yangi so'zlar va ma'nolar lug'atlar tomonidan og'zaki va yozma nutqda qanday mustahkamlangan bo'lsa, xuddi shunday shaklda qayd etiladi (CD-pleyer, DVD-filmlar, SMS-xabar, IP-telefoniya, IT-loyiha). Texnologik inqilob sharoitida har bir yangi hodisa o'zining og'zaki nomini, o'z nomini olishi kerak. Va chunki ularning deyarli barchasi (kamdan-kam holatlar bundan mustasno) AQShda ixtiro qilingan, ular tabiiy ravishda ingliz tilida nomlanadi [1]. Ularning katta qismi uchun, albatta, o'zbek tilida ekvivalenti yo'q.

Komputer texnologiyalari bilan ishlayotgan odamlar ko'pincha yosh mutaxassislardir, ular nutqida o'zlashmalarni tez-tez ishlatadilar. So'nggi paytlarda komputer o'yinlariga bo'lgan qiziqish ham yoshlar orasida keng tarqalgan. Bu yangi so'zlarning kuchli manbai hisoblanadi [3].

Komputer leksikasi ingliz tilidan katta ta'sir ko'rdi. Bu tarmoqlangan tizim bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: komputer mutaxassislari va foydalanuvchilarining nomlari (user (user), geymer (gamer), flaymer (flamer), dekoder (decoder)); inson harakatlari va komputer javoblari (mail qilish (to mail) - elektron pochta orqali yuborish); komputer qismlari (display - ekran qurilmasi, tru-killer - printer); komputer o'yinlari (Need for Speed, Call of Duty).

Biz to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar, kalka, qisman kalka, tarjima va aralash o'zlashmalar kabi turlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin [2]. To'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalarni o'zbek tili komputer terminologiyasiga o'tkazish: apgrejd (upgrade); bayt (byte); bravzer (browser); kesh (cache); adapter (adapter); internet (Internet); server (server), divays (device), harddrayv (hard drive), avatar (Avatar), bag (Bug).

Aralash o'zlashmalar to'g'ridan-to'g'ri va tarjima qilingan o'zlashmalarni bir vaqtning o'zida qo'llashni o'z ichiga oladi, natijada gibrid terminlar hosil bo'ladi: vaqtinchalik fayl (temporary file); kesh-xotira (cache-memory); pochta serveri (mail server); video karta (video card).

O'zlashmalar guruhi qisqartmalardan iborat. Bu so'zlar inglizcha kelib chiqishi va shakllanish usuli bo'yicha majmuaviy qisqartirilgan so'zlar bo'lib, hali o'zbek tilida o'zlashtirish jarayoniga jalb qilinmagan [2]: aka (also known as); lol (laughing out load). Ushbu misollar ham komputer jargonining til vositalarini sezilarli darajada soddalashtirish, minimallashtirish va standartlashtirishga moyilligini isbotlaydi.

Grammatik o'zlashtirish jarayonida inglizcha termin o'zbek grammatikasiga qo'shilib, uning qoidalariga bo'ysunadi. Masalan, otlar kelishik qo'shimchalarini oladi: simka (sim-karta). Manba tili analitik va qabul qiluvchi til sintetik bo'lganligi sababli, fe'llarga qo'shimchalar qo'shiladi: apgrejd qilmoq (to upgrade); gugllamoq (google). Komputer o'zlashmalarini talaffuziga ko'ra tasniflash mavjud. Birinchi guruh inglizcha so'zning to'g'ridan-to'g'ri transliteratsiyasi bo'lib, leksikaning asosiy ma'nosini saqlab qoladi: gadjet (gadget); geym (game); geymer (gamer). Ikkinchi guruh

o'zlashmalar asl so'zning fonetik va grammatik buzilishidan iborat [7]: gugllamoq (to google)

**Xulosa va takliflar.** Anglo-amerikanizmlar bo'yicha dunyoda ko'plab izlaishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar orqali tillarning bir-biriga ta'siri, madaniyatlararo aloqalar va tillarning rivojlanishi yaxshiroq tushunilgan. Qadimgi asarlar turli madaniyatlar va tillar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadi, shuningdek, olinma so'zlarning o'zlashtirilishi va ularning ma'nolarini tahlil qiladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, yosh avlod til o'zgarishlariga tezroq javob beradi. O'zbek jamiyatining raqamli savodxonligi rivojlanishi komputer sohasidagi o'zlashmalarni o'zbek tilida yaxshi

o'zlashtirishni ta'minladi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi zamonaviy avlodning lug'atini shakllantirishga ta'sir ko'rsatdi, bu esa til tizimida komputer jargonining paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq, komputer tili, jumladan jargonning qo'llanish doirasi juda keng va kelajakda yanada kengayadi. O'zbek komputer lug'ati tez o'zgarib bormoqda. IT-texnologiyalar sohasidagi o'zlashmalar jargon belgilari yo'qolib bormoqda va o'zbek internet tili shakllanmoqda. Jargonning ishlatilishi o'zbek tilining barcha sohalarida rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, bu ingliz tilining xalqaro miqyosda rivojlanishini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Береговская Э. М. Молодежный сленг: формирование и функционирование / Э. М. Береговская // Вопросы языковедения. – 2009. – №3. – С. 32–41.
2. Виноградова Н. В. Компьютерный сленг и литературный язык: проблемы конкуренции / Н.В. Виноградова // Исследования по славянским языкам. – 2001. – № 6. – С. 203–216.
3. Горшков П. А. Сленг хакеров и геймеров в Интернете / П. А. Горшков. – Москва, 2008 – 180 с.
4. Нечаевский В. О. Влияние внешних и внутренних средств номинации на вариативность единиц лексического уровня языка (на материале компьютерной терминологии в славянских языках) / В. О. Нечаевский // Вестник ЮУрГУ. – 2011. – №22. – С. 65–70.
5. Hoffer B. L. Language Borrowing and the Indices of Adaptability and Receptivity / B.L. Hoffer // Intercultural Communication Studies, 2005. – 14(2), P. 53–72. <https://web.uri.edu/iaics/files/05-Bates-L.-Hoffer.pdf>
6. Raymond Hickey. "Legacies of Colonial English: Studies in Transported Dialects" Cambridge University Press, 24 февр. 2005 г. - Всего страниц: 713
7. Görlach, Manfred. English in Europe. OUP Oxford, 2002.
8. Culpeper, Jonathan. History of English. Routledge, 2015.
9. Wierzbicka, Anna. Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Vol. 8. Oxford University Press, 1997.
10. Rahimov g'.x. ingliz tilining o'zbekistonda tarqalishi (sosiolingvistik va pragmatik jihatlar) filologiya fanlari doktori (doctor of science) ilmiy darajasini olish uchun tayërlangan dissertasiya.- toshkent – 2018





*Sevinch XOLMIRZAYEVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*  
*E-mail:sevinchkholmiraeva@gmail.com*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjima nazariyasi Italyan tili kafedrasida mudirasi B.Ergasheva taqrizi asosida*

### J. RODARI ASARLARINING YOSH AVLOD TARBIYASI VA ULARNING ADABIYOTGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA TUTGAN O'RNI

Annotsatsiya

Ushbu maqola Janni Rodarining italyan tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar tahlili, shu bilan birgalikda, ularning bugungi kun yoshlari o'rtasida adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishida tutgan tarbiyaviy, amaliy o'rni bo'yicha fikrlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Janni Rodarining italyan adabiyotchilik maktabida o'ziga yarasha foydalangan uslubi, uni boshqa adiblardan ajratib turgan xislatlarini ham ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Italyan adabiyoti, bolalar ertaklari, sarguzasht, hayoliy obrazlar

### THE ROLE OF J. RODARI'S WORKS IN THE EDUCATION OF YOUNG GENERATION AND INCREASING THEIR INTEREST IN LITERATURE

Annotation

This article includes the analysis of translations from Italian to Uzbek of Gianni Rodari, as well as thoughts on their educational and practical role in the formation of interest in literature among today's youth. In addition, Gianni Rodari's style, which he used in the Italian school of literature, reveals the qualities that distinguish him from other writers.

**Key words:** Gianni Rodari, Italian literature, children's tales, adventure, fantasy images

### РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖАННИ РОДАРИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ И ПОВЫШЕНИИ ИХ ИНТЕРЕСА К ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье представлен анализ переводов с итальянского на узбекский язык Джанни Родари, а также размышления об их воспитательной и практической роли в формировании интереса к литературе у современной молодежи. Кроме того, стиль Джанни Родари, который он использовал в итальянской литературной школе, раскрывает качества, отличающие его от других писателей.

**Ключевые слова:** Джанни Родари, итальянская литература, детские сказки, приключения, фантазийные образы.

**Kirish.** Italyan dabiyotida “Le avventure di Cipollino (Chippolinoning sarguzashtlari)”, “Il libro delle Filastrocche” (Quvnoq she'rlar kitobi), “Gelsomino nel paese dei bugiardi (Jelsamino yolg'onchilar mamlakatida)” kabi bir qator asarlar bilan nafaqat bolalar balki katta yoshlilar ko'nglidan ham joy olgan Janni Rodari bugungi kunda o'ziga xos uslubi va yo'nalishi bilan bolalar adabiyotida o'zgacha o'rin egallaydi. Ko'plab olimlarning, yozuvchilarning ushbu yozuvchi to'g'risida amalga oshirgan tadqiqot ishlari shundan xabar beradiki, Janni Rodari bolalar adabiyotida tasavurni o'stirishga qaratilgan fantazyadan, satira va yumor, interaktiv hikoyalash, so'z foydalanishda kreativlik kabilardan o'z ertak-hikoyalari unumli foydalangan. Rodarining hamdardlik va hikoya qilishga urg'u bergani son-sanoqsiz yozuvchilar, o'qituvchilar va yosh tomoshabinlarni o'ziga jalb etuvchi va quvvatlantiruvchi asarlar yaratishi, uning merosi butun dunyo bo'ylab kitobxonlarning qalbi va ongida yashashiga xizmat qildi. O'zbekistonda ham bugungi kunda jahon adabiyotiga bo'layotga e'tibor o'tkan yillarga qiyoslaydigan bo'lsak, anchagina oshgan zeroki prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega.” Ushbu maqola ham adabiy ijod yo'li o'zbek adabiyotida Xudoyberdi To'xtoboyevga qiyos qilinadigan Janni Rodari asarlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalar tahlili, ularda aks etgan

tarbiyaviy yondashuvlarning mahorat bilan ochilib berilganiga e'tibor qaratadi va bularni misollar bilan yoritib beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Haqiqatga ham asosiy kirish eshigidan kirish mumkin, ham darchadan oshib tushish mumkin. Ikkinchisi bolalar uchun qiziqroq”, - deya asarlarida bolalarga xos quvnoqlikni aks etgan Rodari bolalar uchun yozishni 1949-yilda Milanda boshlaganini aytadi. O'zbekiston jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi B.S.Ergashovning ushbu adib yuzasidan yozgan maqolalariga ko'ra bu adibning “Unita”, “Paese sera” teledasturlarida jurnalist sifatida, yuzlab bolalar kitoblari, teatr matnlari va televizion dasturlar muallifi sifatida faoliyati to'g'risidagi fikrlar illiqligi bolalar adabiyotida Rodari stereotipi shakllanishiga xizmat qilgan [1]. Yozuvchining 30 yillik tajribasi, uning ijodiy merosini o'rganish, tahlil qilish ko'pchilik olimlarni qiziqtirib qo'yagan. Uning bolalarning aql-zakovatiga bo'lgan katta hurmati yozuvchi asarlarining har bir jabhasida yaqqol namoyon bo'ladi. Kitoblari katolik cherkovi tomonidan ta'qiqlanganiga qaramay, ta'lim bo'yicha hamkorlik harakati doirasida o'yinlar va mashqlarni ishlab chiqib, bolalar uchun topishmoqlar yozishga (Masalan, “Qizil qalpoqcha” da vertologiyat nimani anglatishi haqida), maktabda o'qish tugagach nima bo'lishini tasavvur qilishga yordam berishi bilan keng e'tirofga sazovor bo'ldi [2]. Rodari asarlaridagi qahramonlar yozuvchining o'z asarlarida yuzaga chiqarib bera olgan eng ajoyib mahoratini aksi ettiradi va shu bilan bir qatorda ularning samimiyligi, og'ir-bosiqqligi kabilarni Yevropa bolalar adabiyotchiligida qalam tebratgan ijodkorlar

ishlarida uchratmaysiz. Asar davomida obrazlarning harakatlanish chizmasini oldindan bashorat qila olmaysiz, sababi J.Rodari asar syujetida qahramonlarining "qo'li" bilan kutilmagan tub burilishlar, noodatiy ko'rinishlar, tasodiflar yaratishga juda usta [3]. English library saytining "Gianni Rodari, the logic of fantasy" maqolasida yozishicha adib har bir bolalar muallifi o'zining kichik o'quvchilariga imkon qadar yaqin bo'lishi, ular bilan bog'lana olishi va qiziqarli tarzda o'rganish tajribasiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan hikoyalar yozishi shart deb hisoblagan [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot ishonchli va yaxlit tahlilni ta'minlash uchun sifat va miqdoriy tadqiqot metodologiyalarini birlashtirgan aralash usullar yondashuviga murojaat qilgan. Aralash metodlar yondashuvi ushbu ilmiy maqolada Rodarining yosh kitobxonlar va ta'lim sharoitlariga ta'sirini yanada to'liqroq tushunish imkonini beradi. Janni Rodarining asarlari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan bo'lib, ular orasidan "Raduga" nashriyotining "Rim ertaklari" to'plami yozuvchining "Favole al telefono (Telefonda aytilgan ertaklar)", "La torta in cielo (Osmonagi tort)", "Il libro degli errori (Xatolar kitobi)" va "Uchtadan oxiri bor ertaklar" o'zbek ertaklari boyishiga xizmat qilgan. Quyidagilar orqali sarguzashtlar bilan jamiyatga xos falsafiy qarashlar, real voqealıklar ustalik bilan yoritib berilgan va qahramonlar o'sha zamon kishilari orasidan yumoristik ruhiyat orqali tahlil asosida tanlab olingan. J.Rodarining o'zi ta'kidlaganidek, kitob o'qish davomida, avvalo, shaxsiy fikrlashni boyitish zavqi bo'lishi kerak: "La lettura, o è un momento di vita, momento libero, pieno, disinteressato, o non è nulla", ya'ni "O'qish- bu hayotning bir lahza, erkin, to'liq va befarq lahza, yoki u hech narsa emas" [5]. Rodarining yozish tili erkin va fantazyaga boyligi bilan italyan adabiyotchilik maktabida ajralib turadi. Asarlarining deyarli ko'p qismi bolalarning yosh davridanoq biror bilimga ega bo'lib ulg'ayishiga ruhlantiradi.

**Tahlil va natijalar.** "Ehtimol, hikoyalaring kattalardan ko'ra bolalarga ko'proq ma'qul kelardi. Ehtimol, u ertaklarni kattalar o'qib, zavqlanardi, lekin ular miriqib o'qiyotganini bildirmaslik uchun shunday derdi: 'Axir, bu bolalar ertagi-ku!'" — deydi Rodari o'zining bolalar adabiyotidagi ilk tajribasi haqida [6]. Janni Rodarining bolalar adabiyoti sohasiga qo'shgan hisssasi inkor etib bo'lmaydigan darajada chuqurdir. Rodari hikoya qilishga yangicha yondashuvni joriy qilib, bolalar adabiyotida inqilob qildi. Uning noan'anaviy hikoya tuzilmalaridan foydalanishi, masalan, chiziqli bo'lmagan syujetlar va kutilmagan burilishlar, an'anaviy me'yorlarga qarshi chiqdi va yosh ongni o'ziga tortdi. Masalan, Rodari "Grammatica della fantasia (Fantaziya grammatikasi)" asarida "hikoya mashinasi" tushunchasini kiritib, bolalarni o'yin va xayoliy mashqlar orqali hikoya qilishda tajriba qilishga undadi. Bunday yondashuv nafaqat kitobxonlarni qiziqirdi, balki ularni ijodiy jarayonning faol ishtirokchisi bo'lish imkoniyatini ham berdi. O'zining mashhur "Le avventure di Cippolino (Chipolinoning sarguzashtlari)" asarida Janni Rodari barcha yoshdagi kitobxonlarni jalb etish uchun aqlli so'zlardan, shu bilan birgalikda hazil-mutoyiba vaziyatlardan ham foydalangan. Misol uchun, Cippolino, katta yuragi bo'lgan kichik piyoz xarakteri, har biri o'ziga xos g'alati xususiyatlarga ega bo'lgan meva, sabzavot qahramonlari yashaydigan dunyoni kezadi. Bu asar bilan Rodari aqlli va o'ynoqi obraz bilan nafaqat qiziqarli, balki ijtimoiy adolat va tenglik mavzulariga nozik tarzda murojaat qiladi. "La freccia azzurra (Moviy o'q)" nomi ostida olingan filmida Rodari o'quvchilarni sehrlı sayohatga olib boradi, u erda kamtarin poyafzal ustaxonasi g'ayrioddiy sarguzashtlar

joyiga aylanadi. Sirli ko'k o'qni kashf qilish orqali bosh qahramon Pin so'zlashuvchi hayvonlar, sehrlangan o'rmonlar va injiq mavjudotlar bilan to'ldirilgan fantastik qidiruvga kirishadi. Rodarining yorqin ta'riflari va xayoliy hikoyalari o'quvchilarni oddiy narsalar g'ayrioddiy bo'lib ketadigan dunyoga olib boradi va ularni o'z tasavvurlarining sehrliga ishonishga ilhomlantiradi. Janni Rodarining nazariyalari va amaliyotlari butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlariga sezilarli kirib keldi. Uning eng ta'sirli kontseptsiyalaridan biri "fantastik binomiallar" dan foydalanish bo'lib, unda bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikkita so'z bilan bir-biriga bog'langan holda hayoliy hikoyalarni yaratish nazarda tutiladi. Rodari o'zining "Filastrocche" (Quvnoq she'rlar) to'plamida bolalar nomidan kattalarga murojaat tarzida o'ziga xos leksik birliklar orqali ajoyib satrlar bitadi:

Il giorno più bello della storia  
S'io fossi un fornaio  
Vorrei cuocere un pane  
Così grande da sfamare  
Tutta, tutta la gente  
Che non ha da mangiare

Tarixdagi eng go'zal kun  
Gar nonvoy bo'lganimda  
Bir non pishirar edim,  
Yemoqqa uvog'i yo'q  
Barcha odamlar uchun.

Rodarining ta'limga bo'lgan yondashuvi har qanday o'rganilayotgan sohada ijodkorlik va tasavvurning muhimligini ta'kidlaydi. Uning usullarini o'quv dasturlariga integratsiyalashgan holda, o'qituvchilar o'quvchilar o'zlarining ijodiy salohiyatlarini o'rganishga undaydigan muhitni yaratish bilan olib borish, nafaqat ularning til ko'nikmalarini oshirishida, balki o'quv jarayoni bilan chuqurroq shug'ullanishga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Janni Rodarining merosi haqida mulohaza yuritar ekanmiz, uning asarlari bugungi adabiy meroslar orasida o'z ahamiyatini saqlab, tasavvur quvonchi, kulgi qudrati, hamdardlik va tushunish muhimligini tarannum etuvchi abadiy klassika bo'lib xizmat qilayotgani ayon bo'ldi. Rodari hikoyalari kitobxonlarda hayrat, qiziquvchanlik va mehr tuyg'ularini uyg'otish orqali zamon va madaniyat chegarasidan-da oshib, adabiyotning barchamizni ilhomlantirib, ko'tarib, birlashtirib turuvchi mustahkam kuchini eslatib turadi. "Rodari asarlarining yosh avlod tarbiyasi va adabiyotga qiziqishini oshirishdagi o'rni" mavzusidagi ushbu tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, pedagoglar, ota-onalar, siyosatchilar va bo'lajak tadqiqotchilarga bir qancha tavsiyalar berilishi mumkin. Birinchidan:

Janni Rodarining hayoliy va jozibali hikoyalari boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlariga o'quvchilarning til ko'nikmalari, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni oshirish maqsadida kiritilishi o'rinlidir. Ikkinchidan: Ilmiy izlanuvchilar tomonidan Rodarining asarlari turli madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishi va talqin qilinishi o'rganilishi lozim. Bu esa madaniy o'zgarishlarni tushunish turli auditoriyalar uchun uning hikoyalarni yanada samarali moslashtirish va tarjima qilish imkonini beradi.

Rodari ta'biri bilan aytganda, "Qiyin ishlarni qilish qiyin: kar bilan gaplashish, ko'rga gul ko'rsatish. Bolalar! Qiyin ishlarni qilishni o'rganing: ko'rlarga qo'l tuting, karlar uchun qo'shiq ayting, o'zini ozod deb hisoblagan qullarni ozod qiling".

#### ADABIYOTLAR

1. Ergashova B.S. Janni Rodari asarlarida ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning sarguzasht janrida yoritilishi. "Sharq-u G'arb: Navoiy va Gyote" mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: «Nurafshon business», 2023.

2. Gianni Rodari.<https://enchantedlion.com/gianni-rodari>
3. Nishonova.M. Janni Rodari asarlarida qahramonlarning o'ziga xosligi. Образование наука и инновационные идеи в мире. 2023
4. Gianni Rodari.The logic of fantasy.2020
5. <https://blogs.bl.uk/european/2020/08/gianni-rodari-the-logic-of-fantasy-part-1.html>
6. <https://blogs.bl.uk/european/2020/08/gianni-rodari-the-logic-of-fantasy-part-1.html>
7. <https://daryo.uz/2021/10/23/haqiqatga-eshikdan-ham-teshikdan-ham-kirish-mumkin-millionlab-bolalar-va-kattalar-qalbidan-joy-olgan-haqqoy-ertakchi-janni-rodari>
8. G.Rodari, "Le avventure di Cipollino", 1957, Roma
9. G.Rodari, "Grammatica della fantasia ", 1973, Roma
10. G.Rodari, "La freccia azzurra ", 1954, Roma
11. G.Rodari, "Gelsomino nel paese dei bugiardi", 1958, Roma



UDK: 81.1(2).

*Nargiza ERNAZAROVA,*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail: nargizaernazarova111@gmail.com*

*O‘zDJTU dotsenti, PhD M.Baxtiyorov taqrizi asosida*

### INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF CONGRATULATION, WISH, BLESSING AND INTENTION IN VARIOUS LEXICOGRAPHIC DICTIONARIES

Аннотация

This article discusses the interpretation of the concepts of congratulation, wish, intention and blessing, which are considered as speech acts, in English, Russian and Uzbek dictionaries and their differences. Explanations and translations of these speech etiquette words were also analyzed.

**Key words:** Greeting, wish, dictionary, definition, explanation, intention, blessing, luck and happiness, be joyful. \

### ТОЛКОВАНИЕ ПОНЯТИЙ ПОЗДРАВЛЕНИЕ, ПОЖЕЛАНИЕ, ДУА И НАМЕРЕНИЕ В РАЗЛИЧНЫХ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИХ СЛОВАРЯХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются трактовки понятий поздравление, пожелание, намерение и благословение, являющихся речевыми актами, в английских, русских и узбекских словарях и их различия. Также были проанализированы пояснения и переводы этих речевых этикетных слов.

**Ключевые слова:** Приветствие, пожелание, словарный, определение, объяснение, намерение, благословение, удача и счастье, быть радостный.

### TABRIK, TILAK, DUO VA NIYAT TUSHUNCHALARINING TURLI LEKSIKOGRAFIK LUG‘ATLARDAGI TALQINI

Аннотация

Ushbu maqolada nutq axtarlari hisoblangan tabrik, tilak, niyat, duo tushunchalarining ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi turli lug‘atlardagi izohlari va ularning farqlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu nutq etiketi so‘zlarining izohlari va tarjimalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Tabrik, tilak, lug‘at, ta‘rif bermoq, izoh, niyat, duo, omad va baxt, hursand bo‘lmoq.

**Kirish.** Avvalo ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi “tabrik” so‘zining izohlariga to‘xtalib o‘tsak. Ingliz tili lug‘atlarida “tabrik” so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan. Jumladan, Longman Dictionary of Contemporary English lug‘atida CONGRATULATE v [t] fe‘li 1. To tell someone that you are happy because they have achieved something or because something nice has happened to them[1]. Ya‘ni, biror kimga biror narsaga erishgani yoki ular bilan qandaydir yaxshi narsa sodir bo‘lganligi uchun xursandligingizni aytmoq[2] degan ma‘noni beradi. Congratulate fe‘lining ikkinchi ma‘nosi praise 2. congratulate yourself (on smth) to feel pleased and proud of yourself because you have achieved something or something good has happened to you, ya‘ni “maqto‘v” – o‘zi bilan biror bir yaxshi narsa sodir bo‘lganligi yoki biror narsaga erishganligidan xursand bo‘lganligini va o‘zidan g‘ururlanishni bildiradi. Ushbu fe‘lning ot shakli bo‘lgan CONGRATULATION n 1 congratulations a) used when you want to congratulate someone; b) words saying you are happy that someone has achieved something[3], ya‘ni tabriklar a) biror kimni tabriklamochi bo‘lganda; b) biror kim biror narsaga erishganligidan xursandligini bildiruvchi so‘zlarni anglatadi. Ushbu so‘zning ikkinchi ma‘nosi- [u] “when you tell someone that you are happy because they have achieved something or because something nice has happened to them” biror kimga biror narsaga erishganligidan yoki ularda ajoyib voqea sodir bo‘lganligidan xursand bo‘lganda aytiladigan so‘zni bildiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tabrik va tilaklar bo‘yicha tilshunoslikda MDH mamlakatlarida bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Jumladan, N.M.Mekeko ingliz va

rus tillari materiallari asosida “tilak” tematik guruhining nutq etiketi birligi sifatidagi ishlatilishida maxsus qiyoslab o‘rgangan. D.F.Komorova o‘z ilmiy ishida nemis va rus tillaridagi tilaklar nutq etiketi sifatida o‘xshash va farqli jihatlarini asosiy e‘tiborga olgan. T.P.Suxoterinaning tadqiqot ishida “tabriklar” giperjanr sifatida tasniflanadi. E.V.Vdovina ilmiy ishida tabriklar va tilaklarni nafaqat kommunikativ, balki konseptual jihatdan ham ko‘rib chiqqan. N.V.Nemchinova ilmiy ishida korporativ tabriknoma matnini kognitiv-diskursiv paradigma nuqtai nazaridan zamonaviy ishbiarmonlik munosabatining bir qismi sifatida tavsiflashga harakat qilgan. D.Nizeeva tadqiqot ishini nemis tilidagi tabriklar nutq akti freym tuzilishini statik(tarmoq) va dinamik(chiziqli) namoyishda modellashirgan. L.A.Xisamova tadqiqot ishida ingliz va tatar tillaridagi salomlashish, namoyish kilish, xayrlashish va istakni anglatuvchi nutq formulalarini, nutq murojaatlari xolatini va parametrlarini aniqlagan.

Bundan tashqari, N.V.Dudkina rus va amerika til madaniyatlarida tabrik nutq janri modelini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berdi. E.V.Zayseva, T.V.Annushkina va M.S.Goncharlar esa ilmiy tadqiqotida Britaniya til madaniyatida yozma fatik muloqotning mohiyati va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat, shuningdek kichik shakldagi fatik matnning amalga oshirish va uni tahlil qilish uchun muhim bo‘lgan ajralmas xususiyatlari to‘plamini aniqlagan. Rus tilshunosi K.A.Akenteva, E.B.Mandjieva va S.V.Shatalovalar “tabriklash” janridagi bayram va marketing nutqlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir mexanizmlari tasvirlagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Macmillan English Dictionary lug'atida "Congratulate" so'zining fe'l shakli verb [T] "to tell someone you are pleased about their success, good luck, or happiness on a special occasion"[4] biror kimga biror bir maxsus bayram munosabati bilan unga muvaffaqiyat, omad va baxtidan xursand bo'lganligini aytishdir degan ma'no keltirilgan. Ot shaklida 1) noun "congratulations mainly spoken used for telling someone you are pleased about their success, good luck, or happiness on a special occasion", ya'ni tabriklar asosan og'zaki nutqga xos bo'lib biror kimga biror bir maxsus bayram munosabati bilan unga muvaffaqiyat, omad va baxtidan xursand bo'lganligini aytishda ishlatiladi; 2) [U] formal "an expression of pleasure to someone for their success, good luck, or happiness on a special occasion", Tabrik so'zining ushbu ma'nosi rasmiy nutqlarda ishlatilib biror kimga biror bir maxsus bayram munosabati bilan unga muvaffaqiyat, omad va baxtidan xursandligini ifodalaydi.

Oxford Thesaurus of English lug'atida keltirilgan ta'rifida congratulate-fe'li "give someone one's good wishes, wish someone good luck, wish someone joy, drink someone's health, toast, drink (a toast) to. [opposite] curse"[5] biror kimga yaxshi tilaklar tilamoq, kimgadir omad tilamoq, kimgadir quvonch tilamoq, biror kimning sog'lig'i uchun ichmoq, qadah ko'tarmoq, qadah ichmoq (tost). [qarama-qarshi] la'natlamoq kabi izohlanadi. Congratulations plural noun "good wishes, best wishes, greetings, compliments, felicitations", tabrikning ko'plikdagi ot shakli yaxshi tilaklar, salomlar, maqtovlar, tabriklar degan ma'nolarni bildiradi.

Merriam-webster elektron lug'atida "congratulate" fe'li "to express vicarious pleasure to (a person) on the occasion of success or good fortune" deb ta'rif berilgan va u "muvaffaqiyat yoki omad munosabati bilan (insonga) boshqalar tomonidan zavq izhor qilish" hamda: "to feel pleased with" ya'ni "xursand bo'lmoq" ma'nolarini anglatadi. Ot shaklida esa "a congratulatory expression — usually used in plural" tabrik iborasi tarzida berilgan - odatda ko'plikda ishlatiladi. Masalan: Congratulations on your promotion[6].

**Tahlil va natijalar.** Rus tili lug'atlarida esa "tabrik" so'zi quyidagicha ta'riflanadi: Masalan, rus tilining etimologik lug'atida Поздравить. Образовано от здравить ("быть здоровым"), произведенного от здравь- "здоровый". Буквальное значение глагола поздравить- "пожелать здоровья". Отсюда и здравица — "пожелание здоровья" ya'ni Tabriklamoq bu sog'lom bo'lmoq degan ma'noni berib "sog'lom" so'zidan kelib chiqqan deyilgan. So'zma-so'z ma'nosi esa "sog'liq tilamoq" ni anglatadi.

Rus tilining izohli lug'atida "tabriklamoq" fe'li "Поздравлять. Приветствовать по случаю чего-нибудь приятного, радостного. Поздравлять с праздником, с днём рождения, с успехами.

Сущ. поздравление. Послать поздравление. Примите наши поздравления"[7]., ya'ni qandaydir bir yoqimli, xursand voqeani qarshi olish deb izohlanadi.

Ожегов. С.И. и Шведова Н.Ю. tahriri ostidagi rus tilining izohli lug'atida "tabriklamoq" quyidagicha ta'riflangan: "ПОЗДРАВИТЬ, -влю, -вишь; -вленный; сов. ,кого(что) с чём. Приветствовать по случаю чего-н. приятного, радостного"[8].

Скворцов Л.И.ning to'g'ri rus nutqining katta izohli lug'atida "tabriklamoq" - "ПОЗДРАВИТЬ- Приветствовать по случаю радостного, приятного события"[9] ya'ni quvonchli, yoqimli voqea munosabati bilan salomlashish degan ma'noni beradi.

O'zbek tilining etimologik luhatida "Tabrik" so'zining kelib chiqishi arabcha so'z bo'lib tabrik (un) shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq "I" unlisi "i" almashtirilib qabul qilingan: Tabrik-Tabrik. Bu so'z asli ko'p ma'noli "Baraka" fe'lining "so'zladi" ma'nosi bilan hosil qilingan II bob

masdari bo'lib, yaxshi niyat bildirib aytiladigan so'zlar ma'nosini bildiradi. Bu so'zdan o'zbek tilida tabrikla- fe'li yasalgan[10].

Z.M. Ma'rupov tahriri ostidagi o'zbek tilining izohli lug'atida "Tabrik" [a] 1 Yaxshi tilak, xayrixohlik hislarini ifodalovchi murojaat; qutlov. 2 Hayotda yuz bergan biror muhim voqea munosabati bilan izhor etilgan qutlov, muborakbod. Tabrik etmoq(qilmoq).- Anvar samimiy va riyo aralash tabriklardan ancha o'ng'aysizlangan edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. dyeb talqin etiladi. "Tabriklamoq" fe'li 1. Yaxshi tilak, xayrixohlik bilan murojaat qilmoq, qutlamoq. 2 Hayotda yuz bergan muhim voqea munosabati bilan qutlamoq, muborakbod etmoq, tabrik etmoq. Ziyoz shohichi ... qutidorni Otabekdek bir yigitni kuyov qilish bilan tabrikledi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. 3 ko'chma Ma'qullamoq, Ma'qullab qarshi olmoq[11] kabi ma'nolarga ega.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tabriklamoq" tabrik aytmoq; muborakbod qilmoq, qutlov so'zlarini aytmoq, tabrik esa [a, baxt, omad, ezgulik tilash; qutlash] Biror yaxshi (qutlug') kun, sana yoki erishilgan yutuq, yaxshilik munosabati bilan bildiriladigan qutlov so'zlari; muborakbod tarzida izohlangan[12].

Demak, bizning fikrimizcha "tabrik" bu biror kimning hayotida sodir bo'lgan muhim, muvaffaqiyatga, omad va baxtga erishgan kun, quvonchli voqea munosabati bilan unga xursand bo'lganligini izhor qiluvchi qutlov so'zlaridir.

Endi esa quyidagi izohlarda Wish (tilak, tilamoq) so'zining turli xil lug'atlardagi ta'riflarini ko'rib chiqamiz. Jumladan Longman Dictionary of Contemporary English lug'atida wish [T] "to say that you hope someone will have good luck, a happy life etc." [13] ya'ni kimgadir omad, baxtli hayot va h.k. bo'lishini umid qilayotganingizni aytish kabi ma'noga ega. Ot shaklida esa "a desire to do something, to have something, or to have something happen" -biror narsa qilish, biror narsaga ega bo'lish yoki biror narsa sodir bo'lish xohishi demakdir[14].

Wish - tilamoq fe'li Macmillan English lug'atida "used for saying that you hope someone enjoys something or that something good happens to them" deb berilib, biror kimning biror narsadan rohatlanishiga yoki ular bilan biror yaxshi narsa sodir bo'lishiga umid qilishni anglatadi.

Rus tilining izohli lug'atida желать--tilamoq fe'liga "Высказывать какие-нибудь пожелания. Желать счастья, крепкого здоровья, успехов", ya'ni birorta tilak, istak bildirmoq. Baxt, mustahkam sog'liq, muvaffaqiyatlar tilamoq deb ta'riflanadi[15].

Скворцовning ta'rificha, желать - испытывать желание, хотеть чего-н, ya'ni istakni his qilish, nimanidir xohlash demakdir. Hozirgi adabiy tilda istamoq fe'li faqat boshqariladigan so'zlar bilan qo'llanadi: biror narsani (kimga) tilamoq. Masalan: Sizga salomatlik tilayman; Sizga yaxshi sayohat tilaymiz va hokazo[16].

O'zbek tilining izohli lug'atida "tilak" bu "a) biror istak, niyat bilan, nimadir aytilgan gap, duo va sh.k. b) biror narsani amalga oshirish, unga erishish uchun bo'lgan ichki intilish, hissiyot; istak, niyat", Tilamoq esa "biror istak, tilak, niyat bildiruvchi so'z, gap aytmoq" deb izohlanadi[17].

Tabrik va tilaklarni niyat va duodan farqlash uchun niyat va duoning izohlariga ham to'xtalib o'tsak. Longman Dictionary of Contemporary English va Macmillan lug'atlari "niyat" so'zini quyidagicha izohlaydi: Intention - a plan or desire to do something. I have no intention of visiting the library[18]; Intention - a plan in your mind to do something: What is your intention?[19], ya'ni biror narsa qilish rejasi yoki xohishi[20].

Rus tilining imlo lug'atida va "niyat" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Намерение. Предположение что-нибудь сделать; замысел"

Ожегов ва Шведовалар ҳам “ният” ни “Предположение сделать что-н., желание, замысел” deb izohlaydi[21].

O'zbek tilining imlo lug'atida “niyat [a.- maqsad, o'y, mo'ljal, o'yulab qo'yilgan ish] Ko'ngildagi istak-orzu, ahd, maqsad” deb berilgan[22].

Demak, niyatga ko'ngildagi istak-orzu, reja, o'y, maqsad, o'yulab qo'yilgan ish ta'rifini beramiz.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan “tilak” bu kimgadir hayotida baxt, mustahkam sog'liq, muvaffaqiyatlar,

omadga erishishini va uning hayotida biror bir yaxshi narsa sodir bo'lishiga umid qilib aytiladigan so'zlardir. “Tabrik”, “tilak”, “niyat” va “duo” so'zlarining lug'atlardagi izohlaridan shunday xulosa qilishimiz mumkin, ya'ni tabrik bu biror kimning hayotidagi quvonchi, omadi, yutuqlaridan xursand bo'lganda, tilak esa kimningdir hayotida yaxshi narsalar bo'lishiga umid qilganda, Xudodan sizga yordam so'rab iltijo qilganda va yaxshi tilaklar tilaganda aytiladigan so'zlardir.

#### ADABIYOTLAR

1. Longman Dictionary of Contemporary English. New edition. Seventh printing. Pearson Education Limited, 2012
2. Таржима изоҳи муаллифга тегишли
3. Longman Dictionary of Contemporary English. New edition. Seventh printing. Pearson Education Limited, 2012
4. Macmillan English Dictionary. International student edition. Bloomsbury Publishing Plc. 2002
5. Oxford Thesaurus of English. Second edition. Oxford University Press, 2004
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/congratulation#>
7. Толковый словарь русского языка: Пособие для учащихся нац. школ/ [В.Г.Бирюков, В.Г.Ветвицкий, Л.М.Гайдарова и др.] Под ред. М.И.Махмутова, А.В.Текучёва, Н.М. Шанского.-Л.: Просвещение, 1982.-384 с., ил.
8. Ожегов. С.И. и Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. 4-е издание, дополненное.-М.: ООО «ИТИ Технологии», 2008.-944стр
9. Скворцов Л.И. Большой толковый словарь правильной русской речи: 8000 слов и выражений. М.: ООО«Издательство Оникс»: ООО«Издательство «Мир и Образование», 2009.-1104с.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент. “Университет” 2003
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати икки томли 60000 сўз ва бирикма З.М. Маърупов таҳрири остида II С-Х Москва “рус тили” нашриёти 1981, 103 бет.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 80 000 дан яқин сўз ва сўз бирикмаси 5 жилдли Учунчи жилд Тузатилган 2- наشري “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, Тошкент- 2020 (629-бет)
13. Longman Dictionary of Contemporary English. New edition. Seventh printing. Pearson Education Limited, 2012 Таржима изоҳи муаллифга тегишли
14. Толковый словарь русского языка: Пособие для учащихся нац. школ/ [В.Г.Бирюков, В.Г.Ветвицкий, Л.М.Гайдарова и др.] Под ред. М.И.Махмутова, А.В.Текучёва, Н.М. Шанского.-Л.: Просвещение, 1982.-384 с.
15. Скворцов Л.И. Большой толковый словарь правильной русской речи: 8000 слов и выражений. М.: ООО«Издательство Оникс»: ООО«Издательство «Мир и Образование», 2009.-1104с.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 80 000 дан яқин сўз ва сўз бирикмаси, 5 жилдли Тўртинчи жилд Тузатилган 2- наشري “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, Тошкент- 2020
17. Longman Dictionary of Contemporary English. New edition. Seventh printing. Pearson Education Limited, 2012
18. Macmillan English Dictionary. International student edition. Bloomsbury Publishing Plc. 2002 Таржима изоҳи муаллифга тегишли
19. Ожегов. С.И. и Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. 4-е издание, дополненное.-М.: ООО «ИТИ Технологии», 2008.-944 стр.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси 5 жилдли Биринчи жилд
21. “ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, Тошкент-2020



UDK:82/81

*Otabek YULDASHEV,*  
Namangan davlat universiteti dotsenti v.b., PhD  
E-mail: [otabekuldashv91@gmail.com](mailto:otabekuldashv91@gmail.com)

*F.f.d., dotsent T.Kuchkarov taqrizi asosida*

### PARTICULARLY THE NOMINATION OF SOME UZBEK LANGUAGE HEMERONYM

Annotation

The article analyzes the changes in hemeronymy in the Uzbek language during the years of independence, normative violations in the naming of modern newspapers and magazines, and gives recommendations for their elimination.

**Key words:** Onomastics, ideonym, hemeronym, microscale, press publications, language standards, spelling, vocabulary.

### ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЯ НЕКОТОРЫХ УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ГЕМЕРОНИМОВ

Аннотация

В статье анализируются изменения гемеронимии в узбекском языке за годы независимости, нормативные нарушения в наименованиях современных газет и журналов, а также даются рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** Ономастика, идеоним, гемероним, микромасштаб, публикации в прессе, языковые нормы, орфография, лексика.

### AYRIM O‘ZBEK TILI GEMERONIMLARI NOMINATSIYASI XUSUSIDA

Annotatsiya

Maqolada istiqloq yillarida o‘zbek tilida gemeronimiyasidagi o‘zgarishlar, zamonaviy gazeta, jurnal kabi ommaviy matbuot nashrlarining nomlanishidagi me‘yoriy buzilishlar tahlil qilingan va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Onomastika, ideonim, gemeronim, mikroko‘lam, matbuot nashrlari, til me‘yorlari, imlo, lug‘aviy asos.

**Kirish.** Matbuot – davr va zamonning ma‘naviy ko‘zgusi. Unda jamiyat, kishilik ruhiyati, maqsad-intilishlari, munosabatlari va manfaatlari o‘z aksini topadi[1]. Matbuot nashrlarining maxsus atoqli nomlari onomastikada gemeronimlar deb ataladi. Gemeronim termini fanga N.V.Podolskaya tomonidan kiritilgan, keyin esa I.V.Kryukova tomonidan kengaytirilgan. Onomastik terminologik lug‘atlarda gemeronim termini quyidagicha izohlangan: “Gemeronim (yunon. “gemero” – kun, sutka va “onim” – nom) – davriy nashrlarning, shu jumladan, gazetalar, jurnallar, xabarnomalarning atoqli nomlari”[2].

Gemeronimlar ideonimlarning bir turi sifatida onomastik mikroko‘lamni tashkil qiladi. N.V.Podolskayaning fikricha, ideonim – “inson faoliyatining intellektual, g‘oyaviy va badiiy sohasida denotatlarga ega turli toifadagi atoqli nomlar”. Bu jihatdan gemeronimlar leksik va konseptual boyitilganligi bois ideonimlarga yaqin turadi.

O‘zbek matbuoti istiqloq davrida sifat va miqdor jihatidan taraqqiy etdi. Hozirda har tomonlama mukammal zamonaviy talablarga javob beradigan, hajmi, mavzu ko‘lami, sifati bilan ham ahamiyatga molik bo‘lgan gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Shuningdek, ularni nomlashda ham yangi zamonaviy tamoyillarga asoslanish yaxshi samar berdi:

1. Eski sho‘ro tuzumi va uning mafkurasi bilan bog‘liq nashrlarning nomi o‘zgartirildi: “Sovet O‘zbekistoni” – “O‘zbekiston ovozi”, “Yosh leninchi” – “Turkiston”, “Lenin uchquni” – “Tong yulduzi” kabi.

2. Ko‘plab tarixiy va xalqona gazeta nomlari paydo bo‘ldi: “Hurriyat”, “O‘zbekiston ovozi”, “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Mahalla” kabi.

3. Barcha sohalarga doir gazeta va jurnallar ta‘sis etilida hamda ular sohaviy mansubligi motivatsiyasi asosida nomlandi: “Abuturent”, “Adolat ko‘zgusi”, “Asr futboli”, “Diyonat”, “Oltin qalam”, “Oila va jamiyat”, “Ayol qalbi”, “Sirli tabobat”, “Fidoyi yoshlar”, “Huquq olamida”,

“Energetika va resurs tejash muammolari”, “O‘zbekiston matematika jurnali” kabi.

O‘zbek onomastikasida gemeronimlar – matbuot nashrlarining atoqli nomlari maxsus monografik aspektida o‘rganilmagan. Shu bois o‘zbek tilidagi zamonaviy gemeronimlarning, ya‘ni hozirda nashr etilayotgan barcha matbuot nashrlarini nomlash til me‘yorlar va talablariga javob beradi deb bo‘lmaydi. Bu quyidagilarda ko‘rinadi:

Ayrim gazeta, jurnal nomlarning yozilishi imlo qoidalarga muvofiq emas. Masalan, “Jannat Makon” jurnali nomidagi kichik harflar bilan yozilishi lozim bo‘lgan “makon” so‘zi bosh harflar bilan yoziladi. Qo‘shib bir so‘z tarzida yozilishi lozim bo‘lgan ayrim nomlar ajratib yoki chiziqcha bilan yoziladi: “Avto-Olam”, “Agro Ilm” kabi. “Sharq Ziyosi” gemeronimidagi ziyo so‘zi bosh harflar bilan xato yozilgani kabi.

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy gazetasi nomi lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida “SariOsiyo” tarzda xato yozilgan. Bularni barchasi nomni jimjimador, diqqatni jalb etuvchi shaklda berishga intilish mahsulidir. Aslida bu qo‘shma tarkibli xoronim – tuman nomi Sari+Osiyo leksemalarining o‘zaro kompozitsiya usulida birikishidan hosil qilingan. Lekin Osiyo leksemasi atoqli joy nomini ifodalasada, qo‘shma so‘z tarkibida kichik harflar bilan yozilishi kerak edi. Demak, gazeta nomi tuman nomiga mutanosib tarzda Sariosiyo shaklida yozilishi maqsadga muvofiq.

Ayrim gazeta-jurnallarning o‘zbek tili milliy an‘analariga zid tarzda yarim o‘zbekcha, yarim Yevropacha so‘zlar asosida g‘alib nomlanishi kuzatiladi. Matbuot nomlari tarkibida tilimizga yangi o‘zlashgan va o‘zlashayotgan info, press, plyus, TV, inter,word kabi chet so‘zlar qo‘llanishini ko‘rish mumkin. Hozirgi kun matbuot nashrlarini nomlashda bu kabi so‘zlarni faol qo‘llanishi natijasida ko‘plab qo‘shma tarkibli gemeronimlar paydo bo‘ldi. Masalan, “Ekspress-Info”,

“Soliq info”, “Shifo info”, “Tayanch-info”, “Futbol info”, “Infolib axborot”, “Hamkor-Press”, “Doktor Press” “Afrosiyob press”, “Hayrat press”, “Fermer Press”, “Huquq press NTM”, “EKO OLAM PRESS”, “GM-Uz-avto press”, “Biznes press”, “A’lochi press”, “Darakchi Plyus”, “Sanduvoch plyus”, “Hordiq plyus”, “Bozor plyus”, “Erudit-Plyus”, “Vodiy gavhari plyus”, “Kino+TV”, “Humo+TV”, “Tasvir TV”, “Parvina TV”, “TV Skanvord”, “Inter futbol”, “Inter sport”, “Tabassum word”, “Mahorat-WORD”, “Dono word”, “Tabassum word”, “Talqin word”, “Tafakkur word”, “Imkon-WORD”, “Futbol ekspress”, “Express Media” kabi.

Ayrim gemeronimlar tarkibida esa yuqorida keltirilgan yevropacha soʻzlarning bir nechasi aralash qoʻllanishi kuzatiladi: “PressTIJ-TV plyus”, “PressTIJ-TV”, “Tasvir plyus TV”, “Futbol Info plyus”, “Ekspress-Info”, “Erudit”, “Excellent”, “Futbol favorit”, “Futbol mundial”, “KROSS”, “Parvona TELE-GID”, “Klass!”, “UZBEKISTAN TODAY”, “MANAGEMENT”, “SMART KIDS”, “Megabyte” kabi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan koʻrinadiki, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti taʼsirida tilning apellyativ sathida yuz bergan, yaʼni nolisoniy va lisoniy oʻzgarishlar atoqli otlar tizimida ham oʻz ifodasini topmoqda. Oʻzbek matbuot nashrlari nomlari – gemeronimlarning tarkibi va tuzilishi kun sayin oʻzgarimoqda va boyimoqda. Zamonaviy neogemeronimlar buning yorqin dalilidir, biroq neogemeronimlarning yuzaga kelishi toʻla ijobiy hodisa emas. Ular oʻzbek tilining nomlar yaratish borasidagi milliy tamoyil va qonun-qoidalariga toʻla javob bermaydi.

Ayrim gazeta-jurnallar nomlanish oʻzbek tilining meʼyorlariga javob bermasligi hamda ularningimloviy jihatdan xato yozilishi yoki butunlay tilimizga begona xorijiy

soʻzlardan tarkib topganligi va bu omma ongu shuuriga singiyotganligi achinarlidir Oʻzbek tili neogemeronimlarini leksik-semantik, yasalish, imloviy jihatdan tartibga solish, toʻgʻrilash va tartibga solish oʻzbek onomatikasining dolzarb vazifalaridir. Bizningcha, matbuot nashrlarini nomlashda quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

1. Matbuot nashrlari – gazeta va jurnallarning nomlari loʻnda, sodda va tushunarli boʻlmogʻi lozim.

2. Nomlarga sof oʻzbekcha yoki oʻzlashma qatlamga mansub, til jamoasiga tushunarli, faol isteʼmolda boʻlgan soʻzlar lugʻaviy asos qilib olinmogʻi shart.

3. Matbuot nashriga ijtimoiy-siyosiy islohot va oʻzgarishlar taʼsirida oʻzgaraydigan, uzoq yashovchan nom tanlash lozim.

4. Matbuot nashrlari oʻzbek tilining milliy-lisoniy anʼanalari asosida davlat tilida rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq.

5. Nom matbuot nashrining maqsad va vazifalari hamda mavzu- mundariyasini ifodalamogʻi kerak.

6. Nomlar amaldagi joriy krill va lotin alifbolariga asoslangan oʻzbek yozuvlari imlo qoidalariga muvofiq yozilishi shart. Ularning yozma va bosma shakllari ham grafik, imlo meʼyorlariga asoslangan holda berilishi kerak.

7. Matbuot nashrlari nomlarini tez-tez almashtirilishi va oʻzgartirilishiga chek qoʻymoq lozim.

8. Matbuot nashrlarini nomlashda uning oʻquvchilariga mushitariylari ommasining taklif-istaklarini eʼtiborga olish yaxshi samara beradi.

Shu tavsiyalarga amal qilsak, yangi nomlar yaratish borasidagi Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili toʻgʻrisidagi” Qonunida belgilangan talab va vazifalarni bajarishga erishamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдуазизова Н.А. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002. – 6 б.
2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н.В. Подольская. – М: Наука, 1988. – С. 61.
3. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 403.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 3-ж. – Б. 121-122.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 3-ж. – Б. 443.
6. Yuldashev Otabek Toshpulat ugli, Kazaqova Nozima Abdulbokiyeвна. Position and functional characteristics of indicators used in certain hemeronyms in the uzbek language. International Journal of Evaluation and Research in Education (IJERE). Vol. 12, No. 4, December 2023, pp. 315~318 ISSN: 2252-8822, DOI: 10.11591/ijere.v12i3.22624 <https://ijere.iaescore.com/index.php/IJERE>
7. Yuldashev Otabek Toshpulat ugli. Nomination-motivation characteristics of hemeronym of the uzbek language. Texas Journal of Philology, Culture and History. <https://zienjournals.com>
8. Yuldashev Otabek Toshpulat ugli. On the emergence of uzbek hemeronymy and first examples. Texas Journal of Philology, Culture and History. <https://zienjournals.com>
9. Yuldashev Otabek, Mohidil Olimova. Lexical-semantic analysis of certain definitions and vulgarisms used in Tahir Malik’s “Shaytanat” // International bulletin of applied science and technology // <https://doi.org/10.5281/zenodo.7956199>
10. Ulukov N. Historical-linguistic study of hydronyms of the Uzbek language. – Tashkent, 2008. – B. 144.
11. Hojiyev A. An explanatory dictionary of linguistic terms. – Tashkent: State Scientific Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan, 2002. – B. 51.
12. Ulukov Nasirjon Muhammadalievich, Yuldashev Otabek Toshpulat ugli. Formation and formation of certain hemeronyms in the uzbek language. Semiconductor Optoelectronics, Vol. 42 No. 2 (2023), 1286-1292. <https://bdtgd.cn/article/view/2023/02/1286.pdf>
13. Yuldashev O. Adashboyeva G. Fors-tojikcha ob oʻzlashmasining leksik-semantik va derivatsion xususiyatlari. Konferensiya ilmiy baynalmillal «Muammoxon ilmu fan az niqoхи muхaqқikon» "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" II xalqaro ilmiy konferensiya. 15.02.2024. Tojikiston, Xoʻjand. <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2061>
14. Yuldashev O. Oʻzbek tili tarixiy gemeronimlarining nominatsion-motivatsion xususiyatlari. III. Uluslararası adbilim sempozyumu tam metin bildiri kitabi. 26-28 Ekim 2023. “Bookmany print”, Toshkent – B. 298-302. <https://www.researchgate.net/publication/377812560> III. Xalqaro onomatika simpozumi toʻplami2024





УДК: 83.34(0/3)

**Зебо ЯХШИЕВА,**

*Доцент, Заведующий кафедрой Информационные технологии обучения и гуманитарных наук, Каршинский филиал ТУИТ*

*E-mail: zebona.sevinch@gmail.com*

*ОПСИД:0009-0006-0973-6147*

*Рецензент д.ф.н Д.Тураев*

## ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ОСНОВАННЫХ НА ПРОТОТИПЕ АМИРА ТИМУРА В ЛИТЕРАТУРЕ ЕВРОПЕ

Аннотация

В этой статье рассказывается о драматических и прозаических произведениях, созданных в средневековой английской литературе в разное время, прототипом которых послужил Амир Тимур. Каждое произведение было сравнено с другим существующим произведением в узбекской и литературе Европе. Опираясь на теоретические соображения, представленные в проведенных исследованиях, были сделаны научные выводы о мечтательных надеждах, которые писатели возлагали на художественный образ мы нашли отражение в главном герое английских писаний, которые были взяты под анализ, мифологических элементах, которые перекочевали в образы и события того времени. ткань произведения.

**Ключевые слова:** Интерпретация, тетралогия, Николас Роу, Тамерлан, Кристафор Марлоу.

## YEVROPA ADABIYOTIDA AMIR TEMUR PROTOTIPIGA ASOSLANGAN ASARLAR TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqola turli davrlarda O'rta asrlar ingliz adabiyotida Amir Temur prototipi asosida yaratilgan dramatik va nasriy asarlar haqida so'z yuritgan. Har bir asar o'zbek va Yevropa adabiyotida mavjud bo'lgan boshqa asar bilan qiyosiy solishtirgan. Olib borilgan tadqiqotlarda keltirilgan nazariy mulohazalarga asoslanib, yozuvchilarning badiiy obraz yaratish borasidagi orzu umdlari to'g'risida ilmiy xulosalar chiqarilgan va biz tadqiq etishni niyat qilgan ingliz yozuvlarining bosh qahramonlariga singdirilgan o'sha davr ruhiyati va voqealariga ko'chib o'tgan mifologik unsurlar haqida ilmiy qarashlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Interpretatsiya, tetralogiya, Nikolas Rou, Tamerlan, Kristafor Marlou.

## RESEARCHING OF WORKS BASED ON THE PROTOTYPE OF AMIR TIMUR IN THE LITERATURE OF EUROPE

Annotation

In this article interpreted the dramatic and prose works created in medieval English literature at different times, the prototype of which was Amir Timur. Each work has been compared with another existing work in Uzbek and European literature. Based on the theoretical considerations presented in the conducted research, scientific conclusions were drawn about the dreamy hopes that writers placed on the artistic image. We found reflection in the main character of the English writings, which were taken under analysis, mythological elements that migrated into the images and events of that time. the fabric of the work.

**Key words:** Interpretation, tetralogy, Nicholas Rowe, Tamerlane, Christopher Marlowe.

**Вступление.** Справедливая и разумная политика, религиозная терпимость, которых придерживался Амир Тимур, сформированное им централизованное государство имеют особое значение в социально-экономическом, научно-культурном развитии того времени, дальнейшем возвышении мирового Ренессанса. Не признав этот исторический факт, невозможно оценить период, в который жил святой, его влияние в последующие столетия и его общечеловеческое значение.

Произведения, отражающие личность, деятельность Амира Тимура, написанные в мировой литературе, можно условно разделить на три части:

1. Произведения, созданные его современниками при жизни Амира Тимура.

2. Работы, созданные после его смерти:

А) работы, созданные до 19 века;

Б) работы, созданные в 1920-х и 30-х годах;

С) работы, созданные в 1970-х годах;

Г) работы, созданные после обретения независимости.

3. Произведения, созданные за рубежом.

Образ Амира Тимура был воплощением свободы, справедливости, силы, национальности для творцов

узбекской литературы всех времен. Реалистическая интерпретация исторической фигуры Амира Тимура как образа и изучение аллегорий, лежащих в основе принципов эпической традиции и историзма при ее создании, относятся к числу вопросов, которые сегодня необходимы для серьезного изучения Тимуровичами и эрудитами. До этого исследования можно привести ряд литературных и научных трактатов по научному изучению образа Амира Тимура в мировой литературоведческой науке:

**Обзор литературы.** В узбекском литературном мире можно найти произведения, написанные нашими писателями и публицистами и переведенные на узбекский язык известными творцами с произведениями о Тимуровцах в мире: тетралогия Мухаммеда Али «Улут салтанат» (Великое царство) и около сотни статей, Эпопея о «Тимурийцах» Нурали Кобула, Люсьен Керен. Королевство Эмир Тимур; Брион Марсель Я Сахибкирон-Джахангир Тимур, А.Ибрагимов, мы можем привести в пример ряд примеров литературы, названной в честь узбекского народа.

Драма Кристофера Марлоу «Великий Тамерлан» в английской литературе XVI века, прототипом для которой

послужил образ Амира Тимура, театральная пьеса Чарльза Сандерса «Тамерлан», оформлявшая английские сцены XVII века, рассматривают процессы создания «Тамерлана» Николаса Роу, который в 18 веке был глубинным эпосом, было представление явлений и героев. Они возложили на этих писателей ответственность за поднятие острых, болезненных и насущных социально-философских проблем эпохи. Потому что в англоязычной литературе борьба против идеологического насилия церкви, манерности и высокомерия короля и киборгов, особенно божественное благословение создателя трона и его убежденность в том, что обычные люди не могут быть задействованы в нем, вызвали необходимость донести боль сердца короля до читателей. благородство воплощено в произведениях на примере идеального образа Тимура. В частности, вопросы их художественной интерпретации, их трактовки через косвенные произведения, то есть идеал физически и духовно совершенного человека, открытие искусством красоты реального внешнего мира и сложного мира человеческих переживаний, глубокое проникновение в различные грани культуры мира. древний мир стал рассматриваться в исторических трудах.

Первым человеком, который привнес образ Амира Тимура в английскую литературу, был Кристофер Марлоу, принадлежавший к «университетским умникам» (University wits). Благодаря своей трагедии «Тамерлан Великий» он был удостоен почетного звания «Отец английского театра», а также стал пионером жанра хоррор (мощная трагедия) (Powerful Tragedy) в английской драматургии. Есть мнения, что его главный герой, Тамбурлен, также может быть удобным вариантом произношения слова «Чамберлен», которое произносится по отношению к обладателю высокого поста при королевском дворе в Великобритании. Показателем взгляд на скалу литературоведа Олимджона Дадабоева, который сравнил эту двухсерийную трагедию с рассказом Салахиддина Ташканди «Тимурнома»: К.Марлоу описывает Амира Тимура в манере легендарного героя, описывая его как высокую богатую, прямолинейную фигуру. С широкими плечами, кажется, он способен поднять весь мир. Его длинные руки и сильные мускулы выдают его силу, а глаза остры и волшебны. Все это свидетельствует о его могуществе и о том, что он является правителем мира. Эпизод с Тимуром в этой работе, когда его солдаты из 300 человек «громят» более тысячи солдат и вынуждают врага бежать Низамидина Шомия и Шарафиддина Али Язди с историческими примечаниями в работах мушрака [1]. Рисунок об Амуре Тимуре описаны в гармонии с народными легендами в книге Саладина Ташканди «Тимурнома» написанной на тюркском языке в начале 20-го века: после того, как Тимур появился на свет, один черпает из колодца Занжир Сары воду, которую вытаскивали 40 рабов и раздает людям, отстреливает одним пальцем крыло мясника. Во сне, благодаря силе своей чуткости, откусывает голову змеи, лежащей в пепле. Отбрасывает полную телегу с грузом. Как видно по таким изображениям, Тимур производит впечатление героя и властителя народных мечтаний и идеалов, подобно героям сказок или былин. Говорят, что сын Сахибкирана, родившийся во время сближения планет Зухал и Муштари, будет его судьбой до конца жизни. Потому что «Бог сотворил вселенную в тот час, каждого ребенка, рожденного в этот час, судьба его всегда будет благословлена до конца его жизни» [2]. В работе также говорится, что рисунок, оставленный Аристотелем внутри пещеры Упрямого Рума, предсказывает, что Александр родился в этой пещере через восемьсот лет после его

рождения, а его Посланник Акрам через столько же времени после его рождения.

Методология исследования. Главный герой в произведениях таких создателей, как К.Марло и Ташканди, также является воином, военачальником и непобедимой божественной личностью. Стоит отметить, что образы в произведениях опираются на разные источники при создании образа Тимура, главного героя этих двух создателей, а также изучении сходных и разных аспектов, является достоверным. Когда чувствуется, что при создании эпоса «Тимурнома» в Ташкенте опирались на многие источники, созданные на Востоке, а также образцы народного устного творчества, народные предания (Кисаи Машраб, Ибрагим Адхам, Бахавуддин Накшбанд) К.Марло, были предметом ряда научных исследований. Согласно научному исследованию Парфенева и книге американского писателя Джастина Мароци «Тамерлан» меч ислама, сын завоевателя мира» и рассказы К.Марло о Тимуре, вероятно, были использованы Петро Перондином из Флоренции в его «жизнь Тимура Великого, императора скифов» и Баптистом Фрегозо из Генуи в его «трактатах и произведениях забвения» [3], Джорджем Уэтстоуном в «Английском зеркале» (4). Известный исследователь творчества К.Марло в Европе Эллис Фермур утверждал, что К.Марло в первую очередь утверждал, что работы Халкондилоса, Хейтна, Фрегозо, Мекси, Премадеи и Пирондини [5] послужили основным источником для написания этой трагедии.

Образ Амира Тимура в этом первом произведении, написанном в англоязычной литературе, и наиболее достоверными среди тюркских источников о событиях признаны «Ловушки Тимура», также значимыми являются такие аспекты истории, как «Зафарнама» Н.Шоми, «Чудеса судьбы о Тимуре» Ибн Арабшаха, «Дневник похода в Индию» Гиёсиддина Али. Эти произведения были переведены на европейские языки, в том числе Ш.Язди «Зафарнама» была переведена на французский язык Пети де Ла Круа в 1722 г., произведение Ибн Арабшаха в 1658 г. П.Воте лишь через полвека после смерти К.Марло. Поэтому естественно, что нет никакого сходства между варварским и жестоким Тимуром в творчестве К.Марло и полководцем, жившим мечтой о своей справедливости и тюркских землях на своей земле, как исторической фигурой в источниках прошлого. Также мы видим, что автор использовал фактурные мотивы не только в сведениях о личности Тимура, но и в сведениях о его походах. Драма рассказывает о завоевании Тимуром земель Египта.

Marching from Cairo northward, with his camp  
To Alexandria... (P II, Act I, stage I.)

Перевод: заплатите своим собственным войскам,  
он

Из Каира он направился в Александрию.

**Анализ и результаты.** Принимая во внимание, что произведения, использованные К.Марло при написании своей драмы, представляют собой не исторические документы, а героические романы, не подлежит сомнению, что названия завоеванных им земель цитируются неверно. Потому что приключения в этих произведениях были не историческими событиями, а «героическими фантазиями». Поэтому образ Тимура и факты в этом произведении совершенно отличны от исторического лица Амира Тимура. Для написания произведений, отражающих жизнь и деятельность Амира Тимура, для описания сути творчества Тимура и его менталитета как личности, необходимо углубленное изучение информации, подтвержденной средой того времени, историческими свидетельствами, наукой, и

исторических источников – одно из требований к автору исторических произведений. [6].

Известно, что при написании произведений, основанных на исторических событиях, основным принципом художественного творчества является создание реалистичных и жизнеподобных характеров, типичных для изображаемого периода, как отмечал академик Матякуб Кушжанов: «Писатель, работающий в историческом жанре... даже если он использует художественную ткань в той мере, в какой того требует историческая действительность, является основным источником исторических свидетельств. Подход к нему осуществляется так, как на этом основании описывается характер исторического лица» [7]. В исследовании, говоря о характере произведений на историческую тему, говорится о сохранении баланса между историческим событием и романом, убеждении читателя в исторических событиях в романе, о достижениях литературы в этом. место пересекается в точке, где сочетаются мастерство писателя и уверенность читателя [8]. Из этих положений можно сделать вывод, что К.Марлоу, знакомя своим творчеством личность Тимура с английской литературой, опираясь на художественную фактуру, не использовал в необходимой степени историческую правду, подчеркивал приключенческие переживания, не оглядываясь на исторические свидетельства как основной источник. Или, поскольку эти исторические сведения не дошли до К.Марлоу, они, по-видимому, ограничиваются вымышленными и устными сведениями. Хотя в

произведении прообразом образа Тимура послужил Амир Тимур, на самом деле К.Марлоу нужны были имена, места, места, чтобы выразить свое отношение и представления о своем времени, политические и религиозные взгляды, пролить свет на актуальные проблемы своего времени. Нужен был достойный человек, чтобы возглавить это великое дело. В этих паломничествах большую роль играют также легенды, которые передавались из уст в уста с Востока на Запад и претерпевали по пути определенные изменения.

**Заключение/рекомендации.** Возрождения, возникла из идей перехода от ограничения своих прав и возможностей к самостоятельной, свободной литературе как главному мерилу ее личности. Но литература этого периода рассматривает личность с точки зрения глубокого и широкого охвата действительности, как точку понимания вне действительности и в то же время как силу, влияющую на действительность.

Поэтому представители английской литературы XVIII века ассоциировались с отдельной личностью, обладающей неограниченными и неиспытанными возможностями и властью. В этом смысле они были заинтересованы в создании образа Амира Тимура как персонажа, типичного для литературы эпохи Возрождения. Персонаж Николаса Роу Тамерлан, основанный на прототипе великого азиатского военачальника Амира Тимура, на протяжении веков был популярен в английской литературе как персонаж с такими характеристиками.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Дадабоев. Интерпретация личности Амира Тимура в западном и восточном литературном контексте. Филол.фан.фал.док.дисс.2019.16 с.
2. Салахутдин Тошканди. Тимурнома. готовый для публикации. и автор предисловия и словаря П.Равшанов.Т.: 1990.- 351с.
3. Парфенев А.Т. Трагедия Кристофера Марлоу Автореф. Дисс. филл.наук. М: 1965,5 с.
4. Мароци Жастин. Тамерлан. Завоеватель мира.М.: Полиграфиздат, 2010. – 445/66.с.
5. Эллис Фермор У.М. Кристофер Марлоу. Лондон.1927.215/13.п
6. З.Якаева / Историческая действительность и ее художественная интерпретация. Нейрокантология, ноябрь 2022 г. Том 20 | выпуск 15 | страницы 2510-2513.
7. М.Кушжанов. Навьки Ойбека. Ташкент. 1965. -356/96 с.
8. Н.Рахманов. Пейзаж исторического периода. «Литература и искусство Узбекистана». 2012. № 1
9. Z.R. Yaxshiyeva. Historical Reality and Its Artistic Interpretation. Neuroquantology, 2022.
10. YZ Rashidovna. Jahon adabiyotshunosligida amir temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi.2023.
11. Z Yaxshiyeva - XVI asr ingliz adabiyotida yoritilgan temur obrazining qiyosiy tahlili. - Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. 2023.
12. Z. Yaxshiyeva. Development Of A Multimedia E-Learning Resource For Learning English. Golden brain, 2023.